Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak intellektual salohiyatga ega hamda ulug‘ ajdodlarimizning munosib davomchilari etib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratib, shunday ta’kidlaydi: «Aytish lozimki, biz ulug‘ bobolarimizning munosib davomchilari bo‘ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat» [1].

Ta’lim-tarbiyani tashkil etishda talabalarni majbur qilish tarzida emas, balki har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, ularga har bir ishda namuna bo‘lish, jamiyat talabi va ehtiyojlarni tushunish, intizomga qatiy rioya etishiga, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga erishish, kerak bo‘lgan paytda g‘amxo‘rlik qilish, tajriba va an’analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish hamda ulardan bo‘lajak kasbida samarali ijodiy foydalangan holda amalga oshirish muhim [2. 12]. Dastlab talabalarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda avvalo kasbiy bilimlar bilan birga o‘z kasbiy faoliyatiga munosabatni tamoman o‘zgartirish lozim. “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanini o‘qitishda talabalarning bilim saviyasini hisobga olgan holda pedagogik odobga mos holda olib borilishi kerak deb hisoblaymiz.

Bu esa o‘z navbatida o‘qitishning pedagogik-psixologik tamoyillari, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu jarayonning samaradorligi “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanini o‘qitishda ta’limga munosabatni o‘zgartiradi. Xullas, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda bo‘lajak kasbiga qiziqish hamda uni egallab olishida samaradorlikka erishishda quyidagilarga amal qilish:

- ularning tabiatan o‘ta ta’sirchanligi, irodasining mustahkam emasligi, o‘zini tuta bilmasligi, ba’zi holatlarda manmanligini hisobga olib, shaxsiy qadr-qimmatini yerga urmay talabchanlikni oshirish;
- talabalarning kelib chiqishi va turli sharoitlarda voyaga yetganligini hisobga olib, ularga ma’naviy-axloqiy jihatdan samarali ta’sir etuvchi metod, vositalarni tanlash va individual yondashish maqsadga muvofiq.

Mazkur masalalarni e’tirof etgan holda ta’kidlash joizki, ta’limning barcha bosqichlarida izchil amalga oshirilsa, talaba milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha chuqur va mustahkam bilimga ega boladi, shuningdek, jamiyatning haqiqiy fuqarosi va kasbiy madaniyati rivojlangan mutaxassis sifatida kamol topishini ta’minlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning chuqur va mustahkam bilim olishlari uchun quyidagi pedagogik masalalarni hal etish zarur deb hisoblaymiz:

bilim olish va bilim berish jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish;

mustaqil ta’limni tashkil etishda interfaol usullaridan foydalanish;

ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning intellektual rivoji uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish;

amaliy va seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlikning zamonaviy pedagogik talablarga javob berishi;

talabaning egallagan bilim darajasining saviyasini aniqlash va baholash imkoniyatlari [3. -44 b].

Shuningdek, ma’ruzalarning samaradorligini oshirishda quyidagi vaziyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

ma’ruzaning ilmiy-uslubiy mazmuni (ilmiyligi, ommabopligi, nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi, evristik materiallar ko‘lami, bayon qilish shakli va hakozolar);

mavzuga oid materiallarning muammoli bayon qilinishi;

ma’ruzani bayon qilish usuli (zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ko‘rgazmaliligi, o‘qituvchi nutq madaniyati, muloqot madaniyati);

o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari (e’tibor, talabchanlik, samimiyligi, odobliligi);

maqsadga erishilganligi (ishlab chiqilgan texnologik xaritalar, egallangan pedagogik usullar, talabaning mustaqil holda ishlashiga qo‘lay sharoit yaratish) [4. B. 8].

O‘rganiladigan materiallarning talabalar tomonidan qay darajada samarali o‘zlashtirilganligi seminar mashg‘ulotlarida ma’lum bo‘ladi. Shunday ekan, seminar mashg‘ulotlari ma’ruzaning uzviy davomi bo‘lib, talabalar mustaqil fikr

yurita olishi, ilmiy nazariyalarni qay darajada anglab olganligi, voqea-hodisalarga o‘z nuqtai nazarini mustaqil bildira olishlarini ko‘rsatadi.

Bunday hamkorlik bo‘lajak pedagoglarning bilimlarni chuqur va samarali o‘zlashtirishiga katta yordam beradi.

Shuning bilan birga, mashg‘ulotlarda o‘qituvchi quyidagi jarayonlarga alohida e’tibor berish lozim [5. -147 b.]:

talabalar o‘rganilayotgan materiallardagi eng muhim ma’lumotlarni ajrata bilishi kerak;

o‘quv materialidagi asosiy fikrlarni tahlil etish orqali umumlashtira olish;

kasbiy mahoratga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallab olganligi;

muammoli vaziyatlardan mustaqil qaror qabul qila olish layoqati;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini to‘g‘ri anglab olganligi;

o‘zini kamol toptirishga intilishi;

ma’naviy axloq qoidalarga rioya etishi.

Ta’lim samaradorligiga erishishda, ayniqsa, o‘qituvchining bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari bilan hamkorligi muhim omillardan sanaladi. Zero, bu hamkorlik o‘quv materialini o‘zlashtirishning muhim vositasidir. Ta’limda ko‘pincha buyruqqa asoslangan o‘qitish uslubi qator muammolarga sabab bo‘lmoqda. Bu masalada barcha olimlarning fikriga asosan, hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimi tushuniladi. Bu esa o‘qituvchining talabani boshqarishidan boshlanib, talaba faolligi orta boradi va ular o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatga aylanadi hamda o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi munosabat hamkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. E.G‘oziev hamkorlikning quyidagi shakllarini ko‘rsatadi:

- pedagogik hamkorlik faoliyatiga kirishiladi;
- o‘qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar amalga oshiriladi;
- o‘qituvchi harakatni boshlab beradi, unga talaba faol jalb etiladi;
- o‘qituvchidan ibrat olgan talaba namuna asosida harakat qiladi;
- o‘qituvchi talabaga oraliq maqsad va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda natijani nazorat qiladi;
- o‘qituvchi talabaning o‘zini o‘zi boshqarish harakatlarida ishtirok etadi;
- talabalar tomonidan o‘zini o‘zi ko‘zg‘atuvchi, o‘zini o‘zi uyushtiruvchi refleksiv harakatlarni amalga oshiradi [6. -223 b.].

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda oliy ta’limda “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanini ilg‘or texnologiyalarni qo‘llab o‘qitishda ta’lim samaradorligiga erishishda talabalar uchun quyidagilar nazarda tutiladi:

fan mavzularini o‘zlashtirishda har bir mavzuni ilmiy jihatdan chuqur va mustahkam bilishi;

egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish;

mustaqil, intellektual, konstruktorlik, ijodiy va kreativ fikrlay olishi;

kundalik hayotda yuz beradigan muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda mantiqiy ketma-ketlikda va tezkor ijobiy hal eta olishi;

fanga oid ko‘nikma, malaka va tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi;

kundalik hayotga tayyorgarlik darajasini shakllantirishda texnologiya fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning jamiyat oldidagi pedagogik burch va vazifalariga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi [7. B. 273-276.].

Pedagogik jarayonlarni o‘rganishda milliy va umuminsoniy qadriyat shaxsning kundalik hayoti faoliyatining mazmuni, shaxsning insoniyat madaniyatining asosi bo‘lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishi, e’tirof qilishi va faollashtirish hamda ijodiy yaratuvchanlikka bo‘lgan harakatini yo‘naltirish bilan belgilanadi [6. -223 b.].

Pedagogikada milliy va umuminsoniy qadriyatlar muammosi keyingi yillarda jiddiy e’tiborga loyiq muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan global o‘zgarishlar yoshlarga hayot uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni mustaqil izlab topish, ularni hozirgi davr o‘quv-tarbiya jarayoniga kiritish metodikasini ilmiy asoslash tobora dolzarb bo‘lib bormoqda [8. -104 b.].

Xulosa qilib aytganda, “Texnologiya ta’limi metodikasi” fani ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘ziga xos xususiyatlarini, bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashga, talabalar dunyoqarashining kengligini, murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishni, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy sifatlarni egallash, onglilik, to‘g‘rilik, aniqlik, kasbiy texnikani egallashda zukkolik, zehnlilik, ijodkorlik xislatlarini tarkib toptiradi. Hissiy-irodaviy sobitlik, jipslashib harakat qilishga o‘rganish kabi xususiyatlarni, pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatli yondashuvni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur imkoniyatlar “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanini o‘qitishda foydalaniladigan qadriyatlarni tizimlashtirish, bu borada ma’lum mezonlarga tayanish, har bir o‘quv fanini o‘zini ham bir qadriyat sifatida o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr

2. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсифи-кации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. … док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.

3. Choriev A.Ch. Pedagogikaning fanlararo aloqasi va badiiy adabiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi qonuniyatlari: -Ped.fan.dokt. ...yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2003. -44 b.

4. Ismoilova Z.K. Bo‘lajak mutaxassislar shaxsni shakllantirishning g‘oyaviy asoslari // Kasb-hunar ta’limi j. - №3, 2007. – B.18.

5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O‘zMU qoshidagi OPI, 2003.- 147 b.

6. G‘oziev E.G. Psixologiya. Yosh davrlar psixologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994. -223 b.

7. Sadaddinov U.U. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish modeli. // Berdaq nomidagi QDU Axborotnomasi Nukus. 2023, №1 (59). –B. 179-182

8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari // Qo‘llanma. –O‘qituvchi. 2004. -104 b.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASHDA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Aytbayeva G.Y.
Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: tolerantlik, millatlararo do‘stlik, qadriyat, ijtimoiy-pedagogik kategoriya, tenglik tamoyillari, ijtimoiy-axloqiy kompetensiya, axloqiy me’yor, ijtimoiy-pedagogik jarayon, interfaol ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyasi, loyihaviy ta’lim texnologiya, raqamli ta’lim texnologiya, hamkorlik pedagogikasi texnologiyasi.
Ключевые слова: толерантность, межнациональная дружба, ценность, социально-педагогическая категория, принципы равенства, социально-нравственная компетенция, нравственная норма, социально-педагогический процесс, интерактивные образовательные технологии, проблемная образовательная технология, проектная образовательная технология, цифровая образовательная технология, технология педагогики сотрудничества.
Key words: tolerance, interethnic friendship, value, socio-pedagogical category, principles of equality, socio-ethical competence, ethical norm, socio-pedagogical process, interactive educational technologies, problem-based educational technology, project-based educational technology, digital educational technology, collaborative pedagogy technology

РЕЗЮМЕ:
Mazkur tadqiqotda maktab o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalashda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Interfaol metodlarning o‘quvchilarda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, empatiya, hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, munozara, debat, guruhli ish va loyihaviy faoliyatdan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi hamda turli fikr va qarashlarga tolerant munosabatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari asoslangan.
РЕЗЮМЕ:
В данном исследовании освещены педагогические возможности использования интерактивных образовательных технологий в воспитании школьников в духе толерант-ности. Проанализировано значение интерактивных методов в формировании у учащихся культуры толерантности, взаимного уважения, эмпатии, сотрудничества и общения. Также обоснованы педагогические аспекты развития социальной активности учащихся и толерантного отношения к различным мнениям и взглядам посредством использования проблемных ситу-

аций, дискуссий, дебатов, групповой работы и проектной деятельности в образовательном процессе.

SUMMARY:

This study highlights the pedagogical possibilities of using interactive educational technologies in educating schoolchildren in the spirit of tolerance. The importance of interactive methods in forming a culture of tolerance, mutual respect, empathy, cooperation, and communication among students is analyzed. Additionally, the pedagogical aspects of developing students' social activity and a tolerant attitude toward various opinions and views through the use of problem situations, discussions, debates, group work, and project activities in the educational process are substantiated.

Tolerantlik insoniy munosabatlarning ezgulik mezoni, millatlararo do‘stlik-ning ma’naviy negizi hamda turfa qarashlarni birlashtiruvchi qadriyatdir. Bag‘ri-kenglik dunyodagi asosiy muammolardan biri bo‘lib, erkin jamiyat va davlat tuzumining mustahkamligini ko‘rsatuvchi asosiy poydevordir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan fikrlar mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashayotganini ta’kidlab, bugungi notinch zamonda “millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligidir”, degan muhim g‘oyani ilgari surdi [2].

Mazkur fikrlar tolerantlikni jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi fundamental qadriyat sifatida baholash imkonini beradi. Xususan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikning “bebaho boylik” sifatida e’tirof etilishi yosh avlodni ana shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasining strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Zero, jamiyatda mavjud tinchlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitining davomiyligi, avvalo, ushbu qadriyatlarni yosh avlod ongiga izchil singdirish bilan chambarchas bog‘liq.

Mustaqillikning 35 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan Prezident Qarorida ham “millatlararo do‘stlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini saqlash va kuchayti-rishni barcha fuqarolarning muqaddas burchi sifatida targ‘ib qilish” vazifasi belgilangan. Shuningdek, mazkur hujjatda bayram tadbirlariga yoshlar, turli ijtimoiy va etnik guruhlar hamda vatandoshlarni faol jalb etish zarurligi qayd etilgan.

Ushbu yondashuv tolerantlik tarbiyasining mazmunini faqat shaxslararo munosabatlar doirasida emas, balki millatlararo do‘stlik, dinlararo muloqot, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolik mas’uliyati kabi keng ijtimoiy-pedagogik kategoriyalar bilan uzviy aloqador holda talqin etishni taqozo etadi. Ayniqsa, yoshlarni turli millat va elat vakillariga hurmat, o‘zga madaniyat va qadriyatlarga xolis munosabat, inson qadr-qimmatini e’zozlash hamda tinchlik va hamjihatlikni qadrlash ruhida tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon

bo‘ladi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoniga oid Prezident farmonida yosh avlod qalbiga Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini singdirish, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan fuqarolarni e’tirof etish alohida ta’kidlangan [2].

Demak, davlat siyosati darajasida ilgari surilayotgan mazkur g‘oyalar maktab o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalashning metodologik va ma’naviy-axloqiy asoslarini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunda tolerantlik o‘quvchining shaxsiy fazilati sifatida emas, balki jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy kompetensiya sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi turli millat, etnik va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning mazmuni hamda ko‘lamini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Turli dunyoqarash, e’tiqod, qadriyat va madaniy tajribalarning yagona ijtimoiy makonda o‘zaro ta’siri xalqlar o‘rtasida tajriba almashish, madaniy boyish va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodning nafaqat bilim va kasbiy kompetensiyalarini, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlari hamda ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning o‘zga insonlarni milliy, etnik, diniy, madaniy va individual xususiyatlaridan qat’i nazar teng huquqli ijtimoiy subyekt sifatida qabul qilishi hamda turli qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, tolerantlik turli ijtimoiy-madaniy tafovutlarni anglash va qabul qilish, o‘zaro muloqotda hurmat va tenglik tamoyillariga amal qilish, empatiya namoyon etish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish hamda ijtimoiy hamkorlikka tayyorlik kabi sifatlarni birlashtiruvchi integrativ ijtimoiy-axloqiy kompetensiya sifatida tavsiflanadi. Tolerantlikning shakllanishi o‘quvchilarning kommunikativ madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanligi, mustaqil fikrlashi va fuqarolik mas’uliyatining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bag‘rikenglik tamoyillarining ta’lim-tarbiya jarayoniga izchil singdirilishi o‘quvchilarda o‘zaro ishonch, hamkorlik, insonparvarlik va turli fikrlarni qadrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish va konstruktiv muloqotni rivojlan-tirishga xizmat qiladi. Binobarin, ta’lim jarayonida tolerantlikni maqsadli

va tizimli ravishda shakllantirish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Tolerantlikning shaxsda qaror topishi, avvalo, uning bolalik va o'smirlik davrlarida amalga oshiriladigan maqsadli tarbiyaviy ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq, chunki maktab yillari o'quvchining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabati va axloqiy me'yorlari faol shakllanadigan muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi [5]. O'quvchi aynan ta'lim muhitida turli xarakter, qiziqish, dunyoqarash va ijtimoiy tajribaga ega tengdoshlari bilan muntazam muloqotga kirishadi [17]. Mazkur ijtimoiy-pedagogik jarayon o'quvchilarda o'zgalarning individual va ijtimoiy xususiyatlarini anglash, fikrlar xilma-xilligiga hurmat bilan yondashish, hamkorlik qilish, o'z xatti-harakatlarini nazorat etish hamda yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda hal etish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni tolerantlik ruhida tarbiyalash masalasi nafaqat tarbiyaviy ishlarning alohida yo'nalishi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim [20]. Mazkur jarayonning samaradorligi ta'lim mazmunining tolerantlik g'oyalari bilan boyitilganligi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi demokratik va subyekt-subyekt munosabatlarning qaror topganligi, ta'lim muhitida o'zaro hurmat va psixologik xavfsizlikning ta'minlanganligi, interfaol pedagogik metodlardan samarali foydalanish hamda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning izchil yo'lga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Ayniqsa, raqamli axborot makonining yoshlar hayotidagi ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi davrda o'quvchilarning turli mazmundagi axborotlarni qabul qilishi va baholashi jarayonida ularda tanqidiy fikrlash, axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabat, kommunikativ madaniyat va tolerant xulq-atvorni shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Chunki virtual makonda uchraydigan turli qarashlar, stereotiplar, kamsituvchi munosabatlar va murosasiz fikrlar yoshlarning ijtimoiy tasavvurlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda o'quvchini nafaqat axborotni iste'mol qiluvchi, balki uni mustaqil va tanqidiy tahlil qila oluvchi, turli fikrlar o'rtasidagi farqni anglaydigan hamda o'z munosabatini madaniyatli tarzda ifodalay oladigan faol shaxs sifatida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning ko'p millatli va ko'p madaniyatli ijtimoiy muhitida yosh avlodni bag'rikenglik va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiya an'analarida shakllangan insonparvarlik, mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro hurmat, saxovat va tinch-totuvlik kabi umuminsoniy

qadriyatlar tolerantlik tarbiyasining muhim ma’naviy asosini tashkil qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini ta’lim-tarbiya jarayoniga izchil tatbiq etish o‘quvchilarda bag‘rikenglik, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi sifatlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Maktab o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalash murakkab va ko‘p omilli pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligiga o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy tarbiya muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlar, ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogning kasbiy-kommunikativ kompetentligi hamda ta’lim-tarbiya mazmuni bevosita ta’sir ko‘rsatadi [6]. Shu sababli tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat alohida yoki epizodik tadbirlar bilan cheklanmasdan, aniq maqsad, mazmun, metod va vositalarga asoslangan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, uning tarkibiy komponentlarini belgilash, samarali pedagogik texnologiya, metod va vositalarni aniqlash hamda zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir [7]. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-pedagogik faoliyat o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o‘zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Binobarin, maktab o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalash shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetentligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq kompleks pedagogik muammodir [8]. Ushbu jarayonni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish yoshlarni turli ijtimoiy-madaniy munosabatlarda konstruktiv hamkorlikka tayyorlash hamda bag‘rikeng, ijtimoiy faol va barkamol shaxsni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizm-larini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Maktab o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalash jarayonida interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Chunki mazkur metodlar o‘quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish, turli madaniyat va qarashlarga nisbatan xolis munosabatda bo‘lish, o‘z fikrini madaniyatli ifodalash hamda boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishni o‘rgatadi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar, balki muloqotchanlik, hamkorlik, empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi shaxsiy sifatlar ham rivojlanadi [9]. Shu jihatdan, interfaol ta’lim texnologiyalari yuqori sinf o‘quvchilarining faol ta’limiy faoliyatini tashkil etuvchi, innovatsion pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi (1-jadvalga qarang).

Muammoli ta’lim texnologiyasi – o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi hamda muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyadir [19]. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi muammoli vaziyatlarni yaratib, o‘quvchilarni ularni tahlil qilish, sabab va oqibatlarni aniqlash, turli farazlarni ilgari surish hamda asoslangan xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilarini tolerantlik ruhida tarbiyalashda turli ijtimoiy, madaniy va axloqiy vaziyatlarning muammoli tahlili o‘zga fikrlarni anglash, turli nuqtayi nazarlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish,

1-jadval.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

1 MUAMMOLI TA’LIM	2 LOYIHAVIY TA’LIM	3 RAQAMLI TA’LIM	4 HAMKORLIK PEDAGOGIKASI
Maqsadi Mustaqil fikrlash va yechim topishga yo‘naltiradi.	**Maqsadi** Amaliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi.	**Maqsadi** Raqamli vositalar orqali ta’limni samarali va qiziqarli qiladi.	**Maqsadi** O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligiga asoslanadi.
Asosiy usullar • Muammoni taqdim etish • Tahlil qilish • Yechim variantlarini izlash • Xulosaga kelish	**Asosiy usullar** • Mavzuni tanlash • Ma’lumot to‘plash • Reja tuzish • Loyihani amalga oshirish • Natijani taqdim etish	**Asosiy usullar** • Elektron darsliklar • Onlayn platformalar • Virtual laboratoriyalar • Test va baholash tizimlari	**Asosiy usullar** • Guruhlarda ishlash • Loyihalar • Rolli o‘yinlar • Refleksiya va muhokama
Natija Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish rivojlanadi.	**Natija** Ijodkorlik, mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalari ortadi.	**Natija** Axborot savodxonligi va mustaqil izlanish rivojlanadi.	**Natija** Ijtimoiy mas’uliyat va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.
Tolerantlikka hissa Turli qarashlarga hurmat shakllanadi.	**Tolerantlikka hissa** Jamoada ishlash va o‘zaro hurmat shakllanadi.	**Tolerantlikka hissa** Global axborot va turli madaniyatlarni tushunishga yordam beradi.	**Tolerantlikka hissa** O‘zaro hurmat, empatiya va bag‘rikenglik oshadi.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UMUMIY AFZALLIKLARI

- Mustaqil fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi.
- Jamoada ishlash va muloqot madaniyati shakllanadi.
- Turli madaniyat va qadriyatlarga hurmat oshadi.
- Axborotdan foydalanish ko‘nikmalari rivojlanadi.
- O‘quvchini hayotga tayyorlaydi.

murosali yechimlarni izlash va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan, muammoli ta’lim o‘quvchilarning tahliliy tafakkuri, ijodkorligi, ijtimoiy mas’uliyati va bag‘rikenglik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 1149–1151].

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi – o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, tadqiqotchilik faoliyati va amaliy natija yaratishi asosida bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvdir [10; 802–806]. Mazkur texnologiyada o‘quvchilar muammoni aniqlash, loyiha maqsadini belgilash, zarur axborotlarni izlash va tahlil qilish, faoliyatni rejalashtirish, loyiha mahsulotini yaratish hamda natijalarni taqdim etish jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Tolerantlik tarbiyasiga yo‘naltirilgan individual va guruhiy loyihalar turli madaniyatlar va qadriyatlarni o‘rganish,

oʻzaro fikr almashish, vazifalarni hamkorlikda bajarish hamda umumiy maqsadga erishish imkonini beradi. Natijada oʻquvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik, mas'uliyat, hamkorlik, oʻzaro hurmat va bagʻrikenglik kabi muhim shaxsiy hamda ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari – zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, elektron ta'lim resurslari, multimedia materiallari, virtual muhit va raqamli platformalarni oʻquv jarayoniga integratsiya qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalar majmuasidir [4; 11; 538–545, 12; 144–149, 13; 10–14]. Raqamli vositalardan foydalanish yuqori sinf oʻquvchilarining mustaqil bilim olishi, axborotni izlash, saralash va tahlil qilish, media savodxonligi hamda kreativ fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro elektron resurslar, virtual loyihalar, onlayn muloqot va multimedia vositalari orqali oʻquvchilar turli xalqlar, madaniyatlar va qadriyatlar toʻgʻrisidagi bilimlarini kengaytirib, madaniyatlararo muloqot, oʻzga qarashlarga hurmat va bagʻrikeng munosabat koʻnikmalarini egallaydilar. Shu sababli raqamli ta'lim texnologiyalari zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va tolerant shaxsni tarbiyalashning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi.

Hamkorlik pedagogikasi texnologiyasi – ta'lim jarayonini oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, ishonch, tenglik va hamkorlik tamoyillari asosida tashkil etishga yoʻnaltirilgan innovatsion pedagogik yondashuvdir [14; 1251–1254, 15; 350–353; 16]. Ushbu texnologiyada oʻqituvchi bilimni tayyor shaklda yetkazuvchi subyekt sifatida emas, balki oʻquvchilarning faoliyati va shaxsiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlovchi hamkor hamda yoʻnaltiruvchi vazifasini bajaradi. Guruhli va juftlikdagi faoliyat, hamkorlikdagi loyihalar, oʻzaro baholash, muhokama va refleksiya oʻquvchilarda fikr almashish, jamoaviy qaror qabul qilish va umumiy natija uchun mas'uliyatni rivojlantiradi. Mazkur yondashuv tolerantlik tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etib, oʻquvchilarda empatiya, oʻzga fikrlarga hurmat, murosaga kelish, oʻzaro yordam, bagʻrikenglik va samarali muloqot kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida oʻquvchilarni tolerantlik, oʻzaro hurmat, insonparvarlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ayniqsa, yuqori sinf oʻquvchilarida fikrlar xilma-xilligiga hurmat, konstruktiv muloqot, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat koʻnikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega. Muammoli, loyihaviy, raqamli ta'lim hamda hamkorlik pedagogikasi oʻquvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi, oʻzga qarashlarni hurmat qilishi va jamoada samarali faoliyat yuritishini rivojlantiradi. Mazkur texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks

integratsiya qilish tolerant, ijtimoiy faol va zamonaviy kompetensiyalarga ega shaxsni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘ri-sida”gi PQ-4884-sonli qarori.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mus-taqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https:// president.uz/oz/lists/view/9544?utm_ source=chatgpt.com (murojaat sanasi: 29.08. 2026)

3. Abduraimova Ch. F. The role of problem-based educational technology in the educational process. «Экономика и социум» №10 (136)-1 2025. – С. 1149–1151.

4. Bozorova N.K. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari. file:///C:/Users/user/Downloads/ %D0%A1%D18F-47878-ru.pdf (Murojaat sanasi: 31.08.2026);

5. Жазыкова М.К. Жас ұрпақты толеранттыққа тәрбиелеудегі мектеп пен отбасының әрекеттестігі. Қазақ мемлекеттік қыздар педагогикалық универси-теті Хабаршысы. – № 2 (78), 2019.

6. Уркинбаева Г. Тәрбие басы – толерантты орта құру. https://bilimdiler.kz/ tarbie-sagaty/18748-tarbie-basy-tolerantty-orta-kuru.html (Murojaat sanasi: 30.08. 2026)

7. Педагогикалық білім беру жүйесіндегі әлеуметтік белсенді тұлға: тәрбие мен толеранттылық. https://ust.kz/word/pedagogikalyq_bilim_bery_juiesindegi_ aleymettik_belsendi_tulga_tarbie_men_toleranttylyq-55062.html (Murojaat sanasi: 30.08.2026)

8. Кадырбаева З.Т. Жас ұрпақтың толеранттылығы мен ұлтаралық мәде-ниетін тәрбиелеуде мектепке дейінгі мекемелер, мектеп, отбасы және үкіметтік емес ұйымдардың өзара байланысы. https://stud.kz/sabak-zhospary/id/5027 (Murojaat sanasi: 30.08.2026).

9. Оқыту-тәрбиелеу үрдісінде интерактивті технологияларды тиімді қолдану жолдары. https://stud.kz/ referat/show/74816 (Murojaat sanasi: 31.08. 2026).

10. orayeva Z. Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. Том 4 № 2 (2026). – B. 802–806.

11. Mirzahmedova N.D. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘lla-nilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | Issue 5/2. 2022. – B. 538–545.

12. Musayev A. S. Raqamli ta’lim texnologiyalari orqali mustaqil ta’limni rivojlantirish omillari. Development Of Science 2025 / 11. Volume 4. Issue 11. – B. 144–149.

13. Tursunov A.Y. Interaktiv va raqamli ta’lim texnologiyalari asosida milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishni takomillashtirish. Pedagogika fanlari. “Ilm vaqti” (Science time) Vol. 4 No. 3/2 (2026): jurnali (2026-03-05). – B. 10–14.

14. Nurullayev U.E. Hamkorlik pedagogikasi orqali tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishning pedagogik asoslari. “Science and Education” Scientific Journal. May 2023 / Volume 4 Issue 5. – B. 1251–1254.

15. Nurmanov A.T. Hamkorlik pedagogikasi – ta’lim sifatini oshirish omili sifatida Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference, November 13, 2023. – P. 350–353.

16. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/hamkorlik-pedagogik-texnologiyasi (Murojaat sanasi: 31.08.2026).

17. https://edu.mcfr.kz/article/2484-qqq-10-m7-05-07-2010-jassprmderde-toleranttyty-alyptastyru (Murojaat sanasi: 29.08.2026).

18. https://ustaz.kz/materials/word/balalardyng_toleranttylyq_talimin_tarbieley-248928.html (Murojaat sanasi: 30.08.2026).

19. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/muammoli-ta-lim-texnologiyasi. (Murojaat sanasi: 31.08. 2026).

20. https://ustaz.kz/materials/word/balalardyng_toleranttylyq_talimin_tarbieley-248928 html (Murojaat sanasi: 30.08.2026)

ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA AXLOQIY TARBIYA BERISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qidirbayev B.
O‘zbekiston tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: ichki ishlar organlari, xodim, malaka oshirish, axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, kasbiy kompetentlik, ijtimoiylashuv, pedagogik shart-sharoit, ijtimoiy-pedagogik vaziyat, milliy qadriyat, kasbiy etika, pedagogik texnologiya.
Ключевые слова: органы внутренних дел, сотрудник, повышение квалификации, нравственное воспитание, нравственные качества, профессиональная компетентность, социализация, педагогические условия, социально-педагогическая ситуация, национальные ценности, профессиональная этика, педагогическая технология.
Key words: internal affairs bodies, officer, professional development, moral education, moral qualities, professional competence, socialization, pedagogical conditions, socio-pedagogical situation, national values, professional ethics, pedagogical technology.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish jarayonida axloqiy tarbiya berishga o‘rgatishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Unda axloqiy tarbiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari, shaxsni ijtimoiylashtirishdagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning xodimlar kasbiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarida axloqiy sifatlarni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillari, ijtimoiy-pedagogik vaziyatlardan foydalanish imkoniyatlari hamda axloqiy tarbiyani shakllantirish bosqichlari ochib berilgan. Tadqiqot doirasida xodimlarning axloqiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli vaziyatlar to‘rt guruhga ajratilgan hamda shaxsiy-qadriyatli, hissiy-emotsional va faoliyatli-ijodiy mezonlar asosida baholash imkoniyatlari asoslab berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье научно-теоретически анализируются педагогические основы обучения сотрудников органов внутренних дел нравственному воспитанию в процессе повышения их квалификации. Раскрываются содержание нравственного воспитания, его роль в социализации личности, значение национальных и общечеловеческих ценностей в профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел. Рассматриваются философские, педагогико-психологические факторы развития нравственных качеств, возможности использования социально-педагогических ситуаций, а также этапы формирования нравственной компетентности сотрудников. В рамках исследования социально-педагогические проблемные ситуации классифицированы на четыре группы в зависимости от уровня сложности.

Обоснована целесообразность оценки результатов нравственного воспитания на основе личностно-ценностного, эмоционально-эмоционального и деятельностно-творческого критериев.

SUMMARY:

This article theoretically analyzes the pedagogical foundations of teaching moral education to officers of internal affairs bodies in the process of professional development. The study examines the content of moral education, its role in personal socialization, and the significance of national and universal human values in the professional activities of internal affairs officers. Particular attention is paid to the philosophical, pedagogical and psychological factors contributing to the development of moral qualities, the use of socio-pedagogical situations, and the stages of developing moral competence. Within the framework of the study, socio-pedagogical problem situations are classified into four groups according to their level of complexity. The article also substantiates the use of personal-value, emotional-affective, and activity-creative criteria for assessing the effectiveness of moral education among internal affairs officers.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligi nafaqat xodimlarning huquqiy bilimlari, kasbiy ko‘nikmalari va jismoniy tayyorgarligi, balki ularning yuksak axloqiy fazilatlari, fuqarolar bilan muloqot qilish madaniyati, mas’uliyat hissi, adolatparvarligi, halolligi va kasbiy burchiga sadoqati bilan ham belgilanadi. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog‘liq. Shu sababli xodimlarning kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlarga rioya qilishi muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning shaxsga yo‘naltirilganligi, ta’lim oluvchilarning intellektual, ma’naviy-axloqiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ham ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi[1].

Shu nuqtayi nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish jarayonida axloqiy tarbiya berishga o‘rgatishning pedagogik asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir.

Ta’lim jarayoni shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi bilan cheklanmaydi. U insonning o‘zini jamiyat va madaniyat olamida anglashiga, tabiat, jamiyat, boshqa insonlar hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimini shakllantirishiga xizmat qiladi. Inson o‘z ongi, irodasi, hissiyoti va bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Mazkur jarayon natijasida shaxsning individual ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi insonning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, o‘z ustida mustaqil ishlashi va o‘z faoliyatini loyihalashtirishini

taqozo etadi. Bunda ta'lim va tarbiyaning maqsadi faqat bilim berish emas, balki shaxsda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish bilan uyg'unlashadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari uchun ushbu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xodimning kasbiy faoliyati inson huquqlari, qonuniylik, jamoat xavfsizligi, fuqarolarning manfaatlari va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun xodimning kasbiy bilimlari axloqiy mas'uliyat, fuqarolarga hurmat, xolislik, adolat, halollik, vijdonlilik va qonuniylik tamoyillari bilan uyg'unlashishi lozim[2].

Bizningcha, axloqiy tarbiya – shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, axloqiy me'yor va qadriyatlarni anglash, ularni kundalik hamda kasbiy faoliyatda qo'llash, turli ijtimoiy vaziyatlarni axloqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, baholash va maqbul qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Axloqiy sifatlarning shakllanishi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u milliy, diniy, tarixiy, axloqiy, huquqiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar shaxsni ma'naviy jihatdan kamol toptirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida axloqiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari.

Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

- qonuniylik va huquqiy mas'uliyatni chuqur anglash;
- inson huquqlari va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- halollik, vijdonlilik va adolatparvarlikni shakllantirish;
- kasbiy burch va xizmat intizomiga sodiqlikni rivojlantirish;
- fuqarolar bilan muloqot madaniyatini takomillashtirish;
- turli ijtimoiy vaziyatlarda xolis va oqilona qaror qabul qilish;
- stressli va nizoli vaziyatlarda o'zini boshqarish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish;
- jamoada hamkorlik qilish va mas'uliyatni his etish;
- o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish.

Axloqiy tarbiya xodimning faqat tashqi xulq-atvorini tartibga solish emas, balki uning ichki e'tiqodi, qadriyatlari va kasbiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu sababli malaka oshirish mashg'ulotlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy, muammoli va vaziyatli metodlardan foydalanish muhimdir.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini maqsadli, tizimli va natijador tashkil etish imkonini beradi. N.N. Azizxo'jayeva tomonidan pedagogik

texnologiyalar va pedagogik mahorat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham ta’lim jarayonining mazmuni, tamoyillari, pedagogik mahorat va zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalalariga e’tibor qaratilgan[3].

Axloqiy tarbiya va ijtimoiylashuvning o‘zaro bog‘liqligi

Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiylashuvining muhim omillaridan biridir. Ijtimoiylashuv jarayonida xodim jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy, huquqiy va madaniy me’yorlarni o‘zlashtiradi hamda ularni kasbiy faoliyatida qo‘llashni o‘rganadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiylashuvini shartli ravishda to‘rtta muhim yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin: inson, jamiyat, tabiat va axborot-texnologik muhit.

“Inson” yo‘nalishida shaxsning inson hayoti, qadr-qimmati, sha’ni va huquqlarini oliy qadriyat sifatida anglashiga e’tibor qaratiladi. Xodim o‘z-o‘zini xolis baholashi, o‘z qadr-qimmatini anglashi, shu bilan birga boshqa insonlarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishi kerak.

“Jamiyat” yo‘nalishida Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati, qonuniylik, demokratiya, oila, mehnat va ijtimoiy hamkorlik kabi qadriyatlar shakllantiriladi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida fuqarolik mas’uliyati va qonun ustuvorligiga amal qilish alohida ahamiyatga ega.

“Tabiat” yo‘nalishida insonning tabiat bilan uyg‘un munosabati, ekologik madaniyat, atrof-muhitni asrash va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat hissi rivojlantiriladi.

“Axborot-texnologik muhit” yo‘nalishida esa zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda axloqiy va huquqiy mas’uliyatni anglash, axborot xavfsizligiga rioya qilish, raqamli muhitda kasbiy odob va mas’uliyat me’yorlariga amal qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Malaka oshirish jarayonida axloqiy tarbiyaga o‘rgatish vazifalari

Ichki ishlar organlari xodimlarini axloqiy tarbiyaga o‘rgatish tizimini takomillashtirish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. xodimlarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlash;

2. kasbiy faoliyatning ma’naviy-axloqiy mazmunini anglashga ko‘maklashish;

3. o‘z ehtiyojlari, imkoniyatlari va kasbiy mas’uliyatini xolis baholash ko‘nikmasini rivojlantirish;

4. shaxslararo va xizmatga oid munosabatlarda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilashga o‘rgatish;

5. mustaqil ta’lim va o‘z ustida ishlash faoliyatini rivojlantirish;

6. xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish;

7. inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklariga yuksak hurmatni shakllantirish;

8. xodimlarda tashkilotchilik, liderlik va boshqaruv sifatlarini rivojlantirish;

9. murakkab kasbiy va hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan maqbul qaror qabul qilishga tayyorlash;

10. kasbiy faoliyatda qonuniylik, adolat, halollik, xolislik va mas’uliyat tamoyillariga amal qilishni mustahkamlash.

Ijtimoiy-pedagogik vaziyatlardan foydalanish

Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik vaziyatlardan foydalanish samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday vaziyatlar xodimga real kasbiy faoliyatga yaqin muammolarni tahlil qilish, turli qarorlarning oqibatlarini baholash va axloqiy jihatdan maqbul yechimni tanlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-pedagogik vaziyatlar bilan ishlashni uch bosqichda tashkil etish mumkin.

Birinchi – yo‘naltiruvchi bosqich. Ushbu bosqichda xodimlarning mavjud bilimlarini faollashtirish, axloqiy va kasbiy me’yorlar bilan bog‘liq ilmiy-amaliy materiallarni o‘rganish, matn va ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Ikkinchi – izlanishga yo‘naltirilgan bosqich. Bunda ijtimoiy-pedagogik vaziyatlar muayyan voqea va hodisalardan tashkil topadi. Xodimlardan vaziyatning yuzaga kelish sabablari, ehtimoliy oqibatlari va ular o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash talab etiladi. Vaziyatni anglash, muammoni aniqlash va uni mavjud huquqiy hamda axloqiy me’yorlar asosida hal qilishga yo‘naltiriladi.

Uchinchi – shakllantiruvchi bosqich. Mazkur bosqichda xodimlar mustaqil ravishda sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, vaziyatni modellashtirish va uning maqbul yechimini ishlab chiqishga jalb etiladi. Bunda ma’naviy hayot va ijtimoiy hodisalarni tasniflash, turli qarorlarni taqqoslash, ularning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini tahlil qilish hamda muayyan kasbiy vaziyatning mustaqil yechimini topish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarning murakkablik darajalari

Ichki ishlar organlari xodimlarining o‘quv-bilish faoliyati va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni quyidagi to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1. Elementar modellashgan muammoli vaziyatlar.

Bunda muammo aniq ifodalanadi va xodimdan mavjud bilimlarga tayangan holda oddiy yechimni topish talab qilinadi.

2. Sodda modellashgan muammoli vaziyatlar.

Xodim vaziyatning bir nechta ehtimoliy yechimlarini tahlil qiladi va ular orasidan axloqiy hamda kasbiy jihatdan eng maqbulini tanlaydi.

3. Murakkablashtirilgan modellashgan muammoli vaziyatlar.

Bunday vaziyatlarda bir nechta manfaatlar, qarama-qarshi nuqtayi nazarlar va ehtimoliy oqibatlar mavjud bo‘ladi. Xodim mustaqil tahlil asosida qaror qabul qiladi.

4. Murakkab modellashgan muammoli vaziyatlar.

Mazkur vaziyatlar real kasbiy faoliyatdagi murakkab holatlarga yaqinlashtiriladi. Xodimdan huquqiy, axloqiy, psixologik va ijtimoiy omillarni kompleks hisobga olgan holda mustaqil qaror qabul qilish talab etiladi.

Axloqiy tarbiyani baholash mezonlari. Ichki ishlar organlari xodimlarini axloqiy tarbiyaga o‘rgatish tizimining samaradorligini aniqlash uchun texnologik yondashuv asosida quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Shaxsiy-qadriyatli mezon – xodimning inson qadr-qimmati, qonuniylik, adolat, halollik, vijdonlilik, Vatanga sadoqat, kasbiy burch va fuqarolik mas’uliyatiga munosabatini ifodalaydi.

Hissiy-emotsional mezon – xodimning boshqa insonlarning holatini tushunishi, empatiya ko‘rsatishi, nizoli va stressli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqara olishi, fuqarolar bilan muloqotda vazminlikni saqlashi bilan belgilanadi.

Faoliyatli-ijodiy mezon – xodimning murakkab kasbiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishi, muammoning bir nechta yechimlarini ishlab chiqishi, axloqiy va huquqiy jihatdan maqbul qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyatini tanqidiy baholay olishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur mezonlar asosida xodimlarning axloqiy tayyorgarligini yuqori, o‘rta va past darajalarda baholash mumkin. Yuqori darajada xodim axloqiy me’yorlarni chuqur anglaydi, ularni kasbiy faoliyatida mustaqil qo‘llaydi va murakkab vaziyatlarda maqbul qaror qabul qiladi. O‘rta darajada axloqiy bilim va ko‘nikmalar mavjud bo‘lsa-da, murakkab vaziyatlarda qo‘shimcha pedagogik yordamga ehtiyoj seziladi. Past darajada esa axloqiy me’yorlarni anglash va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish jarayonida axloqiy tarbiya berishga o‘rgatish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Xodimning yuqori darajadagi

kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uning faoliyat samaradorligi uchun muhim bo‘lsa-da, ushbu bilimlarning insonparvarlik, qonuniylik, adolat, halollik, vijdonlilik va fuqarolarga hurmat kabi axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, qadriyatli, faoliyatga yo‘naltirilgan va muammoli-vaziyatli pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish xodimlarning mustaqil fikrlashi, vaziyatni tahlil qilishi va axloqiy jihatdan maqbul qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, axloqiy tarbiya samaradorligini shaxsiy-qadriyatli, hissiy-emotsional va faoliyatli-ijodiy mezonlar asosida baholash xodimlarning kasbiy-axloqiy tayyorgarligi darajasini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Demak, ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish tizimida axloqiy tarbiyani takomillashtirish nafaqat xodimning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, balki fuqarolar bilan ishonchli muloqotni ta’minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash hamda ichki ishlar organlarining ijtimoiy nufuzini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-407-son, 2016-yil 16-sentabr.

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING BOSHQARUVCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI: O‘QUV FANLARINI BOYITISH, MAXSUS KURS, AUDITORIYADAN TASHQARI FAOLIYAT VA PEDAGOGIK AMALIYOT IMKONIYATLARI

Kudiyarova G.I.
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: boshqaruvchilik qobiliyati, ta’lim mazmuni, maxsus kurs, auditoriyadan tashqari faoliyat, pedagogik amaliyot, boyitish moduli, portfolio.
Ключевые слова: управленческие навыки, образовательный контент, специальный курс, внеклассные мероприятия, педагогическая практика, модуль повышения квалификации, портфолио.
Key words: managerial ability, educational content, special course, extracurricular activity, pedagogical practice, enrichment module, portfolio.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning boshqaruvchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunining to‘rt o‘zaro to‘ldiruvchi kanali - o‘quv fanlarini boshqaruv modullari bilan boyitish, «Pedagogik menejment asoslari» maxsus kursi, auditoriyadan tashqari faoliyat va pedagogik amaliyotning boshqaruv topshiriqlari tizimi - ilmiy asoslanadi. Mazmunni tanlash mezonlari, uning shakllanish darajalari va har bir kanalning boshqaruvchilik qobiliyati komponentlariga nisbatan ta’sir profili tahlil etiladi. Mazmun-komponent muvofiqlik matritsasi orqali mazmunning to‘liqligi va muvozanatliligi dalillanadi. Maqola natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv rejalarini takomillashtirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье научно обоснованы четыре взаимодополняющих канала содержания для развития управленческих навыков будущих учителей: обогащение академических дисциплин модулями по менеджменту, специальный курс «Основы педагогического управления», система управленческих задач для внеклассной деятельности и педагогической практики. Проанализированы критерии отбора содержания, уровни его формирования и профиль влияния каждого канала на компоненты управленческих навыков. Матрица соответствия содержания и компонентов доказывает полноту и сбалансированность содержания. Результаты статьи служат практической основой для совершенствования учебных программ в высших педагогических учебных заведениях.
SUMMARY:
This article provides a scientific rationale for the four mutually complementary channels involved in developing the managerial skills of future educators: enriching academic subjects with management modules, a specialized course on the "Fundamentals of Pedagogical Management," extracurricular

activities, and a system of management-oriented tasks within pedagogical internships. The study analyzes the criteria for selecting content, the levels of its development, and the impact profile of each channel regarding specific components of managerial competence. The completeness and balance of the content are demonstrated through a content-component alignment matrix. The findings serve as a practical basis for improving curricula in higher pedagogical education institutions.

Kirish. Strukturaviy-funksional modelning mazmuniy bloki rivojlantirish jarayonining «nimani o‘zlashtirish» savoliga javob berib, metodikaning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi [1]. Ta’lim mazmunini shakllantirish nazariyasiga ko‘ra, mazmun ijtimoiy tajribaning maqsadga muvofiq tanlab olingan qismi bo‘lib, bilimlar, faoliyat usullari, ijodiy tajriba hamda munosabatlar tajribasining birligini tashkil etishi lozim [2]. Mazkur to‘rt elementli tuzilma boshqaruvchilik qobiliyatining to‘rt komponentiga muvofiq keladi: bilimlar kognitiv komponentga, faoliyat usullari faoliyatli-amaliy komponentga, munosabatlar tajribasi esa motivatsion-qadriyatli va refleksiv komponentlarga mos tushadi. Ushbu muvofiqlik mazmunni tanlashning bosh mezonini belgilaydi.

Konstatatsiya bosqichida aniqlanganidek, amaldagi o‘quv rejalarida boshqaruv mazmuni tarqoq va uzviyliksiz joylashgan, mavjud kurslarda esa boshqaruv mazmuni asosan ta’lim muassasasi rahbari faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchining sinf darajasidagi boshqaruv faoliyati yetarlicha qamrab olinmagan [3]. Ushbu holat mazmunni tizimli, izchil va bosqichma-bosqich murakkablashuvchi shaklda qayta loyihalash zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak pedagoglarning boshqaruvchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini to‘rt o‘zaro to‘ldiruvchi kanal asosida ilmiy asoslash va uning komponentlarga nisbatan qamrovini dalillashdan iborat.

Mazmunni tanlash mezonlari va loyihalash darajalari. Mazmunni tanlashda beshta xususiy mezonga tayanildi: kasbiy relevantlik (mazmun o‘qituvchining real boshqaruv vazifalaridan kelib chiqishi), funksional to‘liqlik (boshqaruv siklining barcha funksiyalarini qamrab olishi), ilmiy zamonaviylik, amaliy bajaruvchanlik (mavjud o‘quv yuklamasi doirasida o‘zlashtirilishi) hamda milliy-madaniy moslik [2]. Mazmunni loyihalashda uning shakllanish darajalari izchilligi hisobga olindi: umumiy nazariy tasavvur darajasi, o‘quv fani darajasi, o‘quv materiali darajasi, pedagogik voqelik darajasi hamda shaxs mulki darajasi [4]. Bunday darajali yondashuv mazmun loyihasining nazariy asosdan amaliy materialgacha uzluksiz olib borilishini kafolatlaydi.

Mazmun hajmini me’yorlash masalasi alohida hal etildi: to‘rt kanalning umumiy hajmi talabaning real vaqt byudjeti bilan muvofiqlashtirildi, bu esa haftalik yuklamani me’yordan oshirmagan holda boshqaruv mazmunining muntazam mavjudligini ta’minlaydi. Mazmunni ortiqcha kengaytirishdan ongli ravishda tiyilish - «oz, ammo chuqur va muntazam» qoidasi - loyihalashning muhim qarori bo‘ldi.

Birinchi kanal: o‘quv fanlarini boshqaruv modullari bilan boyitish. Mazkur kamchilikni yangi fanlar kiritmasdan, mavjud fanlar mazmunini maqsadli boyitish orqali bartaraf etish mumkin: har bir pedagogik-psixologik fanga uning predmet mantig‘iga mos boshqaruv moduli kiritiladi [1]. Yangi majburiy fan kiritish yo‘li atayin rad etildi, chunki bunday yechim o‘quv rejasining band hajmi sharoitida amalga oshirilishi qiyin va boshqaruv mazmunini yana bitta ajratilgan «katak»ka aylantiradi. Boyitish yo‘li esa boshqaruv mazmunini mavjud fanlarning tabiiy mantig‘iga singdiradi va fanlararo aloqadorlikni kuchaytiradi.

2.1-jadval. Pedagogik-psixologik fanlar mazmunini boshqaruv mazmuni bilan boyitish dasturi

№	O‘quv fani	Kiritiladigan modul/mavzu	Ustuvor komponent
1	Pedagogika nazariyasi	Ta’lim jarayoni boshqaruv obyekti sifatida	Kognitiv, faoliyatli-amaliy
2	Umumiy psixologiya	Faoliyat motivatsiyasi va uni boshqarish	Kognitiv, motivatsion-qadriyatli
3	Ijtimoiy psixologiya	Kichik guruh va jamoa dinamikasini boshqarish	Kognitiv, faoliyatli-amaliy
4	Ta’lim texnologiyalari	Interfaol mashg‘ulotni tashkil etish va boshqarish	Faoliyatli-amaliy
5	Pedagogik mahorat	O‘qituvchining boshqaruv madaniyati	Faoliyatli-amaliy, motivatsion-qadriyatli
6	Pedagogik diagnostika asoslari	Natijalarni baholash va qayta aloqa	Refleksiv

Har bir modul uch qismli tuzilishga ega: qisqa nazariy kirish, amaliy topshiriq va mustaqil ish topshirig‘i (portfolioga kiritiladigan mahsulot). Boyitish modullari maxsus kursdan oldin o‘qitiladigan fanlarga joylashtirilgan bo‘lib, ular maxsus kurs uchun propedevtik zamin hozirlaydi [5].

Ikkinchi kanal: «pedagogik menejment asoslari» maxsus kursi. Maxsus kurs mazmuniy blokning tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi, chunki aynan u boshqaruv mazmunini yaxlit, tizimli va faoliyatli shaklda taqdim etadi. Kursning umumiy hajmi 90 soat (3 kredit) bo‘lib, shundan 44 soat auditoriya mashg‘ulotlari (16 soat ma’ruza, 16 soat seminar-praktikum, 12 soat trening), 46 soat mustaqil ta’limga ajratiladi [6]. Auditoriya soatlarining qariyb uchdan ikki qismi faol shakllarga berilganligi kursning faoliyatli tabiatini ta’minlaydi.

3.1-jadval. Maxsus kursning mavzuviy rejasi (qisqartirilgan)

№	Mavzu	Jami soat
1	Pedagogik menejmentning nazariy asoslari	7
2	O’qituvchi - ta’lim jarayonining boshqaruv subyekti	7
3	Rejalashtirish funksiyasi	11

4	Tashkil etish funksiyasi	11
5	Motivatsiyalash funksiyasi	11
6	Pedagogik nazorat va baholash	9
7	Pedagogik qaror qabul qilish	10
8	Pedagogik muloqot va jamoani boshqarish	10
9	Raqamli ta’lim muhitida boshqaruv	6
10	Refleksiya va kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish	8

Kursni o‘qitish metodikasi to‘rt didaktik qoidaga tayanadi: «nazariya vaziyatdan boshlanadi», «har bir bilim - harakatda», «xato - o‘rganish manbai», «har bir sikl refleksiya bilan yakunlanadi» [7]. Baholash tizimida amaliy mahsulotlar (portfolio) va faoliyatdagi ishtirok ustuvor bo‘lib, nazariy bilimning o‘zi yakuniy natijaning uchdan biridan kamrog‘ini belgilaydi - bu talabani «bilib olish»dan «qila olish»ga yo‘naltiradi.

Uchinchi kanal: auditoriyadan tashqari faoliyat. Boshqaruv tajribasi faqat o‘quv mashg‘ulotlarida orttirilmaydi: talabalik hayotining o‘zi boshqaruv rollarining tabiiy maydonidir. Mazkur kanal to‘rt yo‘nalishni birlashtiradi: o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalaridagi faoliyat (guruh sardorligi, kengashlardagi mas’ul vazifalar); «Yosh menejer-pedagog» to‘garagi; tadbir menejerligi amaliyoti; ko‘ngillilik va murabbiylik faoliyati [8]. Barcha shakllarning natijalari talabaning yagona boshqaruv portfoliosi orqali qayd etib boriladi.

Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalaridagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tyutorlik dasturi ishlab chiqilgan: semestr boshida ikki kunlik kirish seminari, oyiga bir marta «boshqaruv soati» tashkil etiladi, unda talaba-rahbarlar o‘z faoliyatidagi real muammolarni keys sifatida taqdim etib, jamoaviy yechim izlaydilar. Muhimi, dastur muvaffaqiyatsiz tajribani ham resursga aylantiradi: tahlil etilgan xatolar keyingi faoliyatning aniq korreksion maqsadlariga aylanadi.

To‘rtinchi kanal: pedagogik amaliyot imkoniyatlari. Pedagogik amaliyot boshqaruv malakalarining real kasbiy sharoitda sinovdan o‘tish bosqichidir. Metodika doirasida amaliyot dasturi bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi boshqaruv topshiriqlari tizimi bilan to‘ldirildi [9].

5.1-jadval. Pedagogik amaliyot davridagi boshqaruv topshiriqlari tizimi

№	Amaliyot bosqichi	Boshqaruv topshiriqlari	Baholash vositasi
1	Tanishuv-kuzatuv	Darslarni boshqaruv funksiyalari kesimida kuzatish	Kuzatuv varaqasi, hisobot
2	Sinov bosqichi	Dars fragmentini mustaqil re-jalashtirish va o‘tkazish	Mentor kuzatuvi, o‘z-o‘zini baholash
3	Mustaqil boshqaruv	Darslar tizimini to‘liq mustaqil yuritish	Yakuniy kuzatuv, refleksiv kundalik, himoya

Topshiriqlar tizimi «kuzatish - sinab ko‘rish - mustaqil boshqarish» mantig‘ida qurilgan bo‘lib, bu bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyilining bevosita amaliy ifodasidir. Amaliyot kanalining samaradorligi ko‘p jihatdan mentor-o‘qituvchilarning tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lgani sababli, ular uchun bir kunlik o‘rgatuvchi seminar nazarda tutildi [10].

Mazmun-komponent muvofiqlik matritsasi. Ishlab chiqilgan mazmunning to‘rt komponentga nisbatan qamrovini yaxlit nazorat qilish maqsadida mazmun-komponent muvofiqlik matritsasi tuzildi.

6.1-jadval. Mazmuniy kanallarning boshqaruvchilik qobiliyati komponentlariga ta’sir matritsasi

Mazmuniy kanal	Motivatsion-qadriyatli	Kognitiv	Faoliyatli-amaliy	Refleksiv
Fanlar mazmunini boyitish	+	++	+	+
Maxsus kurs	++	++	++	++
Auditoriyadan tashqari faoliyat	++	+	++	+
Pedagogik amaliyot	+	+	++	++

Matritsa tahlili mazmun loyihasining muvozanatliligini tasdiqlaydi: har bir komponent kamida bitta kanalda ustuvor maqomga ega, har bir kanal esa barcha komponentlarga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga matritsa boshqaruv vositasi sifatida ham xizmat qiladi: agar diagnostika biror komponent bo‘yicha orqada qolishni ko‘rsatsa, aynan qaysi kanal kuchaytirilishi lozimligi matritsadan aniq ko‘rinadi.

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruvchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni to‘rt o‘zaro bog‘liq kanal - fanlar mazmunini boyitish, maxsus kurs, auditoriyadan tashqari faoliyat va pedagogik amaliyotning boshqaruv topshiriqlari tizimi - birligida ishlab chiqildi. Mazmun komponentli asosga qurilganligi, mazmun-komponent muvofiqlik matritsasi bilan nazorat qilinishi va yagona boshqaruv portfoliosi orqali yaxlitlashtirilishi uning tizimliligini ta’minlaydi. Taklif etilgan mazmun mavjud normativ tartib-taomillar doirasida, qo‘shimcha me’yoriy o‘zgarishlarsiz joriy etilishi mumkin, bu esa uning amaliy bajaruvchanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu mazmunni faoliyatga aylantiruvchi metodlar tizimini har xil ta’lim yo‘nalishlariga moslashtirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Штофф В.А. (1966). Моделирование и философия. Наука, Москва–Ленинград.

2. Вербицкий А.А. (1991). Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. Высшая школа, Москва.

3. Danielson C. (2007). Enhancing Professional Practice: A Framework for Teaching. 2nd ed. ASCD, Alexandria.

4. Леднев В.С. (1991). Содержание образования: сущность, структура, перспективы. 2-е изд. Высшая школа, Москва.

5. Bush T. (2011). Theories of Educational Leadership and Management. 3rd ed. SAGE Publications.

6. Council of Chief State School Officers. (2011). InTASC Model Core Teaching Standards. CCSSO, Washington.

7. Kolb D.A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall, Englewood Cliffs.

8. Sahlberg P. (2011). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press, New York.

9. Department for Education. (2011). Teachers' Standards. DfE, London.

10. Darling-Hammond, L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? European Journal of Teacher Education, 40(3), 291–309.

OLIY TA’LIM TALABALARINING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tenelbayev R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
Turizm fakulteti

Tayanch so‘zlar: ilmiy tadqiqot, pedagogik texnologiya, innovatsiya, mustaqil fikrlash, talaba, ta’lim jarayoni, kompetensiya.
Ключевые слова: научные исследования, педагогические технологии, инновации, самостоятельное мышление, студент, образовательный процесс, компетентность.
Key words: scientific research, pedagogical technology, innovation, independent thinking, student, education process, competence.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada oliy ta’lim talaba yoshlarning ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish orqali talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanishga yo‘naltirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabaning intellektual, ijodiy va kasbiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается роль и значение современных педагогических технологий в развитии научно-исследовательских навыков у молодых студентов высших учебных заведений. Также затрагиваются вопросы поощрения студентов к самостоятельному мышлению, анализу и проведению научных исследований посредством использования инновационных методов в образовательном процессе. Научно-исследовательская деятельность имеет особое значение для интеллектуального, творческого и профессионального развития студентов.
SUMMARY:
This article discusses the role of modern pedagogical technologies in developing students' research abilities. It also examines how innovative teaching methods help students improve independent thinking, analytical skills, and scientific inquiry.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, ilmiy izlanishga qodir mutaxassislarni tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahonda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, yangi bilimlarning

tezkorlik bilan shakllanishi hamda axborot hajmining ortib borishi oliy ta’lim talabalaridan nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni, balki mavjud muammolarni mustaqil aniqlash, ilmiy tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va amaliy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalariga ega bo‘lishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish oliy ta’lim sifatini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni ilmiy asosda hal qilishni ham talab etadi. Shu bois talabalarning ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabaning intellektual, ijodiy va kasbiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Mazkur faoliyat jarayonida talaba ilmiy muammoni belgilash, tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash, ilmiy manbalarni izlash va tahlil qilish, tadqiqot metodlarini tanlash, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natijalarni qayta ishlash hamda ilmiy xulosalarni shakllantirish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bunday faoliyat talabaning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, unda tanqidiy va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga ilmiy yondashish, axborot bilan ishlash hamda o‘z fikrini ilmiy asoslash kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’limni rivojlantirish, ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish, ilm-fan va ta’lim integratsiyasini kuchaytirish, yoshlarning ilmiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy to‘garaklar, ilmiy seminarlar, konferensiyalar, loyihalar, olimpiadalar va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish orqali ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Biroq mazkur imkoniyatlardan tizimli va metodik jihatdan samarali foydalanish, talabaning ta’lim jarayonidagi faoliyatini ilmiy izlanish bilan uyg‘unlashtirish hamda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Asosiy qism.Oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda oliy ma’lumotli mutaxassisdan faqatgina mavjud bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki yangi bilimlarni mustaqil izlash, ilmiy axborotlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini asoslash va amaliyotga tatbiq etish qobiliyati ham talab etilmoqda. Shu jihatdan talabaning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati uning kasbiy kompetentligini shakllantirish, mustaqil fikrlashini

rivojlantirish va kelgusidagi professional faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Talabalarda ushbu qobiliyatlarni shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Chunki zamonaviy mutaxassisdan yangilik yaratish, muammolarni mustaqil hal qilish va ilmiy asosda qaror qabul qilish talab etiladi. Shu bois ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalari oliy ta’lim tizimining asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabaning muayyan ilmiy muammoni o‘rganish, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilash, tegishli metodlarni tanlash, ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash hamda olingan natijalar asosida xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi. Mazkur jarayonda talabaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, ilmiy izlanishga motivatsiyasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Ayniqsa, talabaning tayyor bilimni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil ravishda bilim izlovchi va yangi bilim yaratishga intiluvchi faol subyektga aylanishi oliy ta’limning zamonaviy talablaridan biri hisoblanadi. **Muammoli o‘qitish texnologiyasi** – talabalarga muammoli vaziyatlar berish orqali ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

- **Loyiha asosida o‘qitish** – talabalarni real muammolar ustida ishlashga, izlanish olib borishga undaydi.
- **Modulli o‘qitish** – bilimlarni tizimli va bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini beradi.

Bu texnologiyalar orqali talabalarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Innovatsion metod va yondashuvlar. Zamonaviy ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishini oshiradi. Eng samarali metodlar quyidagilardan iborat:

- **“Brainstorming” (aqliy hujum)** – yangi g‘oyalar yaratishga xizmat qiladi
- **Case-study (holat tahlili)** – real vaziyatlarni tahlil qilish orqali muammoni hal etish ko‘nikmasini rivojlantiradi
- **Debat metodi** – talabalarda dalillash va fikrni asoslash qobiliyatini shakllantiradi
- **STEAM yondashuvi** – fanlararo integratsiya asosida ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

Mazkur metodlar talabalarning faolligini oshirib, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

4. Raqamli texnologiyalar va ilmiy faoliyat integratsiyasi. **Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Internet resurslari, elektron kutubxonalar va onlayn platformalar talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.**

Masalan:

• Onlayn ilmiy bazalardan foydalanish

• Virtual laboratoriyalar

• Masofaviy ta’lim tizimlari

Bular talabalarning ilmiy izlanish olib borish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi

Xulosa. Oliy ta’lim talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, talabalarning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabaning mustaqil izlanishi, ilmiy axborotlarni tahlil qilishi, muammolarni aniqlashi, tadqiqot metodlaridan foydalanishi hamda olingan natijalarni ilmiy asoslash jarayonlarini qamrab olishi aniqlandi.

Shuningdek, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini samarali rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, muammoli, loyihaviy va tadqiqotga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish muhimdir.

Bunday yondashuvlar talabaning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib, unda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi zarur. Bu esa talabalarni real hayotiy muammolarni hal eta oladigan, tahliliy va tanqidiy fikrlovchi mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, ilmiy muhitni yaratish hamda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish ham muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon. – Toshkent, 2019.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

6. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

7. Innovative педагогические технологии в образовании / ilmiy maqolalar to‘plami. – Moskva, 2020.

8. Internet manbalari:

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA QIZIQTIRISH VA VATANPARVARLIK TARBIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

G'oziev X.
O'zbekiston Milliy tarbiya pedagogika instituti
Qoraqalpog'iston filiali mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so'zlar: vatanparvarlik, harbiy xizmat, yoshlar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim, tarbiya, Sharq mutafakkirlari, kasbiy yo'naltirish, mehnat ta'limi, axloqiy tarbiya, fuqarolik mas'uliyati, pedagogik.
Ключевые слова: патриотизм, военная служба, молодёжь, военно-патриотическое воспитание, образование, воспитание, восточные мыслители, профессиональная ориентация, трудовое воспитание, нравственное воспитание, гражданская ответственность, педагогическое.
Key words: patriotism, military service, youth, military-patriotic education, education, upbringing, Eastern thinkers, professional orientation, labor education, moral education, civic responsibility, pedagogical heritage.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash va ularning harbiy xizmatga qiziqishini oshirishning pedagogik asoslari, Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya merosidan foydalangan holda o'rganiladi. Unda yosh avlodni tarbiyalashda, vatanparvarlik tuyg'usini, fuqarolik mas'uliyatini, axloqiy fazilatlarni, mustahkam irodani va jamiyatga xizmat qilishga tayyorlikni shakllantirishda xalqning tarixiy va pedagogik tajribasining ahamiyati ta'kidlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Donish, Kaykovus va Abdurahmon Jomiyning ta'lim, tarbiya, mehnat, kasbga yo'naltirish va shaxsni rivojlantirish borasidagi pedagogik qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning g'oyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bilim, mehnatsevarlik, kasbiy tayyorgarlik, intizom, iroda, mas'uliyat va jamiyatga xizmat qilish yetuk shaxsni rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi. Maqolada Sharq mutafakkirlarining g'oyalaridan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni harbiy xizmatga tayyorlashning zamonaviy tizimida ijodiy foydalanish imkoniyati asoslanadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются педагогические основы формирования патриотического духа у молодёжи и повышения интереса к военной службе на основе образовательного и воспитательного наследия мыслителей Востока. Подчёркивается значение историко-педагогического опыта народа в воспитании молодого поколения, формировании у него чувства Родины, гражданской ответственности, нравственных качеств, твёрдой воли и готовности служить обществу. Особое внимание уделяется педагогическим взглядам Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины, Абу Насра аль-Фараби, Юсуфа Хос Ходжиба, Ахмада Дониша, Кайковуса

и Абдурахмана Джами на образование, воспитание, труд, профессиональную ориентацию и формирование личности. Анализ их идей показывает, что знания, трудолюбие, профессиональная подготовка, дисциплина, воля, ответственность и служение обществу являются важными условиями формирования зрелой личности. В статье обосновывается возможность творческого использования идей восточных мыслителей в современной системе патриотического воспитания молодёжи и её подготовки к военной службе.

SUMMARY:

The article examines the pedagogical foundations of developing a patriotic spirit among young people and increasing their interest in military service based on the educational and moral heritage of Eastern thinkers. The importance of the historical and pedagogical experience of the Uzbek people in educating the younger generation, developing a sense of homeland, civic responsibility, moral qualities, strong will, and readiness to serve society is emphasized. Particular attention is paid to the educational views of Abu Rayhan al-Biruni, Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr al-Farabi, Yusuf Khos Hajib, Ahmad Donish, Kaykavus, and Abdurahman Jami concerning education, upbringing, labor, professional orientation, and personality development. The analysis of their ideas demonstrates that knowledge, diligence, professional training, discipline, strong will, responsibility, and service to society are important conditions for developing a mature personality. The article substantiates the possibility of creatively applying the ideas of Eastern thinkers in the modern system of patriotic education and preparing young people for military service.

Uzoq tarixga ega bo‘lgan xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid boy hayotiy tajribasi kelgusi yosh avlodni bilimli, hur fikrli, e'tiqodli, mustahkam iroda, dunyoqarash va tafakkurga ega, o‘zligini, o‘z haq-huquqini, nihoyat, milliy o‘zligini anglagan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdek kuchga ega. Ayniqsa, xalqimizning fan, maktab va maorif sohasidagi boy tajribasini ilmiy o‘rganish, ularning maqsadga muvofiq jihatlaridan bugungi ta’lim tizimida samarali foydalanish ijtimoiy zaruratdir. Bu birinchidan, ta’lim sifatini oshirsa, ikkinchidan, kelajak avlodning qalbida vatan tuyg‘usini shakllantiradi. Uchinchidan esa, pedagogika ilmini, aniqrog‘i, pedagogika nazariyasi va tarixi sohasini muayyan tarixiy-pedagogik fikr bilan boyitishga va o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlikka qiziqtirishga xizmat qiladi.

Ta’lim va tarbiya inson hayotida buyuk hodisa bo‘lib, bu hodisa uni ibtidoiy holatdagi turmush tarzidan chiqardi, hozirgi zamon tamadduniga xos jamiyatni yaratdi. Insoniyat o‘z hayoti qonuniyatlarini to‘g‘ri anglab yetishi uchun ta’lim bilan bog‘liq manbalarni bilmog‘i zarur. Biz o‘tmish bilan bog‘liq tariximizni qanchalik chuqur bilsak, shu asosda hozirgi zamon pedagogik jarayonni shakllantirishga shunchalik qodir bo‘lamiz. Inson o‘tmishda ajdodlar tomonidan jamlangan behisob bilim va tajribaga ega bo‘lib, ulardan qimmatli manbalarni tanlab oladi va o‘ziga yarasha istiqbol uchun yo‘l ochishga, atrof-olam haqidagi bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga intiladi. Hozirgi zamon sivilizasiyasining darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatdan insonni tarbiyalash sohasida shunchalik ko‘p kuch talab qiladi. Kelgusida ta’lim va tarbiyada uchraydigan xatolardan qochish uchun zamonamizga mos bo‘lgan ta’lim-tarbiya mazmunini belgilab oladi. Bularning barchasini milliy an'analar

va ijtimoiy hayotga amal qilgan holda rivojlantirish, tarbiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanish tabiatini bilish, uning o‘tmishi, buguni va kelajagini tasavvur etish muhimdir.

Shuning uchun sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlar vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda, uning inson taqdirini belgilashini ta’kidlagan fikrlari pedagogik adabiyotlarda keltirilgan. Odamzodning tirikchiligi va ma’naviy yuksalishi bevosita uning egallagan vatanparvarlikga bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda bayon etilgan faoliyat va uning turlari bo‘lgan o‘yin, o‘qish, mehnat shaxsning to‘g‘ri kasb egallab, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida asosiy manba bo‘lishini nazarda tutgan. Shaxsning umri davomida o‘qish, o‘yin, mehnat faoliyatlari bilan bosqichma-bosqich, to‘g‘ri shug‘ullanib borishi kelajakdagi kasbning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Faoliyatning turlari ularning shaxs hayotida muxum ahamyatga ega ekanligi haqida mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy ishlarida keng ma’lumotlar berilgan. Buyuk allomalarning hayoti, ijodi va ular qoldirgan bebaho madaniy-ma’rifiy meros yosh avlod uchun ularning ta’lim-tarbiyasi, to‘g‘ri kasbga yo‘nalishi, odobli-ahloqli bo‘lib tarbiyalanishi uchun nimalarga rioya etish kerakligi haqida ma’lumotlar qoldirgan. Olimlarimiz bildirgan buyuk fikrlar ta’lim va tarbiya jarayonida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning bildirgan fikr-muloxazalarini yosh avlodni tarbiyalashda hozirgi kunda foydalaniliyapti. Jamiyat va o‘ziga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishda muhim omil-bilim egallash deb qayd qilingan. Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga ham bir narsa istifg‘or aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi. “Bilimsiz jamiyatda jaholot, razolat hukmronlik qiladi,” deyilgan Hadisi sharifda. Bu bilan har qanday kasbni egallashning asosi bilim sirlarini o‘rganish hisoblanadi.

Yosh avlodning to‘g‘ri kasbni tanlab va egallab,baxt-saodatga erishishning ahamiyati va uning talim-tarbiya jarayonidagi tutgan o‘rni haqida ko‘p fikr-muloxazalar tarixdan bizga ma’lum. Abu Rayhon Beruniy inson kamolatida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi[4]. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrihoh bo‘lishga chaqiradi. U ma’rifat tarqatuvchilarni jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi. Shu bilan birga og‘ir mehnat qiluvchi konchilar yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag‘batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g‘amxo‘r bo‘lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi deb ta’kidlaydi. Beruniy- bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi.

Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatdan o‘rgatish kerak, deydi. Zero, qadimdan har bir yetuk inson shohmi yoki oddiy fuqoromi hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko‘ra buyuk shaxslar ham beklar ham mol-mulk egalari bo‘lgan boylar ham oddiy fuqoro ham o‘z farzandini bilimli bo‘lishi bilan birga hunarli bo‘lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo‘lganidan boshlab, kishilar o‘z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo‘lgan va bu hayot taqazosi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolatga yetishish uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi. Abu Ali Ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari xam diqqatga sazovordir[5]. Asosan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tadbiq yeta olsa va mustaqil hunar tufayli oylani ta’minlaydigan bo‘lsagina otasi uni mustaqil hayot kechirishga loyiq deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunarni o‘rganish orqali shaxsda sabr-toqatlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, zukkolik, ishbilarmonlik kabi sifatlar shakllanadi. Ibn Sino bolalarga Qur'onni va grammatik qoidalarni o‘rgatib, dinning maqsadlarini tushuntirib bo‘lganidan so‘ng, ularni ma’lum hunarga jalb etishni, hunar asoslarini egallashlariga diqqat qaratishni, ular hunarni egallab, o‘z hayotlarini ta’minlay olishlariga e'tibor berishni tavsiya etadi. O‘qituvchi bolani hunarga o‘rgatishda uning qobiliyati, e'stedodi, imkoniyatlarini e'tiborga olishi kerak. Bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o‘qituvchining unga bilim, hunar o‘rgatishi zarurligini uqtiradi. Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma’naviy yuksaklikka ko‘taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Yusuf Xos Xojib turli kasb egalarining jamiyatdagi ahamiyati haqidagi fikrlarida dehqonlar, savdogarlar, tabiblar, chorvodorlar, olimlar jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o‘rnini yuqori baholaydi va ularning mehnatini eng ulug‘ va sharafli, muqaddas ekanligini ta’riflaydi[7]. Bu qarashlarida olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shgan har bir kasb-hunar egasini ulug‘laydi.

Abu Nasr Farobiy o‘rta asrlardagi tabiby-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalariga doir asarlar yaratadi[1]. O‘rta asr sharq falsafa maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shadi. Farobiyning fikrlariga ko‘ra ta’lim-tarbiya, uning inson kamolatidagi tutgan o‘rni haqidagi ta’lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Tarbiya esa amaliy faoliyatda namayon bo‘ladi, yoshlarga u ma’lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi. Kasb-hunar va ularni bajarishga

odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi: birinchi yo‘l- qanoatbaxsh so‘zlar yordamida odat xosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo‘l (yoki usul) - majbur etish yo‘lidir. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa saxroi xalqlarga nisbatan ishlatilardi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emas. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunar va ayrim san'atlarni egallashga intilishi bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shaxar ahliga tarbiya berishdan maqsad uni fazilat egasi qilish va san'at ahliga aylantirishdir.

Endi insonning kasb-hunar va san'at bobidagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug‘ma emas, aks holda, uning fikrlash fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganida, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tibbiy majburiyat bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk tafakkur fazilati, ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ (kasb-hunar) fazilati ko‘nikma, malaka bo‘lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilish va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalaridir.

Ta’lim nutq va o‘rgatish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni xalq, millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishdir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsa, kasb-hunarga qiziqsa, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladi. Maqsadni amalga oshirishda g‘ayrat va azmu shijoat mo‘ljallangan ishni bajarishda zo‘r ta’sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar yoki hikmatlar o‘rgatadi.

Yoshlar yuqorida aytib o‘tilganday narsalar: kasb-hunar, ish tajriba, g‘ayrat va azmu shijoatga ega bo‘lganlari va shu narsalarni o‘z vujudiga singdirganlaridan so‘ng, ularni asta-sekin egallay boradi hamda zikr etilgan fazilatlarni aniqlay borib, nazariy bilimlarning hammasida matiqiy fikrlash yo‘lini ishlatishga odatlanadi. Shu tartibda bolalarga o‘rgatish yo‘li bilan ular kamolga yetguncha ana shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi. Axmad Donish ta’lim-tarbiya, axloq va yoshlarning kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘nalishi haqika fikrlarini qoldirgan. Axmad Donish yoshlarning hunar o‘rganish muommosiga alohida e'tibor beradi[3]. U yoshlarni hunarni faqat foydali bo‘lgani uchun emas, balki hayotiy zaruriyat bo‘lgani uchun egallashga da’vat etadi. Axmad Donish kasb tanlash haqida, kasb tanlashda uning odamlarga, jamiyatga foyda keltirishiga e'tibor berish kerakligi haqida bildirgan fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, u mehnat qilmay, dangasalik bilan kun o‘tkazgan odam bu dunyoda ham, u

dunyoda ham obro‘ topolmaydi, deydi mehnat qilish haqidagi fikrlarini shunday yakunlaydi:«Dunyoda zaxmatsiz rohat, tashvishsiz ne'mat topilishi mumkin emas». Axmad Donish yoshlarga qilgan bu nasihatlarida ularni odamlar uchun zarur bo‘lgan, jamiyat va oila istagiga mos ishlarni qilishga, hunarni egallashga da’vat etib deydi:”Sizlar halqning hojatini chiqaradigan bir hunarning boshini ushlanglar, shu bilan jamiyatga yordam qilgan bo‘lasizlar. Qaysi bir hunar, qaysi bir kasbni qilmoqchi bo‘lsanglar, undan kutilgan maqsad xalq uchun foyda yetkazish bo‘lsin”. Kaykovusning “Qovusnoma” asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi[6]. Aynan keltirilgan fikrlarda kasb-hunarning inson hayotidagi o‘rni mohiyati yuzasidan qarashlari ilgari surilgan. Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta o‘ziga va o‘zgaga foyda berur.

Abduraxmon Jomiy ham Abu Nasr Farobiy singari biror foydali kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb hisoblaydi. U bir odam ikki ishni eplay olmasligini ta’kidlaydi, faqat muayan bir hunar bilan shug‘ullanish, uni puxta o‘zlashtirish lozimligi haqida gapiradi. Jomiy hunar egallashni, u bilan shug‘ullanishni har qanday boylikdan afzal ko‘radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi. Abduraxmon Jomiy o‘sha davrda bilim va hunar egallamay, o‘zinig nasl-nasabi bilan maqtanib yurgan ota-onasining mol-u davlatiga ishonib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevasiz daraxtga o‘xshaydilar, bunday odamlarning jamiyatga nafi tegmaydi. Olim bilim-hunarsiz kishini o‘tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o‘xshatadi[2].

Vatan hissi insonga Vatanidan olisda bo‘lganida yaqqol seziladi. Turli sabablar bilan o‘zga yurtlarda yashagan ko‘plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchli va qayg‘uli kechgani bizga tarixdan ma’lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ал-Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.

2.Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

3..Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. - Тошкент: Фан, 1964.

4. Беруний, Абу Райҳон. Танланган асарлар. - Тошкент: Фан, 1968.

5. Ибн Сино, Абу Али. Тиб қонунлари. - Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1993.

6.Кайковус. Қобуснома. - Тошкент: Ўқитувчи, 2006.

7 Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. -Тошкент: Фан, 1971.

OLIY TEXNIKA TA'LIM MUASSASALARIDA MUHANDISLIK FANLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA TALABALARNING STEM-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Raxmonov X.T.
Qo'qon davlat universiteti, Texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti (PhD)

Tayanch so'zlar: raqamli transformatsiya, muhandislik fanlari, STEM-kompetentlik, oliy texnika ta'limi, fanlararo integratsiya, raqamli didaktika, virtual muhandislik, loyihaviy ta'lim.
Ключевые слова: цифровая трансформация, инженерные дисциплины, STEM-компетентность, высшее техническое образование, междисциплинарная интеграция, цифровая дидактика, виртуальный инжиниринг, проектное обучение.
Key words: digital transformation, engineering disciplines, STEM competence, higher technical education, interdisciplinary integration, digital didactics, virtual engineering, project-based learning.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada oliy texnika ta'lim muassasalarida muhandislik fanlarini raqamli transformatsiya qilish sharoitida talabalarning STEM-kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi va konseptual asoslari tadqiq etilgan. Zamonaviy muhandislik ta'limida raqamli texnologiyalar (CAD/CAM/CAE tizimlari, virtual laboratoriyalar va bulutli platformalar) integratsiyasi sharoitida talabalarning fanlararo bog'liqlik qonuniyatlariga asoslangan kompetensiyalarini shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Amaldagi muhandislik ta'limidagi metodik cheklovlar va an'anaviy yondashuvning raqamli transformatsiya drayverlari bilan nomuvofiqligi ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak muhandislarning mustaqil va loyihaviy faoliyatida STEM-kompetentlikni baholash hamda raqamli didaktik muhitni loyihalash bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье исследованы методическая система и концептуальные основы развития STEM-компетентности студентов в условиях цифровой трансформации инженерных дисциплин в высших технических учебных заведениях. В современном инженерном образовании проанализированы проблемы формирования компетенций студентов, основанных на междисциплинарных закономерностях в условиях интеграции цифровых технологий (систем CAD/CAM/CAE, виртуальных лабораторий и облачных платформ). Раскрыты методические ограничения в действующем инженерном образовании и несоответствие традиционного подхода драйверам цифровой трансформации. Кроме того, разработаны научно-методиче-

ские рекомендации по оценке STEM-компетентности и проектированию цифровой дидактической среды в самостоятельной и проектной деятельности будущих инженеров.

SUMMARY:

This article explores the methodical system and conceptual foundations for developing students' STEM competence in the context of digital transformation of engineering disciplines in higher technical educational institutions. In modern engineering education, the problems of forming student competencies based on interdisciplinary patterns are analyzed under the integration of digital technologies (CAD/CAM/CAE systems, virtual laboratories, and cloud platforms). The study reveals the methodical limitations in current engineering education and the inconsistency of the traditional approach with digital transformation drivers. Furthermore, scientific and methodological recommendations for assessing STEM competence and designing a digital didactic environment in the independent and project-based activities of future engineers are developed.

Kirish. To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida muhandislik kadrlari tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida loyihalash, modellashtirish va texnologik jarayonlarni boshqarish to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, bu oliy texnika ta’lim muassasalarida muhandislik fanlarini o‘qitish metodikasini ham raqamli transformatsiya qilishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar muhandislik ta’limida faqatgina axborot texnologiyalaridan foydalanishni emas, balki fanlararo sinergiyani ta’minlovchi yangi raqamli didaktik ekotizimlarni joriy etishni talab etadi.

Muhandislik yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida fundamental fanlar (matematika, fizika) va amaliy muhandislik yo‘nalishlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda STEM-yondashuv (Science, Technology, Engineering, Mathematics) eng samarali drayver hisoblanadi. Biroq zamonaviy muhandislik grafikasi, nazariy mexanika, materiallar qarshiligi va detallarni loyihalash (CAD/CAM/CAE tizimlari) kabi murakkab fanlarni an’anaviy monometodik (tarqoq) usulda o‘qitish talabalarda yaxlit muhandislik fikrlashini shakllantirish imkonini bermayapti. Oliy texnika ta’limida muhandislik jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish - bu shunchaki o‘quv materiallarini elektron platformalarga joylashtirish emas, balki talabalarda fanlararo muammolarni raqamli vositalar yordamida yechish ko‘nikmasini, ya’ni kompleks STEM-kompetentlikni rivojlantirish demakdir.

Bugungi ta’lim amaliyotini tahlil qilish tizimli metodik nomuvofiqliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Muhandislik kafedralarida qo‘llanilayotgan aksariyat elektron o‘quv resurslari va LMS platformalari (Moodle, OpenEdx) asosan ma’lumotlarni uzatish va nazorat qilish kabi passiv funksiyalar bilan cheklangan. Ularda bo‘lajak muhandislarning loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi virtual muhandislik laboratoriyalari, bulutli hisoblash muhitlari va raqamli egzaklar (Digital Twins) bilan ishlash metodikasi tizimli

yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada talabalarda nazariy matematik modellar bilan real ob’yektlarni raqamli loyihalash o‘rtasidagi funksional aloqadorlik uzilib qolmoqda, bu esa bitiruvchilarning zamonaviy ishlab chiqarish korxonalariga adaptatsiyasini qiyinlashtirmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish oliy texnika ta’lim muassasalarida muhandislik fanlarini o‘qitish platformalarini konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik kontentini fanlararo integratsiya tamoyillari asosida modifikatsiya qilish hamda talabalarning STEM-kompetentligini tizimli rivojlantirishning metodik ta’minotini yaratish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

Замонавий таълимнинг асосий вазифаларидан бири ижодкор шахсни тарбиялашдир. Мазкур мақолада ўқувчи ва талабаларда тадқиқотчилик кўникма ва малакаларини шакллантиришнинг ижодий ва амалий аспектлари ёритилган.
РЕЗЮМЕ:
Одной из важных задач современного образования является воспитание творческой личности. В данной статье освещены творческие и практические аспекты формирования исследовательских умений и навыков у учащихся и студентов.
SUMMARY:
One of important problems of modern education is education of the creative person. In this article creative and practical aspects of formation of research skills at pupils and students are shined.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biridir. Binobarin, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga mos bo'lgan yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan etuk kadrlarni tayyorlashdir.

Ilmiy tadqiqot jarayonida hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur, amalda sinab ko'rish o'z ifodasini topadi. Ilmiy tadqiqot jarayoni yaxlit tizimga ega bo'lib, asosan uzluksiz ta'lim jarayonida shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Uning dastlabki bosqichi maktab davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarda ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha boshlang'ich tushunchalar shakllanadi. Keyingi bosqichlarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Tizimning yuqori bosqichlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning amaliy tatbiqini ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda oliy ta’lim asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi va unda talabalar tadqiqotchilik faoliyatlarining aniq yo’nalishlariga ega bo’ladilar.

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda, biz dissertatsiyaning asosiy tayanch tushunchalarini quyidagicha izohlashni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

Tadqiqot - arab tilidan o’zbek tiliga o’zlashgan bo’lib, “tadqiq” so’zining “to’g’ri ko’plik” shaklidir. Arab tilida تدقيقات - [tadqiqotun] deb yoziladi, talaffuzda esa [tadqiqat] deb aytiladi. Ma’nosi: “maydalab o’rganish”, “tadqiq” so’zi “daqqaqa” fe’li bo’lib “aniq bo’lmoq” “aniqlamoq” kabi ma’nolarini beradi.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob’ektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqotning hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir - biri bilan bog’langan ikki qism - tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o’tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalaridan fanning o’zidagina emas, balki ko’pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng foydalaniladi .

Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo’naltirish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi o’tmishda Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham keng yoritilgan bo’lib, bu borada prezident I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» nomli kitobida quyidagicha izohlagan: “.....zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy – ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solganini g’urur bilan ta’kidlash lozim” Bu borada Forobiy «Baxt saodatga erishuv to’g’risida» asarida bilimlarni o’rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo’lgan ilm o’rganiladi, bu –olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o’rgatgach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o’rganish lozim. Undan so’ng, umuman, jonli tabiat - o’simlik va hayvonlar haqidagi ilm o’rganiladi, deydi.

Beruniy «O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida shunday deydi: «Faxrlanish - haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir.

Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular etishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi.

Demak, talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish samaradorligi talaba tafakkuri darajasiga bog'liq bo'lib, tafakkur - ilmiy asoslangan, mustaqil, mantiqiy bo'lmog'i lozim.

Tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo'l-yo'riqlarini pedagog olima E.Z.Usmonova quyidagicha ko'rsatgan:

1) muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;

2) vazifa javobini izlash va uni topish;

3) ushbu topilgan javobni sub'ektiv yangilikning ochilishi sifatida idrok etish;

4) erishilgan javobning to'g'riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish, tushuntirish.

A.Choriev "Inson falsafasi" nomli asarida "Inson muammosini o'rganuvchi tadqiqotchilarning sa'y-harakatlari 2 yirik qutbga bo'ysundirilishi, birinchi qutb - insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini o'rganuvchi barcha fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashi zarur" ekanligini ta'kidlagan holda inson muammosiga sotsiogumanitar va tabiiy-ilmiy yondashuvlar integratsiyasi mujassamlashtirilishini uqtiradi.

Uning fikricha, fanlar o'rtasidagi hamda narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlikni anglagan o'qituvchi o'z darslarini to'g'ri loyihalay oladi. Ongida antitsipirik layoqatlar rivojlangan o'qituvchilargina ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurini o'stira oladi. Ongning antitsipirik layoqatida uning uch xil funktsiyasi ajratiladi: bilish (farazlar qo'yish, kelajakni ko'ra bilish), loyihalash (fikran hisob-kitob qilish, loyihani oldin ongda, keyin amaliyotda tayyorlash), tasdiqlay bilish (maqsad, reja, dastur, kontseptsiyalarni amalga oshirish).

Ma'lumki, talabalik davrida yoshlarda olamni bilishga, falsafiy mushohadaga, psixologik tahlilga, mantiqiy fikrlashga, tafakkur qirralarini rivojlantirishga ishtiyoq va harakat kuchli bo'ladi. Shu bilan birga, ularda fantaziyaga moyillik ham mavjud bo'ladiki, mana shu fiziologik–psixologik holat tafakkurni rivojlantirish, bilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun omil hisoblanadi. Bu esa talabalarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan ko'proq ekanini, olamni bilishga ishtiyoq kuchliligini bildiradi. Shuning uchun ham talabalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Biz tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olgan oliy o'quv yurti talabalari, bilimdon, qiziquvchi, bilimga intiluvchi, axloq-odobi shakllangan, mustaqil fikrlovchi shaxs bo'lib, ulardagi ichki ehtiyoj o'zining imkoniyatlari darajasida amalga oshadi.

Talaba shaxsining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. «Bu, eng avvalo, ularda o'zini takomillashtirish istagining kuchayishi va o'qishga bo'lgan

qiziqishining o'sishi bilan xarakterlanadi. Talabalik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri mustaqil fikr yuritishga intilishning rivojlanishidir. Shuning uchun ham bu davrda faqat nazariy bilim bermasdan, turli amaliy vaziyatlarga munosabat bildirishni shakllantirish, ko'proq izlanish, ijodiy yondashuv, tafakkur rivojiga e'tibor qaratish lozim. Jahon ta'lim tizimida falsafa, psixologiya har bir fanning metodologik asosida turadi. Chunki barcha fanlar nazariy jihatdan falsafiy qonuniyatlarga asoslanadi. Shuningdek, ilmiy tafakkur ham inson psixologiyasi va falsafiy qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Borliqni anglash - tafakkur shakllari orqali vujudga keladi. Har bir talaba o'z amaliy faoliyatida fikrlashning mazmun-mohiyati, rang-barangligi, ko'p qirrali xususiyatlarini hisobga olib, ularga ongli ravishda amal qilishlari lozim.

Real borliqni anglash ta'limning hayot bilan aloqadorligini o'rgatishdan iborat. Talabaning fikri keng va atroflicha bo'lishi uchun o'qituvchi ta'limning hayot bilan aloqadorlik tomonini talabalarga anglatishi lozim. Bilim oluvchi ana shuni tushunib etsagina o'z kuch-g'ayratini, bilimlarni qiziqib o'rganishga sarflay oladi.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, pedagogik muammolarni kompleks o'rganish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonni optimallashtirish, ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Metodik adabiyotlarda pedagogik hodisalarni kompleks o'rganishning ikki yo'li qayd etilgan: a) mohiyati va o'rganish maqsadiga ko'ra o'zaro daxldor muammolarni bir fan doirasida tahlil qilish; b) aynan olingan bir muammoni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilish.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim jarayonida borliq haqida ma'lumot, tushuncha hosil qilibgina qolmay, ana shu dunyoni o'zi anglab etish uchun sharoit, imkoniyat yaratishimiz zarur.

Talabalik davrida hayotiy hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni his qila olsa, ularni anglab etsagina bilim olishga qiziqish kuchayadi. Talaba ob'ektiv borliqni anglab etsa, o'z bilimlarini umumlashtira oladi, ularni tizimga soladi, bilimlarni chuqur o'zlashtira oladi. Bu bilan ularning ilmiy dunyoqarashi kengayadi. Ana o'shandan keyingina ular o'z taklifini bera oladi, g'oyaga ega bo'ladi, isbot qiladi, o'z faraz va qarashlarini ilgari suradi, tafakkuri rivojlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish ularning tafakkuri darajasiga bog'liqligi psixolog olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan asoslagan. Jumladan, psixolog olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflangan:

Psixolog A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkur muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni oldindan payqash xususiyatlari ekanligi alohida ta'kidlab o'tiladi.

Psixolog S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni sub'ekt faolligining paydo bo'lishi, deb ataydi.

E.G'oziev esa "tafakkur atrof - muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi ruhiy jarayon, sotsial sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir, deya ta'rif bergan.

Professor N.Mahmudov tafakkurning takomil darajasi-mustaqilligi va muntazamligi, teranligi va tarangligi, ijodiyligini parvarish qilish kerakligi haqida quyidagilarni aytgan edi: "Bolaning tafakkur imkoniyati parvarish qilinmasa, unga shaklu shamoyil, yo'nalish berilmasa, bola ulg'ayganda ham u imkoniyat sifatida yoki bir qolipdagi o'ylar tizimi sifatida qolaveradi. Bunday to'ng va tanbal tafakkur faol, harakatli, demakki, izlanuvchan va yaratuvchan bo'lolmaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tadqiqotchi ilmiy faoliyatining quyidagicha shakllanganlik darajalari aniqlandi:

- past daraja: mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish qiyin kechadi, boshqaruv ko'nikmalarining rivoji past darajada bo'ladi;

o'rtacha daraja: ilmiy faoliyatni boshqarish borasida ongli ko'nikma namoyon bo'ladi;

- yuqori daraja: mustaqil ilmiy faoliyatida aniqlik, maqsadga moslik, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini bir muncha yuqori darajada qurishga imkon beradigan boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lish va uni tanqidiy baholay olish namoyon bo'ladi..

Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish ma'nosi davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda muayyan hissiy-ruhiy ehtiyoj kasb etishini har doim nazarda tutish lozimligi yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ishlarida ma'lum miqdorda ilmiy asoslangan bo'lib, fikrlarning uyg'unligi, ilmiy izlanishlardagi ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik hamkorlik alohida ko'zga tashlanib turadi.

Dunyo taraqqiyot davri nafaqat globallashuv davriga bilan balki yoshlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan munosabatiga ham chambarchas bog'liqdir.

Yoshlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan munosabati davlat, jamiyat taraqqiyoti, muvozanatini belgilab berishini dunyo miqyosidagi bo'layotgan o'garishlar o'zida aks etmoqda. Yoshlarning tadqiqotchilik layoqatini noto'g'ri tarbiyalash ilm-fanning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadi. Jumladan, orol dengizi suvini taqsimlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda orol dengizi suvlaridan noto'g'ri foydalanish, ma'yoridan oshiq sug'orish ishlariga sarflanishi natijasida ekologik muvozan'atning buzilishi ro'y berganini misol qilib olish mumkin, lekin bunday ilmiy izlanishlarda tadqiqotchining ilmiy ishlarga bo'lgan ijobiy munsabati, madaniyat darajasi, insonlarning farovon turmushini yanada yuqoriga

kutarish maqsadining yo'qligi, insonlarning farovon hayoti ikinchi darajada qolganligini taqozo etadi. Chunki tadqiqot ishlarini olib borgan insonlarda ilmiy yangilikka bo'lgan ijobiy munosabat, tadqiqotchilik layoqatining tarbiyalanganlik darajasi pastligining ifodalanishidir. Tadqiqot ishimizning pirovard maqsadi esa tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan yoshlarda birinchi o'rinda har qanday ilmiy yangilik natijasi insonlarning farovon turmushi, ularning hayotini yanada yaxshilashga qaratilganidadir.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi mexanizmlari ishlashini ta'minlash davlat hayotining barcha sohalarida innovatsion rivojlanishning negizi bo'lib xizmat qiladi va shu bilan bir qatorda xalqaro xamkorlikni yanada kengaytirishga ko'maklashadi.

Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirilishida yoshlar tadqiqotchilik layoqatining tarbiyalanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillaridan ma'lum bo'ladiki, har qanday ilmiy faoliyat shaxsning hissiyoti, ehtiyoji, ruhiy-aqliy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshadi. Binobarin, har qanday o'qituvchi ilmiy tadqiqot faoliyati talaba shaxsining aqliy kamolotini ta'minlovchi omil ekanligini bilishlari lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan dolzarb yo'nalishlarini tadqiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish fundamental qiymatga ega bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish uchun oliy ta'lim muassasasida tadqiqotlarga tizimli va izchil yondashishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арабско-русский словарь. Т-I,Т.: Камалак, 1994. составитель И.И.Баранов. 247 с.
2. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. –5-jild.-T.: «O'ME Davlat ilmiy nashriyoti», 2003. –704 b.
3. O'zbek pedagogik antologiyasi. -T.: «O'qituvchi», 1999. II jild.71-72-b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-t.Toshkent, 1968, 151 b.
5. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? - T.: Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000.-B. 36.
6. Choriev A. Inson falsafasi.-T.: «Hsinos EHK». 2002. -S. 139.
7. Ибрагимов Р. Проблемный подход обучения младших школьников: Автореф. ... канд .дис. -Т., 1985. - С.16.
8. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. - М.: Просвещение, 1991. -С. 288.
9. Исследование методологических проблем комплексного подхода к воспитанию. - М.: Наука, 1982. -С. 190.
10. Брушлинский А.В. Мышление и прогнозирование. - Москва: Мысль, 1979.
11. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. - Москва: АПНРСФСР.
12. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi-T.: O'qituvchi, 1990. -B. 151.
13. Maxmudov M. Ona tili va ijodiy tafakkur takomili.-T.: 2001.-3-b.

TALABALARNING BIOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA WEB-PLATFORMANI AMALIY SAMARADORLIGI

Rabbimova M.S.
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: biologik kompetentlik, web-platforma, raqamli ta’lim, biologiya ta’limi, virtual laboratoriya, interaktiv topshiriq, mustaqil ta’lim, amaliy faoliyat, raqamli o‘quv vositalari, baholash.
Ключевые слова: биологическая компетентность, веб-платформа, цифровое образование, биологическое образование, виртуальная лаборатория, интерактивное задание, самостоятельное обучение, практическая деятельность, цифровые учебные средства, оценивание.
Key words: biological competence, web platform, digital education, biology education, virtual laboratory, interactive assignment, independent learning, practical activity, digital learning tools, assessment.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirishda web-platformalardan foydalanish muammolari keltirilgan. Shuningdek, talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirish uchun tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan web-platformani imkoniyati, afzalliklari va amaliy samaradorligi yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются проблемы использования веб-платформ для развития биологической компетентности студентов. Кроме того, представлена веб-платформа, разработанная в рамках исследования для формирования биологической компетентности студентов, и раскрыты её возможности, преимущества и практическая эффективность.
SUMMARY:
This article examines the challenges of using web platforms to develop students’ biological competence. It also presents a web platform designed within the framework of the study to foster students’ biological competence and describes its capabilities, advantages and practical effectiveness.


Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi tufayli oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtrishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va atrabiya jarayonini tashkil

etishning zamonaviy yondashuvi sifatida web-platformalardan foydalanishni keltirish mumkin [1, 2].

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda, shu jumladan biologiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirishda web-platforma muhim ahamiyat kasb etadi [4, 5, 6].

Chunki biologiya fanining o‘ziga xosligi ko‘plab biologik jarayonlarni bevosita kuzatishning murakkabligi bilan belgilanadi. Hujayrada kechadigan jarayonlar, oqsil biosintezi, irsiyat qonuniyatlari, modda va energiya almashinuvi, populyatsion hamda ekologik jarayonlarning ayrimlarini an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlarida to‘liq namoyish etish imkoniyati cheklangan. Mazkur muammoni hal etishda web-platformalar, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va interaktiv modellar muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Web-platformaga asoslangan ta’lim muhitida talaba faqat tayyor axborotni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki biologik muammoni tahlil qiluvchi, axborot izlovchi, tajriba o‘tkazuvchi, natijalarni solishtiruvchi, xulosa chiqaruvchi va o‘z faoliyatini baholovchi faol ishtirokchiga aylanadi. Shu bois tadqiqot doirasida talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan web-platforma ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. https://webbio.uz/ platformadan foydalanish jarayoni

Ushbu web-platforma talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Platformaning asosiy maqsadi biologik bilimlarni faqat nazariy o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni raqamli muhitda ko‘rish, tahlil qilish,

amaliyotda qo‘llash, virtual tajribalar orqali mustahkamlash hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni biologik kompetentlik darajasiga olib chiqishdan iborat. Platformaning bosh sahifasida ham mazkur metodik g‘oya “Biologik kompetentlik bilimni egallash bilan emas, uni virtual ta’lim muhitida amaliy faoliyatga aylantirish bilan rivojlanadi” tamoyili orqali ifodalangan.

Shuningdek, platforma talabalarning biologik bilimlarini interaktiv o‘rganish, amaliyotda qo‘llash va biologik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy web-ta’lim platformasi sifatida tavsiflangan. Platformada biologik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator raqamli ta’lim imkoniyatlari birlashtirilgan. Platformada multimodal resurslar, semantik yondashuvga asoslangan materiallar, videovositalar, algoritmik aqliy sxemalar, virtual vositalar, virtual laboratoriyalar, krossvordlar, viktorinalar hamda standart va nostandart testlardan foydalanishga mo‘ljallangan elementlar mavjud. Ushbu imkoniyatlarni didaktik vazifalari bo‘yicha quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

1-jadval

https://webbio.uz/ platformaning imkoniyati

№	webbio.uz imkoniyati	Ta’limdagi vazifasi	Rivojlanadigan kompetentlik
1	Multimodal resurslar	Matn, tasvir, video va boshqa formatlarda biologik axborotni o‘zlashtirish	Kognitiv
2	Semantik yondashuv	Biologik tushunchalar va ular o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash	Tahliliy
3	Videovositalar	Murakkab biologik jarayonlarni ko‘rgazmali o‘rganish	Vizual-kognitiv
4	Algoritmik aqliy sxemalar	Biologik jarayonlarning ketma-ketligi va sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish	Mantiqiy
5	Virtual vositalar	Biologik obyekt va jarayonlarni raqamli muhitda o‘rganish	Amaliy-faoliyatli
6	Virtual laboratoriyalar	Tajriba o‘tkazish, kuzatish, natijalarni tahlil qilish	Tadqiqotchilik
7	Krossvordlar	Biologik atama va tushunchalarni mustahkamlash	Reproduktiv-kognitiv
8	Viktorinalar	Tezkor savol-javoblar orqali bilimlarni faollashtirish	Mantiqiy-kognitiv
9	Standart testlar	O‘zlashtirilgan bilim darajasini aniqlash	Nazorat-baholash
10	Nostandart testlar	Bilimni yangi va muammoli vaziyatlarda qo‘llashni aniqlash	Produktiv va kreativ
11	Raqamli baholash vositalari	Natijalarni aniqlash va qayta aloqani tashkil qilish	Refleksiv

Platformaning asosiy afzalliklari quyida keltirilgan:

- biologiya fanida hujayra tuzilishi, biologi jarayonlar, oqsil strukturasi, organizmlarning rivojlanishi kabi murakkab jarayonlarni faqat matn orqali tushuntirish har doim ham yetarli natija bermaydi. https://webbio.uz/ muhitida turli ko‘rinishdagi raqamli resurslardan foydalanish talabaning bir mavzuni bir nechta axborot kanali orqali o‘zlashtirishiga sharoit yaratadi;

- platformaning muhim afzalligi nazariy bilimni amaliy va interaktiv topshiriqlar bilan bog‘lash imkoniyatidir. Bunda talaba ma’lumotni o‘qib yoki ko‘ribgina qolmay, balki uni topshiriqni bajarish, biologik vaziyatni tahlil qilish va virtual tajribada qo‘llash orqali mustahkamlaydi;

- virtual laboratoriyalar biologik kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular talabaning tajriba algoritmini tushunishi, obyektlarni kuzatishi, turli parametrlarni solishtirishi, natijalarni qayd etishi va ular asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- algoritmik sxemalar, krossvordlar, viktorinalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish biologik tushunchalarni oddiy yodlashdan ularning o‘zaro aloqalarini aniqlashga o‘tishga yordam beradi. Natijada talabalarda taqqoslash, tasniflash, tahlil qilish, umumlashtirish va sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash ko‘nikmalari shakllanadi.

- platformadagi virtual vositalar va laboratoriya mashg‘ulotlari “muammo – gipoteza – tajriba – kuzatish – natijani tahlil qilish – xulosa” ketma-ketligi asosida talabalarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish imkonini beradi.

- standart va nostandart topshiriqlar, viktorina va testlardan foydalanish talabaning nafaqat biologik bilimlari hajmini, balki o‘zlashtirilgan bilimni muammoli vaziyatda qo‘llay olish imkoniyatini ham baholashga xizmat qiladi.

- web-platformaning internet orqali foydalanilishi talabaning ta’lim resurslari bilan auditoriyadan tashqarida ham ishlashiga imkon beradi. Talaba kerakli materialni qayta ko‘rishi, topshiriqni mustaqil bajarishi va o‘z bilimini tekshirishi mumkin. Bu esa mustaqil ta’lim ulushini oshiradi.

- web-platforma alohida bilim yoki ko‘nikmani emas, biologik kompetentlikning bir nechta tarkibiy komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish imkonini beradi.

https://webbio.uz/ web-platformaning amaliy samaradorligi uning biologiya ta’limida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish va biologik kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Platformadan o‘quv jarayonida foydalanish an’anaviy dars mazmunini raqamli o‘quv materiallari, interaktiv topshiriqlar, amaliy mashqlar va nazorat vositalari bilan boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, https://webbio.uz/ manzilida joylashtirilgan web-platformasidan foydalanish biologiya fanini o‘qitish jarayonini zamonaviy raqamli

ta’lim talablari asosida tashkil etish, talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirish hamda ularning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Platformada taqdim etilgan elektron o‘quv materiallari, interaktiv topshiriqlar, nazorat va baholash vositalari hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan resurslardan tizimli foydalanish nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

https://webbio.uz/ platformadan foydalanish talabalarning biologik jarayon va hodisalarni tushunishi, tahlil qilishi, olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashi hamda mustaqil izlanish olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay raqamli muhit yaratadi. Shu bilan birga, platforma talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi va o‘quv motivatsiyasini oshirish, individual ta’lim sur’atini ta’minlash hamda auditoriya va mustaqil ta’limni o‘zaro integratsiyalash imkonini beradi. Shuningdek, web-platformasini biologiya ta’limiga maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda integratsiya qilish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining biologik kompetentligini rivojlantirishga, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шарапова Г.В. Иммунология фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда электрон таълим ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент – 2022. – 153 б.

2. Яхшибоева Д.Т. Бўлажак биология ўқитувчиларининг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (биотехнология фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. –146 б.

3. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.

4. Abralov O.S Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda “flipped classroom” texnologiyasining imkoniyati Elektron ta’lim” – “Электронное обучение” – “E-learning” June, 2023, No4, Vol. 2 ISSN2181-1199 (13.00.02. OAK 2023-yil

5. Maria E.P. O ensino da biologia e geologia com recurso às tecnologias da informação e comunicação: implicações para a aprendizagem. doutoramento em educação. 2017. – 190 p.

6. Sílvia M.H. A Construção da ciência na educação científica do ensino secundário. Estudo do discurso pedagógico do programa e de manuais escolares de Biologia e Geologia do 10.º ano e das conceções dos professors.Tese especialmente elaborada para a obtenção do grau de Doutor no ramo de Educação, especialidade de Didática das Ciências 2017. – 580 p.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA STEAM YONDASHUVINING AHAMIYATI

Tursunov J.
Qo'qon DU, p.f.f.d, PhD

Tayanch so'zlar: STEAM, texnologiya ta'limi, integratsiya, innovatsion ta'lim, loyiha, ijodiy fikrlash, texnik tafakkur, modellashtirish, muhandislik, kreativlik, amaliy faoliyat, raqamli texnologiyalar.
Ключевые слова: STEAM, технологическое образование, интеграция, инновационное образование, проект, творческое мышление, техническое мышление, моделирование, инженерия, креативность, практическая деятельность, цифровые технологии.
Key words: STEAM, technology education, integration, innovative education, project, creative thinking, technical thinking, modeling, engineering, creativity, practical activity, digital technologies.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish jarayonida STEAM yondashuvidan foydalanishning pedagogik ahamiyati, o'quvchilarning ijodiy, texnik va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. STEAM yondashuvi fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, loyihalash, modellashtirish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada texnologiya darslarida matematika, tabiiy fanlar, informatika, muhandislik va san'at elementlarini uyg'unlashtirish imkoniyatlari hamda loyiha asosida ta'lim tashkil etishning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, STEAM yondashuvi orqali o'quvchilarda zamonaviy kasblarga qiziqish, texnik tafakkur va innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье подчеркивается педагогическая значимость использования подхода STEAM в процессе обучения технологиям, а также его возможности для развития творческих, технических и практических компетенций учащихся. Подход STEAM служит для связи теоретических знаний учащихся с практической деятельностью, формирования навыков самостоятельного решения проблем, проектирования, моделирования и творческого мышления на основе междисциплинарной интеграции. В статье рассматриваются возможности сочетания элементов математики, естественных наук, информатики, инженерии и искусства на уроках технологий, а также преимущества организации образования на основе проектов. Уделяется внимание также вопросам развития интереса учащихся к современным профессиям, технического мышления и подготовки к инновационной деятельности посредством подхода STEAM.
SUMMARY:
This article highlights the pedagogical significance of employing the STEAM approach in teaching technology and explores its potential to foster students' creative, technical, and practical competencies. Based on interdisciplinary integration, the STEAM approach facilitates the connection of theoretical

knowledge with practical application and helps develop skills in independent problem-solving, design, modeling, and creative thinking. The article examines opportunities for integrating elements of mathematics, natural sciences, informatics, engineering, and art into technology lessons, as well as the advantages of organizing project-based learning. Furthermore, it addresses how the STEAM approach cultivates students' interest in modern professions, technical thinking, and readiness for innovative activities.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil fikrlaydigan, muammolarni hal qila oladigan, ijodiy yondashadigan va amaliy faoliyat olib borishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashni talab etmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya fani o‘z mazmuniga ko‘ra amaliy faoliyat, loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish, materiallarga ishlov berish, texnik ijodkorlik va kundalik hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu sababli mazkur fanni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

Shunday zamonaviy yondashuvlardan biri STEAM ta’lim texnologiyasidir. STEAM atamasi ingliz tilidagi Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san’at va Mathematics – matematika so‘zlarining bosh harflaridan tashkil topgan. Mazkur yondashuv ushbu fanlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi.

STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, unda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki muayyan muammoni o‘rganadigan, yechim izlaydigan, loyiha ishlab chiqadigan va uni amaliy jihatdan sinab ko‘radigan faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Texnologiya ta’limida STEAM yondashuvining mazmuni. Texnologiya darslari o‘quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish uchun katta imkoniyatlarga ega. Oddiy buyumni loyihalash va tayyorlash jarayonining o‘zida matematika, fizika, informatika, san’at va muhandislikka oid bilimlardan foydalanish mumkin.

Masalan, o‘quvchi qog‘oz, karton yoki boshqa materiallardan avtomobil maketini tayyorlayotgan bo‘lsa, uning o‘lchamlarini aniqlashda matematika, konstruksiyaning mustahkamligini belgilashda fizika va muhandislik, tashqi ko‘rinishini ishlab chiqishda san’at, maketni loyihalashda esa texnologik hamda raqamli vositalardan foydalanishi mumkin.

Demak, STEAM yondashuvi texnologiya darsining mazmunini kengaytirib, uni boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Bunda o‘quvchi birgina mavzuni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki turli fanlardan olgan bilimlarini yagona amaliy vazifani bajarishga yo‘naltiradi.

STEAM yondashuvida “bilim – ko‘nikma – amaliyot – natija” ketma-ketligi muhim hisoblanadi. O‘quvchi avval muammoni tushunadi, zarur bilimlarni izlaydi, keyin loyiha ishlab chiqadi, uni tayyorlaydi, sinovdan o‘tkazadi va natijani baholaydi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga keng imkoniyat yaratadi.

STEAM yondashuvining texnologiya darslaridagi ahamiyati. Texnologiya darslarida STEAM yondashuvidan foydalanish bir qator pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, o‘quvchilarning amaliy faoliyati kuchayadi. An’anaviy darslarda o‘quvchi ma’lum bir mavzu bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin. STEAM yondashuvida esa olingan bilim muayyan mahsulot yoki loyiha yaratish orqali mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, ijodiy fikrlash rivojlanadi. O‘quvchiga tayyor yechimni berish o‘rniga muammoni mustaqil hal qilish imkoniyati yaratiladi. Masalan, “Qanday qilib qog‘ozdan mustahkam ko‘prik yasash mumkin?”, “Qanday konstruksiya ko‘proq yuk ko‘tara oladi?” kabi savollar o‘quvchini izlanishga undaydi.

Uchinchidan, texnik tafakkur shakllanadi. Texnologiya darslarida turli buyum va modellarni loyihalash, ularning qismlarini tahlil qilish, material tanlash va konstruksiyani sinovdan o‘tkazish orqali o‘quvchilarda muhandislikka oid dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, fanlararo integratsiya ta’minlanadi. STEAM yondashuvi o‘quvchiga matematika, tabiiy fanlar, informatika, san’at va texnologiya fanlaridagi bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini amaliy jihatdan ko‘rsatadi.

Beshinchidan, mustaqil va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Loyiha ishlarini kichik guruhlarda tashkil etish o‘quvchilarga vazifalarni taqsimlash, o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy natijaga erishishni o‘rgatadi.

Texnologiya darslarida STEAM elementlaridan foydalanish. Texnologiya darslarida STEAM yondashuvini joriy etishda murakkab jihozlardan foydalanish doimo ham talab qilinmaydi. Oddiy materiallar yordamida ham qiziqarli va samarali topshiriqlar tashkil etish mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga “Qog‘ozdan eng mustahkam ko‘prik yaratish” loyihasini berish mumkin. Bunda o‘quvchilar qog‘ozning xususiyatlarini o‘rganadi, turli konstruksiyalarni sinab ko‘radi, matematik o‘lchashlardan foydalanadi va o‘z loyihasini amaliy sinovdan o‘tkazadi.

Yana bir misol sifatida “Kelajak shahri” loyihasini keltirish mumkin. O‘quvchilar karton, qog‘oz, rangli materiallar yoki raqamli dasturlardan foydalanib, zamonaviy shahar maketini yaratadilar. Loyihada binolar, yo‘llar,

transport vositalari, yashil hududlar va energiya manbalarini joylashtirish orqali bir nechta fan bo‘yicha bilimlardan foydalaniladi.

“Ekologik uy” loyihasi ham texnologiya darslari uchun samarali topshiriqlardan biridir. O‘quvchilar energiyani tejaydigan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanadigan uy modelini ishlab chiqishlari mumkin. Bunda tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, san’at va muhandislik elementlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Shuningdek, avtomobil, samolyot, kema, robot yoki turli mexanizmlar maketlarini yaratish ham STEAM yondashuviga mos amaliy topshiriqlar hisoblanadi. Bunday loyihalarda o‘quvchilar chizma tayyorlash, o‘lchamlarni aniqlash, material tanlash, konstruksiyani yig‘ish va tayyor modelni sinovdan o‘tkazish bosqichlarini bajaradilar.

STEAM yondashuvida loyiha faoliyatining o‘rni. STEAM ta’limining muhim tarkibiy qismlaridan biri loyiha faoliyatidir. Loyiha asosida tashkil etilgan texnologiya darsida o‘quvchi muayyan muammoni hal qilishga yo‘naltiriladi.

Loyiha faoliyatini quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

1. **Muammoni aniqlash.** O‘quvchilarga amaliy vazifa yoki muammoli vaziyat taqdim etiladi.
2. **G‘oya ishlab chiqish.** O‘quvchilar muammoning mumkin bo‘lgan yechimlarini taklif qiladilar.
3. **Loyihalash.** Tanlangan g‘oya asosida chizma yoki eskiz tayyorlanadi.
4. **Material va vositalarni tanlash.** Loyiha uchun zarur materiallar aniqlanadi.
5. **Amaliy bajarish.** Model, maket yoki mahsulot tayyorlanadi.
6. **Sinovdan o‘tkazish.** Tayyor mahsulotning imkoniyatlari tekshiriladi.
7. **Takomillashtirish.** Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi.
8. **Natijani taqdim etish.** O‘quvchi o‘z loyihasini tushuntiradi va himoya qiladi.

Ushbu bosqichlar o‘quvchilarning nafaqat texnik, balki kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi va o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish. Kreativlik zamonaviy ta’limning muhim natijalaridan biridir. Texnologiya fani o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega, chunki dars jarayonida o‘quvchi yangi buyum yaratishi, mavjud mahsulotni takomillashtirishi yoki muammoning o‘ziga xos yechimini topishi mumkin.

STEAM yondashuvi kreativlikni rivojlantirishda “bitta savol – bir nechta yechim” tamoyiliga asoslanadi. Masalan, o‘quvchilarga oddiy kartondan ma’lum miqdordagi materialdan foydalanib, imkon qadar mustahkam konstruksiya yaratish topshirig‘i beriladi. Bunda barcha o‘quvchilarning mahsuloti bir xil

bo‘lmasligi mumkin. Har bir o‘quvchi o‘z g‘oyasi va konstruktiv yechimidan foydalanadi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda:

- mustaqil fikrlash;
- yangi g‘oyalarni ilgari surish;
- muammoni tahlil qilish;
- tajriba o‘tkazish;
- xatolardan xulosa chiqarish;
- o‘z ishini takomillashtirish;
- o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Shu jihatdan STEAM yondashuvi texnologiya fanini faqat amaliy buyum tayyorlash fani sifatida emas, balki o‘quvchining ijodiy va muhandislik tafakkurini shakllantiruvchi ta’lim muhiti sifatida tashkil etishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Bugungi texnologiya ta’limini raqamli vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. STEAM yondashuvida raqamli texnologiyalar loyihalash, modellashtirish, axborot izlash, taqdimot tayyorlash va loyihani namoyish etishda qo‘llanilishi mumkin.

Masalan, o‘quvchilar oddiy grafik yoki 3D modellashtirish dasturlari yordamida o‘z loyihalarining elektron modelini yaratishlari mumkin. Keyinchalik ushbu model asosida real maket yoki prototip tayyorlanadi.

Raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Ular kerakli ma’lumotni izlash, turli variantlarni taqqoslash, o‘z loyihasini taqdim etish va natijalarni elektron shaklda namoyish qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, texnologiya darslarida video, animatsiya, interaktiv taqdimot va virtual modellashtirish vositalaridan foydalanish murakkab texnologik jarayonlarni o‘quvchilarga tushunarli shaklda ko‘rsatishga yordam beradi.

STEAM yondashuvida o‘qituvchining roli.STEAM yondashuvida o‘qituvchining roli ham an’anaviy darsdagidan farq qiladi. O‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchilarning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

O‘qituvchi loyiha uchun muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchilarga yo‘nalish beradi, zarur resurslarni tavsiya qiladi, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi va yakuniy natijani baholaydi.

Bunda o‘qituvchi barcha o‘quvchilarning bir xil natijaga erishishini talab qilmasligi, balki ularning individual g‘oyalari va imkoniyatlarini hisobga olishi muhim. Chunki STEAM faoliyatida jarayon, izlanish va yechim topish ham tayyor mahsulot kabi ahamiyatga ega.

O‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar ham o‘quvchilarni fikrlashga undashi kerak. Masalan: “Nima uchun bu konstruksiya ishlamadi?”, “Uni qanday takomillashtirish mumkin?”, “Boshqa qanday materialdan foydalanish mumkin?”, “Qanday qilib konstruksiyani yengilroq va mustahkamroq qilish mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarning tahliliy va kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Xulosa. Texnologiya darslarida STEAM yondashuvidan foydalanish ta’lim jarayonining amaliy, ijodiy va fanlararo xususiyatini kuchaytiradi. Mazkur yondashuv orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini real vazifalarni bajarishda qo‘llash, loyiha yaratish, modellashtirish, tajriba o‘tkazish va o‘z yechimini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. STEAM yondashuvi texnologiya fanining matematika, tabiiy fanlar, informatika, muhandislik va san’at bilan bog‘liqligini kuchaytirib, o‘quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantiradi. Ayniqsa, loyiha va amaliy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularning kreativ va texnik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Texnologiya darslarida qog‘oz, karton, yog‘och, mato va boshqa oddiy materiallardan foydalanib kichik loyihalarni tashkil etishning o‘zi ham STEAM yondashuvining samarali ko‘rinishi bo‘la oladi. Bunda asosiy maqsad murakkab texnik vositalardan foydalanish emas, balki o‘quvchini **muammoni ko‘rish – g‘oya ishlab chiqish – loyihalash – yaratish – sinash – takomillashtirish** jarayoniga jalb qilishdan iborat.

Shu sababli texnologiya ta’limida STEAM yondashuvini izchil qo‘llash o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini shakllantirish va ularni zamonaviy texnologik faoliyatga tayyorlashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va innovatsion rivojlanishga oid farmon va qarorlari.
3. Bybee R.W. STEM Education: A Strategy for Increasing Student Competence and Workforce Development. – New York: Routledge.
4. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – Virginia, 2008.
5. Kelley T.R., Knowles J.G. A conceptual framework for integrated STEM education. International Journal of STEM Education, 2016.
6. Sanders M. STEM, STEM Education, STEMmania. The Technology Teacher, 2009.
7. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasiga oid o‘quv-uslubiy adabiyotlar.
8. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish bo‘yicha amaldagi o‘quv dasturlari.

TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA KREATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Tursunov J.
Qo'qon DU, p.f.f.d, PhD

Tayanch so'zlar: kreativlik, kreativ yondashuv, texnologiya ta'limi, ijodiy fikrlash, ijodiy faoliyat, innovatsiya, mustaqil fikrlash, texnik tafakkur, loyiha, modellashtirish, konstruksiyalash, amaliy faoliyat, ijodiy topshiriq.
Ключевые слова: креативность, творческий подход, технологическое образование, творческое мышление, творческая деятельность, инновации, независимое мышление, техническое мышление, проект, моделирование, конструирование, практическая деятельность, творческое задание.
Key words: creativity, creative approach, technology education, creative thinking, creative activity, innovation, independent thinking, technical thinking, project, modeling, construction, practical activity, creative task.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada Texnologiya ta'limi jarayonida kreativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Kreativ yondashuv o'quvchilarni tayyor bilim va namunalarni takrorlashga emas, balki mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarga turlicha yechim topish va amaliy mahsulot yaratishga yo'naltiradi. Maqolada texnologiya darslarida kreativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, modellashtirish, konstruksiyalash va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, tasavvuri, texnik tafakkuri va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Texnologiya ta'limida kreativ muhitni yaratish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish hamda ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim omili sifatida asoslangan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещаются педагогические возможности использования творческого подхода в процессе технического образования и его важность для развития творческих способностей учащихся. Творческий подход направляет учащихся не на повторение готовых знаний и примеров, а на самостоятельное мышление, выдвижение новых идей, поиск различных решений проблем и создание практических продуктов. В статье анализируются возможности использования творческих заданий, проблемных ситуаций, проектной деятельности, моделирования, конструирования и практических упражнений на уроках технологии. Также уделяется внимание вопросам развития самостоятельности, инициативы, воображения, технического мышления и практических компетенций учащихся на основе творческого подхода. Создание творческой среды в техническом образовании рассматривается как важ-

ный фактор повышения интереса учащихся к уроку и подготовки их к современной профессиональной деятельности.

SUMMARY:

This article highlights the pedagogical potential of employing a creative approach in technology education and its significance in developing students' creative abilities. A creative approach steers students away from merely replicating pre-existing knowledge and models, encouraging them instead to think independently, propose new ideas, devise diverse solutions to problems, and create practical products. The article analyzes the potential for utilizing creative assignments, problem-based scenarios, project-based activities, modeling, construction, and practical exercises within technology lessons. Furthermore, it focuses on fostering students' independence, initiative, imagination, technical thinking, and practical competencies through this creative approach. The creation of a creative environment in technology education is identified as a crucial factor in boosting student engagement and preparing them for modern professional activities.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish sharoitida ta’lim oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda mavjud muammolarga tayyor yechimlardan foydalanish bilan bir qatorda yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, o‘zgaruvchan sharoitga moslashish va yangilik yaratish qobiliyatiga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan texnologiya ta’limining imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki texnologiya fani o‘quvchilarni turli materiallar bilan ishlash, buyum va mahsulotlarni loyihalash, modellashtirish, konstruksiyalash, texnologik jarayonlarni bajarish va amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatadi.

Texnologiya darslarida o‘quvchining tayyor namunani aynan takrorlashi bilan chegaralanib qolish ijodiy imkoniyatlarning to‘liq namoyon bo‘lishiga imkon bermaydi. Aksincha, o‘quvchiga mustaqil ravishda g‘oya tanlash, mahsulot shaklini o‘zgartirish, materialni tanlash, yangi usulni sinab ko‘rish va o‘z yechimini taklif qilish imkoniyati berilganda uning kreativ qobiliyatlari rivojlanadi.

Kreativ yondashuv aynan mana shu jarayonni tashkil etishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuv tushunchasi va uning ta’limdagi o‘rni. “Kreativlik” tushunchasi shaxsning yangi va o‘ziga xos g‘oyalarni yaratish, mavjud muammolarga noodatiy yechim topish hamda o‘z faoliyatini takomillashtirish qobiliyati bilan bog‘liq.

Kreativ yondashuv esa ta’lim jarayonini o‘quvchining ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni anglatadi. Bunda o‘quvchiga faqat “nima qilish kerak?” degan savolga javob berish emas, balki “buni yana qanday qilish mumkin?” degan savol ustida fikrlash imkoniyati yaratiladi.

Texnologiya ta’limida kreativ yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, ijodiy fikr ko‘pincha amaliy mahsulotda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi o‘z g‘oyasini chizma, maket, model, kiyim namunasi, bezak, konstruksiya yoki boshqa texnologik mahsulot ko‘rinishida ifodalashi mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga oddiy qog‘ozdan biror buyum tayyorlash topshirig‘i berilganda, barcha o‘quvchilardan bir xil shakldagi mahsulot talab qilinmasligi mumkin. Har bir o‘quvchi o‘z tasavvuri asosida mahsulotning shakli, rangi, tuzilishi va bezagini tanlaydi. Natijada bir xil topshiriqdan turli ijodiy natijalar kelib chiqadi.

Texnologiya ta’limida kreativ yondashuvning ahamiyati. Kreativ yondashuv texnologiya darslarining mazmunini boyitish bilan birga o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Avvalo, kreativ yondashuv mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan yagona namunaga bog‘lanib qolmay, o‘z variantini ishlab chiqishga harakat qiladi.

Ikkinchidan, kreativ yondashuv muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, o‘quvchi yaratgan model kutilgan natijani bermasa, u sababini aniqlaydi va konstruksiyani o‘zgartirib ko‘radi.

Uchinchidan, tasavvur va fantaziya rivojlanadi. Texnologiya fanidagi loyihalash, modellashtirish va dizayn bilan bog‘liq topshiriqlar o‘quvchining mavjud buyumlarni yangicha tasavvur qilishiga yordam beradi.

To‘rtinchidan, tashabbuskorlik shakllanadi. O‘quvchiga o‘z g‘oyasini ilgari surish va uni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyati beriladi.

Beshinchidan, amaliy kompetensiyalar rivojlanadi. O‘quvchi o‘z g‘oyasini faqat tasavvur qilib qolmasdan, uni real mahsulotga aylantirishga harakat qiladi.

Kreativ topshiriqlarning texnologiya darslaridagi imkoniyatlari. Texnologiya darslarida kreativ topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bunday topshiriqlarning asosiy xususiyati – ularda bitta yagona javob yoki yechim mavjud bo‘lmasligidir.

Masalan, quyidagi topshiriqlarni tashkil etish mumkin:

1. “Oddiy materialdan noodatiy buyum yaratish”.

O‘quvchilarga qog‘oz, karton, ip, yog‘och bo‘laklari yoki boshqa mavjud materiallar beriladi. Ular ushbu materiallardan foydali va estetik buyum yaratishlari kerak.

2. “Buyumni takomillashtir”.

O‘quvchilarga kundalik hayotda ishlatiladigan oddiy buyum namunasi beriladi. Ular ushbu buyumning kamchiliklarini aniqlab, uni qanday takomillashtirish mumkinligi haqida g‘oya ishlab chiqadilar.

3. “Bir material – bir nechta mahsulot”.

Masalan, kartondan kamida uch xil foydali buyum ishlab chiqish topshirig‘i beriladi. Bu topshiriq o‘quvchilarning tasavvuri va variantli fikrlashini rivojlantiradi.

4. “Kelajak buyumi”.

O‘quvchilar kelajakda inson hayotini yengillashtirishi mumkin bo‘lgan yangi buyum yoki qurilma loyihasini ishlab chiqadilar.

5. “Muammoni texnologik yo‘l bilan hal qil”.

O‘quvchilarga kundalik hayotdagi muammo taqdim etiladi va undan kelib chiqib texnik yoki texnologik yechim ishlab chiqish so‘raladi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni fikrlashga, izlanishga va o‘z g‘oyasini amaliy jihatdan sinab ko‘rishga undaydi.

Kreativ yondashuvda loyiha faoliyati. Texnologiya ta’limida loyiha faoliyati kreativ yondashuvni amalga oshirishning samarali vositalaridan biridir. Loyiha faoliyatida o‘quvchi muayyan mahsulot yoki yechimni mustaqil ravishda ishlab chiqadi.

Loyiha ishining dastlabki bosqichida o‘quvchi muammoni aniqlaydi. Keyin ushbu muammoning turli yechimlarini o‘ylab ko‘radi. Eng maqbul variantni tanlagach, uning eskizi yoki chizmasini tayyorlaydi.

Keyingi bosqichda material va texnologik jarayonlar tanlanadi. Mahsulot tayyorlanadi va sinovdan o‘tkaziladi. Agar natija kutilganidek bo‘lmasa, o‘quvchi o‘z loyihasini qayta ko‘rib chiqadi va takomillashtiradi.

Bu jarayonda xatoga yo‘l qo‘yish salbiy holat sifatida emas, balki yangi yechimga olib boruvchi bosqich sifatida qaralishi muhim.

Masalan, “Mini mebel modeli”, “Ekologik qalamdon”, “Ko‘p funksiyali saqlash qutisi”, “Kelajak maktabi”, “Tejamkor uy modeli” kabi loyihalarni texnologiya darslarida tashkil etish mumkin.

Kreativ yondashuv va o‘quvchilarning texnik tafakkuri. Texnologiya ta’limining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda texnik tafakkurni rivojlantirishdir. Texnik tafakkur buyum va mexanizmlarning tuzilishi, ishlash prinsipi, o‘zaro bog‘liqligi hamda ularni takomillashtirish yo‘llarini tushunish bilan bog‘liq.

Kreativ topshiriqlar texnik tafakkurni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. O‘quvchi biror mahsulotni yaratishda uning qismlari qanday joylashishi, qaysi materialdan foydalanish, konstruksiya qanday mustahkamlanishi va mahsulot qanday ishlashi haqida fikr yuritadi.

Masalan, oddiy qog‘ozdan avtomobil modelini tayyorlashda o‘quvchi avtomobilning shakli, g‘ildiraklarining joylashuvi, kuzovning mustahkamligi va

tashqi ko‘rinishini o‘ylaydi. Samolyot maketini tayyorlashda esa qanotlarning shakli va joylashuvi haqida fikr yuritadi.

Shunday qilib, kreativ faoliyat amaliy ish bilan birga texnik fikrlashni ham rivojlantiradi.

Kreativ muhitni tashkil etish. Kreativ yondashuv samarali bo‘lishi uchun darsda ijodiy muhitni shakllantirish zarur. O‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalashi, savol berishi va turli variantlarni taklif qilishi mumkin bo‘lgan muhitda kreativlik yaxshiroq namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quvchining har bir g‘oyasini darhol “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholashdan ko‘ra, uni izohlashga va rivojlantirishga undashi maqsadga muvofiq.

Masalan, o‘qituvchi:

- “Bu g‘oyani yana qanday rivojlantirish mumkin?”
- “Boshqa materialdan foydalansak nima bo‘ladi?”
- “Mahsulotni yanada qulay qilishning qanday yo‘li bor?”
- “Sizningcha, bu konstruksiyaning eng kuchli tomoni nimada?”
- “Agar biror qismini o‘zgartirsak, natija qanday bo‘ladi?” kabi savollardan foydalanishi mumkin.

Bunday savollar o‘quvchini tayyor javob izlashdan ko‘ra mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi.

Raqamli vositalar yordamida kreativlikni rivojlantirish. Hozirgi davrda kreativ faoliyatni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Texnologiya darslarida turli grafik dasturlar, taqdimot vositalari, 3D modellashtirish dasturlari va raqamli resurslardan foydalanish o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini elektron shaklda ifodalash imkonini beradi.

Masalan, o‘quvchi avval buyumning eskizini qog‘ozga chizishi, keyin uni raqamli muhitda modellashtirishi va yakunda real maketini tayyorlashi mumkin.

Bunday yondashuv o‘quvchida “g‘oya – eskiz – raqamli model – real mahsulot” ketma-ketligini shakllantiradi.

Raqamli vositalar ayniqsa dizayn, modellashtirish, konstruksiyalash va mahsulot ko‘rinishini ishlab chiqishda samarali hisoblanadi.

O‘qituvchining kreativ yondashuvni tashkil etishdagi roli. Kreativ ta’limni tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi darsni faqat nazariy ma’lumot berishga emas, balki o‘quvchini faol ijodiy faoliyatga jalb etishga yo‘naltirishi lozim.

Bunda o‘qituvchi:

- ijodiy va muammoli topshiriqlarni tanlashi;
- o‘quvchilarga mustaqil tanlov imkonini berishi;

- turli yechimlarni qo‘llab-quvvatlashi;
- amaliy loyihalarni tashkil etishi;
- o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olishi;
- jarayonni kuzatib, zarur vaqtda maslahat berishi;
- tayyor natija bilan birga ijodiy jarayonni ham baholashi kerak.

Kreativ darsda o‘qituvchi barcha ishni o‘zi bajarib bermaydi. Aksincha, o‘quvchini mustaqil izlanishga yo‘naltiradi. Bu esa o‘quvchining o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Kreativ faoliyatni baholash. Kreativ topshiriqlarni baholashda faqat tayyor mahsulotning chiroyli ko‘rinishiga e’tibor berish yetarli emas. O‘quvchining g‘oyasi, mustaqilligi, muammoni hal qilish usuli va mahsulotni takomillashtirishga bo‘lgan harakati ham hisobga olinishi lozim.

Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

1. **G‘oyaning yangiligi** – o‘quvchi o‘ziga xos g‘oya taklif qila oldimi?
2. **Mustaqillik** – topshiriqni mustaqil bajarishga harakat qildimi?
3. **Muammoni hal qilish** – yuzaga kelgan muammoni qanday bartaraf etdi?
4. **Amaliy bajarish** – g‘oyani real mahsulotga aylantira oldimi?
5. **Estetik jihat** – mahsulotning tashqi ko‘rinishi va bezagiga e’tibor berdimi?
6. **Takomillashtirish** – tayyor mahsulotni yaxshilash bo‘yicha taklif bera oldimi?

Bunday baholash o‘quvchini faqat “to‘g‘ri javob” uchun emas, balki ijodiy izlanish uchun ham rag‘batlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnologiya ta’limida kreativ yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishning samarali vositalaridan biridir.

Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslarida o‘quvchi tayyor mahsulotni takrorlovchi emas, balki yangi g‘oya yaratuvchi, uni loyihalovchi va amaliyotda sinovdan o‘tkazuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Ayniqsa, loyiha, modellashtirish, konstruksiyalash, dizayn, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning tasavvuri, texnik tafakkuri, tashabbuskorligi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Texnologiya darslarida kreativ yondashuvni samarali tashkil etish uchun o‘quvchiga tanlash, izlanish, xato qilish, qayta ishlash va o‘z g‘oyasini himoya qilish imkoniyati berilishi muhim. Chunki kreativlik tayyor shaklda berilmaydi, balki amaliy faoliyat, izlanish va mustaqil fikrlash jarayonida rivojlanadi.

Shu jihatdan texnologiya ta’limida kreativ yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va innovatsion fikrlaydigan shaxsni shakllantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. Guilford J.P. Creativity and Intelligence. – New York: American Psychologist.
4. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service.
5. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Oxford: Capstone.
6. Runco M.A. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. – Academic Press.
7. Craft A. Creativity in Education. – London: Continuum.
8. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasiga oid o‘quv-uslubiy adabiyotlar.
9. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish bo‘yicha amaldagi o‘quv dasturlari.
10. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlariga oid ilmiy-uslubiy manbalar.

IJOD VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARI SIFATINI BAHOLASH VA EKSPERTIZADAN O‘TKAZISHNING TASHKILIY-METODIK ASOSLARI

Xujamov I.X.
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: yangi avlod darsligi, ijodiy maktab, ixtisoslashtirilgan maktab, ta'limni boshqarish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kvalimetriya, raqamli kontent, ekspertiza, monitoring.
Ключевые слова: учебник нового поколения, школа творчества, специализированная школа, управление образованием, компетентностный подход, квалиметрия, цифровой контент, экспертиза, мониторинг.
Key words: new-generation textbook, creative school, specialized school, education management, competency-based approach, qualimetry, digital content, expertise, monitoring.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun mo‘ljallangan yangi avlod darsliklari sifatini baholash va ekspertizadan o‘tkazishning tashkiliy-metodik asoslari kompetensiyaviy, tizimli, kvalimetrik va raqamli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Darsliklarning mazmuni, metodik ta’minoti, kompetensiyaviy yo‘naltirilganligi, dizayn-poligrafik xususiyatlari, fan xususiyatlariga muvofiqligi hamda o‘quvchilarning yosh va individual imkoniyatlariga mosligi sifat mezonlari sifatida belgilangan. Darslik sifatini kompleks baholash, ekspertlar xulosalarining obyektivligi va muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-metodik mexanizm taklif etilgan. Mazkur mexanizm darslik loyihalarini dastlabki tahlil qilish, mezon va indikatorlar asosida ekspert baholash, pilot sinov, natijalarni qayta ishlash, takomillashtirish va yakuniy xulosalash bosqichlarini qamrab oladi. Darslik sifatining integral ko‘rsatkichi hamda ekspertlar fikrining muvofiqligini aniqlashga xizmat qiluvchi kvalimetrik yondashuv asosida baholash vositalari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun yangi avlod darsliklarini ekspertizadan o‘tkazishda shaffof, mezonlarga asoslangan, dalillarga tayanuvchi va qayta aloqa mexanizmiga ega tizimni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье исследуются организационно-методические основы оценки и экспертизы качества учебников нового поколения, предназначенных для творческих и специализированных школ, на основе компетентностного, системного, качественного и количественного подходов. В качестве критериев качества определены содержание учебников, методическое обеспечение, компетентностная ориентация, дизайн и полиграфические особенности, соответствие характеристикам предмета, а также пригодность для возраста и индивидуальных способностей учащихся. Предложен организационно-методический механизм, обеспечивающий комплексную оценку качества учебников, а также объективность и согласованность экспертных заключений. Этот механизм охватывает этапы предварительного анализа проектов учебников,

экспертной оценки на основе критериев и показателей, пилотного тестирования, обработки результатов, доработки и окончательных выводов. Разработаны инструменты оценки на основе качественного подхода, позволяющие определить интегральный показатель качества учебников и согласованность экспертных заключений. Результаты исследования указывают на необходимость создания прозрачной, критериально-ориентированной, доказательной системы с механизмом обратной связи для экспертизы учебников нового поколения для творческих и специализированных школ.

SUMMARY:

The article examines the organizational and methodological foundations for evaluating and conducting expert reviews of new-generation textbooks designed for creative and specialized schools, drawing upon competency-based, systemic, qualimetric, and digital approaches. Quality criteria were established based on textbook content, methodological support, competency orientation, design and print characteristics, alignment with subject-specific requirements, and suitability for students' age and individual capabilities. An organizational-methodological mechanism was proposed to facilitate a comprehensive assessment of textbook quality and to ensure the objectivity and consistency of expert conclusions. This mechanism encompasses stages such as the preliminary analysis of textbook drafts, expert evaluation based on criteria and indicators, pilot testing, data processing, refinement, and final conclusion. Assessment tools were developed using a qualimetric approach to determine the integral indicator of textbook quality and the level of consensus among experts. The research findings demonstrate the necessity of establishing a system for the expert review of new-generation textbooks for creative and specialized schools that is transparent, criterion-based, evidence-driven, and incorporates a feedback mechanism.

Kirish. Ta’lim mazmunining jadal yangilanib borishi, o‘quvchilarda kreativ fikrlash, muammoni hal etish, tadqiqotchilik va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qo‘yilayotgan talablarning kuchayishi zamonaviy darsliklarning sifatiga qo‘yiladigan mezonlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda darslik faqat o‘quv axborotini yetkazuvchi manba emas, balki ta’lim mazmunini tizimlashtiruvchi, o‘quv faoliyatini yo‘naltiruvchi va o‘quvchining mustaqil hamda ijodiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi muhim didaktik vosita sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yangi avlod darsliklarining mazmuni va metodik imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning sifatini obyektiv baholash hamda ilmiy-metodik ekspertizadan o‘tkazish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

OECDning PISA 2022 kreativ fikrlash doirasida o‘quvchining turli va original g‘oyalarni yaratish, ularni baholash hamda takomillashtirish qobiliyatlari muhim kompetensiyalar sifatida ajratib ko‘rsatilgan [8]. Mazkur yondashuv darsliklarni baholashda faqat mazmunning ilmiy to‘g‘riligi va o‘quv dasturiga muvofiqligini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, unda o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlar, ochiq muammoli vaziyatlar, yozma va vizual ifoda imkoniyatlari hamda mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan faoliyatlarning mavjudligini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, yangi avlod darsliklari ekspertizasida ularning o‘quvchi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi alohida baholash mezoni sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi – ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun yangi avlod darsliklari sifatini baholash va ekspertizadan o‘tkazishning tashkiliy-

metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat. Bunda darsliklarning mazmuniy-ilmiy, didaktik-metodik, vizual va raqamli komponentlarini baholash mezonlarini tizimlashtirish, ekspert xulosalarining xolisligi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim menejmenti nazariyasida boshqaruv maqsadni belgilash, resurslarni safarbar etish, ijroni muvofiqlashtirish va natijani nazorat qilishning uzluksiz jarayoni sifatida qaraladi [3; 4]. Darslik yaratish jarayoniga tatbiq etilganda bu yondashuv muallif matnini tahrir qilish bilangina cheklanmay, manfaatdor tomonlar ehtiyojini aniqlash, o‘quv dasturi bilan vertikal-gorizontal muvofiqlikni tekshirish, dizayn va inklyuzivlik ekspertizasi, pilot sinov hamda qayta aloqa asosidagi takomillashtirishni qamrab oladi.

Schleicher ta’lim tizimlarining muvaffaqiyatini standartlarni aniq belgilash, pedagogik avtonomiya va hisobdorlik muvozanati, shuningdek, ma’lumotlardan o‘rganish qobiliyati bilan bog‘laydi [7]. PISA doirasidagi yangi kreativ fikrlash konstruksiyasi darslik topshiriqlarini “bitta to‘g‘ri javob” paradigmasidan ko‘p variantli g‘oya yaratish, tanlash va takomillashtirish jarayoniga o‘tkazishni talab qiladi [8]. Raqamli darsliklar bo‘yicha xalqaro tajriba interaktivlik, multimedia, tezkor qayta aloqa va individual o‘quv yo‘nalishlarini afzallik sifatida ko‘rsatsada, ekran chalg‘itishi, infratuzilma tengsizligi, ma’lumotlar xavfsizligi va kontentning tez eskirishi kabi xavflarni ham qayd etadi [9–11].

1-jadval.

Yangi avlod darsligiga yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Yondashuv	Asosiy talab	Boshqaruvdagi ifodasi	Kutiladigan natija
Kompetensiya-viy	Bilimni real vaziyatda qo‘llash	Natijalarni kompetensiya deskriptorlari bilan bog‘lash	Funksional savodxonlik
Tizimli-integrativ	Fanlararo va bosqichlararo uzviylik	Yagona konsepsiya va matritsa asosida muvofiqlashtirish	Mazmun yaxlitligi
Kvalimetrik	Sifatni o‘lchanadigan mezonlarda ifodalash	Ekspert ballari va integral indeks	Shaffof sifat nazorati
Raqamli	Interaktivlik, multimodallik, analitika	LMS, versiyalar va foydalanish ma’lumotlarini boshqarish	Moslashuvchan o‘qitish
Inklyuziv	Turli ehtiyojlar uchun foydalanish imkoniyati	Universal dizayn va accessibility ekspertizasi	Teng ishtirok
Agile/PDCA	Qisqa iteratsiya va qayta aloqa	Pilot–tahlil–tuzatish–qayta sinov	Uzluksiz takomillashuv

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, ikkilamchi statistik tahlil, modellashtirish va kvalimetrik baholash usullaridan foydalanildi. Empirik asos sifatida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi pedagoglar o'rtasida o'tkazilgan so'rovning maqola qo'lyozmasida berilgan agregat foizlari olindi. Birlamchi bazada respondentlar soni va ijtimoiy-demografik tarkib ko'rsatilmagani sababli natijalar tavsifiy darajada talqin qilindi; statistik ahamiyat yoki umumlashtirish chegarasi haqida xulosa chiqarilmadi.

Darslik sifatini baholash uchun besh subindeksdan iborat integral ko'rsatkich taklif qilindi: mazmuniy-ilmiy aniqlik (M), didaktik-metodik samaradorlik (D), vizual va ergonomik dizayn (V), raqamli-interaktiv imkoniyat (R), inklyuzivlik va xavfsizlik (I). Har bir subindeks 0–100 ball oralig'ida normallashtiriladi.

$$DQII = 0{,}30M + 0{,}25D + 0{,}15V + 0{,}20R + 0{,}10I \quad (1)$$

Bu yerda DQII – darslik sifatining integral indeksi. Vaznlar mazmun va didaktik natijadorlikni ustuvor, raqamli imkoniyat va dizaynni qo'llab-quvvatlovchi, inklyuzivlikni esa majburiy kesishuvchi mezon sifatida ifodalaydi. Amaliyotda vaznlar Delphi usuli orqali kamida ikki bosqichli ekspert kelishuvi asosida aniqlashtirilishi mumkin.

Ekspert baholarining o'zaro muvofiqligini baholash uchun Kendall konkordatsiya koeffitsiyentidan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$W = 12S / [m^2(n^3 - n)] \quad (2)$$

bu yerda S – obyektlar bo'yicha ranglar yig'indisining o'rtacha qiymatdan kvadrat og'ishlari yig'indisi; m – ekspertlar soni; n – baholanayotgan mezon yoki obyektlar soni. W ning 1 ga yaqinlashishi ekspert fikrlari yuqori darajada muvofiqligini anglatadi.

Jarayon samaradorligi natija, muddat, xarajat va qayta ishlash ulushini birgalikda hisobga olishi kerak. Shu maqsadda boshqaruv samaradorligi koeffitsiyenti quyidagicha ifodalanadi:


$$BSK = 0{,}40Q + 0{,}20T + 0{,}15C + 0{,}15U + 0{,}10F \quad (3)$$

bu yerda Q – DQII bo'yicha sifat natijasi; T – reja muddatiga rioya qilish; C – xarajat samaradorligi; U – pilot foydalanuvchilar qoniqishi; F – aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish ulushi. Barcha komponentlar 0–100 shkala bo'yicha hisoblanadi.


Natijalar va muhokama. So'rov ma'lumotlariga ko'ra, fan uchun ajratilgan soatdan 67,9 foiz pedagog qoniqqan, 15,1 foizi qisman qoniqqan va 6 foizi qoniqmagan. 10,5 foiz respondent soatni kam, 0,5 foizi ko'p deb baholagan. Demak, umumiy ijobiy fon saqlangan bo'lsa-da, har oltinchi pedagogning qisman qoniqishi hamda 16,5 foiz respondentning "kam" yoki "qoniqtirmaydi"

javobi o‘quv yuklamasi va darslik hajmini kompetensiyalar matritsasi asosida qayta muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Darslik mazmunidan 47 foiz pedagog to‘liq, 40,5 foizi qisman qoniqqan, 12,5 foizi qoniqmagan. Dizayn bo‘yicha qo‘lyozmada 32,3 foiz “qisman qoniqtiradi”, 10,7 foiz “qoniqtirmaydi” deb ko‘rsatilgan; qolgan 57 foiz ulush “qoniqtiradi” sifatida tiklandi. Ushbu tiklash javob toifalari 100 foizni tashkil etishi haqidagi arifmetik xulosadir. Mazmun bo‘yicha to‘liq qoniqish dizayndagidan 10 foiz punktga past. Bu holat dizaynni yaxshilashning o‘zi yetarli emasligini, mazmunning ilmiy aniqligi, murakkablik darajasi, topshiriqlar tizimi va real hayot bilan bog‘liqligini kuchaytirish zarurligini bildiradi.



1-rasm. Ixtisoslik faniga ajratilgan soat bo‘yicha pedagoglar fikri



2-rasm. Darslik mazmuni va dizaynidan qoniqishning qiyosiy ko‘rinishi


2-jadval.

Diagnostik natijalar va boshqaruv qarorlari matritsasi

Aniqlangan holat	Dalil	Ehtimoliy sabab	Tavsiya etiladigan qaror	KPI
Mazmundan to‘liq qoniqish past	47% qoniqadi	Kontentning dastur va o‘quvchi ehtiyojiga nomuvofiqligi	Kompetensiyalar–mavzular–topshiriqlar matritsasini qayta ekspertiza qilish	To‘liq qoniqish ≥70%
Mazmun bo‘yicha qisman qoniqish yuqori	40,5% qisman	Murakkablik va amaliy topshiriqlar muvozanati	Kognitiv darajalar bo‘yicha topshiriqlar banki	Pilotda DQII ≥80
Dizayn bo‘yicha tanqidiy ulush mavjud	10,7% qoniqmaydi	Navigatsiya, shrift, vizual yuklama	Ergonomika va universal dizayn ekspertizasi	Qoniqmaslik ≤5%
Soat yetishmasligi signali	10,5% kam	Hajm va vaqt me’yorining nomutanosibligi	Kontentni yadro va variativ modullarga ajratish	O‘zlashtirish ≥75%
Qayta aloqa tizimlashmagan	Agregat natijalar mavjud	Platforma va javobgarlik mexanizmi yo‘q	Raqamli monitoring paneli va versiyalar reyestri	Kamchilik yopilishi ≥90%

Takomillashtirilgan boshqaruv mexanizmi. Taklif etilayotgan mexanizm darslik yaratishni chiziqli nashriyot jarayonidan uzluksiz o‘rganadigan boshqaruv sikliga aylantiradi. Birinchi bosqichda davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, PISA/TIMSS/PIRLS kabi baholash konstruksiyalari, o‘quvchi va o‘qituvchi ehtiyojlari tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda aniq natijalar, kontent hajmi, raqamli komponentlar, mualliflik huquqi, inklyuzivlik va ekspertiza mezonlarini qamrab olgan texnik topshiriq tuziladi. Uchinchi bosqichda muallif, metodist, fan olimi, amaliyotchi o‘qituvchi, dizayner, muharrir va raqamli kontent mutaxassisidan iborat fanlararo jamoa iterativ prototip yaratadi.

To‘rtinchi bosqich – ko‘p konturli ekspertiza va pilot sinov. Ilmiy ekspertiza fakt va tushunchalar aniqligini, didaktik ekspertiza maqsad–mazmun–topshiriq uyg‘unligini, psixologik ekspertiza yosh xususiyatlarini, lingvistik ekspertiza matnning aniqligi va o‘qish murakkabligini, dizayn ekspertizasi esa navigatsiya va vizual ierarxiyani tekshiradi. Pilot sinovda o‘zlashtirish, topshiriq bajarish vaqti, xatolar xaritasi, o‘qituvchi va o‘quvchi qoniqishi o‘lchanadi. Beshinchi bosqichda darslik bilan birga o‘qituvchi qo‘llanmasi, baholash materiallari va raqamli resurslar joriy etiladi. Oltinchi bosqichda foydalanish analitikasi, murojaatlar va ta’lim natijalari muntazam monitoring qilinib, yangi versiyaga texnik topshiriq shakllantiriladi.



3-rasm. Yangi avlod darsligini yaratishning integratsiyalashgan boshqaruv sikli

3-jadval.

Jarayon subyektlarining funksional javobgarligi

Subyekt	Asosiy funksiya	Yakuniy mahsulot	Nazorat nuqtasi
Buyurtmachi/ agentlik	Siyosat, ehtiyoj va resurslarni belgilash	Texnik topshiriq	Maqsad va KPI tasdig‘i
Ilmiy-metodik kengash	Konsepsiya va mezonlarni ekspertiza qilish	Ekspert xulosasi	DQII komponentlari
Mualliflar jamoasi	Kontent va topshiriqlarni ishlab chiqish	Qo‘lyozma/prototip	Versiya va o‘zgarishlar reyestri
Maktab va pedagoglar	Pilot, kuzatuv va qayta aloqa	Pilot ma’lumotlari	Qoniqish va o‘zlashtirish
Nashriyot/ dizayn guruhi	Ergonomik va texnik tayyorlash	Bosma va raqamli nashr	Texnik sifat nazorati
Monitoring guruhi	Ma’lumot yig‘ish va tahlil	Dashboard va tavsiya	Kamchiliklarni yopish holati

Amaliy joriy etish algoritmi. Mexanizmni amaliyotga joriy etish uchun: (1) har bir fan bo‘yicha kompetensiyalar profilini tasdiqlash; (2) darslik portfelini ustuvorlik, eskirish darajasi va foydalanuvchi ehtiyoji bo‘yicha reytinglash; (3) ochiq mezonlar asosida fanlararo mualliflar jamoasini shakllantirish; (4) minimal ishlaydigan prototipni ishlab chiqish; (5) turli hudud va tayyorgarlik

darajasidagi maktablarda pilot o‘tkazish; (6) DQII va BSKni hisoblash; (7) kritik kamchiliklarni majburiy bartaraf etish; (8) joriy etilgandan keyin 6 va 12 oylik monitoring o‘tkazish tavsiya etiladi.

Raqamli boshqaruv panelida kamida quyidagi indikatorlar aks etishi lozim: reja va amaldagi muddat; ekspertiza bosqichlari; DQII subindekslari; pilot qamrovi; mavzular bo‘yicha xatolar; o‘qituvchi va o‘quvchi qoniqishi; texnik murojaatlar; bartaraf etilgan kamchiliklar; darslik versiyasi. “Qizil–sariq–yashil” risk signali rahbarga kechikish yoki sifat chegarasidan chetlanishni erta aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun darslik yaratish jarayonida asosiy muammo dizayn yoki matnning alohida kamchiligida emas, balki ehtiyojlarni aniqlashdan foydalanish monitoringigacha bo‘lgan bosqichlarning yagona boshqaruv sikliga birlashtirilmaganida ekanini ko‘rsatdi. So‘rov natijalarida darslik mazmunidan to‘liq qoniqish 47 foizni tashkil etgani mazmunni kompetensiyalar, amaliy vazifalar va o‘quvchi profili bilan qayta muvofiqlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchidan, yangi avlod darsligining yagona konsepsiyasi va texnik topshirig‘ida bosma hamda raqamli komponentlar, inklyuziv dizayn, kreativ va tanqidiy fikrlash topshiriqlari majburiy mezon sifatida belgilanilishi lozim. Ikkinchidan, darslik sifati DQII integral indeksi asosida ko‘p mezonli baholanib, ekspertlar kelishuvi Kendall W koeffitsiyenti bilan tekshirilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, pilot sinov nashrdan oldingi formal bosqich emas, balki o‘quv natijasi, bajarish vaqti, xatolar va foydalanuvchi tajribasini o‘lchaydigan empirik tajriba sifatida tashkil etilishi kerak.

To‘rtinchidan, darslik yaratish loyihalari uchun mas’uliyat matritsasi, versiyalar reyestri va raqamli monitoring paneli joriy etilishi; kamchiliklarni bartaraf etish ulushi boshqaruv KPIiga aylantirilishi zarur. Beshinchidan, darslik joriy etilishi bilan bir vaqtda pedagoglar uchun metodik tayyorgarlik, topshiriqlar banki va baholash vositalari taqdim etilishi lozim. Oltinchidan, kelgusi tadqiqotlarda tanlanma hajmi, hudud, fan va pedagog staji kesimidagi birlamchi ma’lumotlar yig‘ilib, shkala ishonchliligi Cronbach alfa, guruhlararo farqlar t-test/ANOVA, omillar ta’siri esa regressiya tahlili bilan tekshirilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413

3. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Toshkent: Voris-Nashriyoti, 2006. 263 b.

4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. 592 b.

5. Qosimov G‘.M. Menejment. Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 312 b.

6. Radjiev A., Karimov F., Ibragimov A. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami. 2-qism. Toshkent, 2022. 119 b.

7. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. Paris: OECD Publishing, 2018. https://doi.org/10.1787/9789264300002-en

8. OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. Paris: OECD Publishing, 2024. https://doi.org/10.1787/765ee8c2-en

9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385723

10. UNESCO. Quality Provision of Digital Learning. Paris: UNESCO, 2025. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000391477

11. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

12. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/dfe0bf9c-en

13. ISO. ISO 21001:2018 Educational organizations — Management systems for educational organizations - Requirements with guidance for use. Geneva: ISO, 2018.

14. Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. New York: Springer, 2009. https://doi.org/10.1007/978-0-387-09506-6

15. Deming W.E. Out of the Crisis. Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

OLIY TA’LIM TRANSFORMATSIYASIDA TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHNING STRATEGIK VA RAQAMLI MEXANIZMLARI

Ibragimov A.G.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Ta’lim sifatini ta’minlash va akkreditatsiya” bo‘limi boshlig‘i,
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Tayanch so‘zlar: oliy ta’lim transformatsiyasi, ta’lim sifati, ichki sifatni ta’minlash, tashqi baholash, raqamli monitoring, KPI, Dashboard, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, PDCA, sifat madaniyati.
Ключевые слова: трансформация высшего образования, качество образования, внутреннее обеспечение качества, внешняя оценка, цифровой мониторинг, KPI, Dashboard, управление на основе данных, PDCA, культура качества.
Key words: higher education transformation, education quality, internal quality assurance, external evaluation, digital monitoring, KPI, dashboard, data-driven management, PDCA, quality culture.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada oliy ta’lim transformatsiyasi sharoitida ta’lim sifatini ta’minlash tizimining strategik, institutsional va raqamli vazifalari tahlil qilingan. Tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va modellashtirish usullari asosida ichki va tashqi sifat mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Sifatni ta’minlashni nazoratga yo‘naltirilgan an’anaviy modeldan ma’lumotlarga asoslangan, risklarni oldindan aniqlaydigan va uzluksiz takomillashtirishni ta’minlaydigan transformatsion modelga o‘tkazish asoslangan. HEMIS, LMS, raqamli Dashboard, Big Data va sun’iy intellekt vositalarini yagona ma’lumotlar muhitida integratsiyalash, natijaviy KPI tizimini shakllantirish hamda PDCA siklini institutsionallashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье раскрываются стратегические, институциональные и цифровые функции системы обеспечения качества в условиях трансформации высшего образования. На основе системного подхода, сравнительного и контент-анализа, а также моделирования обоснован переход от контрольной модели к трансформационной системе, ориентированной на данные, предупреждение рисков и непрерывное совершенствование. Предложены интеграция HEMIS, LMS, цифровых панелей, Big Data и искусственного интеллекта, результативная система KPI и институционализация цикла PDCA.
SUMMARY:
The article examines the strategic, institutional and digital functions of quality assurance in the transformation of higher education. Using a systems approach, comparative analysis, content

analysis and modelling, it substantiates a shift from a compliance-oriented control model to a transformational system driven by data, risk anticipation and continuous improvement. Practical proposals include integrating HEMIS, LMS, digital dashboards, Big Data and artificial intelligence within a unified data environment, designing outcome-oriented KPIs and institutionalising the PDCA cycle.

Kirish. Jahon miqyosida iqtisodiyotning raqamlashuvi, kasblar tarkibining tez o‘zgarishi, sun’iy intellekt vositalarining kengayishi va ta’lim xizmatlariga nisbatan yangi ijtimoiy talablar oliy ta’lim tashkilotlarini faqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish bilan cheklanmasdan, institutsional faoliyatning barcha elementlarini qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. Shu ma’noda oliy ta’lim transformatsiyasi ta’lim mazmuni, boshqaruv, pedagogik texnologiyalar, ilmiy-innovatsion faoliyat, raqamli infratuzilma va mehnat bozori bilan aloqalarni yagona strategik mantiq asosida yangilash jarayonidir. UNESCO materiallarida raqamli transformatsiya ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish bilan bir qatorda tenglik, inklyuzivlik, ma’lumotlar xavfsizligi va sifatga oid yangi talablarni yuzaga keltirishi ta’kidlanadi [1; 2].

Transformatsiya natijadorligi yangi platformalar yoki tashkiliy tuzilmalar soni bilan emas, balki talabalarning o‘quv natijalari, bitiruvchilar kompetensiyalari, bandlik, ilmiy-innovatsion faollik, manfaatdor tomonlar qoniqishi va institutsional barqarorlikdagi sifat o‘zgarishlari bilan baholanishi zarur. Bunday natijalarni tizimli ravishda o‘lchash, sababiy bog‘liqliklarni aniqlash va boshqaruv qarorlariga aylantirish ta’lim sifatini ta’minlash tizimining asosiy vazifasidir. ESG talablari ichki sifat siyosati, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, pedagoglar salohiyati, axborotni boshqarish va jamoatchilikka axborot berishni o‘zaro bog‘langan jarayonlar sifatida belgilaydi [3].

O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim sohasida sifat, ochiqlik, uzluksizlik va davlat hamda jamoat boshqaruvining huquqiy asoslarini belgilaydi [4]. Biroq huquqiy talablarni institutsional amaliyotga aylantirish uchun ichki sifatni ta’minlash, tashqi baholash, raqamli analitika va sifat madaniyatini birlashtiruvchi aniq mexanizm talab etiladi. Shu bois maqolaning maqsadi – oliy ta’lim transformatsiyasida ta’lim sifatini ta’minlash tizimining strategik rolini ochib berish va uni ma’lumotlarga asoslangan uzluksiz takomillashtirish modeli sifatida shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, unda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, me’yoriy hujjatlar va xalqaro tavsiyalarni kontent-tahlil qilish, funksional modellashtirish hamda mantiqiy

umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil birligi sifatida sifatni ta’minlash siyosati, ta’lim dasturlari, talabalar natijalari, inson kapitali, raqamli boshqaruv, manfaatdor tomonlar ishtiroki va uzluksiz takomillashtirish jarayonlari qabul qilindi. Manbalar bazasini UNESCO va OECD hisobotlari, ESG standartlari, ISO 21001 talablari, milliy qonunchilik hamda sifat madaniyati va raqamli ta’limga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tashkil etdi [1–12].

Metodologik jihatdan “ta’lim sifati” faqat normativ talablarga muvofiqlik emas, balki belgilangan ta’lim natijalariga erishish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish va tizimning o‘zini takomillashtirish qobiliyati sifatida talqin qilindi. Shu asosda sifatni ta’minlash mexanizmi “kirish ma’lumotlari – jarayonlar – natijalar – ta’sir – teskari aloqa” zanjiri bo‘yicha tahlil qilindi. Taklif etilayotgan model empirik tajriba natijasi emas; u nazariy manbalar va amaldagi boshqaruv jarayonlarini umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan konseptual model hisoblanadi.

Natijalar va muhokama.Oliy ta’lim transformatsiyasining ob’ektiv zarurati. Oliy ta’limni transformatsiya qilish mavjud jarayonlarni shunchaki elektron shaklga o‘tkazish emas. Raqamlashtirish alohida operatsiya yoki xizmatni texnologiyalashtirsa, transformatsiya tashkilotning missiyasi, qiymat yaratish modeli, boshqaruv madaniyati va natijalarini qayta belgilaydi. OECD tahlillarida raqamli oliy ta’lim sifati texnologiya mavjudligiga emas, balki institutsional strategiya, pedagogik dizayn, xodimlar kompetensiyasi, talabalarni qo‘llab-quvvatlash va sifat mexanizmlarining uyg‘unligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan [5; 6].

mehnat bozoridagi yangi kasb va kompetensiyalarga mos, nazariy bilimni amaliy, raqamli, tahliliy va kommunikativ ko‘nikmalar bilan birlashtirgan bitiruvchini tayyorlash;

ta’lim dasturlarini o‘lchanadigan natijalar va milliy hamda xalqaro malaka ramkalari asosida yangilash;

talabaga yo‘naltirilgan, inklyuziv, aralash va moslashuvchan ta’lim traektoriyalarini rivojlantirish;

professor-o‘qituvchilarning pedagogik, raqamli, ilmiy va innovatsion kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish;

intuitiv boshqaruvdan ishonchli ma’lumot, analitika va risk prognozlariga asoslangan boshqaruvga o‘tish;

ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va jamiyat o‘rtasida natijaviy hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu vazifalarning har biri o‘lchanadigan mezonlar, ishonchli ma’lumotlar va ta’sirni qayta baholash mexanizmini talab qiladi. Demak,

sifatni ta’minlash transformatsiyadan keyin amalga oshiriladigan nazorat emas, balki transformatsiya maqsadlarini belgilashdan boshlab natijani barqarorlashtirishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarga singdirilgan boshqaruv funksiyasidir.

Sifatni ta’minlash tizimining strategik funksiyalari. Ta’lim sifatini ta’minlash tizimi oliy ta’lim tashkiloti faoliyatining davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, tashkilot missiyasi, xalqaro mezonlar, mehnat bozori ehtiyojlari va ta’lim oluvchilar manfaatlariga muvofiqligini ta’minlovchi tashkiliy, pedagogik, boshqaruv va analitik choralar majmuasidir. Uning ichki komponenti ta’lim dasturlarini monitoring qilish, o‘qitish va baholash sifatini tahlil qilish, xodimlarni rivojlantirish, talabalar fikri, ichki audit va tuzatish choralarini qamrab oladi. Tashqi komponent esa akkreditatsiya, mustaqil ekspertiza, tashqi diagnostika, reyting, bitiruvchilar va ish beruvchilar fikri orqali ichki ma’lumotlarning ishonchliligini tekshiradi [3; 7].

Ichki va tashqi sifatni ta’minlash qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlardir. Ichki tizim tashkilotda sifat uchun kundalik mas’uliyat va o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatini shakllantiradi; tashqi baholash esa hisobdorlik, xolislik va jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi. Transformatsion yondashuvda tashqi baholashning vazifasi jazolovchi nazorat emas, institutsional rivojlanish uchun dalil va tavsiya taqdim etishdan iborat bo‘ladi.

1-jadval.

Oliy ta’lim transformatsiyasida sifatni baholashning integratsiyalashgan yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Asosiy Indikatorlar	Ma’lumot manbai	Boshqaruv natijasi
Strategik boshqaruv	Strategik KPI, reja ijrosi, risklar	Strategik reja, Dashboard	Ustuvorlik va resurslarni asosli belgilash
Ta’lim dasturlari	Natijalarga erishish, tashqi ekspertiza, ish beruvchi bahosi	LMS, ekspertiza, so‘rovnoma	Dastur mazmunini yangilash
Akademik natijalar	O‘zlashtirish, qoldirish, akademik qarz, progress	HEMIS, LMS, diagnostika	Erta aralashuv va individual qo‘llab-quvvatlash
Inson kapitali	Pedagogik va raqamli kompetensiya, ilmiy faollik	HR tizimi, portfolio	Kasbiy rivojlanish traektoriyasi

Manfaatdor tomonlar	Talaba, bitiruvchi va ish beruvchi qoniqishi	So‘rov, intervyu, tracer study	Hamkorlik va hisobdorlikni kuchaytirish
Raqamli yetuklik	Integratsiya, ma’lumotlar sifati, foydalanish darajasi	Axborot tizimlari jurnali	Tezkor va ishonchli qarorlar
Ta’sir natijalari	Bandlik, kasbiy moslik, innovatsiya, ijtimoiy ta’sir	Bitiruvchi monitoringi, statistika	Transformatsiya samarasini baholash

Raqamli sifat monitoringi va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv. Raqamli transformatsiya sifatni ta’minlashning axborot bazasini kengaytiradi. HEMIS talabalar kontingenti, davomat, baholash va akademik harakatga oid ma’lumotlarni; LMS o‘quv faolligi, resurslardan foydalanish va topshiriqlarni bajarish dinamikasini; HR va ilmiy axborot tizimlari esa xodimlar salohiyati hamda ilmiy natijalarni aks ettiradi. Biroq alohida platformalarda ma’lumot to‘planishi o‘z-o‘zidan sifatli qarorni kafolatlamaydi. Ular yagona identifikatorlar, ma’lumotlar lug‘ati, verifikatsiya qoidalari va vakolatlarga asoslangan kirish tartibi orqali integratsiya qilinishi zarur [5; 8].


Raqamli Dashboard rahbariyat uchun ko‘rgazmali hisobot emas, balki boshqaruvning “sezgi tizimi” bo‘lishi kerak. U maqsadli va amaldagi ko‘rsatkich o‘rtasidagi og‘ishni, vaqt dinamikasini, bo‘linmalar kesimidagi farqni va xavf signallarini ko‘rsatishi lozim. Masalan, davomat pasayishi, LMS faolligining susayishi va oraliq nazorat natijalarining yomonlashishi birgalikda akademik muvaffaqiyatsizlik xavfini erta aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Bunday prognoz talabani avtomatik ravishda “xavfli” deb belgilash uchun emas, maslahat, tyutorlik va individual qo‘llab-quvvatlash choralarini o‘z vaqtida tashkil etish uchun qo‘llanilishi kerak.

Sun’iy intellekt va Big Data vositalaridan foydalanishda algoritmik shaffoflik, inson nazorati, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish, kamsitish xavfini pasaytirish va qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati ta’minlanishi shart. UNESCO sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda insonga yo‘naltirilgan va huquqlarga asoslangan yondashuvni ustuvor deb ko‘rsatadi [9]. Shu sababli raqamli sifat tizimi “ko‘proq ma’lumot” tamoyiliga emas, “maqsadga muvofiq, ishonchli va etik ma’lumot” tamoyiliga tayanishi kerak.

Taklif etilayotgan modelda strategik talablar, sifat arxitekturasi va raqamli muhit monitoring uchun yagona axborot asosini yaratadi. Monitoring natijalari diagnostik tahlildan o‘tkazilib, og‘ishning sababi va xavfi aniqlanadi; shundan keyingina resurs, mas’ul, muddat va kutilgan natijasi belgilangan boshqaruv qarori qabul qilinadi. Qarorning ijrosi takomillashtirish choralariga, ular esa qayta baholash orqali transformatsion natijaga bog‘lanadi. Modelda teskari

aloqa mavjudligi sifatni bir martalik tekshiruv emas, uzluksiz rivojlanish jarayoniga aylantiradi.

Inson kapitali va sifat madaniyati. Oliy ta’lim transformatsiyasining muvaffaqiyati professor-o‘qituvchilar, rahbarlar va yordamchi xodimlarning o‘zgarishlarni qabul qilish hamda yangi amaliyotlarni qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli xodim faoliyatini faqat yuklama yoki nashrlar soni bilan baholash yetarli emas. Pedagogik dizayn, talabalar bilan ishlash samaradorligi, raqamli kompetentlik, ilmiy-innovatsion faollik, akademik halollik, hamkorlik va malaka oshirish natijalarini qamrab olgan muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi zarur.



1-rasm. Oliy ta’lim transformatsiyasida ta’lim sifatini ta’minlashning integratsiyalashgan modeli

Baholash natijalari jazolash vositasiga aylansa, xodimlar ma’lumotlarni formal to‘ldirishga va ko‘rsatkichlarni “yaxshilash”ga intiladi. Rivojlantiruvchi yondashuvda esa natija individual kasbiy rivojlanish rejasi, mentorlik, maqsadli malaka oshirish va resurs bilan ta’minlashga bog‘lanadi. Sifat madaniyati aynan shu nuqtada shakllanadi: sifat alohida bo‘linmaning emas, har bir jarayon egasining umumiy mas’uliyatiga aylanadi [7; 10].

Manfaatdor tomonlar, shaffoflik va akademik halollik. Talaba, bitiruvchi, ish beruvchi, davlat organlari va jamoatchilik ishtirokisiz ta’lim dasturining

dolzarbligi va natijadorligini xolis baholash qiyin. Samarali ishtirok faqat so‘rovnoma o‘tkazish bilan cheklanmaydi: manfaatdor tomonlar dastur maqsadlarini belgilash, o‘quv natijalarini ko‘rib chiqish, amaliyot va baholash jarayonlarini takomillashtirish hamda natijalarni muhokama qilishda ishtirok etishi lozim. ENQA tavsiyalarida manfaatdor tomonlarning mazmunli ishtiroki sifat jarayonlariga ishonch va legitimlikni oshirishi qayd etilgan [11].

Shaffoflik sifat haqidagi ma’lumotlarning tushunarli, qiyoslanadigan va tekshiriladigan shaklda e’lon qilinishini talab qiladi. Ta’lim dasturi maqsadlari, qabul talablari, o‘quv natijalari, baholash mezonlari, akkreditatsiya holati va bitiruvchilar natijalari bo‘yicha ochiq ma’lumotlar abiturient va jamoatchilikning ongli tanlovini qo‘llab-quvvatlaydi. Akademik halollikni ta’minlashda plagiatni aniqlash, anonim baholash, topshiriqlarni ekspertizadan o‘tkazish, apellyatsiya va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish mexanizmlari bir-biri bilan bog‘langan holda ishlashi zarur.

Tizimli muammolar va ularning sabablari. Amaliyotda sifatni ta’minlashning transformatsion salohiyati bir qator institutsional to‘siqlar bilan cheklanishi mumkin. Birinchidan, tekshiruv hujjatlarning mavjudligiga yo‘naltirilib, ta’lim natijasi va ta’sir ikkinchi darajaga tushib qoladi. Ikkinchidan, ichki baholash xulosalari resurs taqsimoti va strategik qarorlarga to‘liq integratsiya qilinmaydi. Uchinchidan, platformalar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi, ma’lumotlar sifati va mas’uliyati aniq belgilanmagan bo‘ladi. To‘rtinchidan, KPI soniga ortiqcha urg‘u berish natijani emas, hisobotni ko‘paytirishi mumkin.

Beshinchidan, talabalar va ish beruvchilar fikri rasmiy ravishda yig‘ilib, “fikr– qaror – o‘zgarish – qayta aloqa” zanjiri yakunlanmaydi. Oltinchidan, sifat bo‘linmasining vakolati, tahliliy salohiyati va institutsional mustaqilligi yetarli bo‘lmasa, u strategik hamkor emas, hisobot to‘plovchi tuzilmaga aylanadi. Yettinchidan, ma’lumotlar tahlili ko‘pincha o‘tgan davrni tasvirlash bilan cheklanib, sababiy diagnostika va prognozlashga o‘tmaydi. Bu muammolar texnologiya yetishmasligidan ko‘ra ko‘proq boshqaruv arxitekturasi va sifat madaniyati bilan bog‘liq.

Takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar:

1. Sifat siyosatini natijalarga bog‘lash. Tashkilot missiyasi, strategik maqsadlar, ta’lim dasturi natijalari va tarkibiy bo‘linmalar KPIlari yagona kaskadda shakllantirilishi zarur.

2. Yagona raqamli ma’lumotlar muhitini yaratish. HEMIS, LMS, HR, ilmiy va moliyaviy tizimlar o‘rtasida ma’lumotlar lug‘ati, identifikatorlar, verifikatsiya va vakolatlar asosida integratsiya yo‘lga qo‘yilishi lozim.

3. KPIni ta’sirga yo‘naltirish. Faoliyat soni bilan birga ta’lim natijasi, bandlik, qoniqish, resurs samaradorligi va institutsional ta’sirni ifodalovchi ko‘rsatkichlar qo‘llanilishi kerak.

4. Riskka asoslangan sifat auditini joriy etish. Audit resurslarni barcha jarayonlarga teng taqsimlamasdan, talabalar natijasi va tashkilot barqarorligiga yuqori xavf tug‘diradigan sohalarga ustuvor yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

5. Ta’lim natijalarini tashqi diagnostika bilan verifikatsiya qilish. Mustaqil baholash, tashqi ekspertlar va ish beruvchilar bahosi ichki natijalarning ishonchliligini oshirishi lozim.

6. Bitiruvchilar traektoriyasini kuzatish. Bandlikdan tashqari kasbga mos ishlash, ishga joylashish muddati, kompetensiyalardan foydalanish va ish beruvchi qoniqishi monitoring qilinishi kerak.

7. Sifat bo‘linmasining tahliliy maqomini kuchaytirish. Unga ma’lumotlarga kirish, mustaqil tahlil, rahbariyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobot va tuzatish choralarini monitoring qilish vakolatlari berilishi zarur.

8. PDCA siklini institutsionallashtirish. Har bir takomillashtirish chorasi muammo, bazaviy holat, maqsad, mas’ul, muddat, resurs va qayta baholash mezoni bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Takliflarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi funksional ifoda orqali umumlashtirilishi mumkin:

$$\mathbf{TSS = f(SM, DS, IK, RE, MT, UT),}$$

bu yerda: TSS – transformatsion sifat samaradorligi; SM – strategik muvofiqlik; DS – ma’lumotlar va raqamli salohiyat; IK – inson kapitali; RE – risk va tashqi ekspertiza; MT – manfaatdor tomonlar ishtiroki; UT – uzluksiz takomillashtirish. Formula omillar o‘rtasidagi aniq statistik koeffitsientlarni emas, ularning funksional o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Keyingi empirik tadqiqotlarda mazkur konstruksiyalar indikatorlar orqali operatsionallashtirilib, korrelyatsion, regression va faktor tahlili bilan tekshirilishi mumkin.

Xulosa. Oliy ta’lim transformatsiyasida ta’lim sifatini ta’minlash tizimi nazorat qiluvchi yordamchi tuzilma emas, balki strategik maqsadlarni o‘lchanadigan natijalarga bog‘laydigan, institutsional o‘zgarishlarni muvofiqlashtiradigan va ma’lumotlarga asoslangan qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydigan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. U ta’lim dasturlari, talabalar natijalari, inson kapitali, raqamli infratuzilma, bitiruvchilar traektoriyasi va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini yagona sifat arxitekturasida birlashtiradi.

Tahlil natijasida sifatni ta’minlash samaradorligi ichki va tashqi mexanizmlarning uyg‘unligi, ishonchli ma’lumotlar, ta’sirga yo‘naltirilgan KPI, tahliliy Dashboard, etik raqamli boshqaruv, xodimlarni rivojlantirish va PDCA siklining uzluksiz ishlashiga bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, texnologik

yechimning o‘zi yetarli emasligi; ma’lumotlar boshqaruv qarori va qayta baholash bilan bog‘lanmasa, raqamlashtirish yangi hisobot yukini keltirib chiqarishi mumkinligi asoslandi.

Shunday qilib, transformatsion sifat tizimining asosiy mantig‘i “maqsad – ma’lumot – monitoring – diagnostika – qaror – takomillashtirish– qayta baholash” siklidan iborat. Mazkur sikl institutsionallashtirilganda sifat madaniyati, shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi, ta’lim dasturlarining mehnat bozoriga muvofiqligi ortadi hamda oliy ta’lim tashkilotining milliy va xalqaro raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. Report on Digital Transformation in Higher Education in South Asia: High-level Recommendations. Paris: UNESCO, 2025. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000394970

2. UNESCO IESALC. Higher Education Global Trends Report: Towards Inclusive, Equitable and Quality Higher Education. Paris: UNESCO, 2026. https://www.unesco.org/en/articles/higher-education-global-trends-report-towards-inclusive-equitable-and-quality-higher-education

3. ENQA, ESU, EUA, EURASHE. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). Brussels, 2015. https://www.enqa.eu/esg-standards-and-guidelines-for-quality-assurance-in-the-european-higher-education-area/

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–637-son, 2020 yil 23 sentabr. https://lex.uz/docs/5013007

5. OECD. Ensuring Quality Digital Higher Education in Hungary. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/5f44fd6f-en

6. Ifenthaler, D., Cooper, M., Daniela, L., Sahin, M. Digital Higher Education: Emerging Quality Standards, Practices and Supports. OECD Education Working Papers, No. 281. Paris: OECD Publishing, 2022. https://doi.org/10.1787/f622f257-en

7. Martin, M. (Ed.). Internal Quality Assurance: Enhancing Higher Education Quality and Graduate Employability. Paris: UNESCO IIEP, 2018. https://www.iiep.unesco.org/en/publication/internal-quality-assurance-enhancing-higher-education-quality-and-graduate-employability

8. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en

9. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

10. Ehlers, U.-D. Understanding Quality Culture. Quality Assurance in Education. 2009. Vol. 17, No. 4. P. 343–363. https://doi.org/10.1108/09684880910992322

11. ENQA. The Guide for Effective Stakeholders’ Involvement in Quality Assurance. Brussels, 2020. https://www.enqa.eu/publications/the-guide-for-effective-stakeholders-involvement-in-quality-assurance/

12. International Organization for Standardization. ISO 21001:2018. Educational Organizations - Management Systems for Educational Organizations - Requirements with Guidance for Use. Geneva: ISO, 2018. https://www.iso.org/standard/66266.html

13. Biggs, J., Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.

14. Harvey, L., Green, D. Defining Quality. Assessment & Evaluation in Higher Education. 1993. Vol. 18, No. 1. P. 9–34. https://doi.org/10.1080/0260293930180102

15. Deming, W. E. Out of the Crisis. Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

JUMEK O‘RINBOEVNING QORAQALPOG‘ISTONDA PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA O'RNI

Saburova Sh.J.
Toshkent gumanitar fanlar universiteti eshlar masalalari va manaviy va marifiy ishlar bo'yicha prorektor

Таянч сўзлар: Жумек Ўринбоев, педагогика фани, ривожлантириш, Қорақалпоғистон, педагогик тафаккур, мактаб тарихи.
Ключевые слова: Джумек Уринбоев, педагогическая наука, развитие, Каракалпакстан, педагогическое мышление, история школы.
Key words: Jumek Ūrinboev, pedagogical science, development, Karakalpakstan, pedagogical thinking, school history.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада таниқли педагог Жумек Ўринбоевнинг Қорақалпоғистонда педагогика фанининг ривожланишидаги роли ва унинг илмий аҳамияти ҳақида сўз боради.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается роль известного педагога Джумека Уринбаева в развитии педагогической науки в Каракалпакстане и ее научное значение.
SUMMARY:
This article discusses the role of the famous teacher Jumek Urinbayev in the development of pedagogical science in Karakalpakstan and its scientific significance.

Jumek Asqar o‘g‘li O‘rinboev XX asr Qoraqalpog‘iston ilm-fani va pedagogik tafakkuri tarixida muhim o‘rin egallagan olim, pedagog, tashkilotchi va ma’rifatparvarlardan biridir. U butun faoliyatini xalq maorifini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash, Qoraqalpog‘istondagi maktab ta’limining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish hamda pedagogika fanini shakllantirishga bag‘ishlagan.

Mavjud manbalarda u O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan ilm-fan arbobi, professor, pedagogika fanlari doktori va 60 dan ortiq ilmiy mehnat muallifi sifatida tilga olinadi. Shuningdek, u Qoraqalpog‘istonda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini birinchilardan bo‘lib olgan olim sifatida qayd etiladi.

Jumek O‘rinboevning ilmiy merosida, ayniqsa, Qoraqalpog‘istonda maktab ta’limining shakllanishi va rivojlanishi tarixi alohida o‘rin tutadi. Uning

tadqiqotlari nafaqat pedagogika tarixi, balki Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy taraqqiyotini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Jumek Asqar o‘g‘li O‘rinboev 1906-yilda Shimboy tumanida, o‘sha davrdagi “Kengash” xo‘jaligi hududida, hozirgi “Qo‘sterak” hududidagi Maylibalta qishlog‘ida tug‘ilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. U oddiy qishloq muhitida voyaga yetgan. Dastlab qishloq maktabida boshlang‘ich ta’lim olgan. Yoshligidanoq bilim olishga, o‘qishga va jamiyat hayotidagi ma’rifiy jarayonlarga qiziqqan. O‘sha davr Qoraqalpog‘istonida savodxonlik darajasi past bo‘lgan, maktablar va malakali o‘qituvchilar yetishmas edi. Shu sababli yangi maktablarni tashkil etish, bolalarni ta’limga jalb qilish va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash nihoyatda dolzarb vazifalardan biri bo‘lgan. Ana shunday murakkab sharoitda Jumek O‘rinboevning pedagogik faoliyatga kirib kelishi uning keyingi ilmiy hayotini ham belgilab berdi.

Jumek O‘rinboev 1924-yilda To‘rtko‘lda uch oylik qisqa muddatli o‘qituvchilar kursini tamomlagan. Shundan keyin maktabda ishlay boshlagan. Uning dastlabki pedagogik faoliyatidagi asosiy maqsadlardan biri bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o‘quv qurollari bilan ta’minlash va ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘lgan.

1925-yilda u To‘rtko‘ldagi olti oylik sovet-partiya maktabida tahsil olgan. O‘qishni tugatgach, Shimboy shahridagi internatga direktor etib tayinlangan, keyinchalik maktab direktori sifatida faoliyat yuritgan. U yoshlar bilan ishlashga ham jalb qilingan. Savodsizlikni tugatish harakatlarida faolishtiroketgan. Bu davr Jumek O‘rinboevning dunyoqarashi va pedagogik qarashlari shakllangan muhim bosqich bo‘ldi.

Jumek O‘rinboev o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida 1930-yilda Toshkentdagi rabfakka o‘qishga kirgan. Manbalarda u bu davrda nafaqat ta’lim olgani, balki savodsizlikni tugatish ishlarida ham faol qatnashgani qayd etiladi. U bo‘sh vaqtlarida zavod va fabrikalarda mehnat qilayotgan kishilar orasida savod chiqarish ishlarini olib borgan.

Bu jihat uning pedagog sifatidagi muhim xususiyatini ko‘rsatadi: u ta’limni faqat maktab yoki auditoriya bilan chegaralab qo‘ymagan, balki uni jamiyatning keng qatlamlariga yetkazishga intilgan. Rabfakni muvaffaqiyatli tamomlaganidan so‘ng unga aspiranturaga yo‘llanma berilgan.

1933–1934-yillarda Jumek O‘rinboev Moskvadagi VAIPIN aspiranturasining ikki yillik tayyorlov bo‘limida tahsil olgan. Bu davr uning ilmiy dunyoqarashi shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.Moskva kabi yirik ilmiy markazda tahsil olish unga pedagogika, maktab tarixi, ta’lim nazariyasi va ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bilan chuqurroq tanishish imkonini berdi.

Tayyorlov bosqichini tugatgach, Qoraqalpog‘istonga qaytib, To‘rtko‘ldagi pedagogika texnikumida direktor va o‘qituvchi sifatida faoliyat olib bordi.

To‘rtko‘l pedagogika texnikumidagi faoliyati Jumek O‘rinboev hayotining muhim davrlaridan biridir.U bu yerda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etdi. O‘qituvchilar tayyorlash masalasiga katta e’tibor qaratdi. Qoraqalpog‘iston uchun malakali milliy pedagog kadrlar tayyorlash o‘sha davrda juda muhim edi. Jumek O‘rinboevning amaliy faoliyati keyinchalik uning ilmiy izlanishlari bilan chambarchas bog‘landi. U pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishi bilan bog‘liq holda ko‘rgan.

Jumek O‘rinboev Moskva shahrida ham pedagogik faoliyatini davom ettirgan.

Manbalarda uning RSFSR Maorif vazirligining o‘quv-pedagogik nashriyotida Qoraqalpoq maktablari uchun darsliklar tayyorlash va nashr qilish yo‘nalishida muharrir sifatida ishlagani qayd etiladi. Bu faoliyat juda katta ahamiyatga ega edi. Chunki ona tilidagi darsliklar maktab ta’limining rivojlanishida muhim omil bo‘lgan. Qoraqalpoq maktablari uchun o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonida qatnashishi uning pedagogik amaliyot bilan bir qatorda ilmiy va metodik faoliyatga ham chuqur kirib borishiga imkon yaratdi.

Jumek O‘rinboev Qoraqalpog‘istonda oliy pedagogik ta’limni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shgan.Manbalarda u murakkab tarixiy sharoitlarda Qoraqalpoq davlat o‘qituvchilar instituti hamda keyinchalik pedagogika instituti rahbari sifatida faoliyat yuritgani qayd etiladi. Uning asosiy e’tibori malakali o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan.

Uning faoliyati natijasida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishiga katta hissa qo‘shildi. Uning shogirdlari orasidan keyinchalik ta’lim va ilm-fan sohasida faoliyat yuritgan ko‘plab mutaxassislar yetishib chiqqan. Qoraqalpog‘istondagi ta’lim va maktablar tarixini o‘rganish bilan bog‘ladi.

U Qoraqalpog‘istonning turli davrlardagi maktablari, ta’lim tizimi, o‘qituvchilar faoliyati, savodxonlik harakati va pedagogik jarayonlarni tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etdi.

Ilmiy izlanishlari davomida u faqat mavjud adabiyotlar bilan cheklanib qolmagan.

U Qozon, Olmaota, Toshkent, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlaridagi kutubxonalarda tadqiqot olib borgan, arxiv materiallarini o‘rgangan. Bu uning ilmiy ishlariga keng tarixiy manbaviy asos yaratgan.1950-yilda Jumek O‘rinboev Moskvada RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining Pedagogika nazariyasi va tarixi institutida “Qoraqalpoq maktablarining inqilobgacha bo‘lgan tarixiga oid ocherklar” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Natijada unga pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi berilgan. Ushbu tadqiqot Qoraqalpog‘istonda maktab ta’limining tarixiy shakllanish jarayonini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jumek O‘rinboev 1957-yilgacha Qoraqalpoq davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasiga rahbarlik qilgan. Kafedra mudiri sifatidagi faoliyati davomida pedagogika fanini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, yosh mutaxassislarni tayyorlash va o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga katta e’tibor bergan.

Uning rahbarligi davrida pedagogika kafedrasi Qoraqalpog‘istondagi pedagogik ilmiy muhitning muhim markazlaridan biriga aylangan. Jumek O‘rinboev ilmiy merosining eng muhim yo‘nalishlaridan biri - Qoraqalpog‘istondagi sovet davri maktablari tarixini tadqiq etishdir.

Uning “Qoraqalpoq sovet maktabi tarixi” nomli yirik ilmiy monografiyasi 1966-yilda nashr etilganligi haqida manbalarda ma’lumot beriladi. Boshqa bibliografik manbada esa Jumek O‘rinboevning Qoraqalpoq sovet maktabi tarixiga bag‘ishlangan doktorlik tadqiqoti 1917-1931-yillar doirasida ko‘rsatiladi. Mazkur tadqiqot Qoraqalpog‘istonda maktab ta’limining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Jumek O‘rinboevning ilmiy faoliyatidagi eng katta bosqichlardan biri uning pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olishi bo‘lgan. Manbalarda u “Qoraqalpoq sovet maktabining tarixi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgani va Qoraqalpog‘istonda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasiga birinchi bo‘lib erishgan olim sifatida e’tirof etilishi qayd etiladi. Bu voqea Qoraqalpog‘istonda pedagogika fanining rivojlanishi tarixida muhim bosqich bo‘lgan.

Shu sababli Jumek O‘rinboev nomi Qoraqalpog‘istonda pedagogika fanining dastlabki ilmiy maktabini shakllantirgan olimlar qatorida tilga olinadi.

Jumek O‘rinboev 60 dan ortiq ilmiy mehnatlar muallifi sifatida qayd etiladi. Uning ilmiy merosini quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

Qoraqalpog‘iston maktablari tarixi; Qoraqalpoq maktab ta’limining shakllanishi;

Pedagogika tarixi; O‘qituvchi kadrlar tayyorlash; Xalq maorifi tarixi; Savodxonlik harakati;

Qoraqalpog‘istonda ta’lim va madaniyat taraqqiyoti; Pedagogik qarashlarning tarixiy rivojlanishi;

Qoraqalpoq ma’rifat parvarlik merosi; Buyuk mutafakkir va shoirlarning pedagogik qarashlari.

Jumek O‘rinboevning ilmiy faoliyatida qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Berdaqning ijtimoiy-pedagogik qarashlarini o‘rganish ham muhim o‘rin egallaydi.1978-yilda Jumek O‘rinboev va Oserbay Aleuovning “Berdaqning ijtimoiy-pedagogik qarashlari” nomli 80 sahifalik kitobi Nukusda “Qoraqalpog‘iston” nashriyotida chop etilgan. Ushbu bibliografik ma’lumot ilmiy katalogda qayd etilgan. Bu asar Berdaq ijodidagi tarbiya, axloq, ma’rifat, xalq ta’limi va inson kamolotiga oid qarashlarni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Jumek O‘rinboevning pedagogik faoliyatidan kelib chiqadigan asosiy g‘oyalardan biri - ta’lim va tarbiya inson shaxsining shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligidir.Uning fikrlarida bilim olish, to‘g‘ri tarbiya, insonning mustaqil fikrlashi va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishishi masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Uning hayoti haqidagi xotiralarda ham ta’lim-tarbiya masalasiga katta ahamiyat bergani ko‘rinadi. Jumek O‘rinboev pedagog uchun faqat bilim berishning o‘zi yetarli emas, balki yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri va ma’naviy sifatlarini shakllantirish ham muhim deb qaragan.

Jumek O‘rinboevning xizmatlarini faqat uning shaxsiy ilmiy asarlari bilan cheklab bo‘lmaydi. U Qoraqalpog‘istonda pedagogika bo‘yicha ilmiy kadrlar shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning faoliyati natijasida:

pedagogika faniga qiziqadigan yosh mutaxassislar qo‘llab-quvvatlandi;

pedagogika kafedralarining ilmiy faoliyati rivojlandi;

Qoraqalpog‘iston maktablari tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi;

pedagogika tarixiga oid mahalliy manbalarni o‘rganish an’anasi shakllandi;

o‘qituvchilar tayyorlash tizimi takomillashdi.

Shu jihatdan Jumek O‘rinboevni Qoraqalpog‘istondagi pedagogika ilmiy maktabining dastlabki vakillaridan biri sifatida baholash mumkin. Jumek O‘rinboevning pedagogik faoliyati ko‘plab yosh mutaxassislarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Uning hayoti haqida yozilgan xotiralarda olimning yosh tadqiqotchilar va talabalar bilan muloqot qilgani, ularga maslahat va yo‘l-yo‘riqlar bergani qayd etiladi. 1966-yilda uning 60 yoshga to‘lishi munosabati bilan qoraqalpoq shoiri Jolmurza Aymurzaev tomonidan tabrik she’ri yozilgani ham uning o‘z davrida ilmiy-pedagogik jamoatchilik orasida katta hurmatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

She’rda u “muallimlar otasi” va bilim sohasidagi dastlabki doktorlardan biri sifatida ulug‘langan.

Jumek O‘rinboev ilmiy faoliyatining muhim jihati - pedagogik hodisalarni tarixiy jarayon bilan bog‘lab o‘rganishidir.

Uning tadqiqotlarida maktabni jamiyatdan ajratib o‘rganish emas, balki maktab va ta’lim tizimini ijtimoiy, madaniy va tarixiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda ko‘rish yondashuvi namoyon bo‘ladi.

Bu metodologik yondashuv Qoraqalpog‘iston pedagogika tarixini ilmiy o‘rganish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Jumek O‘rinboevning ilmiy merosini Qoraqalpog‘iston ta’lim tarixining muhim manbalaridan biri sifatida ko‘rish mumkin.Uning faoliyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, u amaliy pedagog sifatida maktablarda va pedagogika ta’lim muassasalarida faoliyat yuritdi.Ikkinchidan, u pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda rahbar va tashkilotchi sifatida ishtirok etdi.

Uchinchidan, u Qoraqalpog‘iston maktablari tarixini ilmiy tadqiq qilib, ushbu yo‘nalishni mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi sifatida rivojlantirishga hissa qo‘shdi.

Jumek O‘rinboevning oilasida ilm-fanga qiziqish kuchli bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar ham uchraydi.Manbalarda uning ukasi Nag‘met O‘rinboev ham ilm-fan bilan shug‘ullangani va Qoraqalpog‘istonda ilmiy faoliyat olib borgan ziyolilardan biri bo‘lgani qayd etiladi. Bu oila vakillarining ilm-fan va ta’limga bo‘lgan e’tibori Qoraqalpog‘istonning ilmiy-intellektual tarixida alohida qiziqish uyg‘otadi.

Bugungi kunda Jumek O‘rinboevning ilmiy merosi Qoraqalpog‘iston pedagogikasi tarixini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jumek Asqar o‘g‘li O‘rinboev Qoraqalpog‘istonning XX asr pedagogika va ma’rifat tarixida muhim iz qoldirgan yirik olim va pedagoglardan biridir.

Uning faoliyati o‘qituvchilik, pedagogik boshqaruv, ilmiy tadqiqot, darslik va o‘quv adabiyotlarini tayyorlash, pedagog kadrlar yetishtirish hamda Qoraqalpog‘iston maktablari tarixini ilmiy o‘rganish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olgan.Shu sababli uning hayoti va ilmiy faoliyatini o‘rganish bugungi kunda ham Qoraqalpog‘iston pedagogik tafakkuri tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

2. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston pedagogika tarixi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar.

3. O‘rinboev J. Qoraqalpoq sovet maktabi tarixi. - Nukus, 1966.

4. O‘rinboev J., Aleuov O. Berdaqning ijtimoiy-pedagogik qarashlari. - Nukus: Qoraqalpog‘iston, 1978.

5. Qoraqalpog‘iston pedagogikasi va ta’lim tarixiga oid bibliografik materiallar.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogika tarixi va ma’rifatparvarlik merosiga oid ilmiy tadqiqotlar.

PROFESSIONAL TA’LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Fayzullayev R.H.
“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: kasbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, raqamli kompetensiya, elektron ta'lim, ta'lim platformalari, raqamli infratuzilma.
Ключевые слова: профессиональное образование, цифровые технологии, цифровая трансформация, цифровая компетентность, электронное обучение, образовательные платформы, цифровая инфраструктура.
Key words: vocational education, digital technologies, digital transformation, digital competence, e-learning, educational platforms, digital infrastructure.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola kasb-hunar ta'limi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendentsiyalari va rivojlanish omillarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada kasb-hunar ta'limi mazmuni, o'qitish jarayoni, amaliy mashg'ulotlar, baholash va ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning ahamiyati ta'kidlangan. Kasbiy ta'limni raqamlashtirish o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish va ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim shartlar sifatida qaraladi.
РЕЗЮМЕ:
Цель данной статьи - анализ современных тенденций и факторов развития внедрения цифровых технологий в систему профессионального образования. В статье подчеркивается важность цифровой трансформации в содержании профессионального образования, учебном процессе, практической подготовке, оценке и управлении образовательными учреждениями. Цифровизация профессионального образования является важным условием развития цифровой компетентности преподавателей, совершенствования образовательной инфраструктуры и адаптации содержания образования к требованиям рынка труда.
SUMMARY:
This article is aimed at analyzing the current trends and development factors of the introduction of digital technologies in the vocational education system. The article emphasizes the importance of digital transformation in the content of vocational education, the teaching process, practical training, assessment and management of educational institutions. The digitalization of vocational education is considered to be an important condition for the development of digital competence of teachers, improvement of educational infrastructure and adaptation of educational content to the requirements of the labor market.

Kirish. So'nggi yillarda jamiyatning barcha jabhalarida sodir bo'layotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, ta’lim tizimining mazmuni va tashkiliy tuzilishiga sezilarli ta’sir qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va mehnat bozorida yangi kasbiy kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi professional ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni belgilab bermoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan nafaqat muayyan kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki raqamli vositalardan foydalanish, axborotni tahlil qilish, texnologik jarayonlarni boshqarish hamda o‘zgaruvchan mehnat sharoitlariga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lish talab etilmoqda. Bunday sharoitda professional ta’lim mazmunini zamonaviy texnologik jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim oluvchilarda amaliy va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish muhim pedagogik va tashkiliy vazifaga aylanadi. Raqamli texnologiyalarni professional ta’limga tatbiq etish elektron darsliklar yoki masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish bilangina cheklanib qolmaydi. Mazkur jarayon ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni raqamli vositalar bilan boyitish, bilim va ko‘nikmalarni baholashning zamonaviy usullarini joriy etish hamda ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirishni ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, professional ta’limni raqamlashtirishni tizimli va kompleks jarayon sifatida o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarorida milliy malaka tizimini rivojlantirish, kasbiy standartlarni ish beruvchilar talablari asosida ishlab chiqish, oliy va professional ta’lim dasturlarini takomillashtirish hamda mehnat bozori va ta’lim tizimining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash vazifalari belgilangan[1]. Professional ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ta’lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqlashtirish ushbu tizimni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi professional ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ilmiy-nazariy jihatdan

yoritishdan iborat. Maqolada professional ta’limni raqamlashtirishning mazmuni va ahamiyati, zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari, raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari hamda uni rivojlantirishning pedagogik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy omillari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism.Professional ta’limni raqamlashtirish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni faqat kompyuter, internet yoki elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bilan izohlash yetarli emas. Raqamlashtirish professional ta’limning maqsadi, mazmuni, o‘qitish texnologiyalari, amaliy tayyorgarlik, baholash va boshqaruv mexanizmlariga raqamli texnologiyalarni tizimli ravishda integratsiya qilishni nazarda tutadi. Texnologik taraqqiyot natijasida kasbiy faoliyat mazmunining o‘zgarib borishi professional ta’limga qo‘yiladigan talablarning ham yangilanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarishda avtomatlashtirish, robotlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlari, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash kabi jarayonlarning kengayishi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalariga yangi talablarni shakllantirmoqda. Shu sababli professional ta’lim mazmuni ham mehnat bozoridagi texnologik o‘zgarishlarga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. UNESCO-UNEVOC professional ta’lim va treningni raqamlashtirishni texnologik o‘zgarishlar hamda mehnat bozoridagi yangi talablar bilan chambarchas bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Professional ta’limdagi raqamli transformatsiyaning maqsadi ta’limning qamrovi, samaradorligi va sifatini oshirish hamda ta’lim oluvchilarni raqamli iqtisodiyot va jamiyatda faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat[2]. Professional ta’limni raqamlashtirishning muhim jihatlaridan biri - ta’limning amaliy yo‘nalishini saqlab qolgan holda raqamli vositalar bilan boyitishdir. Chunki professional ta’limning o‘ziga xos xususiyati nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar an’anaviy amaliy mashg‘ulotlarning o‘rnini to‘liq egallash emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Raqamlashtirishning yana bir muhim jihati ta’limning individuallashtirilishi bilan bog‘liq. Raqamli platformalar orqali ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasi, bajarilgan topshiriqlari va o‘quv faolligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish hamda tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Natijada o‘quv jarayonini ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunda ta’lim analitikasi ham alohida ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida shakllanadigan raqamli ma’lumotlardan

foydalanish orqali o‘zlashtirishdagi muammolarni aniqlash, ta’lim natijalarini monitoring qilish va pedagogik qarorlarni ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish mumkin. Demak, raqamlashtirish ta’lim jarayonini nafaqat texnik jihatdan, balki boshqaruv nuqtayi nazaridan ham takomillashtirish imkonini beradi. Professional ta’limni raqamlashtirishda pedagogning roli ham o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar o‘qituvchini axborotning yagona manbai sifatidagi an’anaviy rolidan bosqichma-bosqich ta’lim jarayonini tashkil etuvchi, raqamli resurslarni tanlovchi, o‘quv faoliyatini yo‘naltiruvchi va ta’lim natijalarini tahlil qiluvchi subyektga aylantirmoqda. Shuning uchun raqamli transformatsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan pedagoglarning tegishli raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishiga bog‘liqdir. Bu jihat O‘zbekiston sharoitida ham dolzarbdir. Shuningdek, raqamli texnologiyalar professional ta’limda ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish imkonini beradi. Raqamli platformalar orqali ish beruvchilar bilan hamkorlikni tashkil etish, amaliyot jarayonlarini monitoring qilish, kasbiy ko‘nikmalarni baholash va bitiruvchilarning bandligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish mumkin. Bu esa professional ta’lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Professional ta’limni raqamlashtirish jarayonida bir nechta ustuvor tendensiyalar kuzatilmoqda. Ular orasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish[3], raqamli ta’lim platformalarining rivojlanishi, ta’lim analitikasi, mobil texnologiyalar hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish alohida o‘rin tutadi.

Birinchi tendensiya - sun’iy intellekt texnologiyalarining professional ta’limga kirib kelishidir. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar o‘quv materiallarini moslashtirish, ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, avtomatlashtirilgan baholash, ta’lim jarayonidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq sun’iy intellektdan foydalanish faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanmasligi kerak. Professional ta’limda AI vositalaridan foydalanish ta’lim maqsadlariga mosligi, ma’lumotlarning ishonchliligi, akademik halollik, axborot xavfsizligi va pedagogik nazorat kabi masalalarni ham hisobga olishni talab qiladi[6,7,8].

Ikkinchi tendensiya - raqamli ta’lim platformalarining kengayishidir. Bunday platformalar o‘quv materiallarini taqdim etish, topshiriqlarni boshqarish, muloqotni tashkil etish, baholash va ta’lim oluvchilarning faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlarini bir tizimda birlashtiradi. Natijada ta’lim jarayonining uzluksizligi va boshqariluvchanligi oshadi.

Uchinchi tendensiya - ta’lim analitikasi va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning rivojlanishidir. Raqamli platformalarda shakllanadigan ma’lumotlar asosida ta’lim oluvchilarning faolligi, o‘zlashtirishi va individual rivojlanish dinamikasini tahlil qilish mumkin. Bu esa pedagogik qarorlarni aniqroq ma’lumotlar asosida qabul qilish imkonini beradi.

To`rtinchi tendensiya - ta’lim, ishlab chiqarish va mehnat bozori o‘rtasidagi raqamli integratsiyaning kuchayishidir. Professional ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida raqamli axborot almashinuvi ta’lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga tezroq moslashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan raqamlashtirish professional ta’limning nafaqat o‘qitish jarayonini, balki uning mehnat bozori bilan aloqalarini ham o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Professional ta’limni raqamlashtirish samaradorligi bir nechta o‘zaro bog‘liq omillarga bog‘liq.

Birinchi omil - texnologik infratuzilma. Internet tarmog‘i, zamonaviy kompyuterlar, raqamli platformalar, dasturiy ta’minot va texnik jihozlarning mavjudligi raqamli ta’limni tashkil etishning boshlang‘ich shartlaridan hisoblanadi [2].

Ikkinchi omil - pedagogik-metodik ta’minot. Texnologiyaning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi. Undan foydalanish mazmun, metod, topshiriq va baholash mezonlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Uchinchi omil - pedagoglarning raqamli kompetensiyasi. UNESCOning O‘zbekistondagi 2025-yilgi DELTA tashabbusi doirasidagi faoliyati professional ta’lim pedagoglarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati amaliy darajada ham e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi [4].

To‘rtinchi omil - tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari. Raqamlashtirish jarayonida ta’lim muassasasining strategik maqsadlari, raqamli resurslardan foydalanish tartibi, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash va natijalarni monitoring qilish mexanizmlari belgilanishi zarur.

Beshinchi omil - mehnat bozori bilan integratsiya. O‘zbekiston Respublikasining PQ-345-son qarorida kasbiy standartlarni ish beruvchilar talablari asosida ishlab chiqish va professional ta’lim dasturlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ish beruvchilar ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Oltinchi omil - me’yoriy-huquqiy baza. Raqamli ta’lim resurslari, ma’lumotlar xavfsizligi, sun’iy intellektdan foydalanish, akademik halollik va raqamli baholash bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi mexanizmlar raqamlashtirishning barqarorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, professional ta’limni raqamlashtirish alohida texnologiyalarni joriy etishdan iborat bo‘lgan bir martalik jarayon emas. U ta’lim mazmuni, pedagogik metodlar, raqamli kompetensiyalar, boshqaruv va mehnat bozori o‘rtasidagi aloqalarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi [2].

Ayniqsa, professional ta’limning amaliy yo‘nalishi hisobga olinganda, raqamli texnologiyalar real kasbiy faoliyat bilan bog‘langan holda qo‘llanishi kerak. Masalan, raqamli simulyatsiyalar, virtual muhitlar, raqamli ishlab chiqarish vositalari va AI texnologiyalari [9,10] ta’lim oluvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan vazifalarni o‘quv jarayoniga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogning roli ham o‘zgarib bormoqda. Raqamli muhitda pedagog faqat axborot yetkazuvchi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi, raqamli resurslarni tanlovchi, ta’lim oluvchining faoliyatini tahlil qiluvchi va texnologiyadan mas’uliyatli foydalanishni yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi[5].

Xulosa. Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini nazariy va metodologik yondashuv asosida takomillashtirish masalasi muhokama qilindi. Professional ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil natijasida professional ta’limni raqamlashtirishda sun’iy intellekt, raqamli ta’lim platformalari, ta’lim analitikasi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy zamonaviy tendensiyalar sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Raqamli transformatsiyaning samaradorligi esa texnologik infratuzilma, pedagogik-metodik ta’minot, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, moliyaviy imkoniyatlar, me’yoriy-huquqiy baza va mehnat bozori bilan integratsiya kabi omillarga bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida professional ta’limni raqamlashtirish jarayonini rivojlantirishda ta’lim mazmunini zamonaviy kasbiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, raqamli ta’lim resurslari sifatini oshirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim yo‘nalishlar sifatida ta`kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qaror. https://lex. uz/ uz/ docs/-7132752

2. UNESCO-UNEVOC. Enhancing TVET through digital transformation in developing countries. UNESCO-UNEVOC International Centre for Technical and Vocational Education and Training, 2023. https://hksmp.com/journals/vte/article/view/585

3. Yang C., Wu W., Tegelbeckers H. Integrating AI in TVET: A practical guide for institutions. UNESCO-UNEVOC International Centre for Technical and Vocational Education and Training, 2026. https://www.unesco.org/en/articles/integrating-ai-tvet-practical-guide-institutions

4. UNESCO Institute for Lifelong Learning. Strengthening digital competencies TVET educators in Uzbekistan with UIL. UNESCO, 2025. https://www.unesco.org/en/articles/strengthening-digital-competencies -tvet-educators-uzbekistan-uil

5. Lee S.H., Atherton G., Crosling G. TVET teachers for the Fourth Industrial Age: Digital competency frameworks. UNESCO-UNEVOC International Centre for Technical and Vocational Education and Training,2022. https://www.uil. unesco.org/sites/default/ files/medias/fichiers/ 2025/ 11/ Nov WebinarCN_TVETandLLL_final.pdf

6. OECD. OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing, 2021. DOI: 10.1787/589b283f-en.

7. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en.

8. OECD. OECD Digital Education Outlook 2026: Exploring Effective Uses of Generative AI in Education. Paris: OECD Publishing, 2026. DOI: 10.1787/062a7394-en.

9. Miao, F., Holmes, W., Huang, R., Zhang, H. AI and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO, 2021. ISBN 978-92-3-100447-6. DOI: 10.54675/PCSP7350.

10. Miao, F., Holmes, W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

11. Han, X., Zhou, Q., Li, M., Wang, Y. et al. Handbook of Technical and Vocational Teacher Professional Development in the Digital Age. Singapore: Springer, 2024. Open Access. DOI: 10.1007/978-981-99-5937-2.

12. UNESCO IIEP. Digital Transformation of TVET and Skills Development Systems in Africa: State of Play and Prospects. UNESCO International Institute for Educational Planning, 2022.

13. UNESCO-UNEVOC. Enhancing TVET through Digital Transformation in Developing Countries. UNESCO-UNEVOC, 2023

KASBIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jumanov A.A.
“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti
Rahimboyeva G.I.
“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: kasbiy ta’lim, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, raqamli pedagogika, raqamli kompetensiya, raqamli ta’lim resurslari, sun'iy intellekt, ta’lim tahlili, amaliy mashg'ulotlar.
Ключевые слова: профессиональное образование, цифровизация, цифровые технологии, цифровая педагогика, цифровая компетентность, цифровые образовательные ресурсы, искусственный интеллект, образовательная аналитика, практическое обучение.
Key words: vocational education, digitalization, digital technologies, digital pedagogy, digital competence, digital educational resources, artificial intelligence, educational analytics, practical training.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada kasb-hunar ta’limi tizimini raqamlashtirishning pedagogik imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning kasb-hunar ta’limi mazmuniga, o‘qitish jarayoniga, mustaqil o‘rganishga, amaliy mashg'ulotlarga va ta’lim natijalarini baholashga ta’siri ta’kidlangan. Kasb-hunar ta’limini raqamlashtirish jarayonida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, raqamli kontent sifati, ta’lim mazmunining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va texnologiyalardan maqsadli foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada raqamli pedagogikaning rivojlanishi, individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, amaliy mashg'ulotlarni raqamli vositalar bilan boyitish va kasb-hunar ta’limini raqamlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish aks ettirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются педагогические возможности и перспективы развития цифровизации системы профессионального образования. Подчеркивается влияние цифровых технологий на содержание профессионального образования, учебный процесс, самостоятельное обучение, практическую подготовку и оценку результатов обучения. В процессе цифровизации профессионального образования особое внимание уделяется вопросам цифровой компетентности преподавателей, качества цифрового контента, соответствия учебного контента требованиям рынка труда и целенаправленного использования технологий. В статье отражено развитие цифровой педагогики, расширение возможностей индивидуального обучения, обогащение практической подготовки цифровыми инструментами и усиле-

ние интеграции образования и производства как перспективные направления цифровизации профессионального образования.

SUMMARY:

This article analyzes the pedagogical possibilities and development prospects of the digitalization of the vocational education system. The impact of digital technologies on the content of vocational education, the teaching process, independent learning, practical training, and assessment of learning outcomes is emphasized. In the process of digitalizing vocational education, special attention is paid to the issues of digital competence of teachers, the quality of digital content, the compliance of educational content with labor market requirements, and the targeted use of technologies. The article reflects the development of digital pedagogy, expanding individual learning opportunities, enriching practical training with digital tools, and strengthening the integration of education and production as promising areas of digitalizing vocational education.

Kirish. Jamiyatning raqamli transformatsiyasi, iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, ta’lim tizimining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat texnik modernizatsiyani, balki ta’lim mazmunini, pedagogik yondashuvlar va ta’lim faoliyatini tashkil etish usullarini ham takomillashtirishni talab qiladi. YUNESKO-UNEVOC ma’lumotlariga ko‘ra, kasb-hunar ta’limida raqamli transformatsiya faqat raqamli vositalarni joriy etish bilan cheklanib qolmaydi. Bu ta’lim mazmuni, o‘quv dasturlari, o‘qitish va o‘rganish jarayonlari, o‘qituvchilarning kompetentsiyalari va ta’lim muassasasining rivojlanish strategiyasi bilan bog'liq murakkab jarayondir [1]. Shu munosabat bilan, raqamlashtirishning pedagogik salohiyatini aniqlash va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish mexanizmlarini o‘rganish hozirgi ilmiy va amaliy masalalardan biridir. Kasb-hunar ta’limidagi raqamli texnologiyalar o‘quv materiallarini tezkor taqdim etish, talabalarning mustaqil ishlashi imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish, amaliy vaziyatlarni modellashtirish va o‘quv natijalarini monitoring qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. OECD tomonidan raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta’limni individualizatsiya qilish, o‘quv jarayonini boshqarish va o‘quv natijalari haqidagi ma’lumotlardan foydalanish uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ham qayd etilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta’limini modernizatsiya qilish va uni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy malaka tizimini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarda professional standartlarni ishlab chiqish, malakalarni mehnat bozori talablariga moslashtirish va ta’lim va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash vazifalari belgilangan [3]. Kasb-hunar ta’limini raqamlashtirishning yana bir muhim jihati pedagogik faoliyatni o‘zgartirishdir. Raqamli o‘quv muhitida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli ta’lim resurslarini tanlaydigan, o‘quv jarayonini loyihalashtiradigan, talabalar faoliyatini tahlil qiladigan va ularning mustaqil o‘qishini boshqaradigan sub'ekt sifatida ham ishlaydi [4]. Shuning uchun, raqamlashtirish jarayonida

o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish ta’lim sifati bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda sun'iy intellektning rivojlanishi kasb-hunar ta’limining raqamli imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini moslashtirish, individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, baholash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash va talabalarga tezkor fikr-mulohaza bildirish mumkin [5]. Shuning uchun maqolada kasb-hunar ta’limini raqamlashtirishning nazariy jihatlari, raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, raqamli o‘quv muhitini shakllantiruvchi omillar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Kasbiy ta’lim tizimini raqamlashtirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’limga alohida raqamli vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. Raqamlashtirish ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, o‘quv resurslari, baholash mexanizmlari, pedagogik faoliyat hamda ta’limni boshqarish jarayonlarining raqamli texnologiyalar asosida takomillashuvini nazarda tutadi [6]. Kasbiy ta’limning o‘ziga xos jihati uning amaliy yo‘nalganligi bilan belgilanadi. Mazkur tizimda ta’lim oluvchining nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va kasbiy vazifalarni mustaqil hal etish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli raqamli texnologiyalarni kasbiy ta’limga joriy etishda ularning aynan kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qilishi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralishi lozim [7]. Raqamli texnologiyalar kasbiy ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish, o‘quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish hamda ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Elektron darsliklar, videodarslar, virtual modellar, interaktiv topshiriqlar, raqamli simulyatorlar va ta’lim platformalari orqali murakkab kasbiy jarayonlarni tushuntirish hamda ularni turli sharoitlarda modellashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi [8]. Raqamlashtirish jarayonida ta’lim oluvchining ta’lim jarayonidagi roli ham o‘zgarib bormoqda. An’anaviy ta’limda asosiy axborot manbai o‘qituvchi va darslik hisoblangan bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida ta’lim oluvchi turli elektron manbalardan foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish, mustaqil topshiriqlarni bajarish va o‘zlashtirish natijalarini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim oluvchining mustaqilligi, faolligi va o‘z ta’lim jarayoniga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qo‘shimcha pedagogik sharoitlar yaratiladi. Kasbiy ta’limni raqamlashtirishning nazariy asoslaridan yana biri ta’limni individuallashtirish imkoniyati bilan bog‘liq. Raqamli ta’lim platformalari orqali ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini tanlash mumkin. Bunda barcha ta’lim oluvchilarga bir xil mazmundagi materialni

taqdim etishdan ko‘ra, ularning mavjud bilim va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi [9].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta’lim natijalarini baholash jarayonini takomillashtirish uchun ham muhim imkoniyatlarni yaratadi. Elektron testlar, avtomatlashtirilgan topshiriqlar, elektron portfoliolar va raqamli monitoring vositalari orqali ta’lim oluvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Bunday yondashuv pedagogga nafaqat yakuniy natijani, balki ta’lim oluvchining o‘quv jarayonidagi faolligi va o‘zlashtirishidagi o‘zgarishlarni ham tahlil qilish imkonini beradi [10]. Kasbiy ta’limni raqamlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari ham tobora kengayib bormoqda. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar ta’lim mazmunini moslashtirish, individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, o‘quv materiallarini shakllantirish, baholash va tezkor fikr-mulohaza berishda qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday texnologiyalardan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va insonning ta’lim jarayonidagi asosiy roli saqlanishi zarur [11]. Raqamli transformatsiya shuningdek, pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni ham o‘zgartiradi. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki raqamli ta’lim vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish, raqamli resurslarni tanlash va baholash, ta’lim oluvchilarning raqamli faoliyatini tashkil etish hamda raqamli muhitda samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak [12].

Shunday qilib, kasbiy ta’lim tizimini raqamlashtirishning nazariy asoslari raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga oddiy texnik vosita sifatida emas, balki ta’lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, baholash va pedagogik boshqaruvni takomillashtiruvchi omil sifatida qarashni talab etadi. Raqamlashtirishning samaradorligi texnologiyaning o‘zidan ko‘ra, undan qanday pedagogik maqsadda va qanday metodik yondashuv asosida foydalanilishiga ko‘proq bog‘liq. Raqamli texnologiyalarning muhim pedagogik imkoniyatlaridan biri ta’lim mazmunini turli shakl va vositalar orqali taqdim etishdir. Elektron darsliklar, videomateriallar, infografikalar, animatsiyalar, interaktiv topshiriqlar va multimedia resurslari o‘quv materialini yanada tushunarli va ko‘rgazmali shaklda tashkil etish imkonini beradi. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ayrim jarayonlar yoki texnik obyektlarni faqat og‘zaki tushuntirish yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda raqamli modellar, videodemonstratsiyalar va interaktiv materiallardan foydalanish ta’lim oluvchining o‘rganilayotgan jarayonni yaxlit tasavvur qilishiga yordam beradi. Shu jihatdan raqamli resurslar nazariy bilimlarni amaliy mazmun bilan bog‘lash vositasi sifatida ham xizmat qiladi [2].

Raqamli texnologiyalar ta’lim oluvchining auditoriyadan tashqari faoliyatini tashkil etish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Elektron kurslar, raqamli

kutubxonalar, videodarslar va ochiq ta’lim resurslari orqali ta’lim oluvchi o‘quv materiallaridan istalgan vaqtda foydalanishi mumkin. Bunday imkoniyat ta’lim jarayonining faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan chegaralanib qolmasligiga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchi o‘ziga kerakli materialni mustaqil izlash, turli manbalarni taqqoslash, topshiriqlarni bajarish va natijalarini baholash orqali o‘zining o‘quv faoliyatini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [13]. Mustaqil ta’limni raqamli muhitda samarali tashkil etish uchun pedagog tomonidan o‘quv maqsadlari aniq belgilanib, topshiriqlar mazmuni, bajarish mezonlari va kutilayotgan natijalar tushunarli tarzda ishlab chiqilishi lozim. Raqamli ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning faoliyati bilan bog‘liq turli ma’lumotlar shakllanadi. Ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quv jarayonidagi muammolarni aniqlash, o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish va pedagogik qarorlarni asoslash imkoniyati paydo bo‘ladi. Ta’lim analitikasi orqali ta’lim oluvchining topshiriqlarni bajarish faolligi, o‘quv materiallaridan foydalanish darajasi, baholash natijalari va o‘zlashtirishdagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot olish mumkin. Bunday tahlil pedagogga individual yondashuvni kuchaytirish va zarur hollarda qo‘shimcha pedagogik yordamni tashkil etish imkonini beradi [14].

Shunday qilib, raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari ta’lim mazmunini boyitish, individuallashtirish, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, mustaqil ta’limni tashkil etish, baholash va ta’lim analitikasidan foydalanish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ularning samaradorligi esa texnologiyaning mavjudligidan ko‘ra, pedagogik maqsadga muvofiq va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llanilishiga bog‘liq. Kasbiy ta’limni raqamlashtirish jarayonida pedagogning o‘rni va kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng kirib kelishi pedagogning vazifasini kamaytirmaydi, aksincha, undan yangi pedagogik va raqamli kompetensiyalarni talab etadi. Zamonaviy pedagog raqamli vositalardan foydalanish bilan bir qatorda, ularning ta’lim maqsadlariga mosligini aniqlashi, o‘quv jarayoniga integratsiya qilishi va ta’lim oluvchilarning faoliyatini samarali tashkil etishi zarur. Raqamli ta’lim muhitida pedagogning faoliyati faqat tayyor bilimlarni yetkazib berish bilan cheklanmaydi. U ta’lim oluvchining mustaqil izlanishini tashkil etuvchi, zarur axborot manbalarini tanlovchi, o‘quv faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va ta’lim natijalarini tahlil qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning raqamli kompetensiyasi kasbiy ta’limni raqamlashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [15]. Pedagogning raqamli kompetensiyasi faqat kompyuter yoki dasturlardan foydalanish ko‘nikmasi bilan chegaralanmasligi lozim. U raqamli ta’lim resurslarini yaratish va tanlash, elektron ta’lim platformalaridan foydalanish, raqamli kommunikatsiyani tashkil etish, ta’lim oluvchilarning raqamli faoliyatini boshqarish, axborotning ishonchliligini

Baholash-qaror	Dalil va muqobil yechimlarni mezonlar asosida baholash	Variantlarni solishtiradi, qarorni asoslaydi	Keys-stadi, ekologik ekspertiza, debat
Faoliyat	Ekologik bilimni amaliy vazifaga ko‘chirish	Reja, loyiha, tavsiya va amaliy yechim ishlab chiqadi	Loyiha metodi, kuzatuv, mini-tadqiqot
Refleksiv-qadriyatli	Shaxsiy pozitsiya, mas’uliyat va xulqni anglash	O‘z qarorini tahlil qiladi, ekologik mas’uliyatni namoyon etadi	Refleksiya, kundalik, o‘z-o‘zini baholash

Ekologik tafakkurning mazmuni va ilmiy-pedagogik mohiyati. Ekologik tafakkur ekologik ong bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular aynan bir tushuncha emas. Ekologik ong shaxsning tabiat va atrof-muhitga oid bilimlari, munosabati va qadriyatlarini qamrab olsa, ekologik tafakkur ushbu bilim va munosabatlar asosida muammoni fikriy qayta ishlash mexanizmini ifodalaydi. Ya’ni talaba atmosfera ifloslanishi xavfli ekanini bilishi ekologik ongning bir ko‘rinishi bo‘lsa, ma’lum hududdagi ifloslanish manbalarini aniqlash, ularning o‘zaro ta’sirini tushuntirish, sog‘liq va ekotizimga ta’sirini baholash hamda ustuvor yechimni asoslash ekologik tafakkurning namoyon bo‘lishidir.

Ekologik tafakkurning birinchi belgisi – sabab-oqibat zanjirini kengaytira olishdir. Oddiy fikrlashda “daraxtlar kesildi – yashil maydon kamaydi” kabi chiziqli munosabat ko‘riladi. Tizimli ekologik tafakkurda esa daraxtlarning qisqarishi mikroiqlim, tuproq namligi, chang miqdori, karbonat angidrid almashinuvi, biologik xilma-xillik, shahar harorati va inson salomatligi bilan bog‘lanadi.

Ikkinchi belgi – ekologik muammoni ko‘p mezonli baholash. Masalan, suv ombori qurilishi faqat suv zaxirasi yoki energiya ishlab chiqarish nuqtayi

nazaridan emas, balki ekotizim, mahalliy aholi, iqtisodiy manfaat, biologik xilma-xillik, tuproq va uzoq muddatli barqarorlik mezonlari bo‘yicha ham tahlil qilinishi lozim. Shu nuqtayi nazardan ekologik tafakkur talabaning “to‘g‘ri javobni topishi”dan ko‘ra, qarorning oqibatlarini ko‘ra bilishi va tanlovini dalil bilan asoslashiga ko‘proq bog‘liq.

Uchinchi belgi – bilim va harakat o‘rtasidagi bog‘lanish. Ekologik bilim xulq-atvor yoki kompetensiyaga avtomatik tarzda o‘tmaydi. 2026-yilda Qozog‘iston talabalari misolida o‘tkazilgan tadqiqot ekologik xabardorlikning yuqori bo‘lishi barqaror amaliyotlarni avtomatik kafolatlamasligini, faqat an’anaviy ma’ruza, konspekt va testga tayangan yondashuv bilim–xulq oralig‘idagi uzilishni bartaraf etishda yetarli bo‘lmasligini ko‘rsatadi [8]. Demak, ekologik tafakkur amaliy vazifa, tanlov va real yoki modellashtirilgan ekologik vaziyatda sinovdan o‘tishi zarur.

Shundan kelib chiqib, ekologik tafakkurning rivojlanish mantig‘ini besh bosqichda ifodalash mumkin: ekologik faktni anglash → bog‘lanishni aniqlash → muammoni tizimli tahlil qilish → muqobil yechimlarni baholash → ekologik jihatdan asoslangan harakat yoki qaror. Mazkur bosqichlar bir-birini inkor qilmaydi; aksincha, keyingi bosqich avvalgi bilim va operatsiyalarni yangi darajada qo‘llashni talab etadi.

Talabalarda ekologik tafakkurni shakllantirish metodikasi. Taklif etilayotgan metodika besh bosqichdan iborat: 1) muammoni faollashtirish; 2) aloqalarni modellashtirish; 3) sabab-oqibatni chuqur tahlil qilish; 4) muqobil yechimlarni baholash va ekologik qaror qabul qilish; 5) loyiha va refleksiya orqali amaliy mustahkamlash. Har bir bosqichda metodlar talabaning fikrlash faoliyatiga moslashtiriladi.

Birinchi bosqich – muammoni faollashtirish. O‘qituvchi mavzuni tayyor ta’rif bilan boshlash o‘rniga mahalliy yoki kundalik ekologik vaziyatni taqdim etadi. Masalan: “Talabalar shaharchasida bir sutkada 12 m³ suv sarflanadi. Kuzatuvda sarfning 18 foizi nosoz jo‘mrak va keraksiz oqizishlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Muammoning ekologik va iqtisodiy oqibatlari nimada?” Talabalar dastlab individual taxmin bildiradi, so‘ng kichik guruhda muammoni aniqlashtiradi.

Ikkinchi bosqich – aloqalarni modellashtirish. Bu yerda klaster yoki tushuncha xaritasi ishlatiladi. Markazga, masalan, “suv tanqisligi” tushunchasi joylashtiriladi; undan “iqlim”, “iste’mol”, “qishloq xo‘jaligi”, “infratuzilma”, “sog‘liq”, “iqtisodiyot”, “ekotizim” kabi tarmoqlar chiqariladi. Oddiy klasterni chuqurlashtirish uchun har bir chiziqqa aloqa turi yozdiriladi: “sabab bo‘ladi”, “kuchaytiradi”, “kamaytiradi”, “bog‘liq”, “oqibat keltirib chiqaradi”. Shu bilan klaster bezakli sxemadan tizimli fikrlash vositasiga aylanadi. Talaba obyektlarni sanashdan ularning munosabatlarini ifodalashga o‘tadi.

Uchinchi bosqich – sabab-oqibat tahlili. “Baliq skeleti” metodi ekologik muammoning ildiz sabablarini ajratish uchun ayniqsa qulay. Masalan, “tuproq degradatsiyasi” muammosi bosh qismga yozilib, asosiy sabablar tabiiy, antropogen, agrotexnik, iqtisodiy va boshqaruv omillariga ajratiladi. Har bir asosiy sabab uchun ikkilamchi omillar, dalillar va oqibatlar yoziladi. Keyin guruhlar “qaysi sabab hal qiluvchi?”, “qaysi sababni tez o‘zgartirish mumkin?”, “qaysi oqibat qaytarilmas bo‘lishi mumkin?” savollari bo‘yicha xulosa beradi.

To‘rtinchi bosqich – ekologik ekspertiza va qaror. Talabalarga muammoli loyiha yoki keys beriladi: masalan, shahar chekkasida yangi ishlab chiqarish obyektini qurish, suv havzasidan rekreatsion foydalanishni kengaytirish yoki yashil hududning bir qismini avtoturargohga aylantirish. Guruhlar ekolog, iqtisodchi, mahalliy aholi vakili, davlat nazorati, investor kabi rollarda dalillar tayyorlaydi.

Beshinchi bosqich – loyiha va refleksiya. Talabalar kichik ekologik loyiha ishlab chiqadi: “Universitetda qog‘oz sarfini kamaytirish”, “Bir haftalik suv auditi”, “Talabalar turar joyida chiqindilarni saralash”, “Hududdagi yashil maydon holatini baholash” kabi. Loyiha muammo, dalil, maqsad, faoliyat, o‘lchov ko‘rsatkichi va kutiladigan natijani o‘z ichiga oladi. Yakunda talaba “Men dastlab nima deb o‘ylagan edim?”, “Qaysi dalil fikrimni o‘zgartirdi?”, “Qarorimning salbiy ikkilamchi oqibati bo‘lishi mumkinmi?”, “Amaliyotda nimani o‘zgartiraman?” savollariga javob beradi. Refleksiya ekologik fikrlashni shaxsiy qadriyat va xulq-atvor bilan bog‘laydi.

2-jadval.

Ekologik tafakkurni shakllantirishning bosqichli metodik modeli

Bosqich	Asosiy metod	Talaba faoliyati	O‘qituvchi vazifasi	Kutiladigan fikrlash natijasi
1. Faollashtirish	Muammoli vaziyat, aqliy hujum	Muammoni ajratadi, taxmin beradi	Vaziyat va yo‘naltiruvchi savol beradi	Muammoni sezish va savol qo‘yish
2. Modellashtirish	Klaster, tushuncha xaritasi	Aloqalarni quradi va nomlaydi	Bog‘lanish turini aniqlashtiradi	Tizim va o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rish
3. Tahlil	“Baliq skeleti”, sabab-oqibat zanjiri	Sabablarni guruhlaydi, ustuvorligini belgilaydi	Dalil talab qiladi, tahlilni chuqurlashtiradi	Ko‘p omilli sababiy tahlil
4. Qaror	Keys-stadi, ekologik ekspertiza, debat	Variantlarni mezon asosida solishtiradi	Mezon va cheklovlarni beradi	Dalillangan ekologik qaror

Bosqich	Asosiy metod	Talaba faoliyati	O‘qituvchi vazifasi	Kutiladigan fikrlash natijasi
5. Harakat va refleksiya	Loyiha, kuzatuv, refleksiv yozuv	Amaliy yechimni sinaydi, xulosalaydi	Monitoring va teskari aloqa beradi	Bilimni faoliyatga ko‘chirish

Metodning samarasi uni qaysi mavzuga va qanday didaktik vazifaga qo‘llashga bog‘liq. “Biosfera” mavzusida tushuncha xaritasi biosfera komponentlari va moddalar aylanishini bog‘lashga xizmat qilsa, “Ekologik muammolar” mavzusida “Baliq skeleti” ifloslanish yoki iqlim muammosining ko‘p omilli sabablarini ochishga yordam beradi. “Tabiiy resurslar”da Venn diagrammasi yoki taqqoslash jadvali tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarni mezonlar bo‘yicha farqlash uchun, “Suv resurslari”da keys-stadi suv taqsimoti bo‘yicha manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilish uchun, “Barqaror taraqqiyot”da loyiha metodi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni yagona qarorda uyg‘unlashtirish uchun qo‘llanishi mumkin.

“Ekologik madaniyat” mavzusida esa metodlar qadriyat va xulq bilan bog‘lanishi kerak. Talaba “suvni tejash kerak” degan fikrni bilishi yetarli emas; unga real sarf ma’lumotlari berilib, isrof manbalarini aniqlash, maqbul choralarni tanlash va bir haftalik shaxsiy yoki guruh monitoringini yuritish topshirilsa, ekologik bilim kompetensiyaga yaqinlashadi.

Ekologik tafakkurni baholash mezonlari. Ekologik tafakkurni faqat yopiq test bilan baholash uning mohiyatini toraytiradi. Test ekologik termin va faktlarni aniqlashi mumkin, biroq talabaning tizimni ko‘ra olishi, qarorning oqibatini oldindan baholashi yoki dalilga tayangan ekologik tanlov qilishi vaziyatli topshiriqlarda yaxshiroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli diagnostika test, vaziyatli topshiriq, tushuncha xaritasi, ekologik keys, loyiha natijasi, kuzatuv va refleksiv o‘z-o‘zini baholashning kombinatsiyasiga tayanishi lozim.

Baholashda natija uch darajada tavsiflanishi mumkin. Reproduktiv darajada talaba ekologik tushunchalarni biladi, ammo aloqalar va yechimlarni ko‘rsatishda o‘qituvchi ko‘magiga muhtoj. Tahliliy darajada u sabab-oqibatni tushuntiradi, bir nechta yechimni solishtiradi va asoslangan fikr bildiradi, biroq murakkab yoki qarama-qarshi vaziyatlarda mezonlarni birlashtirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Bunday baholashda rubrika usuli foydali. Har bir mezon 0–2 yoki 1–3 ball oralig‘ida baholanib, umumiy natijadan tashqari talabaning qaysi komponenti kuchli yoki zaif ekani ko‘rinadi. Masalan, talaba bilim bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatib, qaror qabul qilishda dalil ishlatmasa, muammo “bilim yetishmasligi”da

emas, bilimni fikrlash operatsiyasiga aylantirish bosqichida ekani aniqlanadi. Bu esa keyingi dars metodini maqsadli tanlash imkonini beradi.

3-jadval.

Ekologik tafakkurni baholash mezonlari va darajalari

Mezon	Reproduktiv daraja	Tahliliy daraja	Tizimli-faol daraja
Ekologik bilim	Asosiy tushunchani eslaydi	Tushuncha va qonuniyatni izohlaydi	Bilimni yangi ekologik vaziyatga ko‘chiradi
Sabab-oqibat	Bitta sabab yoki oqibatni aytadi	Bir nechta bog‘lanishni izohlaydi	Ko‘p bosqichli va bilvosita oqibatlarni ko‘rsatadi
Tizimlilik	Komponentlarni alohida ko‘radi	Asosiy aloqalarni aniqlaydi	Teskari aloqa, ziddiyat va uzoq muddatli ta’sirni hisobga oladi
Qaror	Tayyor yechimni tanlaydi	Variantlarni solishtiradi	Mezonlarga tayangan holda muqobil yechim yaratadi va asoslaydi
Faoliyat-refleksiya	Ko‘rsatma asosida bajaradi	Mustaqil vazifaning asosiy qismini bajaradi	Natijani baholaydi, xatosini ko‘radi va keyingi harakatni rejalashtiradi

Muhokama. Taklif etilgan metodik tizimning markaziy farqi ekologik ta’limni mavzular ketma-ketligi sifatida emas, fikrlash operatsiyalarining rivojlanish zanjiri sifatida qurishidadir. An’anaviy yondashuvda talaba “ifloslanish sabablari”, “resurs turlari” yoki “muhofaza choralari”ni sanab beradi. Ekologik tafakkurga yo‘naltirilgan yondashuvda esa shu ma’lumotlar muammoli vaziyat ichida ishlatiladi: qaysi sabab asosiy, qaysi dalil ishonchli, qaysi yechim qanday ikkilamchi oqibat tug‘diradi, qaysi manfaatlar to‘qnashadi, qanday mezon asosida qaror tanlanadi? Natijada bilim aqliy harakat vositasiga aylanadi.

Yana bir muhim jihat – ekologik tafakkurni fanlararo mazmunda rivojlantirishdir. Suv tanqisligi mavzusi biologiya va ekologiya bilan birga iqtisod, geografiya, sog‘liq, huquq va jamiyat boshqaruvi bilan bog‘lanadi. Bu integratsiya talabaga ekologik muammoni faqat tabiatshunoslik doirasida emas, inson faoliyati bilan uzviy bog‘langan sotsioekologik tizim sifatida tushunish imkonini beradi. Shuning uchun dars topshiriqlarida kamida ikki yoki uch xil nuqtayi nazarni to‘qnash keltirish metodik jihatdan foydalidir.

Xulosa. Talabalarda ekologik tafakkurni shakllantirish ekologik ta’limning alohida qo‘shimcha vazifasi emas, uning asosiy natijalaridan biri bo‘lishi kerak. Ekologik tafakkur talabaga tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni

tizimli anglash, muammoning ko‘p omilli sabablarini aniqlash, uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olish, dalillarni baholash va ekologik jihatdan mas’uliyatli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Maqolada taklif etilgan besh bosqichli metodik tizim – muammoni faollashtirish, aloqalarni modellashtirish, sabab-oqibatni tahlil qilish, ekologik ekspertiza asosida qaror qabul qilish hamda loyiha va refleksiya – ekologik bilimni bosqichma-bosqich amaliy kompetensiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan. Klaster, tushuncha xaritasi, “Baliq skeleti”, keys-stadi, debat, ekologik ekspertiza va loyiha metodlari bir-birini takrorlamaydi; ular ekologik tafakkurning turli operatsiyalarini shakllantirish uchun maqsadli qo‘llanadi.

Shuningdek, ekologik tafakkurni baholashda test natijasini yagona mezon sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Kognitiv bilim bilan bir qatorda tizimli tahlil, dalillangan qaror, amaliy harakat va refleksiyani ham qamrab olgan kompleks diagnostika talab etiladi. Kelgusida taklif etilgan metodik modelni pedagogika yo‘nalishi talabalari ishtirokidagi tajriba-sinov ishlarida qo‘llash, mezonlar bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish hamda metodlarning alohida va kombinatsiyalangan samaradorligini aniqlash ilmiy tadqiqotning mantiqiy davomi bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ongarov M.M. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish: darslik. – Toshkent, 2026.

2. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO, 2020.

3. United Nations Environment Programme (UNEP). Strategy for Environmental Education and Training. Nairobi: UNEP, 2005.

4. United Nations Environment Programme (UNEP). Environmental Education Resources Guide. Nairobi: UNEP, 2023.

5. Lozano, R. et al. Sustainability education at higher education institutions: pedagogies and students’ competences. International Journal of Sustainability in Higher Education, 2022, 23(8), 174–193. DOI: 10.1108/IJSHE-11-2021-0465.

6. Integrating Systems Thinking into Sustainability Education: An Overview with Educator-Focused Guidance. Education Sciences, 2025, 15(12), 1685. DOI: 10.3390/educsci15121685.

7. Ncube, B., Yeboah, G., Pandey, P. Education for sustainable development in higher education: a systematic review of leadership, pedagogy and curriculum design. International Journal of Sustainability in Higher Education, 2026, 27(7), 1555–1586. DOI: 10.1108/IJSHE-08-2025-0945.

8. Limits of continuous environmental education in developing environmental competencies among students in the Republic of Kazakhstan. Frontiers in Education, 2026.

9. Student Agency for Sustainability in a Systemic PBL Environment. Sustainability, 2022, 14(21), 13728. DOI: 10.3390/su142113728.

10. From environmental education to education for sustainable development in higher education: a systematic review. International Journal of Sustainability in Higher Education, 2021, 23(3), 622–644. DOI: 10.1108/IJSHE-04-2021-0167.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

MAHALLA TARAQQIYOTI VA OILA FAROVONLIGIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Pirniyazova M.K.
NDPI o'qituvchisi

Tayanch so‘zlar: mahalla, oila farovonligi, xotin-qizlar faolligi, «Ayollar daftari», gender tenglik, ijtimoiy himoya, Yangi O‘zbekiston.
Ключевые слова: махалля, благополучие семьи, активность женщин, «Женская тетрадь», гендерное равенство, социальная защита, Новый Узбекистан.
Key words: mahalla, family well-being, women's empowerment, "Women's Notebook", gender equality, social protection, New Uzbekistan.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla institutini rivojlantirish va oilaviy farovonlikni ta’minlashda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy roli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mamlakatimiz qonunchiligida so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon, qaror va davlat dasturlari, xususan, mahallabay ishlash tizimi hamda «Ayollar daftari» loyihasining samaradorligi tahlil etilgan. Maqolada xotin-qizlar faolligi va jamiyat barqarorligi o‘rtasidagi korrelyatsiya statistik va qonuniy asoslar orqali isbotlab beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируется социально-экономическая, политическая и правовая роль женщин в развитии института махалли и обеспечении семейного благополучия в условиях Нового Узбекистана. В рамках исследования на основе конкретных доказательств и статистических данных оценивается эффективность указов, постановлений и государственных программ, принятых в национальном законодательстве в последние годы, в частности, системы работы «махаллабаи» (в разрезе махалли) и проекта «Женская тетрадь» (Аёллар дафтари). В статье используются методы системного анализа и сравнительно-правовой метод, позволяющие доказать прямую корреляцию между экономической независимостью женщин, доступностью высшего образования и социальной стабильностью в обществе. В заключении подчеркивается, что расширение цифровой грамотности женщин и диверсификация семейного предпринимательства являются ключевыми драйверами дальнейшего совершенствования экосистемы махалли.
SUMMARY:
This article analyzes the socio-economic, political, and legal roles of women in developing the mahalla (neighborhood) institution and ensuring family well-being under the conditions of New Uzbekistan. Within the scope of the study, the effectiveness of decrees, resolutions, and state programs adopted in the national legislation in recent years, particularly the neighborhood-based work system and the "Women's Notebook" (Ayollar daftari) project, is evaluated based on concrete evidence and statistical data. The study utilizes systemic analysis and comparative-legal methods to demonstrate the direct correlation between women's economic independence, higher education accessibility, and social stability in society. The conclusion highlights that expanding women's digital

literacy and diversifying family entrepreneurship are key drivers for the future enhancement of the mahalla ecosystem.

Mahalla - O‘zbekiston jamiyatining o‘zini o‘zi boshqarish tizimidagi eng noyob va fundamental instituti hisoblanadi. Bugungi kunda millat demografik va ijtimoiy yuksalishining bosh mezoni hisoblangan oila farovonligi bevosita mahalladagi muhitga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi prinsiplari bugun mahalla darajasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri — xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, ularning bandligini ta’minlash va qonuniy huquqlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish etib belgilandi. Biroq mahallalarda xotin-qizlarning salohiyatidan to‘liq foydalanish, oilaviy ajrimlarning oldini olish hamda xotin-qizlar tadbirkorligini yanada kengaytirish bo‘yicha tizimli yondashuvlarni huquqiy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida xotin-qizlarning davlat organlarida va mahalliy boshqaruv tizimida ishtiroki ortib bormoqda.Xotin-qizlarning davlat boshqaruvida faolligi huquqiy,demokratik davlatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.Dunyoda gender tenglik,xotin-qizlarni davlat boshqaruvidagi rolini oshirish,ilm-fan sohasiga xotin qizlarni jalb qilish,xotin-qizlar huquqlari dolzarb masalalardan hisoblanadi.Bu borada xalqaro tashkilotlar va dunyoning yetakchi mamlakatlari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni asosida respublikamizdagi barcha mahallalarda “Xotin-qizlar faoli” lavozimi joriy etilib, ular bevosita xotin-qizlarning ijtimoiy holatini aniqlash va manzilli qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanmoqda. Bu haqida qonunda quyidagicha bayon qilingan: Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi har bir mahallada mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis lavozimi o‘rniga xotin-qizlar faoli lavozimi mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tartibi saqlangan holda bir nafardan joriy etilsin. Prezident farmonida quyidagilar mahalladagi xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari etib belgilangan: xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy muhitini va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha maqsadli

chora-tadbirlarni amalga oshirish; xotin-qizlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi; “Ayollar maslahat kengashlari” bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko‘maklashish, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish; xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiyhuquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish.[5] Xotin-qizlar faolining asosiy vazifalaridan yana biri ayollar daftari ma’lumotlar bazasini yuritish hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida «Ayollar daftari» axborot tizimi orqali yuz minglab xotin-qizlarga huquqiy, psixologik va moliyaviy yordamlar ko‘rsatildi.

Ayollar daftari – ijtimoy,iqtisodiy,huquqiy,psixologik qo’llab-quvvatlashga, bilim va kasb o’rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo’lgan ,ishsiz xotin- qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo’yicha ma’lumotlar bazasi.Ushbu daftarga kiritish bo’yicha xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi,ma’lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari va ajratilgan maqsadli mablag‘lari hisobiga xotin-qizlar tadbirkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlat dasturlariga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

• ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va ularni daromad manbalari bilan ta’minlash maqsadida 25 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilmoqda;

• ushbu tizimli chora-tadbirlar natijasida mamlakat miqyosida 1,5 million nafar xotin-qiz doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi, ulardan 400 ming nafari tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi ta’minlanmoqda;

• shuningdek, Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi hamkorligida mikrolayihalarni moliyalashtirish uchun katta hajmdagi maqsadli resurslar ajratildi.

Xotin-qizlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida ehtiyojmand oilalar qizlari uchun davlat grantlari kvotasi oshirildi, magistratura bosqichida o‘qiydigan xotin-qizlarning kontrakt mablag‘lari to‘liq davlat budjetidan qoplab berilmoqda. Bundan tashqari, “Ijtimoiy himoya tizimini transformatsiya qilish to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq, Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi orqali proaktiv shaklda homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini directly to‘lash tizimi

yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim mahalladagi xotin-qizlarni ortiqcha byurokratiyadan ozod qildi.

Mahallada ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ta’minlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri oila farovonligiga va ajrimlar sonining kamayishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-33-sonli “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi Farmon aynan xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan asrash, erta nikohlarning oldini olish hamda oilaviy nizolarni mahalla darajasida profilaktika qilish masalalariga huquqiy yechim berdi.

Mahalladagi xotin-qizlar faoli, mahalla oqsoqollari va «Buvisultonlar» maktabi kabi jamoatchilik tuzilmalarining o‘zaro hamkorligi jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit poydevorini mustahkamlamoqda. Ayol kishining bilimli bo‘lishi — kelajak avlod tarbiyasining kafolatidir. Shuning uchun ham oliy ta’limdagi imtiyozlar faqat bir shaxsga emas, balki butun boshli mahallalarning intellektual salohiyatini ko‘tarishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyadir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla taraqqiyoti va oila farovonligini xotin-qizlarning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ta’limiy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha yaratilgan mustahkam huquqiy baza mahallalarni haqiqiy farovonlik maskaniga aylantirishning asosiy drayveriga aylandi.

Kelgusida mahallalarda xotin-qizlarning raqamli savodxonligini (IT ko‘nikmalarini) oshirish hamda oilaviy tadbirkorlik turlarini yanada diversifikatsiya qilish mahalla tizimi samaradorligini yanada yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. (2026). “Ayollar daftari” axborot tizimi statistik hisobotlari (2024–2026-yy.). Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi.

2. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi [Development strategy of New Uzbekistan].

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (Farmon PF-81). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida (Farmon PF-158).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (Farmon PF-208). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (Farmon PF-33). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 03.03.2026

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

ÁLEMDEGI HÁM KRISTALLARDAĠÍ BUZÍLĠAN SIMMETRIYANÍŃ ESTE SAQLAHÍWÍ

Abdikamalov B.A.
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń fizika kafedrasınıń professorı,

Tayanch so‘zlar: Kyuri prinsipi, Neyman prinsipi, dissimmetriya, spontan simmetriya buzilishi, Landau nazariyasi, tartib parametri, domen strukturasi, Kibbl–Zurek mexanizmi, topologik defektlar, kosmologik fazaviy o‘tishlar, erta Koinot, inflyatsiya, relikt nurlanish, kosmik torlar, strukturaviy xotira.
Ключевые слова: принцип Кюри, принцип Неймана, диссимметрия, спонтанное нарушение симметрии, теория Ландау, параметр порядка, доменная структура, механизм Киббла-Зурека, топологические дефекты, космологические фазовые переходы, ранняя Вселенная, инфляция, реликтовое излучение, космические струны, структурная память.
Key words: Curie's principle, Neumann's principle, dissymmetry, spontaneous symmetry breaking, Landau theory, order parameter, domain structure, Kibble–Zurek mechanism, topological defects, cosmological phase transitions, early Universe, inflation, cosmic microwave background radiation, cosmic strings, structural memory.

РЕЗЮМЕ:
Kristallofizikada fazaviy o‘tishlar va domen strukturasining qayta qurilishi orqali yaxshi tanish bo‘lgan "strukturaviy xotira" erta Koinot fazaviy o‘tishlarida universal analogga ega bo‘lishi mumkinmi? Maqolaning birinchi qismida simmetriya haqida zarur ma’lumotlar bayon etilgan: Kyuri prinsipi va uning Shubnikov hamda Koptsik an’analaridagi aniqlashtirilishi, Landauning fazaviy o‘tishlar nazariyasi, spontan simmetriya buzilishi va uning Kyuri prinsipi bilan statistik yarashuvi, shuningdek sovish tezligini defektlar zichligi bilan bog‘lovchi Kibbl–Zurek mexanizmi. Ikkinchi qism ushbu tushunchalarni erta Koinotga ko‘chiradi: issiq plazmada simmetriyaning tiklanishi, kauzal gorizontlar va topologik defektlar, o‘chirish va yozish mexanizmi sifatida inflyatsiya, zamonaviy kuzatuv natijalari. Uchinchi qismda simmetriyaviy va dinamik tillar bir-birini to‘ldiruvchi sifatida qiyoslanadi: birinchisi nima ruxsat etilganini belgilaydi, ikkinchisi - qancha hosil bo‘lishini belgilaydi, har qanday halol qiyoslashning uchinchi bo‘limi esa - o‘chirish mexanizmlariga bag‘ishlangan. Boshlang‘ich holat simmetriyasi aniq qaysi ma’noda saqlanib qolishi, bunday saqlanish nima uchun operatsional ma’noda hali xotira hisoblanmasligi va simmetriyaning statistik tiklanishi nima uchun multivers (ko‘p olam) ni talab qilmasligi ko‘rsatib berilgan. Maqola keng kitobxonlar doirasiga mo‘ljallangan; formulalar kam sonli bo‘lib, ular so‘zlar bilan izohlanadi.
РЕЗЮМЕ:
Может ли «структурная память», хорошо известная в кристаллографии благодаря фазовым переходам и реконструкции доменной структуры, иметь универсальный аналог в фазовых

переходах ранней Вселенной? Первая часть статьи представляет необходимую справочную информацию о симметрии: принцип Кюри и его уточнение в традициях Шубникова и Копцика, теория фазовых переходов Ландау, спонтанное нарушение симметрии и его статистическое согласование с принципом Кюри, а также механизм Киббла-Зурека, связывающий скорость охлаждения с плотностью дефектов. Вторая часть переносит эти концепции на раннюю Вселенную: восстановление симметрии в горячей плазме, причинные горизонты и топологические дефекты, инфляция как механизм стирания и записи, а также современные результаты наблюдений. Третий раздел сравнивает симметричный и динамический языки как взаимодополняющие: первый определяет, что допустимо, второй определяет, сколько их генерируется, а третий раздел любого честного сравнения посвящен механизмам стирания. В статье показано, в каком смысле сохраняется симметрия исходного состояния, почему такое сохранение ещё не является операциональной памятью и почему статистическое восстановление симметрии не требует мультивселенной. Статья рассчитана на широкую аудиторию; формул немного, и они объяснены словами.

SUMMARY:

Can "structural memory," familiar in crystal physics from phase transitions and domain-structure rearrangements, have a universal analogue in the phase transitions of the early Universe? The first part of the paper presents the necessary background on symmetry: Curie's principle and its refinements in the tradition of Shubnikov and Koptsik, Landau's theory of phase transitions, spontaneous symmetry breaking and its statistical reconciliation with Curie's principle, as well as the Kibble–Zurek mechanism, which relates the cooling rate to defect density. The second part transfers these concepts to the early Universe: symmetry restoration in a hot plasma, causal horizons and topological defects, inflation as a mechanism of erasure and recording, and the current observational outcome. In the third part, the symmetry-based and dynamical languages are compared as complementary: the former determines what is allowed, the latter - how much is formed, while the third chapter of any honest comparison concerns the mechanisms of erasure. It is shown in precisely what sense the symmetry of the initial state is preserved, why such preservation does not yet amount to memory in the operational sense, and why statistical symmetry restoration does not require a multiverse. The article is addressed to a broad readership; formulas are few and are explained in words.

I. Simmetriya hám onıń buzılıwı: Qattı deneler bergen sabaqlar. Kem-kemnen joǵalıp baratırǵan qálegen kóldiń jaǵasında bir elespesiz waqıya hár jılı qaytalanadı. Payda bolǵan duzlı suw yamasa ılay sırtınan qaraǵanda pútkilley bir tekli bolǵan massanı payda etedi. Onda qanday da bir ayrıqsha baǵıtlar da, ayqın túrde kórinip turatuǵın noqatlar da joq. Sonlıqtan qálegen fizik bunday massanı burıwlarda da, jıljıtıwlarda da óziniń dáslepki kórinisindey kóriniske iye bola beretuǵınlıǵına baylanıslı joqarı simmetriyaǵa iye dep aytadı. Biraq, qıstaǵı suwıqta bul qoyıw massadan qabırǵaları, qaptal betleri ayqın túrde kórinip turatuǵın kristallar ósip shıǵadı. Qanday da bir sebeplerge baylanıslı olar sheksiz kóp bolǵan baǵıtlardıń ishinen bir neshe baǵıttı ǵana "saylap alǵan". Gúzde bar bolǵan joqarı simmetriya tómenlegen yamasa pútkilley joǵalǵan.

Tap usınday jaǵday XIX ásirdegi fizika iliminiń eń tereń ideyalarınıń tuwılıwına alıp keldi. 1894-jılı francuz kristallofizigi Per Kyuri "Fizikalıq qubılıslardaǵı simmetriya haqqında memuarın baspadan shıǵardı [1]. Onıń eń baslı oyı ápiwayı hám sonıń menen birge ullı: waqıyanıń júzege keliwine alıp kelgen sebepti nátiyjede izlew kerek; eger nátiyje kishi simmetriyaǵa iye bolsa, onda bul joǵaltıwdı Kyuri "dissimmetriya" dep atadı hám onıń sebeptiń ishinde bolıwı shárt. Hátiyjede kristallograflar aytqandı jaqsı kóretuǵın "Dissimmetriya qubılıstı tuwdıradı" sózi payda boldı.

Kristallofizikada bul oydan jumıs isleytuǵın qurallar payda boldı. Heymen principi kristaldıń qálegen makroskopiyalıq qásiyetiniń simmetriyasınıń gruppası óziniń ishine kristaldıń noqatlıq gruppasın aladı dep tastıyıqladı. Ámeliy formada belgili bolǵan Kyuri principi sırtqı maydandaǵı kristall haqqında aytadı: baqlanatuǵın effekttiń simmetriyası kristal menen tásirdiń simmetriyalarınıń kesilisiwinen tómen emes, yaǵnıy

$$G_{\text{effekt}} \supseteq G_{\text{kristall}} \cap G_{\text{tásir}}.$$

Basqa sóz benen aytqanda: kristalǵa elektr maydanı menen tásir etseńiz baqlanatuǵın kartina kristall menen maydan ushın ulıwmalıq bolǵan barlıq simmetriya elementlerin saqlaydı. Belgili kristallograflar Shubnikov, onnan keyin Kopcik bul logikanı tolıq ayqınlıqqa aylandırdı: Shubnikov principtiń ekinshi dissimmetriyalı yarımın atap ótti birdey bólimlerden turatuǵın quramlıq deneniń óziniń bólimlerine salıstırǵanda simmetriyalıraq bolatuǵınlıǵın kórsetti [2-4].

Endi ádette dıqqat awdarılmaytuǵın jaǵdayǵa itibar beremiz. Biz gápimizdi baslaǵan duzdıń kristallizaciyası Kyuri principiniń tuwrıdan-tuwrı buzılıwınday bolıp kórinedi. Sebep-eritpe hám fizikanıń nızamları barlıq buriwlarǵa qarata simmetriyalı. Kristall bolsa tek ayırım buriwlarǵa ǵana simmetriyalı. Dissimmetriya qalayınsha payda boldı? Simmetriyalıq principlerdiń semeystvosında orın alǵan bul "jánjeldi" XX ásirde fizika uzaq waqıtlar dawamında talladı hám alınǵan juwap kútilmegen jerde áhmiyetli bolıp shıqtı. Biraq, alınǵan juwapqa kelemen degenshe Lev Landau tárepinen dóretilgen dál til kerek boladı.


1937-jılı Landau simmetriyanıń ózgeriwi menen júretuǵın fazalıq ótiwlerdi (ekinshi áwlad fazalıq ótiwlerin) táriyiplewdiń universallıq sxemasın usındı [5]. Onıń ideyası mınalardan ibarat: simmetriyalıq fazada nolge teń, al simmetriyalı emes fazada nolge teń emes tártip parametri dep atalatuǵın shamanı kirgiziw. Ferroelektriklerde bul spontan elektr polyarizaciyası, ferromagnetikte- magnitlengenlik, kristallanatuǵın suyıqlıqta – atomlardıń dáwirli "tıǵızlıq tolqınlarınıń" amplitudası.

Ótiwdiń qasında erkin energiyanı tártip parametri η nıń dárejeleri boyınsha qatarǵa jayıwǵa boladı. Eń ápiwayı jaǵday ushın erkin energiya ushın jazılǵan ańlatpa

$$F(\eta) = F_0 + a(T - T_c) \cdot \eta^2 + b \cdot \eta^4, \qquad a, b > 0$$

túrine iye boladı.

Kritikalıq temperatura T_c dan joqarı temperaturalarda η^2 shamasınıń aldında turǵan koefficient oń, erkin energiyanıń minimumı $\eta = 0$ noqatında simmetriyalı faza ornıqlı. $T < T_c$ noqatında bul koefficient belgisin ózgertedi, $\eta = 0$ noqatı biyiktiń tóbesine aylanadı, al minimumlar bolsa $\eta \neq 0$ noqatlarına qaray jılısadı. Bir qurawshıǵa iye η ushın F iymekligi eki oyǵa iye: tóbeniń eki tárepindegi birdey eki oy. Eger tártip parametri eki qurawshıǵa iye bolsa, onda onı sozıwǵa da, burıwǵa da boladı (súwrette kórsitilgen). Alınǵan kartinada úsh sabaq jasırınıp atır hám sol sabaq ushın biz onıń mánisin túsindiremiz.



Eki tártip parametrinen ǵárezli bolǵan $F(\eta_1, \eta_2)$ funkciyasınıń grafigi.

Birinshi: Landau sxemasında jańa fazanıń simmetriyası barlıq waqıtta eski fazanıń simmetriyasınıń podgruppası bolıp tabıladı. Bul qosımsha boljaw emes, al konstrukciyanıń óziniń nátiyjesi bolıp tabıladı: energiyanıń minimumı haldı "saylap aladı", al usı haldı óz ornında

qaldıratuǵın túrlendiriwlerdiń barlıǵı avtomat túrde baslanǵısh G gruppasınıń podgruppası H tı payda etedi. Qanday podgruppanıń múmkin ekenligin tártip parametriniń G gruppasınıń operaciyalarında qalayınsha túrlenetuǵınlıǵı menen anıqlanadı (matematik onıń qanday keltirilmeytuǵın kórinisi boyınsha dep aytqan bolar edi). Solay etip, simmetriyanıń tómenlewi qatań teoriyalıq-gruppalıq qaǵıydalarǵa baǵınadı eken. Usı jerde bir jaǵdaydı atap ótemiz: birinshi áwlad fazalıq ótiwlerinde (mısalı grafittiń almazǵa aylanıwı, bunday ótiwlerdi birinshi áwlad rekonstruktivlik ótiwler dep te ataydı) "gruppa-podgruppa" baylanısınıń pútkilley bolmawı da múmkin); olar Landau sxemasına pútkilley kirmeydi.

Ekinshiden: oydıń barlıq noqatları birdey energiyaǵa iye boladı. Buzılǵan simmetriyaǵa iye bolǵan hallar kóp hám G/H arqalı belgilenetuǵın G gruppasınıń orbitası bolıp tabıladı. Ferroelektrik ushın polyarizaciyasın "tómenge" yamasa "joqarıǵa" qaray baǵıtlawdıń, kristalǵa da óziniń kósherlerin qay tárepke qaray baǵıtlawdıń áhmiyeti joq. Fizika bul semeystvodan qanday da bir ayqın haldı saylap alıwdı talap etpeydi.

Úshinshi: bul modelde qızdırıwdıń nátiyjesinde júzege kelgen barlıq ózgerisler óziniń dáslepki halına qaytıp keledi. T_c temperaturadan joqarıda simmetriyalıq faza qaytadan tiklenedi. Demek, ótiwdiń saldarınan simmetriya pútkilley joq etilgen joq eken, onı qaytadan kóriw ushın sistemanı qızdırıw jetkilikli. Fizikler "joqarı temperaturalardaǵı simmetriyanıń qaytadan tikleniwi" haqqında gáp etedi. Biz maqalamızdıń ekinshi bóliminde Álemde de joqarı temperaturalarda dáslepki joqarı simmetriyanıń qaytadan tiklenetuǵınlıǵın kóremiz.

Endi "jánjelge" qaytıp kelemiz. Hızamlar simmetriyalı, baslanǵısh hal simmetriyalı – al nátiyje bolsa asimmetriyalı. Ilim filosofları bul kolliziyaǵa arnawlı ádebiyattı baǵıshladı; olardıń ishinde eń belgilisi Djon Ermannıń tallawı bolıp esaplanadı [6]. Onıń ideyası mınaday. Determinstlik formadaǵı Kyuri principi boyınsha "simmetriyalı sebep simmetriyalı nátiyjeni beredi. Bul matematikalıq tavtologiya bir shártti qoyadı: sebeptiń bir mánisli nátiyjesi bolıwı kerek. Simmetriyanıń spontan buzılıwı bir mánislik tolıq qıyraytuǵın situaciyanıń qatarına kiredi. T_c temperaturasınan tómengi temperaturalardaǵı simmetriyalıq $\eta = 0$ halı ushınıń ústinde tiklep qoyılǵan qálemge usaydı: onıń qaysı tárepke qaray qulaytuǵınlıǵın oǵada kishi bolǵan fluktuaciya sheshe aladı. Qálemniń shep tárepke qaray qulawı simmetriyalı nızamlar menen baylanıslı emes, al kózge kórinbeytuǵın baslanǵısh shártlerdiń asimmetriyasınan kelip shıǵatuǵın mikroskopiyalıq nızam menen baylanıslı. Kyuri principi biykarlanǵan joq, al Ermannıń gápi boyınsha ol jetpey turǵan dissimmetriyanı qayda izlewdiń kerek ekenligin kórsetedi.

Ádewir tereńirek bolǵan hám mánisi boyınsha kristallografiyalıq tradiciyalarǵa kiretuǵın ekinshi juwap ta bar. Tek bir nátiyjege emes, al múmkin bolǵan barlıq nátiyjelerdiń semeystvosına qarańız. Qálemniń qálegen tárepke qaray qulawı múmkin. Sebebi nızamlar menen baslanǵısh hal simmetriyalı, sonlıqtan onıń qulawınıń itimallıǵınıń tarqalıwı da simmetriyalı. Styuart penen Golubickiy bul jaǵdayda "keńeytilgen Kyuri princip" dep atadı: simmetriyalı sistemanıń fizikalıq jaqtan júzege keletuǵın halları simmetriyanı túrlendiriwler menen baylanıslı túrlendiriwler bolıp tabıladı [7]. Ayırım waqıyanıń simmetriyası H qa shekem tómenleydi; nátiyjeler kópliginiń simmetriyası G bolıp qala beredi. Simmetriya joǵalmaydı – ol hár bir haldıń qásiyetinen statistikalıq hallar ansambliniń qásiyetine ótedi.

Kristallofizika "simmetriyanıń bul kóship ótiwin" abstrakciya túrinde emes, al domenlik struktura ataması menen kúndelikli haqıyqıy túrinde biledi. Ádettegi ferroelektrik hesh waqıtta bir domennen turmaydı: ol hár birinde polyarizaciya ózinshe baǵıtlanǵan oblastlarǵa bólinedi. Hár bir domen asimmetriyalı; biraq orientaciyalardıń barlıq variantları júzege kelgen kristall tutası menen joǵalǵan simmetriyanı statistikalıq jaqtan qayta tikleydi. Shubnikov "kóp sanlı bólimlerden turatuǵın pútin bir sistemanıń onıń bólimlerine qaraǵanda simmetriyalıraq boladı" dep aytqanda tap usı jaǵdaydı názerde tuttı, al Kopcik bolsa bul ideyanı domenlik ansambllerdiń statistikalıq simmetriyası túrine aylandırdı [3].

"Este saqlaw" sózi tuwrıdan-tuwrı mániske iye bolatuǵın qubılıstı eske alıp ótemiz. Bul qubılıs formanı este saqlaw effekti orın alatuǵın quymalarda baqlanadı. Qızdırǵanda nikel-titan quyması óziniń dáslepki formasın qaytadan tikleydi. Onıń sebebi mınalardan ibarat: deformaciya qaytımlı

bolmaǵan jıljıw menen emes, al tómen simmetriyalı fazanıń (martensittiń) qospaqlarınıń baǵıtlarınıń qaytadan ózgeriwi menen júredi: barlıq variantlar dáslepki fazanıń bir kublıq pánjeresin este saqlaydı hám keri baǵıttaǵı ótiw onı bir mánisli túrde qayta tikleydi. Házirgi waqıtlardaǵı fizika "Reviews of Modern Physics" jurnalında "zattıń este saqlawına" sholıw jasadı [8]: gisterezis, jańǵırıq, formanı este saqlaw, olar menen bir qatarda biz házir qarawdı baslaytuǵın salqınlatıwdıń tezligin este saqlaw.

Solay etip, qattı denelerden bir eki juwmaq shıǵaramız: ekinshi áwlad fazalıq ótiwlerinde simmetriyanıń tómenlewi qatań qaǵıydalarǵa baǵınadı (Landau), ayırım hal baslanǵısh G gruppasın umıtadı, biraq hallar ansambli bolǵan domenler onı statistikalıq jaqtan este saqlaydı (Kyuri-Shubnikov-Kopcik). Usı jerde "este saqlaw" sóziniń biziń qolımızda eki ret ózgergenin aǵıaramız: formanı este saqlaw – eki fazanıń gruppalıq baylanısı, ansambldiń este saqlawı – domenlerdiń statistikalıq simmetriyası. Endi eń qızıqlı bolǵan úshinshi mánis qaladı: sistema ótiw processi haqqında (atap aytqanda onı qalayınsha salqınlatqan haqqında) bir nárseni este saqlay ala? Juwap kosmologiyadaǵı jol boyınsha tabılǵanı oǵada tań qalarlıq.

1985-jılı Voycex Zurek (Wojciech Hubert Zurek, 1951-jılı Polshadaǵı Krakov qalasında tuwılǵan, óziniń watanında jáne AQSh ta bilim alǵan) Nature jurnalında "Asa aqqısh geliydegi kosmologiyalıq eksperimentler" dep atalatuǵın ataması ájep-táwir bolǵan maqalanı shıǵardı [11]. Ol maqalanıń ekinshi bóliminde keltiriletuǵın Tom Kibbldiń (Thomas Walter Bannerman Kibble, 1932-jılı Indiyadaǵı Madras qalasında tuwılǵan, Evropada hám AQSh ta bilim alǵan) ideyasın rawajlandırdı hám ápiwayı túrdegi "sistemanı fazalıq ótiw arqalı sheksiz ástelik penen emes, al shekli tezlik penen ótkergende ne boladı?" degen sorawdı qoydı.

Juwap ekinshi áwlad fazalıq ótiwleriniń eki qásiyetine súyenedi. Kritikalıq noqatqa jaqınlaǵanda korrelyaciyalıq qashıqlıq, yaǵnıy sistemanıń bólimleri haldı saylap alıw jóninde "kelisip" alatuǵınday qashıqlıq) ξ hám sonıń menen birge relaksaciya waqıtı τ (usınday kelisimge keliw ushın zárúrli bolǵan waqıt) úlkeyedi. T_c temperaturasınıń qasında olardıń ekewi de dárejeli funkciya túrinde tarqaladı:

$$\xi(\varepsilon) = \xi^0 \cdot |\varepsilon|^{-\nu}, \qquad \tau(\varepsilon) = \tau^0 \cdot |\varepsilon|^{-\nu z}.$$

Bul ańlatpalarda $\varepsilon = (T_c - T)/T_c$ – kritikalıq ńoqattan ólshemge iye emes qashıqlasıw, al ν menen z – sırttan qaraǵanda hár qıylı bolǵan pútin semeystvolar ushın ulıwmalıq bolǵan kritikalıq kórsetkishler (bunday semeystvolardı universallıq klasslar dep ataydı). Eger temperatura $\varepsilon(t) = t/\tau_Q$ nızamı menen ózgeretuǵın bolsa (τ_Q shamasın shınıqtırıw waqıtı dep ataydı: ástelik penen salqınlatqanda onıń shaması úlken, al keri jaǵdayda kishi), onda kritikalıq noqattan qanday da bir qashıqlıqta sistema shárayatlardıń ózgeriwiniń izinen jetip júre almaydı. Kelisimge keliw waqıtı fazalıq ótiwge shekem qalǵan waqıtqa salıstırǵanda úlken mániske iye boladı. Usı momentten baslap tártip parametrin saylap alıw "muzlap qatadı". $\tau(\varepsilon)$ waqıtın qalǵan waqıtqa teńlesteriw jolı menen Zurek ishinde saylap alıw kelisilgen oblasttıń ólshemi ushın mınaday ańlatpanı aldı:

$$\hat{\xi} = \xi_0 \cdot \left(\tau_Q/\tau_0\right)^{\nu/(1+\nu z)}.$$

Ólshemleri $\hat{\xi}$ bolǵan qońsılas oblastlar quwıslardan haldı derlik bir birinen ǵárezsiz saylap aladı. Kelisimsiz saylap alıwlar soqlıǵısatuǵın orınlarda domenlik diywallar, quyınlar, disklinaciyalar sıyaqlı defektlerdiń turıp qalıwı múmkin. Biraq soqlıǵısıwlardıń hár biri defektti payda ete bermeydi, biraq bunday waqıyalardıń muǵdarın boljaw múmkin. Shınıqtırıw qanshama tez ótetuǵın bolsa, defektlerdiń baslanǵısh tıǵızlıǵı da sonshama joqarı: $n \sim \hat{\xi}^{-(\mathrm{d}-\mathrm{D})}$. Bul ańlatpada d -keńisliktiń ólshemleri, D – defekttiń ólshemi.

$\hat{\xi}$ ushın jazılǵan formulaǵa qaytadan dıqqat awdarayıq: shep tárepte domenlerdiń ólshemleri (baqlanatuǵın shama); oń tárepte shınıqtırıw waqıtı τ_Q. Bul shama ádewir burın bolıp ótken salqınlatıwdıń tezliginiń ólshemi. Defektli struktura ótiwdiń "qatıp qalǵan shejiresi" bolıp tabıladı. Zurek óziniń soavtorları menen ózleriniń maqalaların "defektler – "buzılǵan simmetriyanıń sınıqları", fazalıq ótiwdiń dinamikasınıń izleri hám diagnostikalıq quralı" dep atay basladı [12]. Bul eń taza túrdegi strukturalıq este saqlaw bolıp tabıladı. Tek ǵana ol noqatlıq gruppanıń saqlanıwı menen emes, al domenlik strukturanıń statistikası arqalı kórinedi.

Usı qatarlardıń avtorı 1976–1977 jılları Moskva oblastındaǵı kishkene ǵana Chernogolovka qalasındaǵı SSSR Ilimler Akademiyasınıń Hoginsk ilimiy orayında jaylasqan Qattı deneler institutında aspiranturada oqıp júrgen waqıtta rentgentopografiyalıq usıllardıń járdeminde kaliy digidrofosfatı (KDP) kristallındaǵı ferroelektrikli fazalıq ótiwlerdi izertledi [13-14]. Tájiriybelerdiń barısında kristallar qızdırıw-salqınlatıw jolı menen kóp ret ferroelektriklik fazalıq ótiw noqatı arqalı ótkerildi. Hátiyjede rentgen topografiyası polidomenlik kompleksler arasındaǵı shegaralarda kristallıq pánjereniń defektleriniń toplanatuǵınlıǵın kórsetti. Bul bir emes, al kóp sanlı fazalıq ótiwlerdiń "materiallıq shejiresi" bolıp tabıladı. Sonıń menen birge ójire temperaturasındaǵı eki ay dawamında uslap turıw (jazǵı dem alıs waqıtı) "shejireni" tolıq óshirdi. Jazıp alıw, toplanıw, óshiriwdi sol waqıtları strukturalıq este saqlaw dep ataytuǵın edi. Keyinirek bunday qubılıs prustit, ZnS hám basqa da kristallarda baqlandı. Bul jerde shejireni tártip parametriniń ózi alıp baratuǵın Kibbl-Zurek mexanizminen ayırmanı ańǵarıw júdá paydalı. Bul mexanizm qaytara shınıqtırıwdıń tempin saqlaydı hám sistemanı kritikalıq noqattan sál joqarıǵa qızdırıwdıń özinde este saqlaw óshiriledi. Al, KDP kristalların izertlew barısında ótkerilgen tájiriybelerde shejireshiniń xızmetin kristaldıń ózi atqaradı – ol simmetriyalıq fazanı basınan ótkeredi hám fazalıq ótiwdiń geografiyasın este saqlaydı. Házirgi zaman fizikası este saqlawdıń eki kanalın da úyrenedi. Biraq olardı bir sistemaǵa biriktiriw menen elege shekem hesh kim shuǵıllanǵan joq. Tilekke qarsı, biz sol waqıtları kosmologiya haqqında derlik hesh nárse bilmeytuǵın edik.

Kóp jıllar ótip ketkennen keyin aytılǵan "sol waqıtları bizler kosmologiya haqqında hesh nárse bilmedik" degen sózlerimiz jiberilgen qátelik emes, kerisinshe, tariyxtıń ózine dıqqattı qaratatuǵın kórinisi bolıp tabılatuǵınlıǵı belgili boldı. Onıń sebebin ashıp beriwge tırısamız.

1976-jılı Kibbl ózиniń kosmoslıq domenler haqqındaǵı maqalasın baspaǵa jibergende bizler KDP kristallarındaǵı ferroelektriklik fazalıq ótiwlerdi qayta-qayta júzege keltirdik. Usınday eksperimentlerdiń sanı júzden de kóp edi. Sol waqıtlardı fizika iliminiń hár qıylı tarawlarında islegen táreplerdiń hesh qaysısı da bir biri haqqında hesh nárse bilmedi. Kibbl forroelektriklerdegi polidomenlik kompleksler haqqında hesh nárse bilmedi, al bizler bolsaq sebeplik gorizontları haqqındaǵı maǵlıwmatlarǵa iye bolmadıq. Biraq, sonda da sol waqıtları jumıslarımız arasındaǵı kópir biziń baslarımızda emes, al fizika iliminiń ózinde boldı. Landau teoriyası, vakuumlar semeystvosı, uzaq aralıqlarǵa qashıqlatılǵan oblastlardaǵı izertlew obektlerin bir birinen ǵárezsiz saylap alıw, bir biri menen sáykes kelmeytuǵın saylap alıwlar tiyisken orınlardaǵı defektler sıyaqlı bir matematika biziń tómengi temperaturalı rentgen kameramızda da, dúnyanıń birinshi sekundlarında da jumıs islegen. Universallıq mınaday jaǵdaydı dál ańǵartadı: kristallar hám Álem ushın ulıwmalıq bolǵan qubılıstı izertlew ushın Álem haqqında tereń biliwdiń keregi joq. Kristallar ústinde ótkerilgen dál eksperimentler ótkeriw jetkilikli.

Nima uchun Arduinoda foydalanish muhimligi? Bunga ochiq foydalanish imkoni mavjudligi: boshqa professional platalarga qaraganda ochiq foydalanish imkonini beradi. Katta hamjamiyat: agar kodingizda xato bo‘lsa, internetdan javobini topish qulay. Tayyor kutubxonalar: murakkab kod yozish o‘rniga, boshqalar yozgan tayyor kod bo‘laklarini (kutubxonalarni) ishlatish mumkin .

Xulosa qilib aytganda, bugungi raqamlashtirish sharoitida Arduinodadan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki Arduino orqali robitatexnika qurilmalarini boshqarish, ulardan foydalanish uchun dastur kodi yozishda samarali hisoblanadi. Shuning uchun bugungi Z avlod yoshlariga Arduinodan

foydalanishga oid amaliy ko‘nikmalarini, mantiqiy, algoritimik va kreativ fikrlashini shakllantiirsh muhim masalalardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arduino official website: https://www.arduino.cc/

2. Bo‘ronova G. Y. Virtual robototexnika // O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023. – 92 b. https://cspu.uz/virtual-robototexnika-asoslari

3. Metinkulov J.T. Arduino Uno platasi bilan tanishish va unga dastur yozishni o‘rganish Cyberleninka Ilmiy Kutubxonasi. – Jizzax, 2023. https://cyberleninka.ru/

4. Arduino platasi yordamida svitadiodlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o‘rgatish. – Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti uslubiy to‘plami, 2023. https://jdpu.uz/arduino-platasi-yordamida-svitadiodlarni-dastur-yordamida-boshqarishni-talabalarga-orgatish-orqali-texnik-tafakkurini-shakllantirish/

5. Arduino IDE muhiti va C++ tiliga asoslangan buyruqlar ro‘yxati. // “O‘zing yarat!” axborot portali Yarat.uz qo‘llanmasi. from https://yarat.uz/

RIKKATI TENGLAMASI: YECHIMLARINING XOSSALARI VA INTEGRALLASH MASALALARI

Arziyeva S.I.
NDKTU "Sun'iy intellekt va matematika" kafedrasi dotsenti v.b.

Tayanch so'zlar: Rikkati tenglamasi, differensial tenglama, kvadrat uchhad, xususiy yechim, umumiy yechim, Bernulli tenglamasi, kvadratura, elementar funksiyalar.
Ключевые слова: уравнение Риккати, дифференциальное уравнение, квадратный трёхчлен, частное решение, общее решение, уравнение Бернулли, квадратура, элементарные функции.
Key words: Riccati equation, differential equation, quadratic polynomial, particular solution, general solution, Bernoulli equation, quadrature, elementary functions.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada birinchi tartibli nochiziqli differensial tenglamalarning muhim sinflaridan biri bo'lgan Rikkati tenglamasining asosiy xossalari, yechimlarining tuzilishi hamda uni integrallash usullari tadqiq etilgan. Rikkati tenglamasining xususiy yechimlari ma'lum bo'lgan hollarda uni chiziqli va Bernulli tenglamalariga keltirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tenglamaning ikki, uch va to'rtta xususiy yechimi berilganda umumiy yechimni mos ravishda kvadraturada yoki kvadraturasiz aniqlash usullari tahlil qilingan. Rikkati tenglamasining o'zgarmas koeffitsiyentli hamda maxsus ko'rinishlari va ularni integrallash shartlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Rikkati tenglamalarini yechishning samarali usullarini tizimlashtirish va ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье исследуются основные свойства уравнения Риккати, одного из важных классов нелинейных дифференциальных уравнений первого порядка, а также структура его решений и методы интегрирования. Рассматриваются возможности сведения уравнения Риккати к линейному уравнению и уравнению Бернулли в случаях, когда известно его частное решение. Кроме того, анализируются методы определения общего решения при наличии двух, трёх и четырёх частных решений уравнения — соответственно в квадратурах или без применения квадратур. Освещаются уравнения Риккати с постоянными коэффициентами, а также их специальные формы и условия их интегрируемости. Полученные результаты способствуют систематизации эффективных методов решения уравнений Риккати и расширению возможностей их практического применения.
SUMMARY:
This paper investigates the fundamental properties of the Riccati equation, one of the important classes of first-order nonlinear differential equations, as well as the structure of its solutions and methods of integration. The possibilities of reducing the Riccati equation to a linear equation and a Bernoulli equation are considered in cases where a particular solution is known. In addition, methods for determining the general solution when two, three, or four particular solutions of the equation are known are analyzed, respectively, in quadratures or without quadratures. Riccati equations with constant coefficients, as well as their special forms and the conditions for their integrability, are also discussed. The results contribute to systematizing effective methods for solving Riccati equations and expanding the possibilities for their practical application.

Agar $\frac{dy}{dx} = f(x,y)$ tenglamaning o‘ng tomoni y ga nisbatan kvadrat uchhaddan iborat bo‘lsa, ya’ni

$$\frac{dy}{dx} = P(x)y^2 + Q(x)y + R(x) \quad (1)$$

ko‘rinishdagi tenglama Rikkati tenglamasi deyiladi. Rikkati Yakopo Franchesko (1676-1754) italiyalik matematik, quruvchi-injener, ilmiy ishlari integral hisob va differensial tenglamalarga tegishli. Bu yerda $P(x), Q(x), R(x)$ lar $x\epsilon(a,b)$ dagi qiymatlarida uzluksiz funksiyalar bo‘lib, $P(x)\cdot R(x) \neq 0$. Bu shartlarga ko‘ra (1) tenglama yagona $y = y(x)$ yechimga ega bo‘lib, $x = x_0$, $y(x_0) = y_0$ qiymatlarni qabul qiladi va $x\epsilon(a,b)$. Rikkati tenglamasi maxsus yechimga ega emas. Umumiy holda elementar funksiyalar orqali tenglamani kvadraturada integrallab bo‘lmaydi. Shu sababga ko‘ra Rikkati tenglamasining xossalari, umumiy yechimining ko‘rinishi, integrallash masalalari xususiy yechimlar berilgandagina bajariladi.

Agar $P, Q, R -$ o‘zgarmas sonlar bo‘lsa, (1) o‘zgaruvchilari ajraladigan tenglama bo‘ladi. Koeffitsiyentlar o‘zgaruvchan bo‘lganda ham ayrim hollarda integrallash mumkin.

Masalan,

$$y' = a\frac{y^2}{x^2} + b\frac{y}{x} + c \quad (2)$$

tenglama berilgan bo‘lib, a, b, c lar o‘zgarmas koeffitsiyentlar. (2) bir jinsli tenglamadir.

$$y = z\sqrt{x}$$

almashtirish berilgan tenglamani o‘zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiriladi.

$$y' = Ay^2 + B\frac{y}{x} + \frac{C}{x^2} \quad (3)$$

A, B, C lar o‘zgarmas sonlar. Agar bu holda $y = \frac{z}{x}$ almashtirish bajarilsa, tenglama elementar funksiyalarda integrallanadi.

1°. Agar $y = y_1(x)$ (1) tenglamaning xususiy yechimi bo‘lsa, bu tenglamani chiziqli tenglamaga keltirish mumkin. Buning uchun

$$y = z + y_1(x) \quad (4)$$

Almashtirishdan foydalanamiz, bu yerda $y_1(x)$ Rikkati tenglamasi (1) ning xususiy yechimi, ya’ni

$$\frac{dy_1(x)}{dx} \equiv P(x)y_1^2(x) + Q(x)y_1(x) + R(x) \quad (5)$$

(4) dan foydalansak, (1) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dz}{dx} + \frac{dy_1(x)}{dx} = P(x)(z + y_1)^2 + Q(z + y_1) + R(x)$$

yoki

$$\frac{dz}{dx} + \frac{dy_1(x)}{dx} + P(x)z^2 + 2P(x)zy_1 + P(x)y_1^2 + Q(x)z + Q(x)y_1 + R(x)$$

(5) ga asosan esa:

$$\frac{dz}{dx} = P(x)z^2 + 2[P(x)y_1(x) + Q(x)]z,$$

ya’ni Bernulli tenglamasiga keldik. $z^{-1} = u$ almashtirish orqali bu tenglamaning yechimini topish mumkin.

2°. Umumiy yechimning ko‘rinishi. Chiziqli tenglamaning yechimi

$$u = A(x)C + B(x)$$

ko‘rinishida bo‘ladi. Bu yerdan

$$y = y_1(x) + \frac{1}{A(x)C + B(x)} = \frac{y_1(x)A(x)C + y_1(x)B(x)}{A(x)C + B(x)}$$

yoki

$$y = \frac{C\varphi_1(x) + \varphi_2(x)}{C\psi_1(x) + \psi_2(x)} \quad (6)$$

Rikkati tenglamasining umumiy yechimi C o‘zgarmasga nisbatan chiziqli kasr ko‘rinishida bo‘ladi.

Agar (6) funksiya biror differensial tenglamaning yechimi bo‘lsa, bu tenglama Rikkati tenglamasidan iborat bo‘ladi. Haqiqatdan,

$$Cy\psi_1(x) + y\psi_2(x) = P\varphi_1(x) + \varphi_2(x)$$
$$[y\psi_1(x) - \varphi_1(x)]C = \varphi_2(x) - y\psi_2(x)$$
$$C = \frac{\varphi_2(x) - y\psi_2(x)}{y\psi_1(x) - \varphi_1(x)}$$

Bu ifodani differensiallab, hosil bo‘lgan

$$[\varphi_2'(y) - y'\psi_2(x) - y\psi_2'(x)] \cdot [y\psi_1(x) - \varphi_1(x)] -$$
$$[y'\psi_1(x) + y\psi_1'(x) - \varphi_1'(x)] \cdot [\varphi_2(x) - y\psi_2(x)] = 0$$

tenglikda qavslarni ochib chiqsak, Rikkati tenglamasi hosil bo‘ladi.

3°. Agar Rikkati tenglamasining ikkita xususiy yechimi berilgan bo‘lsa, uning umumiy yechimi bitta kvadraturada topiladi, ya’ni $y_1(x)$ va $y_2(x)$ lar xususiy yechimlar bo‘lsin. $y = \frac{1}{u} + y_1$ almashtirish (1) tenglamani chiziqli tenglamaga keltiradi. Bu chiziqli tenglama uchun

$$y_2 = \frac{1}{u_1} + y_1 \text{ yoki } \frac{1}{u_1} = y_2 - y_1, \text{ yoki } u_1 = \frac{1}{y_2 - y_1}$$

funksiya xususiy yechim bo‘ladi. Bizga ma’lumki, chiziqli tenglamaning bitta xususiy yechimi ma’lum bo‘lsa, uning umumiy yechimi bitta kvadraturada topiladi.

4°. Agar Rikkati tenglamasining uchta xususiy yechimi berilgan bo‘lsa, uning umumiy yechimini kvadraturasiz topish mumkin. $y_1(x), y_2(x), y_3(x)$ lar Rikkati tenglamasining xususiy yechimlari bo‘lsin.

U holda $u_1 = \frac{1}{y_2 - y_1}$, $u_2 = \frac{1}{y_3 - y_1}$ lar chiziqli tenglamaning umumiy yechimi

$$u = \frac{1}{y_2 - y_1} + C\left(\frac{1}{y_3 - y_1} - \frac{1}{y_2 - y_1}\right)$$

ko‘rinishda topiladi.

Demak, Rikkati tenglamasining umumiy yechimi ham kvadraturasiz topiladi.

Bu yerda

$$u = \frac{1}{y - y_1}$$

deb olib,

$$\frac{1}{y - y_1} = \frac{1}{y_2 - y_1} + C\left(\frac{1}{y_3 - y_1} - \frac{1}{y_2 - y_1}\right)$$

ifodani hosil qilamiz. Buni C ga nisbatan yechib, Rikkati tenglamasining umumiy integralini topamiz:

$$\frac{y - y_2}{y - y_1} : \frac{y_3 - y_2}{y_3 - y_1} = C \tag{7}$$

Agar Rikkati tenglamasining to‘rtta y_1, y_2, y_3, y_4 xususiy yechimlari berilgan bo‘lsa, uning umimiy yechimi (7) ga asosan

$$\frac{y_4 - y_2}{y_4 - y_1} : \frac{y_3 - y_2}{y_2 - y_1} = C$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

5°. Rikkati tenglamasining maxsus ko‘rinishi. Ushbu

$$\frac{dy}{dx} - Ay^2 - Bx^\alpha \tag{8}$$

tenglama Rikkati tenglamasining maxsus ko‘rinishi deyiladi. Bu yerda A, B, α o‘zgarmas sonlar. Quyidagi hollar bo‘lishi mumkin:

$\alpha = 0$ bo‘lsa, (8) tenglama o‘zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keladi;

$\alpha = -2$ bo‘lsa,

$$\frac{dy}{dx} + Ay^2 = \frac{B}{x^2}$$

tenglamani $y = \frac{z}{x}$ almashtirish yordamida integrallaymiz.

Agar $\frac{\alpha}{2\alpha + 4}$ butun son bo‘lsa tenglama kvadraturada integrallanadi. Qolgan hollarda (8) tenglamaning integrallanmaganligini Liuvill ko‘rsatgan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Rikkati tenglamasining asosiy xossalari, yechimlarining tuzilishi va uni integrallashning turli usullari tizimli ravishda o‘rganildi. Rikkati tenglamasining umumiy holda elementar funksiyalar orqali integrallanishi murakkab bo‘lishiga qaramay, uning xususiy yechimlari ma’lum bo‘lgan hollarda tenglamani chiziqli yoki Bernulli tenglamasiga keltirish orqali yechimni aniqlash mumkinligi ko‘rsatildi. Tadqiqot davomida Rikkati tenglamasining o‘zgarmas koeffitsiyentli va maxsus ko‘rinishlari ham ko‘rib chiqilib, ayrim hollarda o‘zgaruvchilarni ajratish hamda maxsus almashtirishlardan foydalanish orqali tenglamani integrallash mumkinligi aniqlandi. Olingan natijalar Rikkati tenglamalarini yechishning mavjud usullarini izchil tizimlashtirish, ularning qo‘llanish shartlarini aniqlashtirish hamda differensial tenglamalarni yechishning samarali yondashuvlarini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hetmaniok E., Różański M., Smuda A., Szymura M., Wituła R. On the reduction of some general Riccati-type equations. Journal of mathematical sciences, 2024, Vol. 280, pp. 888–896.

2. Yirga W.S., Gelu F.W., Melesse W.G., Duressa G.F. Efficient numerical method for solving a quadratic Riccati differential equation. Abstract and applied analysis, 2024, article ID 1433858, 11 pages.

3. Laín S., García D.F., Gandini M.A. Analytical solutions of the Riccati differential equation: Particle deposition in a viscous stagnant fluid. Mathematics, 2023, Vol. 11, No. 15, 3262.

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Tajibayev A.M.
Nukus tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli №4-sonli maktab fizika fani o'qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, bo‘lajak fizika o‘qituvchisi, fizika ta’limi, motivatsion komponent, kognitiv komponent, operatsion-tadqiqot komponenti, raqamli ta’lim, virtual laboratoriya, kompetentli yondashuv, pedagogik ta’lim.
Ключевые слова: исследовательская компетенция, будущий учитель физики, физическое образование, мотивационный компонент, когнитивный компонент, операционно-исследовательский компонент, цифровое образование, виртуальная лаборатория, компетентностный подход, педагогическое образование.
Key words:research competence, future physics teacher, physics education, motivational component, cognitive component, operational research component, digital education, virtual laboratory, competency-based approach, pedagogical education.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari O‘zbekiston ta’lim siyosati va mahalliy olimlar tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi motivatsion, kognitiv va operatsion-tadqiqot komponentlaridan iborat o‘zaro bog‘liq tizim sifatida asoslanib, fizika ta’limida raqamli vositalar va virtual laboratoriyalarning bu boradagi o‘rni xorijiy tadqiqotlar bilan qisqacha qiyoslanadi. Natijalar bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘ladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются теоретико-педагогические основы развития исследовательских компетенций будущих учителей физики на основе образовательной политики Узбекистана и исследований отечественных ученых. Исследовательская компетенция обоснована как взаимосвязанная система, состоящая из мотивационного, когнитивного и операционно-исследовательского компонентов, а роль цифровых средств и виртуальных лабораторий в физическом образовании в этом отношении кратко сравнивается с зарубежными исследованиями. Результаты послужат научной основой для совершенствования методики подготовки будущих учителей физики.
SUMMARY:
This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations for developing the research competencies of future physics teachers based on Uzbekistan's educational policy and the research of local scientists. Based on the fact that research competence is an interconnected system

consisting of motivational, cognitive, and operational-research components, the role of digital tools and virtual laboratories in physics education is briefly compared with foreign research. The results will serve as a scientific basis for improving the methodology for training future physics teachers.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ilm-fan va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ta’lim tizimidan, xususan fizika o‘qituvchilarini tayyorlash sifatidan yangi talablarni ilgari surmoqda. Fizika - tabiatshunoslikning tajribaga asoslangan fani sifatida - o‘quvchilarda nafaqat nazariy tafakkurni, balki tadqiqotchilik malakalarini ham shakllantirishni taqozo etadi. Shu bois bo‘lajak fizika o‘qituvchisining o‘zi tadqiqotchilik faoliyatini samarali amalga oshira olishi muhim kasbiy zaruratga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida aholining zamonaviy talablariga va xalqaro standartlarga javob beradigan ta’lim tizimini yaratish, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi belgilangan [1]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida fizika fani bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy etish va ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish alohida ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilgan [2]. Ushbu ikkita normativ hujjat bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini davlat ta’lim siyosatining uzviy qismi sifatida ko‘rib chiqish zaruratini kuchli asoslaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi - bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini, avvalo O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari asosida, ochib berish, uning tarkibiy tuzilmasini asoslash va zamonaviy raqamli ta’lim vositalari bilan mantiqiy aloqasini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi muammosi O‘zbekiston pedagogika fanida turli jihatlardan o‘rganilgan. U.Sh. Begimkulov pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘qituvchidan chuqur metodik va tadqiqotchilik tayyorgarligini talab qilishini ko‘rsatadi [3]. Muallifning fikricha, axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ishlash kompetentligi uzoq davom etadigan kasbiy shakllanish jarayoni bo‘lib, u bir martalik o‘qitish emas, balki uzluksiz amaliyot orqali rivojlanadi [3].

A. Bekimbetova va B. Ismailova pedagogning kasbiy faoliyatidagi psixologik kompetentlikni tahlil qilib, uni motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat, kommunikativ, refleksiv hamda regulyativ komponentlardan iborat integrativ kasbiy-shaxsiy sifat sifatida asoslaydilar [4]. Mazkur ko‘p komponentli yondashuv tadqiqotchilik kompetensiyasini ham shunga o‘xshash — bir-birini taqozo etuvchi komponentlar tizimi sifatida ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi. O. Gizatulina esa bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetentlikni elektron qo‘llanma orqali shakllantirish masalasini o‘rganib, raqamli kompetentlikning nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki axborotni izlash, tahlil qilish va o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatini ham qamrab olishini asoslaydi [5]. Z.K. Kurbaniyazovaning doktorlik (DSc) dissertatsiyasida esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ta’lim materiallarini yirik bloklarga birlashtirish, elektron resurslardan foydalanish hamda kvazikasbiy faoliyatning nazariy-amaliy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirilishi alohida o‘rin tutadi [6].

Fizika ta’limida raqamli vositalardan foydalanish borasida ham mahalliy tadqiqotchilar qator amaliy natijalarga erishganlar. J.M. Akbarov fizika fanini o‘qitishda multimediya texnologiyalaridan foydalanish masalalarini tahlil qilib, maxsus simulyatorlar, animatsiya va video roliklar, shuningdek virtual laboratoriya ishlari va fizik jarayonlarni modellashtirishga imkon beruvchi dasturiy ta’minotlarning o‘quvchilarda fizik bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [7]. Sh.I. Abdullayeva esa PhET Physics virtual laboratoriyalarining optika bo‘limini o‘qitishdagi imkoniyatlarini amaliy jihatdan o‘rganib, ularning vaqt va joy tanlamaslik xususiyatini alohida ta’kidlaydi [8]. D.M. Raxmonqulova esa umumo‘rta ta’lim tizimida fizika fani bo‘yicha raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlaydi [9].

Xorijiy va MDH tadqiqotlari esa mazkur masalani qo‘shimcha ilmiy asoslash va qiyoslash imkonini beradi. O.V. Lebedeva va I.V. Grebenev bo‘lajak fizika o‘qituvchisini o‘quv-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirishga tayyorlash masalasini tahlil qilib, o‘qituvchining o‘zi tadqiqot loyihalashtirishni bilmasa, u o‘quvchilarda ham mazkur ko‘nikmani shakllantira olmasligini ta’kidlaydi [10]. T. De Yong va hammualliflari Go-Lab loyihasi misolida o‘qituvchilarning raqamli inkvayri-o‘qitishni loyihalashtirish amaliyotlarini o‘rganib, o‘qituvchining o‘zi tadqiqot jarayonini modellashtira olish kompetensiyasi ta’lim sifatining muhim sharti ekanini ta’kidlaydilar [11]. Yu. Darvina Indoneziya maktablari misolida virtual laboratoriya orqali kashfiyot usulida o‘qitish o‘quvchilarning fizik

kompetensiyasini oshirishini empirik ravishda isbotlaydi [12], R. Elmoazen va hammualliflari esa virtual laboratoriyalarda ta'lim tahlili bo'yicha tizimli adabiyot sharhini o'tkazib, talabalarning tadqiqot jarayonidagi faoliyatini raqamli iz asosida tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rsatadilar [13].

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonlik olimlarning ishlarida pedagog kasbiy va raqamli kompetentlikning umumiy nazariy asoslari [3; 4; 5; 6], shuningdek fizika ta'limida raqamli vositalarning amaliy qo'llanilishi [7; 8; 9] chuqur o'rganilgan. Biroq mazkur yo'nalishlar — umumpedagogik kompetentlik nazariyasi va fizika ta'limidagi amaliy tajriba - hali tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasi atrofida yaxlit nazariy tizim sifatida birlashtirilmagan. Aynan shu - mazkur maqolaning ilmiy muammosini belgilovchi ilmiy bo'shliqdir.

Tadqiqot tushunchaviy-nazariy tahlil usuliga asoslanadi. Mavzuga oid O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek cheklangan miqdorda xorijiy va MDH adabiyotlari mazmunan tahlil qilindi, ularda uchraydigan tadqiqotchilik va raqamli kompetentlik tarkibiy unsurlari umumlashtirildi va tizimlashtirildi. Tadqiqotda kompetentli yondashuv (A. Bekimbetova va B. Ismailova [4], Z.K. Kurbaniyazova [6] asarlarida qo'llanilgan metodologik asoslarga tayangan holda) hamda tizimli-strukturaviy tahlil usullari qo'llanildi.

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida bo'lajak fizika o'qituvchisining tadqiqotchilik kompetensiyasi uch o'zaro bog'liq komponentdan iborat tizim sifatida aniqlashtirildi: motivatsion, kognitiv va operatsion-tadqiqot komponentlari. Ushbu komponentlarning mazmuni va asosiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasi komponentlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari

Komponent	Mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlari
Motivatsion	Talabaning tadqiqot faoliyatiga qiziqishi, fizik hodisalarni mustaqil o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji va kasbiy e'tiqodi [4; 6]	Tadqiqot faoliyatiga barqaror qiziqish; mustaqil izlanishga intilish; raqamli vositalardan foydalanishga ijobiy munosabat
Kognitiv	Fizik bilimlar, tadqiqot metodologiyasi, axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ishlash va raqamli vositalar haqidagi bilimlar [3; 5]	Fizik qonuniyatlarni tushunish; ilmiy tadqiqot bosqichlarini bilish; raqamli ta'lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini bilish

Operatsion-tadqiqot	Muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, eksperimentni rejalashtirish, o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish, shu jumladan raqamli va virtual vositalardan foydalanish [7; 8; 9]	Tadqiqot savolini mustaqil shakllantirish; fizik tajribani (jumladan virtual) rejalashtirish va o‘tkazish; natijalarni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, motivatsion komponent tadqiqotchilik faoliyatining ichki turtki beruvchi asosi sifatida xizmat qiladi. A. Bekimbetova va B. Ismailovaning tadqiqotida ko‘rsatilganidek, pedagog kasbiy faoliyatidagi motivatsion-qadriyatli komponent boshqa barcha komponentlarning rivojlanish darajasini belgilovchi asos hisoblanadi [4], binobarin, agar bo‘lajak o‘qituvchida tadqiqotga bo‘lgan qiziqish shakllanmagan bo‘lsa, kognitiv va operatsion darajadagi bilim hamda ko‘nikmalar ham amaliyotda faol qo‘llanilmaydi.

Kognitiv komponent, o‘z navbatida, tadqiqotchilik faoliyatining bilish bazasini tashkil etadi. U.Sh. Begimkulov ta’kidlaganidek, o‘qituvchining axborotlashtirilgan ta’lim muhitida faoliyat yurita olish kompetentligi alohida, uzluksiz amaliyot orqali shakllanadigan kasbiy sifat hisoblanadi [3], bu esa bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarida fizik bilimlar bilan bir qatorda tadqiqot metodologiyasi va raqamli savodxonlik asoslarini ham maqsadli o‘rgatish zaruratini ko‘rsatadi. O. Gizatulina esa bo‘lajak pedagog uchun raqamli kompetentlikning axborotni izlash, tahlil qilish va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidan iborat ekanini asoslaydi [5], bu esa kognitiv komponentning zamonaviy, raqamli jihatini ochib beradi.

Operatsion-tadqiqot komponenti esa kompetensiyaning amaliy-faoliyatli jihatini ifodalaydi: u nazariy bilim va ichki motivatsiyaning aniq tadqiqot harakatlariga aylanishini ta’minlaydi. J.M. Akbarov [7], Sh.I. Abdullayeva [8] va D.M. Raxmonqulova [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aynan shu komponentning zamonaviy raqamli vositalar, jumladan multimedia texnologiyalari va virtual laboratoriyalar orqali samarali rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, Sh.I. Abdullayevaning tadqiqotida PhET Physics virtual laboratoriyalarining vaqt va joy tanlamaslik xususiyati, ya’ni ularni ixtiyoriy vaqtda va faqat kompyuter yoki noutbuk orqali bajarish mumkinligi alohida ta’kidlanadi [8], bu esa xuddi shunday vositaning bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ham samarali bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Mazkur mahalliy tadqiqotlar natijalarini xorijiy va MDH tadqiqotlari bilan qisqacha taqqoslash nazariy xulosalarni yanada mustahkamlaydi. O.V. Lebedeva va I.V. Grebenevning tadqiqotida ko‘rsatilganidek, o‘qituvchining o‘zi tadqiqot loyihalashtirishni bilmasa, u o‘quvchilarda ham mazkur

ko‘nikmalarni shakllantira olmaydi [10] - bu xulosa U.Sh. Begimkulovning [3] mahalliy tadqiqotidagi xulosalar bilan to‘liq uyg‘unlashadi. T. De Yong va hammualliflarining Go-Lab loyihasi doirasidagi tadqiqotida ko‘rsatilganidek, raqamli inkvayri-muhitlar o‘qituvchidan nafaqat texnik, balki pedagogik-tadqiqot loyihalashtirish kompetensiyasini ham talab qiladi [11], bu esa J.M. Akbarov va Sh.I. Abdullayeva tomonidan ta’kidlangan mahalliy amaliy tajriba bilan mos keladi [7; 8]. Yu. Darvinaning empirik tadqiqotida virtual laboratoriya asosidagi kashfiyot usuli o‘quvchilarning fizik kompetensiyasini sezilarli darajada oshirgani aniqlangan [12], R. Elmoazen va hammualliflari esa virtual laboratoriyalarda talabaning tadqiqot jarayonidagi faoliyatini raqamli iz asosida kuzatish imkoniyatlarini ko‘rsatadilar [13] - bular D.M. Raxmonqulova taklif etgan raqamli texnologiyalar asosida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasini [9] xalqaro miqyosda qo‘shimcha asoslaydi.

Yuqorida tahlil qilingan uch komponentni umumlashtirib, quyidagi mantiqiy zanjirni asoslash mumkin: O‘zbekiston ta’lim siyosati [1; 2] - pedagog kasbiy va raqamli kompetentligi [3; 4; 5; 6] - fizika ta’limida amaliy tajriba [7; 8; 9] - tadqiqotchilik kompetensiyasi - raqamli vositalar va virtual laboratoriyalar. Ushbu zanjir shuni ko‘rsatadiki, raqamli vosita va virtual laboratoriya o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki bo‘lajak fizika o‘qituvchisida shakllangan tadqiqotchilik kompetensiyasini amalda sinash, mustahkamlash va rivojlantirishning zamonaviy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlil bo‘lajak fizika o‘qituvchisining tadqiqotchilik kompetensiyasi O‘zbekiston oliy pedagogik ta’limining ustuvor vazifalaridan biri ekanini, bu masala “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va fizika ta’limi sifatini oshirish to‘g‘risidagi qaror bilan davlat darajasida mustahkamlanganini ko‘rsatdi [1; 2]. Mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida tadqiqotchilik kompetensiyasi motivatsion, kognitiv va operatsion-tadqiqot komponentlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida aniqlashtirildi, bunda har bir komponent U.Sh. Begimkulov, A. Bekimbetova va B. Ismailova, O. Gizatulina hamda Z.K. Kurbaniyazova tadqiqotlarida asoslangan pedagog kasbiy va raqamli kompetentligi nazariyasi bilan uzviy bog‘lanadi [3; 4; 5; 6]. Fizika ta’limida raqamli vositalar, jumladan multimedia texnologiyalari va virtual laboratoriyalar, J.M. Akbarov, Sh.I. Abdullayeva va D.M. Raxmonqulova tomonidan o‘rganilgan amaliy tajriba asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida nazariy jihatdan asoslandi [7; 8; 9], bu xulosa O.V. Lebedeva va I.V. Grebenev, T. De Yong va hammualliflari, Yu. Darvina, R. Elmoazen va hammualliflarining tadqiqotlari bilan ham tasdiqlanadi [10; 11; 12; 13]. Olingan nazariy natijalar, o‘z navbatida, keyingi

empirik tadqiqot-raqamli vositalar asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish - uchun ilmiy baza bo‘lib xizmat qiladi degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.

4. Bekimbetova A., Ismailova B. Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagog kasbiy faoliyatida psixologik kompetentlik komponentlarining ilmiy-nazariy tahlili // Journal of Research and Development. – 2025. – T. 2, № 12. – B. 98–103. DOI: 10.5281/zenodo.18103344.

5. Gizatulina O. Formirovaniye sifrovoy kompetensii u studentov posredstvom elektronnogo posobiya kak predmetnogo obrazovatelnogo resursa // Social science and innovation. – 2023. – T. 1, № 2. – S. 54–66. DOI: 10.5281/zenodo.8422330.

6. Kurbaniyazova Z.K. Aralash ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish: Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoreferati. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2022.

7. Akbarov J.M. Fizika fanini o‘qitishda multimediya texnologiyalaridan foydalanish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2, № 8. – B. 196–199. DOI: 10.5281/zenodo.8397001.

8. Abdullayeva Sh.I. Fizika darslarida PhET Physics virtual laboratoriyalaridan foydalanish (optika bo‘limi misolida) // Ta'lim fidoyilari. – 2023. DOI: 10.5281/zenodo.8123067.

9. Raxmonqulova D.M. Fizikani raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitishda o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 5, No. 9. DOI: 10.5281/zenodo.17117420.

10. Lebedeva O.V., Grebenev I.V. Podgotovka budushego uchitelya fiziki k proyektirovaniyu i organizatsii uchebno-issledovatelskoy deyatelnosti // Pedagogicheskoye obrazovaniye v Rossii. – 2018. – № 5. – S. 98–104.

11. De Jong T., Gillet D., Rodríguez-Triana M. J., Hovardas T., Dikke D., Doran R., Zacharia Z. C. Understanding teacher design practices for digital inquiry-based science learning: The case of Go-Lab // Educational Technology Research and Development. – 2021. – Vol. 69, No. 2. – P. 417–444. https://doi.org/10.1007/s11423-020-09904-z

12. Darvina Y. Implementation of virtual laboratory through discovery learning to improve student's physics competence in Senior High School // Journal of Physics: Conference Series. – 2019. – Vol. 1185, No. 1. – Art. 012114. https://doi.org/10.1088/1742-6596/1185/1/012114

13. Elmoazen R., Saqr M., Khalil M., Wasson B. Learning analytics in virtual laboratories: a systematic literature review of empirical research // Smart Learning Environments. – 2023. – Vol. 10, No. 1. – Art. 23. https://doi.org/10.1186/s40561-023-00244-y

RAQAMLI AXBOROT MUHITIDA O‘QUVCHILARNING AXBOROTNI SARALASH KOMPETENSIYASI: MAZMUNI, TUZILISHI VA PEDAGOGIK ZARURATI

Rajabov A.X.
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil tadqiqotchisi
(13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi)

Tayanch so‘zlar: axborotni saralash, raqamli axborot muhiti, media savodxonlik, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyat, axborot immuniteti.
Ключевые слова: фильтрация информации, цифровая среда, медиаграмотность, информационная грамотность, критическое мышление, цифровая культура, информационный иммунитет.
Key words: information filtering, digital environment, media literacy, information literacy, critical thinking, digital culture, information immunity.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada raqamli axborot muhitida o‘quvchilarning axborotni saralash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik zarurati yoritilgan. Axborotni saralashning axborotni izlashdan farqli jihatlari aniqlashtirilib, uning kognitiv-protsessual, qadriyatli-motivatsion, refleksiv-faoliyatli va shaxsni rivojlantiruvchi komponentlari tavsiflangan. Raqamli muhitdagi axborot xavflari sharoitida o‘quvchilarda manbalarni tanqidiy baholash, fakt va fikrni farqlash hamda asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati asoslangan.
РЕЗЮМЕ:
В статье раскрывается педагогическая необходимость формирования у учащихся компетенции фильтрации информации в цифровой информационной среде. Уточнены отличия фильтрации информации от информационного поиска, охарактеризованы ее когнитивно-процессуальный, ценностно-мотивационный, рефлексивно-деятельностный и личностно-развивающий компоненты. Обоснована необходимость развития у учащихся способности критически оценивать источники, различать факты и мнения и формулировать самостоятельные выводы.
SUMMARY:
The article examines the pedagogical importance of developing students’ information-filtering competence in a digital information environment. It clarifies the distinction between information filtering and information retrieval and describes its cognitive-processual, value-motivational, reflective-activity, and personality-development components. Particular attention is paid to developing students’ ability to critically evaluate information sources, distinguish facts from opinions, and draw evidence-based conclusions.

Kirish. Raqamli axborot muhitining kengayishi axborot bilan ishlash mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Internet, ijtimoiy media va raqamli platformalar axborotga kirishni soddalashtirgan bo‘lsa-da, uning ishonchliligini aniqlash, turli manbalarni qiyoslash va asoslangan xulosa chiqarish muammosini kuchaytirdi. Shu sababli zamonaviy ta’limda asosiy masala o‘quvchining axborotni topa olishidan ko‘ra, uni tanqidiy baholashi va maqsadga muvofiq saralay olishiga ko‘chmoqda.

Raqamli texnologiyalardan faol foydalanish axborot bilan samarali ishlash kompetensiyasi shakllanganligini anglatmaydi [5]. O‘quvchi ma’lumotni tez topishi mumkin, biroq manbaning ishonchliligini, muallif pozitsiyasini va axborotning yaratilish maqsadini aniqlay olmasa, qidiruv natijasi mustaqil bilimga aylanmaydi. Demak, texnologik ko‘nikma bilan axborotni tanqidiy qayta ishlash qobiliyatini pedagogik jihatdan farqlash zarur. Maqolaning maqsadi – raqamli axborot muhitida o‘quvchilarning axborotni saralash kompetensiyasi mazmuni va tuzilishini aniqlashtirish hamda uni shakllantirishning pedagogik zaruratini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborotdan texnik foydalanish va uni tanqidiy qayta ishlashni farqlash g‘oyasi xorijiy tadqiqotlarda ham ilgari surilgan. D. Buckingham raqamli vositalardan foydalanish bilan bir qatorda media mazmunini tanqidiy tushunish zarurligini ta’kidlaydi [1]. R. Hobbs media savodxonlikni axborotni olish, tahlil qilish, baholash va yaratish jarayonlari bilan bog‘laydi [3; 4]. J. Coiro esa internet muhitida o‘qish manbalarni tanlash va ularning ishonchliligini baholash kabi qo‘shimcha kognitiv jarayonlarni talab qilishini asoslaydi [2]. Ushbu qarashlarning umumiy jihati shundaki, axborotga kirish imkoniyati uning sifatli o‘zlashtirilishini kafolatlamaydi; buning uchun o‘quvchida axborotni tanlash va baholash mexanizmlari shakllangan bo‘lishi lozim. Axborotni izlash (information retrieval) va saralash (information filtering) jarayonlarining o‘xshash hamda farqli jihatlari N. Belkin va W. Croft tomonidan ham ko‘rsatib berilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy xarakterga ega. Unda media savodxonlik, axborot savodxonligi va raqamli muhitda o‘qishga oid xorijiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, “axborotni izlash” va “axborotni saralash” tushunchalarini farqlashga qaratilgan konseptual tahlil, shuningdek, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Kompetensiya komponentlari kompetensiyaviy yondashuv hamda YUNESKOning media va axborot savodxonligi bo‘yicha o‘quv dasturida belgilangan talablar [7] asosida ajratildi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborotni izlash va saralashni bir xil jarayon sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Izlashning asosiy vazifasi kerakli ma’lumotni topish bo‘lsa, saralash topilgan axborotning dolzarbligi, ishonchliligi va maqsadga muvofiqligini baholashni nazarda tutadi. Demak, axborotni saralash izlashdan keyingi texnik bosqich emas, balki qiyoslash, tekshirish, baholash va qaror qabul qilishni birlashtiruvchi murakkab kognitiv faoliyatdir.

Raqamli muhitda ilmiy ma’lumot, jurnalistik material, reklama, shaxsiy fikr va manipulyativ kontentning bir makonda tarqalishi mazkur faoliyatning ahamiyatini yanada oshiradi. Bundan tashqari, axborot matn bilan cheklanmay, video, audio, fotosurat va infografika ko‘rinishida ham taqdim etilmoqda. Shuning uchun o‘quvchi axborot mazmunini tushunish bilan birga uning manbasi, maqsadi va daliliy asoslarini ham tahlil qila olishi kerak.

Raqamli muhitdagi kontent, kontakt va xulq-atvor bilan bog‘liq xavflarni faqat texnik cheklovlar orqali bartaraf etish yetarli emas [6]. Pedagogik nuqtai nazardan, o‘quvchida axborotni avtomatik qabul qilmaslik, uning manbasini tekshirish va dalillar asosida xulosa chiqarishga tayyorlikni shakllantirish muhimdir. Mazkur xususiyatni o‘quvchining “axborot immuniteti” sifatida talqin qilish mumkin.

Axborotni saralash kompetensiyasining mazmuni kognitiv-protsessual, qadriyatli-motivatsion, refleksiv-faoliyatli va shaxsni rivojlantiruvchi komponentlarning o‘zaro birligida namoyon bo‘ladi. Kognitiv-protsessual komponent axborot ehtiyojini aniqlash, manbalarni izlash, tekshirish, qiyoslash va umumlashtirishga oid bilim hamda amaliy harakatlarni qamrab oladi. Bunda asosiy pedagogik natija axborotni topish emas, uning qaysi qismini qanday dalillarga asoslanib qabul qilish yoki rad etish haqida qaror chiqara olishdir.

Qadriyatli-motivatsion komponent axborotning haqqoniyligiga ehtiyoj, undan mas’uliyatli foydalanish va tekshirilmagan ma’lumotni tarqatmaslikka tayyorlik bilan belgilanadi. Bu komponentning ajratilishi muhim, chunki axborotni tekshirish usullarini bilish ularni amalda qo‘llashni kafolatlamaydi. Demak, ta’lim jarayonida “qanday tekshirish?” bilan bir qatorda “nima uchun tekshirish?” motivini shakllantirish ham talab etiladi.

Refleksiv-faoliyatli komponent o‘quvchining manba tanlovi va chiqargan xulosalarini qayta baholash qobiliyatini ifodalaydi. Bunda yangi dalillar paydo bo‘lganda dastlabki qarorni o‘zgartira olish axborot bilan ishlashdagi xato emas, balki refleksiv faoliyatning natijasi hisoblanadi.

Shaxsni rivojlantiruvchi komponent esa axborotni saralash jarayonining mustaqillik, tanqidiy tafakkur, mas’uliyat va intellektual faollikni rivojlantirish

bilan bog‘liqligini ifodalaydi. Shu asosda axborotni saralashni alohida texnik ko‘nikma sifatida emas, balki o‘quvchining axborot muhitida mustaqil va asoslangan qaror qabul qilishini ta’minlovchi kompleks kompetensiya sifatida baholash mumkin.

Yuqorida tavsiflangan komponentlarning mazmuni va ularning o‘quvchi axborot faoliyatida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tizimlashtirish maqsadida ularni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin.

1-jadval.

Axborotni saralash kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi

Komponent	Mazmuni	O‘quvchi faoliyatida namoyon bo‘lishi
Kognitiv-protsessual	Axborot bilan ishlashga oid bilimlar va amaliy harakatlar majmui	Axborot ehtiyojini aniqlash, izlash, manbani tekshirish, ma’lumotlarni qiyoslash, tahlil qilish va umumlashtirish
Qadriyatli-motivatsion	Ishonchli axborotga ehtiyoj, axborotga mas’uliyatli va axloqiy munosabat	Tekshirilgan axborotni tanlashga intilish, tekshirilmagan ma’lumotni tarqatmaslik, axloqiy me’yorlarga rioya qilish
Refleksiv-faoliyatli	O‘z axborot faoliyati, qarorlari va qo‘llanilgan strategiyalarni nazorat qilish hamda baholash	Manba tanlovi va xulosalarni qayta ko‘rib chiqish, yangi dalillar asosida qarorni o‘zgartirish, o‘z xatolarini aniqlash
Shaxsni rivojlantiruvchi	Axborot bilan mustaqil ishlash orqali shaxsiy va intellektual sifatlarning rivojlanishi	Mustaqil pozitsiya bildirish, tanqidiy fikrlash, asoslangan qaror qabul qilish va axborotga ongli munosabat

Jadvalda keltirilgan komponentlar alohida emas, balki axborotni saralash kompetensiyasining o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Axborotni tekshirishga oid bilimlarning mavjudligi uni amalda qo‘llash motivatsiyasi, manbalarni baholash usullarini egallash va o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija beradi. Shu sababli axborotni saralash kompetensiyasini rivojlantirish kognitiv-protsessual, qadriyatli-motivatsion, refleksiv-faoliyatli va shaxsni rivojlantiruvchi komponentlarning yaxlit shakllanishini talab etadi.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirishda o‘quvchilarni real axborot muhitiga yaqinlashtirilgan faoliyatga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Axborotning ishonchliligini aniqlash qoidalarini nazariy o‘zlashtirishning o‘zi yetarli bo‘lmay, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash talab etiladi. Buning uchun

bir mavzuga oid turli manbalardagi xabarlarni qiyoslash, muallif va e'lon qilingan sanani aniqlash, keltirilgan dalillarni tekshirish, fakt va fikrni farqlash, shuningdek, axborotdagi emotsional hamda manipulyativ elementlarni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunday faoliyatda "Bu xabarni kim yaratgan?", "Uning maqsadi nima?", "Qanday dalillar keltirilgan?", "Ma'lumot boshqa manbalar tomonidan tasdiqlanadimi?" kabi yo'naltiruvchi savollar o'quvchini tayyor xulosani qabul qilishdan ko'ra axborotni mustaqil tahlil qilishga undaydi. Natijada o'quvchi manbani tanlash, ma'lumotni qabul qilish yoki rad etish hamda o'z xulosasini dalillar bilan asoslash tajribasini egallaydi.

Axborotni saralash ko'nikmalarini faqat informatika fani doirasida shakllantirish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas, chunki mazkur kompetensiya fanlararo xususiyatga ega. Ona tili va adabiyot darslarida muallif pozitsiyasi, fakt va baholovchi mulohazalarni farqlash; tarix darslarida bir voqea haqidagi turli manbalarni qiyoslash; informatika darslarida qidiruv strategiyalari va raqamli manbalarni baholash; tarbiya darslarida esa axborotdan mas'uliyatli foydalanish va raqamli etika masalalarini o'rganish orqali uning turli jihatlarini rivojlantirish mumkin [7].

Mazkur jarayonda o'qituvchi tayyor axborotni yetkazuvchi subyekt bilan cheklanmasdan, o'quvchining mustaqil axborot faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Pedagogik jarayonda o'quvchiga qaysi manbaning ishonchli ekanini tayyor holda ko'rsatishdan ko'ra, uni mustaqil aniqlash imkonini beruvchi vaziyatlarni yaratish muhimdir. Bunda mustaqil ish, o'zini o'zi nazorat qilish va refleksiya o'quvchining axborot bilan ishlash tajribasini mustahkamlaydi.

Axborotni saralash kompetensiyasi o'quvchining kelgusidagi mustaqil ta'lim faoliyati uchun ham muhim ahamiyatga ega. Manbalarni tekshirish, dalillarni qiyoslash, mustaqil xulosa chiqarish va o'z qarorini qayta baholash ko'nikmalari yangi va notanish axborot vaziyatlarida oqilona harakat qilish imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur kompetensiyani rivojlantirish stixiyali jarayon sifatida qoldirilmasdan, maktab ta'limida maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur.

Bunda o'quv topshiriqlarining mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Topshiriqlar tayyor ma'lumotni takrorlashga emas, balki axborotni izlash, qiyoslash, baholash, tanlash va qarorni asoslashga yo'naltirilishi lozim. Dastlab aniq harakatlar ketma-ketligini nazarda tutuvchi algoritmik topshiriqlardan foydalanib, keyinchalik muammoli va evristik topshiriqlarga o'tish o'quvchining mustaqil axborot faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Raqamli axborot muhitining kengayishi o‘quvchilarda axborotni saralash kompetensiyasini rivojlantirishni zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biriga aylantirmoqda. Mazkur kompetensiya axborotni izlash bilan cheklanmay, manbalarning ishonchliligi va dolzarbligini baholash, turli ma’lumotlarni qiyoslash, fakt va fikrni farqlash hamda dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarishni qamrab oladi.

Axborotni saralash kompetensiyasining kognitiv-protsessual, qadriyatli-motivatsion, refleksiv-faoliyatli va shaxsni rivojlantiruvchi komponentlarini o‘zaro uyg‘un rivojlantirish o‘quvchilarda axborotga tanqidiy va mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Shu bois ta’lim jarayonida real raqamli axborot vaziyatlariga asoslangan topshiriqlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning ongli tanlov qilish, axborotni tanqidiy baholash va asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buckingham D. Media Education Goes Digital: An Introduction. Learning, Media and Technology. 2007. Vol. 32, No. 2. P. 111–119.

2. Coiro J. Exploring Changes to Reading Comprehension on the Internet: Paradoxes and Possibilities for Diverse Adolescent Readers: Doctoral dissertation. Storrs: University of Connecticut, 2007.

3. Hobbs R. Building Citizenship Skills through Media Literacy Education. The Public Voice in a Democracy at Risk. Westport: Praeger, 1998. P. 57–76.

4. Hobbs R. Media Literacy Skills: Interpreting Tragedy. Social Education. 2001. Vol. 65, No. 7. P. 406–411.

5. Hargittai E., Walejko G. The Participation Divide: Content Creation and Sharing in the Digital Age. Information, Communication & Society. 2008. Vol. 11, No. 2. P. 239–256.

6. Staksrud E., Livingstone S., Haddon L., Ólafsson K. What Do We Know About Children’s Use of Online Technologies? London: EU Kids Online, 2009.

7. Wilson C., Grizzle A., Tuazon R., Akyempong K., Cheung C.K. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO, 2011.

8. Belkin N.J., Croft W.B. Information Filtering and Information Retrieval: Two Sides of the Same Coin? Communications of the ACM. 1992. Vol. 35, No. 12. P. 29–38.

MUHIT QARSHILIGINI HISOBGA OLGAN HOLDA JISM HARAKATINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA UNING C++ DASTURIY YECHIMI

Fozilov O.O.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchi
Abdullayeva D.A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchi

Tayanch so'zlar: differensial tenglama, harakat tenglamasi, qarshilik kuchi, boshlang'ich tezlik, Nyutonning ikkinchi qonuni, integrallash, C++ dasturlash, amaliy hisoblash, mexanika.
Ключевые слова: дифференциальное уравнение, уравнение движения, сила сопротивления, начальная скорость, второй закон Ньютона, интегрирование, программирование на C++, практический расчёт, механика.
Key words: differential equation, equation of motion, resistance force, initial velocity, Newton's second law, integration, C++ programming, practical calculation, mechanics.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada muhitning qarshiligini hisobga olgan holda jismlarning vertikal harakatini matematik modellashtirish va differensial tenglamalarni integrallash usullari yoritilgan. Boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan toshning tezligi ikki marta kamayadigan balandlikni aniqlash masalasi nazariy asoslar bilan birga amaliy tarzda ko'rsatildi. Shuningdek, jarayonni hisoblash uchun C++ dasturi orqali dasturiy yechim keltirildi. Mazkur maqola mexanika masalalarini nafaqat nazariy, balki dasturiy ta'minot yordamida yechish imkoniyatlarini namoyon etadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются методы математического моделирования вертикального движения тел с учётом сопротивления среды и интегрирования дифференциальных уравнений. Практически и теоретически обоснована задача нахождения высоты, на которой скорость камня, брошенного вертикально вверх с начальной скоростью, уменьшается вдвое. Также приведено программное решение на языке C++ для вычисления параметров процесса. Настоящая статья демонстрирует возможности решения задач механики не только в теории, но и с помощью программного обеспечения.
SUMMARY:
This article discusses methods for mathematical modeling of the vertical motion of bodies taking into account medium resistance and integration of differential equations. The problem of determining the height at which the speed of a stone thrown vertically upward with an initial velocity decreases by half is demonstrated practically along with theoretical foundations. Additionally, a software solution in C++ is presented for calculating the process parameters. This article illustrates the application of mechanics problems not only in theory but also through software development.

Texnik va muhandislik masalalarini yechishda matematik modellashtirish hamda sonli hisoblash usullaridan foydalanish zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fizik jarayonlarni matematik tenglamalar orqali ifodalash va ularni kompyuter yordamida hisoblash murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilish, hisoblash aniqligini oshirish hamda vaqt sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mexanika, elektrotexnika, qurilish, energetika va boshqa ko‘plab texnik sohalarda differensial tenglamalar, xos qiymatlar va matematik modellashtirish usullariga asoslangan masalalar keng qo‘llanilmoqda. Bunday masalalarni analitik usulda yechish bilan bir qatorda, ularni dasturiy vositalar yordamida avtomatlashtirish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda vertikal yuqoriga otilgan jismning havo qarshiligi ta'siridagi harakati o‘rganiladi. Harakat davomida jismning tezligi o‘zgarib boradi va qarshilik kuchi tezlikning funksiyasi sifatida qaraladi. Nyutonning ikkinchi qonuni asosida harakat tenglamasi tuzilib, differensial tenglama hosil qilinadi hamda integrallash usuli yordamida jism tezligi boshlang‘ich qiymatiga nisbatan ikki marta kamayadigan balandlik aniqlanadi.

Masalaning nazariy yechimini amaliy hisoblashlar bilan bog‘lash maqsadida C++ dasturlash tilida maxsus dastur ishlab chiqilgan. Dastur foydalanuvchi tomonidan kiritilgan boshlang‘ich parametrlar asosida barcha zarur fizik kattaliklarni avtomatik hisoblaydi va natijalarni qisqa vaqt ichida ekranga chiqaradi. Natijada murakkab matematik hisoblashlar soddalashtiriladi hamda hisoblash jarayonining aniqligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

Taklif etilgan dastur texnik masalalarni yechishda matematik modellashtirish va algoritmlashtirish usullarini o‘zaro uyg‘unlashtiradi hamda oliy ta'lim muassasalarida fizika, amaliy matematika va dasturlash fanlarini o‘qitishda samarali o‘quv-uslubiy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Masala. Tosh υ_0 boshlang‘ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan. Toshning tezligi ikki marta kamayadigan balandlik H ni toping, agar harakatga qarshilik kuchining x o‘qidagi proyeksiyasi


$$R_x = -k^2 m\dot{x}^2,$$

ga teng bo‘lsa.

Bu yerda:

- m — tosh massasi;
- $\dot{x}$ — uning tezligining x o‘qidagi proyeksiyasi;
- k^2 — o‘zgarmas koeffitsiyent.

x o‘qi vertikal ravishda yuqoriga yo‘nalgan.



Yechish. Koordinatalar boshini Yer sirtida, toshning boshlang‘ich holatida olamiz. Harakatning boshlang‘ich shartlari: $t = 0 \quad x = 0, \quad \dot{x} = \upsilon_0.$ (1)

Toshning og‘irligini P bilan belgilaymiz. Toshga quyidagi kuchlar ta’sir qiladi:

- P — og‘irlik kuchi;

• R — harakatga qarshilik kuchi.

Qarshilik kuchi harakat yo‘nalishiga qarama-qarshi, ya’ni vertikal pastga yo‘nalgan. Harakat tenglamasi x o‘qi bo‘yicha Nyutonning ikkinchi qonuni:

$$m\ddot{x} = -P + R_x$$

Chunki

$$R_x = -k^2 m\dot{x}^2$$

bo‘lsa,

$$\ddot{x} = -(g + k^2\dot{x}^2) \qquad (2)$$

Masala shartiga ko‘ra, toshning holatini uning tezligi orqali ifodalash talab qilinadi.Oldingi masaladagi usuldan foydalanamiz: (2) tenglamaning ikkala tomonini dx ga ko‘paytiramiz:

$$\ddot{x}dx = -(g + k^2\dot{x}^2)dx. \qquad (3)$$

Hisobga olamizki, $\ddot{x}dx = \dot{x}d\dot{x}$ Shunda (3) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\frac{\dot{x}d\dot{x}}{g + k^2\dot{x}^2} = -dx.$$

Integrallab topamiz: $\frac{1}{2k^2}\ln(g + k^2\dot{x}^2) = -x + C.$ (4)

Boshlang‘ich shartlardan (1) foydalanib:

$$C = \frac{1}{2k^2}\ln(g + k^2\upsilon_0^2).$$

Bu qiymatni (4) ga qo‘ysak:

$$x = \frac{1}{2k^2}\ln\frac{g + k^2\upsilon_0^2}{g + k^2\dot{x}^2}. \qquad (5)$$

(5) tenglama toshning holati bilan tezligi orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi. Tosh tezligi boshlang‘ich qiymatidan ikki marta kamayganda:

$$x = H, \qquad \dot{x} = \frac{\upsilon_0}{2}$$

Bu qiymatlarni (5) formulaga qo‘yamiz:


$$H = \frac{1}{2k^2}\ln 4\frac{g + k^2\upsilon_0^2}{4g + k^2\upsilon_0^2}.$$

Natija: Bu formula toshning tezligi υ_0 dan $\frac{\upsilon_0}{2}$ gacha kamayadigan balandlikni beradi.

Yechimni avtomatlashtirish maqsadida C++ dasturlash tilida maxsus dastur ishlab chiqildi. Dastur sferalarning geometrik parametrlari, dastlabki potensiallari va elektrostatik doimiyliklarni hisobga olgan holda, o‘zaro ulangandan keyingi zaryadlar hamda ularning sirt zichliklarini avtomatik hisoblaydi. Foydalanuvchi faqat boshlang‘ich parametrlarni kiritish orqali zarur natijalarni tezkor va aniq tarzda olishi mumkin. Mazkur dastur elektrostatik masalalarni hisoblash jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

```
//Muhit qarshiligini hisobga olgan holda jism harakatini matematik modellashtirish
#include<iostream>
#include<math.h>
using namespace std;
int main ()
{ system("color f4");
float const g=9.8;
```

```
float v0,b,P,k,x,m,x1,x2,C,Rx,H;
cout<<" Toshning massasi="; cin>>m;
cout<<" Tezligining x o'qidagi proyeksiyasi="; cin>>x;
cout<<"O'zgarmas koeffitsiyent="; cin>>k;
cout<<" Bo'shlang'ich tezlik="; cin>>v0;
Rx=-pow(k,2)*m*pow(x,2);
x1=-(g+pow((k*x),2));
C=(1/2*pow(k,2))*log(g+pow(k*v0,2));
x2=(1/2*pow(k,2))*log((g+pow(k*v0,2))/(g+pow(k*v0,2)));
H=(1/2*pow(k,2))*log(4*(g+pow(k*v0,2))/(4*g+pow(k*v0,2)));
if (v0<0){
  cout<<"Bo'shlang'ich tezlik manfiy bo'lolmaydi!!!"<<endl;
}
  cout<<"Rx="<<Rx<<endl;
  cout<<"C ="<<C<<endl;
  cout<<"x1 ="<<x1<<endl;
  cout<<"x2 ="<<x2<<endl;
  cout<<"H ="<<H<<endl;
  return 0;
}
```



Ushbu maqolada muhit qarshiligini hisobga olgan holda jismning vertikal harakati matematik jihatdan modellashtirildi. Nyutonning ikkinchi qonuniga asoslanib harakat tenglamasi hosil qilindi va differensial tenglamani integrallash orqali jism tezligi ikki marta kamayadigan balandlik aniqlandi.

Olingan nazariy natijalarni amaliy hisoblash maqsadida C++ dasturlash tilida dastur ishlab chiqildi. Dasturda jismning massasi, boshlang‘ich tezligi va muhit qarshiligini ifodalovchi koeffitsiyent kabi parametrlar kiritilib, zarur hisob-kitoblar avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bu esa murakkab matematik hisoblashlarni soddalashtirib, turli boshlang‘ich qiymatlar uchun natijalarni tez va aniq olish imkonini beradi.

Shunday qilib, matematik model va C++ dasturiy yechimining uyg‘unligi muhit qarshiligi ta’siridagi jism harakatini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish, hisoblash jarayonini avtomatlashtirish va olingan natijalarni samarali tahlil qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.A. Karimov, A.X. Axmedov, A.R. Karimova. Nazariy mexanika: o‘quv qo‘llanma. “Malik print co”, Toshkent-2021, 357 bet.

2. Q.S.Raxmanov, Sh.T.Kasimova “C++ tilida dasturlash” O‘quv qo‘llanma TATU. Toshkent-2017. 424 bet.

OLIY TA’LIMDA FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING METODIK TIZIMI

Matjanov N.S.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tayanch so‘zlar: fizika o‘qituvchisi, bo‘lajak o‘qituvchilar, fizika, astronomiya, metodik kompetensiya, kasbga yo‘naltirib o‘qitish, innovatsion texnologiyalar, STEM ta’limi, virtual laboratoriya, muammoli va loyihaviy ta’lim.
Ключевые слова: учитель физики, будущие учителя, физика, астрономия, методическая ко́мпетенция, профессионально-ориентированное обучение, инновационные технологии, STEM-образование, виртуальная лаборатория, проблемное и проектное обучение.
Key words: physics teacher, future teachers, physics, astronomy, methodological competence, professionally oriented education, innovative technologies, STEM education, virtual laboratory, problem-based and project-based learning.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida fizika va astronomiya fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Fizika va astronomiyaning fundamental qonuniyatlarini talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan integratsiya qilish yo‘llari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar (STEM, loyihaviy ta’lim, virtual laboratoriyalar)ni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va metodik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещаются научно-методические основы и практическое значение профессионально-ориентированного обучения физике и астрономии в высших учебных заведениях. Анализируются пути интеграции фундаментальных законов физики и астрономии с будущей профессиональной деятельностью студентов, вопросы внедрения современных педагогических технологий (STEM, проектное обучение, виртуальные лаборатории). Разработаны практические рекомендации по формированию профессиональных и методических компетенций будущих специалистов.
SUMMARY:
This article highlights the scientific-methodological foundations and practical significance of professionally oriented physics and astronomy education in higher education institutions. It analyzes the ways of integrating the fundamental laws of physics and astronomy with the future professional activity of students, and the issues of implementing modern pedagogical technologies (STEM, project-based learning, virtual laboratories). Practical recommendations have been developed for shaping the professional and methodological competences of future specialists.

Global raqamlashish va texnologik taraqqiyot davrida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish fundamental fanlarni o‘qitish yondashuvlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarorida ta’kidlanganidek [1], fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini yuksaltirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, davlatimiz rahbarining oliy ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga oid tegishli Farmon va qarorlarida fundamental fanlarni ishlab chiqarish va zamonaviy mehnat bozori talablari bilan uzviy bog‘lash ustuvor yo‘nalish etib belgilangan.

Fizika va astronomiya an’anaviy ravishda nazariy fanlar sifatida qabul qilinsa-da, ularning amaliy va kasbga yo‘naltirilgan xususiyati bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy-texnik dunyoqarashini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Bu jarayonda bo‘lajak pedagog va mutaxassislardan nafaqat nazariyani bilish, balki Prezidentimiz qarorlarida qayd etilgan zamonaviy IT-texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va raqamli ta’lim resurslaridan erkin foydalana olish ko‘nikmalari talab etiladi.

Kasbga yo‘naltirib o‘qitish shunchaki bazaviy fizik bilimlarni uzatishni emas, balki ushbu bilimlarni aniq amaliy va kasbiy muammolarni hal qilish vositasiga aylantirishni nazarda tutadi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari uchun bu - metodik mahoratni egallash, fanni ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar va kundalik hayot bilan uzviy bog‘lay olish qobiliyatini rivojlantirish demakdir.

Ta’lim tizimiga kontekstli ta’lim yondashuvini olib kirish va uning nazariy asoslarini yaratishda A.A. Verbiskiyning xizmatlari katta. Fizika ta’limida loyihaviy faoliyat va muammoli ta’lim usullarini qo‘llash, shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalalari I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin va V.V. Serikov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Zamonaviy g‘arb pedagogikasida STEM va STEAM ta’lim konsepsiyalari, raqamli virtual laboratoriyalardan (PhET, Geogebra va b.) samarali foydalanish metodikasi R. Baybi (R. Bybee), J. Sanders (J. Sanders) kabi xalqaro ekspertlar ishlarida o‘z aksini topgan.

Respublikamizda fizika va astronomiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirish sohasida P. Habibullaev, M. Jo‘raev, G.Karlibaeva, K. Tursunmetov kabi olimlar salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ularning ishlarida fizika fanlarini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish va

umumta’lim maktablari bilan oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash masalalariga alohida urg‘u berilgan.

Tadqiqot davomida o‘quv dasturlarini tizimli tahlil qilish, pedagogik modellashtirish hamda ta’lim jarayoniga interaktiv texnologiyalarni joriy etish tajribasini o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) va STEAM konsepsiyalarini integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Fizika va astronomiya fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- kontekstli ta’lim - bu talaba yoki o‘quvchiga nazariy bilimlarni quruq yodlatish emas, balki ularni aniq hayotiy va kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rgatishga asoslangan ta’lim texnologiyasidir. Ushbu metodning asoschisi mashhur pedagog olim A.A. Verbiskiy hisoblanadi. Uning fikricha, an’anaviy ta’limda talaba faqat axborotni qabul qiluvchi bo‘lsa, kontekstli ta’limda u bo‘lajak kasb egasi sifatida harakat qiladi [2. -84 c].

An’anaviy ta’lim va kontekstli ta’lim o‘rtasidagi farqni oddiy misollarda ko‘rishimiz mumkin:

1-misol (Fizika - Optika bo‘limi):

An’anaviy yondashuv: Yorug‘likning sinishi va qaytishi qonunlarini yodlatish, linza formulasiga oid oddiy masala yechish.

Kontekstli yondashuv: Talabaga «Tibbiyot lazer uskunalari qanday ishlaydi?» yoki «Zamonaviy smartfon kameralarida linzalar qanday joylashgan va ular tasvir sifatini qanday oshiradi?» degan kasbiy muammoni o‘rganish va taqdimot qilish vazifasi beriladi.

2-misol (Astronomiya - Sferik astronomiya):

An’anaviy yondashuv: Yulduzlarning koordinatalari va osmon sferasi elementlarini chizib ko‘rsatish.

Kontekstli yondashuv: Smartfonlardagi GPS navigatsiya tizimlari yoki sun’iy yo‘ldoshlar (sputniklar) koinotda o‘z yo‘nalishini qanday aniqlashini hisoblab chiqish (bu bo‘lajak IT yoki muhandislik yo‘nalishi talabalari uchun juda kuchli motivatsiya beradi).

- loyihaviy faoliyat - bu ta’lim oluvchilarning mustaqil ravishda aniq bir amaliy vazifani, muammoni yoki tadqiqotni boshidan oxirigacha bajarishiga asoslangan zamonaviy ta’lim texnologiyasidir. An’anaviy ta’limda talaba tayyor bilimni tinglasa, loyihaviy faoliyatda u “bajarish orqali o‘rganish” tamoyili asosida ishlaydi. Fizika va astronomiya ta’limida bu metod nazariya va amaliyotni bog‘lovchi eng kuchli vosita hisoblanadi [5. B. 137-140]. Har qanday ta’lim loyihasi quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- muammo: Yechilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifa yoki savol belgilanadi;
- rejalashtirish: Loyihaning maqsadi, vazifalari, muddati va kerakli resurslar rejalashtiriladi;
- axborot izlash: Talabalar mavzuga oid fizik yoki astronomik qonunlarni, ma’lumotlarni mustaqil o‘rganadilar;
- mahsulot: Loyiha yakunida aniq bir natija (maket, virtual model, taqdimot, qurilma) yaratiladi;
- taqdimot: Bajarilgan ish ommaga yoki guruhga namoyish etilib, himoya qilinadi.
- virtual laboratoriyalar (PhET, Crocodile Physics): Standart laboratoriya sharoitida kuzatish imkoni bo‘lmagan murakkab fizik jarayonlarni modellashtirish vositalari [4. B. 85-87].

An’anaviy o‘qitish metodikasi ko‘pincha akademizmdan, ya’ni nazariya va amaliyotning bir-biridan ajralib qolishidan aziyat chekadi. Bu to‘siqni bartaraf etish uchun fizika va astronomiya kurslarini modulli tizim asosida tuzish va kasbiy yo‘naltirish taklif etiladi.

1-jadval.

Fizika va astronomiya bo‘limlarini kasbga yo‘naltirish modeli

Fizika/Astronomiya bo‘limi	Kasbiy-amaliy yo‘nalishi (Kontekst)	Qo‘llaniladigan innovatsion texnologiya
Mexanika va Dinamika	Qurilish konstruksiyalarini model-lashtirish, robototexnika, transport tizimlari.	Loyihaviy ta’lim, loyihalash dasturlari.
Optika va Kvant fizikasi	Lazer texnologiyalari, tibbiy asbobsozlik, fotovoltaika (quyosh panellari).	Virtual laboratoriyalar, STEM-keyslar.
Amaliy astronomiya	Sputnik navigatsiyasi (GPS/ GLONASS), geodeziya, Yerni masofadan zondlash.	Interaktiv osmon xaritalari (Stellarium),

Ushbu modelni o‘quv jarayoniga joriy etish natijasida talabalarning fanga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Fizika formulalari mavhum belgilar bo‘lishdan to‘xtab, amaliy mazmun kasb eta boshladi.

Masalan, “Astronomiya” bo‘limini o‘rganishda talabalar shunchaki yulduzlar koordinatalarini yodlamasdan, kosmik apparatlarning yo‘nalishini aniqlash yoki aloqa sputniklarining orbitalarini hisoblash kabi vazifalarni bajaradilar. Bu esa fanni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori texnologiyalar bilan bog‘laydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik kompetensiyaning shakllanishi esa ularning o‘zlari maktab amaliyotida qo‘llashi mumkin bo‘lgan mini-loyihalar va virtual laboratoriya ishlarini yaratishi orqali amalga oshadi [3. B.315-316].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida fizika va astronomiya fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitish raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning garovidir. Fundamental fanni innovatsion ta’lim texnologiyalari (STEM, virtual modellashtirish, kontekstli masalalar) bilan integratsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- murakkab fizik konsepsiyalarni o‘zlashtirish sifatini oshirish;
- talabalarda barqaror kasbiy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- nostandart ishlab chiqarish va pedagogik muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan moslanuvchan tahliliy fikrlashni rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori.

2. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения / А.А. Вербицкий. - М.: ИС ПКПС, 2004. - 84 с.

3. Матжанов Н.С. Подготовка учителя к инновационной деятельности как механизм обновления педагогического образования // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –Toshkent, 2025/3. –B. 315-316.

4. Matjanov N.S. Oqıwshılardıń fizikadan tayanish kompetenciyaların qáliplestiriw usılları // Ilim hám jámiyet. – Nukus, 2025. – №7/2. – B. 85–87.

5. Matjanov N.S. Fizika fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol texnologiyalardan foydalanish // Guliston davlat universiteti Axborotnomasi. – Guliston, 2024. –№4(113). – B. 137-140

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Karlibaeva G.E.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tayanch so‘zlar: fizika o‘qituvchisi, bo‘lajak o‘qituvchilar, metodik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, STEM va STEAM ta’limi, virtual laboratoriya, muammoli va loyihaviy ta’lim, kasbiy mahorat.
Ключевые слова: учитель физики, будущие учителя, методическая компетенция, инновационные технологии, STEM и STEAM-образование, виртуальная лаборатория, проблемное и проектное обучение, профессиональное мастерство.
Key words: physics teacher, future teachers, methodical competence, innovative technologies, STEM and STEAM education, virtual laboratory, problem-based and project-based learning, professional skills.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Fizika ta’limida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash usullari, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish yo‘llari va bu boradagi dolzarb masalalar tahlil qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещаются роль и значение инновационных образовательных технологий в формировании и развитии методических компетенций будущих учителей физики в высших учебных заведениях. Анализируются методы применения современных педагогических и информационных технологий в обучении физике, пути повышения профессиональной подготовки студентов, а также актуальные вопросы в этой области.
SUMMARY:
This article highlights the role and significance of innovative educational technologies in shaping and developing the methodological competence of future physics teachers in higher education institutions. It analyzes the methods of applying modern pedagogical and information technologies in physics education, ways to enhance the professional training of students, as well as current issues in this field.

Zamonaviy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan

biridir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qator farmon va qarorlari soha rivojiga yangi sur’at bag‘ishladi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori mamlakatimizda fizika fanini rivojlantirish, darsliklarni zamon talablariga moslashtirish hamda soha uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda [1]. Shuningdek, Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni hamda 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va maktab ta’limi bilan uzviylikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligiga nisbatan yangicha talablarni belgilab berdi.

Bugungi kun maktab fizika o‘qituvchisining oldiga nafaqat quruq nazariy bilimlarni berish, balki o‘quvchilarda kreativ va mustaqil fikrlashni, muhandislik hamda loyihalash (STEM) ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirishni taqozo etadi va ushbu maqola mavzusining nechog‘lik dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik kompetensiyasi - bu shunchaki o‘z fanini (fizika qonunlari va formulalarni) bilish emas, balki ushbu ilmiy bilimlarni o‘quvchilarga eng sodda, qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazib bera olish mahoratidir. Bu kompetensiya nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va psixologik tayyorgarlikning uyg‘unligidan iborat.

Quyida bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik kompetensiyasi tarkibiy qismlari, unga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va uning tuzilmasi batafsil yoritilgan.

1. Metodik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogika fanida o‘qituvchining metodik kompetensiyasi to‘rtta asosiy blokka bo‘linadi:

- loyihalash qismga: Dars maqsadini to‘g‘ri qo‘yish, o‘quv dasturi (sillabus) va dars ishlanmalarini zamon talablari asosida interfaol texnologiyalardan foydalanib mustaqil tuza olish;

- tashkiliy qismi: Sinfda sog‘lom muhit yaratish, jamoaviy, guruhli va yakka tartibdagi ish shakllarini muvofiqlashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash;

- kommunikativ qismi: Eng murakkab fizika jarayonlarni ham oddiy tilda va ta’sirli tarzda tushuntira olish, o‘quvchilar bilan qayta aloqani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

- refleksiv qismi: O‘tilgan darsning yutuq va kamchiliklarini xolis baholash, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish va shu asosda o‘z ustida ishlash [2. B. 58-62].

2. Fizika o‘qituvchisi metodik kompetensiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. Fizika - tajriba va kuzatishlarga asoslangan fan bo‘lgani uchun, ushbu yo‘nalishdagi o‘qituvchining metodik kompetensiyasi o‘ziga xos mezonlarga ega:

- demonstratsion mahorat: Fizikaviy hodisalarni maktab laboratoriya jihozlarida ko‘rgazmali ko‘rsatib bera olish;

- muammoli vaziyatlar yaratish ko‘nikmasi: Darsni quruq ma’ruza emas, balki hayotiy savollar bilan boshlash (masalan: “Nima uchun muz suv yuzida suzib yuradi?” yoki “Qanday qilib og‘ir temir kemalar dengizda cho‘kmaydi?”);

- masala yechish metodikasi: O‘quvchilarga fizik masalalarni yechishning turli usullarini (analitik, grafik, sifatga oid va eksperimental) tizimli o‘rgata olish;

- xavfsizlikni ta’minlash kompetensiyasi: Laboratoriya mashg‘ulotlarida elektr toki, issiqlik qurilmalari va optik asboblar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat’iy amal qilishni tashkil etish.

3. Innovatsion ta’lim muhitida metodik kompetensiyaga yangi talablar. Bugungi kun o‘qituvchisi an’anaviy "doska va bo‘r" ta’limidan voz kechishi shart. Zamonaviy metodik kompetensiya o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- raqamli kompetensiya: PhET, Crocodile Physics kabi virtual laboratoriya dasturlaridan samarali foydalanish, darsda interaktiv doska va taqdimotlarni to‘g‘ri qo‘llash;

- STEM-yondashuv mahorati: Fizikani matematika, muhandislik, robototexnika va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘lab o‘qitish;

- kriterial baholash ko‘nikmasi: O‘quvchilarning bilimini faqat “3, 4, 5” baho bilan emas, balki aniq mezonlar (kriteriylar) asosida, ularning iqtidorini rag‘batlantiruvchi shaklda baholash.

4. Oliy ta’lim muassasalarida bu kompetensiya qanday shakllantiriladi? Bo‘lajak o‘qituvchilarda oliy ta’lim jarayonida metodik kompetensiya quyidagi bosqichlarda rivojlantiriladi:

- nazariy tayyorgarlik: “Fizika o‘qitish metodikasi”, “Fizikadan masalalar yechish metodikasi”, “Pedagogika”, “Fizika va astronomiyani kasbga yo‘naltirib o‘qitish” va “Psixologiya” fanlarini chuqur o‘rganish;

- rolli o‘yinlar: Talabaning o‘z guruhdoshlari oldida “o‘qituvchi” rolini ijro etib, qisqa 15-20 daqiqalik darslar o‘tib berishi va metodik xatolarini muhokama qilishi;

- maktabda pedagogik amaliyot: To‘rt yillik ta’lim davomida “4+2” dasturi asosida maktablarda bevosita o‘quvchilar bilan ishlash, ochiq darslar tashkil etish orqali tajriba orttirish [3. B. 59-61].

Xulosa qilib aytganda, metodik kompetensiya - bu bo‘lajak fizika o‘qituvchisiga darsni “majburiyat” emas, balki o‘quvchilar intiqlik bilan kutadigan “kashfiyotlar jarayoni”ga aylantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida oliy ta’limda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori natija beradi:

1. Axborot-kommunikatsiya va virtual texnologiyalar (PhET, virtual laboratoriyalar). Fizika - tajriba fanlaridan biri. Biroq, barcha maktab yoki oliygohlarda ham qimmatbaho yoki murakkab qurilmalar mavjud bo‘lmasligi mumkin. Talabalarga atom fizikasi, kvant mexanikasi yoki astronomiya kabi ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan jarayonlarni vizual tarzda kuzatish va tajriba o‘tkazish imkonini beradi.

2. STEM va STEAM ta’lim yondashuvi. Bo‘lajak o‘qituvchilar fizikani matematika, muhandislik va texnologiya bilan uzviy bog‘liqlikda o‘qitishni o‘rganishlari kerak. Robototexnika elementlarini darsga olib kirish, oddiy qurilmalarni loyihalash va konstruktorlik topshiriqlari talabalarning metodik jihatdan yangicha fikrlashiga yordam beradi.

STEM va STEAM - bu fanlarni bir-biridan ajratgan holda emas, balki ularni integratsiyalashgan holda va amaliy muammolarni hal qilish orqali o‘rgatishga asoslangan zamonaviy ta’lim yondashuvlaridir. Bu yondashuvlar bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik kompetensiyasini baholashda eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bu atamalar ingliz tilidagi quyidagi so‘zlarning bosh harflaridan olingan: S – Science (Tabiiy fanlar: fizika, kimyo, biologiya, astronomiya); T – Technology (Texnologiya: raqamli dasturlar, gadjetlar, texnologiyalar bilan ishlash); E – Engineering (Muhandislik: loyihalash, konstruksiyalash, modellar yaratish); A – Arts (San’at va ijodkorlik: dizayn, estetika, kreativlik, tillar va gumanitar fanlar); M – Mathematics (Matematika: hisob-kitoblar, geometrik o‘lchovlar, algoritmlar)

STEM ta’limida asosiy urg‘u texnik va aniq fanlarga qaratilsa, STEAM tizimiga “A” (Arts – San’at) elementining qo‘shilishi talaba yoki o‘quvchilardan nafaqat texnik yechim, balki ijodiy yondashuv, dizayn, qulaylik va mahsulotning estetik ko‘rinishini ham hisobga olishni talab qiladi.

STEM/STEAM ta’lim yondashuvining an’anaviy ta’limdan farqi

Mezonlari	An’anaviy ta’lim	STEM / STEAM ta’lim
Fanlar tuzilmasi	Fanlar alohida (izolyatsiyada) o‘tiladi.	Fanlar o‘zaro integratsiya qilinadi.
O‘qituvchining roli	Ma’ruzachi, tayyor bilim beruvchi.	Fasilitator, yo‘naltiruvchi, mentor.
O‘quvchining roli	Tinglovchi, yodlovchi.	Tadqiqotchi, loyihachi, kashfiyotchi.

Maqsad	Formula va qoidalarni yodlash.	Muammoni hayotda qo‘llab yechish.
Baholash	Test va yozma ishlar orqali.	Tayyorlangan loyiha va mahsulot orqali.

3. Muammoli va loyihaviy ta’lim. Talabalarga tayyor yechimlarni berish o‘rniga, ularning oldiga muammoli vaziyat qo‘yiladi. Bunday topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga va jamoada ishlashga o‘rgatadi.

Muammoli ta’lim va loyihaviy ta’lim - bu talaba yoki o‘quvchini darsning markaziga qo‘yadigan, ularni tayyor axborotni yodlashga emas, balki mustaqil fikrlash va amaliy yechimlar topishga o‘rgatadigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridir. Ushbu ikki yondashuv bir-biriga juda yaqin, ammo ularning darsni tashkil qilishda o‘ziga xos farqlari va maqsadlari mavjud. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik kompetensiyasini oshirishda ushbu texnologiyalar juda muhim o‘rin tutadi [4. B. 62-66].

Talabalarda metodik kompetensiyani tizimli rivojlantirish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Nazariy-metodik bosqich: Fizika o‘qitishning zamonaviy usullari va texnologiyalari haqida nazariy bilimlar beriladi.

2. Amaliy-modellashtirish bosqich: Talabalar oliygoh auditoriyasida “o‘qituvchi” rolini ijro etib, o‘z guruhdoshlariga innovatsion texnologiyalar asosida dars o‘tib berishadi (mikroo‘qitish).

3. Refleksiv-amaliy bosqich: Maktablardagi pedagogik amaliyot davomida olingan bilimlar sinaladi, xato va kamchiliklar tahlil qilinib, mahorat shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu texnologiyalar talabalarni faqatgina tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki dars jarayonining faol tashkilotchisi, ijodkori va kreativ fikrlovchi pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tizimida innovatsion muhitni yaratish - kelajakda maktab ta’limiga yuqori salohiyatli fiziklar jamoasini kirib kelishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori.

2. Карлыбаева Г.Е. Развитие методической компетентности будущих учителей физики // Qoraqalpoq davlat universiteti xabarshisi. – Nukus, 2020. –№4(49). – B. 58–62.

3. Karlibaeva G.E. Bo’lajak fizika o’qituvchisining metodik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish // Ilim hám jámiyet. – Nukus, 2020. – №1. – B. 59–61.

4. Karlibaeva G.E. Bo’lajak fizika o’qituvchisining metodik tayyorgarligini interfaol texnologiyalar asosida shakllantirish // Muǵallim hám úzliksiz bilimlendiriw. –Nukus. 2020. -№6. –B. 62-66

SPECIFIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CHEMICAL SCIENCE

Bekmanova G.B.
Senior Lecturer of the Department of "Medical Chemistry"
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Karakalpak Medical Institute

Tayanch so`zlar: zamonaviy ta'lim standartlari, kimyo ta'limida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, virtual kimyo laboratoriyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish.
Ключевые слова: применение современных образовательных стандартов, передовых информационно-коммуникационных технологий в химическом образовании, повышение качества образования и укрепление профессиональной подготовки студентов, интеграцию виртуальных химических лабораторий в учебный процесс.
Key words: modern educational standards, the application of advanced information and communication technologies in chemical education, improving the quality of education and strengthening the professional training of students, and integrating virtual chemical laboratories into the educational process.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim standartlari, talabalikka qabul qilishning shaffof tizimi joriy etilishi, an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda, virtual kimyo laboratoriyalarini va o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, tajribaviy faoliyatni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются современные образовательные стандарты, внедрение прозрачной системы приема студентов, возможности создания виртуальных химических лабораторий наряду с традиционными лабораторными занятиями и формирования у учащихся не только теоретических знаний, но и экспериментальной деятельности.
SUMMARY:
This article examines modern educational standards, the introduction of a transparent student admission system, and the possibilities of establishing virtual chemistry laboratories alongside traditional laboratory classes, as well as strengthening students' theoretical knowledge and forming experimental activities.

Higher educational institutions are conducting personnel training in the field of "Methods of Teaching Chemistry." In the field of chemistry teaching

methodology, as in all fields of education, it is necessary to improve subject programs in accordance with modern requirements. For example: Chemistry subject program (BD 5110300-3.09) The standard subject program developed by the basic higher educational institution outlines the relevance and role of the academic subject in higher professional education, the objectives of the academic subject, qualifications, the ability to conduct experiments, the ability to use it, and requirements for necessary skills. The science of chemistry covers the processes and methods of producing chemical products using chemical reactions in industry. In the subject program, the laboratory sessions "Thermal and Catalytic Cracking of Petroleum Products" and "Rectification of Binary Liquid Mixtures" are recommended in Module 7 "Oil and Refining." It is known that thermal and catalytic cracking of petroleum products requires special conditions. Specifically, thermal cracking is the conversion of hydrocarbons into saturated and unsaturated hydrocarbons of low molecular weight as a result of heating at high temperatures of 450–540°C and R2 = 2–7 MPa. As a result of thermal cracking, the amount of gasoline extracted from oil increases, and raw materials for the chemical industry-unsaturated hydrocarbons-are obtained [1].

Catalytic cracking, in which the gazoyl fraction obtained from the primary refining of oil is processed in the presence of a catalyst at 450°C. ° Conditions of the process: • Reactor; Degree of catalyst conversion to feed: 10:1 (for a lifting reactor unit); temperature: 510–540°C, pressure: 0.5–2 atm. • Regenerator; Temperature 650-730°C, pressure 1-3 atm. Currently, microspherical catalysts containing zeolite (particle size 35–110 μm) are used as catalysts. Surface area 300-400 m2/g [2].

As seen from the information provided above, performing the laboratory work "Thermal and Catalytic Cracking of Petroleum Products" and achieving practical results requires special conditions, equipment, and reagents. It is advisable to demonstrate the laboratory experiment "Thermal and Catalytic Cracking of Petroleum Products" in this module to students in the form of a video clip, and to conduct the "Determination of Sparkling and Combustion Temperatures of Petroleum Products" instead of the laboratory experiment [7-8]. The main goal of this is to contribute to the implementation of the educational process in the higher education system using the most advanced methods and means in terms of content and quality. In modern education, by introducing virtual chemistry laboratories alongside traditional laboratory sessions, students have the opportunity not only to reinforce their theoretical knowledge but also to develop experimental activities. Virtual laboratories serve to convey the content of science in an interactive, comprehensive and practical way through the use of advanced information and communication technologies in chemistry education.

The virtual chemistry laboratory allows students to perform various chemical experiments in a safe and environmentally friendly environment, analyze their results, and test their theoretical knowledge through experiments. This shapes students not only as passive learners but also as active seekers and researchers. Also, in cases such as lack of materials or time, virtual laboratories can serve as an alternative solution to traditional classes.

Thus, integrating virtual chemistry laboratories into the educational process to improve the quality of education and strengthen students' professional training is a relevant scientific and practical direction that ensures the teaching of chemistry based on modern methods. This approach undoubtedly serves to develop the student's scientific potential through the application of modern pedagogical technologies. At all levels of chemical education, experimental work in laboratories has always occupied a high place. It seeks to examine the main directions of evidence available today and emphasizes the need to revise the experimental workplace at higher education levels. There is a need to clarify the goals and objectives, and they must be communicated to the students.

He argues that higher education should be aware of what is going on at school and build on these skills. Pre-laboratory exercises are supported by evidence, but at the same time, the use of laboratory manuals must be fundamentally revised, and assessment must be studied anew. Furthermore, seeing the laboratory experiment in the context of what is happening before and after, as well as other learning, increases the learning potential of this time. Here are some examples of ways to get ahead. In general, it is argued that students can get more if the laboratory experiment is radically redesigned using similar experiments. Laboratory work is a mandatory part of chemistry courses in higher education institutions. The real reasons for its development are the need to produce qualified technicians for industry and highly qualified workers for research laboratories.

Laboratory work in higher education cannot be considered separately. For most students, this rapidly changing school stems from laboratory experience and must be linked to the materials taught in lectures and textbooks. However, there is a greater need to view "practical" laboratory time as part of a broader learning process. At the same time, it is necessary to prepare students for laboratory sessions and develop their subsequent activities. Together, these can enrich and improve the entire laboratory experience and contribute more effectively to students' overall learning in chemistry.

In the context of laboratory work, it is important to reflect on the goals and objectives. Here, laboratory work is used to describe the practical activities that students perform using chemicals and equipment in a chemistry lab. Of course, the word "practical" can also include other activities, and it is interesting to note

that this word is used in many titles on paper. However, this article discusses experimental work conducted by students in the laboratory, although other practical exercises have their place and may be important.

Many years ago, in the context of schools, Rose and Seyse (1974) raised an interesting question: can many important goals be achieved even if practical work is canceled? They suggested that this depended in part on our view of science. Science can be viewed in relation to a person's established knowledge, problem-solving activity, or the relationship between theory and experience. The same question can be asked for higher education chemistry: if laboratory work is lost in higher education courses, what is lost? Students can still take exams based on lecture courses with little or no change. However, students would not have any knowledge of chemistry, chemicals, instrumentation, or the method of conducting or reporting an experiment. In a sense, through these laboratory courses, it is possible to achieve important goals that can be achieved in a unique way. Hawkes (2004).

The importance of virtual chemistry laboratories in the education system is increasing day by day. Their implementation is extremely relevant for modern higher education institutions. The reason is that virtual laboratories introduce innovative approaches to the educational process, which not only increases students' interest in the subject but also significantly improves academic performance. Virtual laboratories should be viewed as an important tool for teaching chemistry based on modern technologies, developing practical skills, and ensuring a safe learning environment. This method is of strategic importance, especially for higher education systems with a modern professional and scientific orientation. [4]

A virtual laboratory can replace or supplement actual laboratory work in chemistry laboratory sessions, which is a necessary part of the chemistry curriculum. However, the theoretical and methodological foundations for their implementation are currently being formed. There is still no clear definition of the concept of a "virtual chemical laboratory." A virtual laboratory is software that allows for the simulation of laboratory experiments. Here, we can distinguish between a computer program, a software package, and computer data collection. Another name - virtual laboratory - is considered as part of the information or virtual educational environment, which includes educational, educational-methodological, educational-practical, educational-control and control-testing materials.

In the educational process, it is possible to increase the level of students' knowledge by expanding the scope of experiments using virtual laboratory work. The relevance of the research topic is also related to the fact that many

educational institutions are equipped with computer classes, as well as the possibility of connecting to the Internet. This, in turn, facilitates the integration of virtual laboratories into the educational process. [6]

Overall, the research is aimed at improving the level of qualifications and the quality of students' knowledge through the use of a virtual laboratory in teaching, and three main tasks have been identified. The first task is to identify and analyze the problem of using air channels in practical chemistry lessons. The second task is to determine the conditions for the most efficient use of overhead lines, and finally, the third task is to develop a methodology and verify its effectiveness.

The "Chemistry Virtual Laboratory," designed for schoolchildren and applicants, is being widely used; Interactive practical exercises and experiments in chemistry are also well known. Among the advanced resources of the educational market at the higher education level are virtual chemical laboratories, university-owned (and, as a rule, closed) developments, and a number of resources in foreign languages. Descriptions of existing virtual chemistry laboratories have been provided several times, and their list will certainly be expanded. Virtual laboratories are firmly taking their place in the practice of teaching chemistry and chemical disciplines, while the theoretical and methodological foundations for their use and the creation of virtual laboratory work based on them are only just beginning to take shape. Even the term "virtual laboratory work in chemistry" has not yet received a well-founded definition that clearly expresses its connection with other concepts, including the concept of a virtual laboratory in chemistry teaching and a virtual chemical experiment. [2]

In chemistry education, the term "chemical experiment" is considered an important methodological basis and serves as the starting point for harmonizing the theoretical and practical aspects of teaching. A chemical experiment is one of the primary means of influencing students in chemistry; it serves to instill not only chemical objects and phenomena but also the science's research methods, analytical approaches, observation culture, and decision-making mechanisms based on experience.

During this process, students observe demonstration experiments, perform independent laboratory work, develop skills in working with equipment and reagents, and have the opportunity to practice skills such as scientific thinking, observation, analysis, and generalization. The forms of chemical experiments are diverse and include the following: demonstration experiments conducted by the teacher, individual or group experiments performed by students, a complex set of laboratory work, independent practical sessions, home-based experiments, and research experiments based on research and innovative approaches.

Modern technological approaches have created new opportunities in education. In particular, the concept of a "virtual chemical experiment" plays a major role in the teaching of chemistry. A virtual experiment is a form of educational activity based on modeling real laboratory conditions through information and communication technologies, providing students with the opportunity to study chemical phenomena in a safe, economical, yet effective environment. Virtual experiments are carried out without physical means, that is, not in a physical environment, but using a computer interface. Therefore, they are also called simulation experiments.

Such experiments serve to integrate theoretical knowledge into practical activities, covering all stages of a real chemical experiment. Through experiments conducted in a virtual environment, students have the opportunity to make independent decisions, analyze reaction results, observe various conditions, and draw conclusions in safe and balanced conditions. This indicates the arrival of a new stage in the study of chemistry—the era of digital experiments.

Thus, a chemical experiment is an educational tool that serves as a bridge between theory and practice, developing students' independent scientific activity and enriched with modern technologies [9].

A virtual chemical experiment is a type of educational experiment in chemistry; its main difference from a full-scale experiment is that the means of demonstrating or modeling chemical processes and phenomena is computer technology, during the implementation of which the student works with images of substances and components of equipment that reflect the appearance and functions of real objects; that is, he uses a virtual laboratory. In chemistry teaching, we understand a virtual laboratory as a computer simulation of an educational chemical laboratory that performs its primary function—conducting a chemical experiment for educational purposes. From a technical standpoint, the functioning of a virtual laboratory is ensured by computer hardware and software, a system of didactically substantiated assumptions regarding the course of the chemical process under study or the manifestation of the properties of the chemical object.

A virtual laboratory is an element of a high-tech information-educational environment and serves as a means of creating and conducting a virtual experiment. A virtual laboratory is an element of a high-tech information-educational environment and serves as a means of creating and conducting a virtual experiment. A virtual laboratory work in chemistry is a virtual chemical experiment in the form of a set of experiments combined with a common goal of studying a chemical object or process. The focus stage involves the process of selecting the objectives of the planned laboratory work, establishing the limits of permissible deviations to achieve the educational result using the most effective

and optimal means, taking into account material, technical, time, and human resources as individual and age characteristics of the students. [10]

In laboratory work conducted in chemistry at higher education institutions, students primarily acquire practical skills and abilities in preparing solutions of various concentrations, performing qualitative and quantitative analysis of biological objects, and drawing logical conclusions from the results of the analysis. During laboratory sessions, students conduct experiments on titrimetric analysis, the neutralization method, acid-base equilibrium, buffer systems, chemical thermodynamics, determining the thermal effect of chemical reactions, internal complex compounds, chelates, complexonometry, amino acids, structure, properties, biological functions, peptides and proteins, spatial conformations of proteins, functions of peptides and proteins, physicochemical properties of proteins, structure, classification, and mechanism of action of enzymes.

LITERATURE:

1. Bekmanova G.B. Oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsiya texnologiyalar asosida takomillashtirish (kimyo fani misolida): dissert. dissert. p.f.f.d. (PhD)-13.00.02— Nukus,, 2025. — 77 v.

2. Ахметов Н.С. Неорганическая химия: Учеб. пособие для студ. хим.-технолог. вузов М.: Высшая школа, 1969. 640 с.

3. Ахметов Н.С. Актуальные вопросы курса неорганической химии: Кн. для учителей. М.: Просвещение, 1991. 223с.

4. Alimxodjayeva N.T., Suleymanova G.G., Ikramova Z.A., Tadjiyeva X.S. Tibbiy kimyo, Darslik. 1-2 qism. Toshkent. 2024 y.

Adabiyotlar tahlili. Kreativ ta’lim muhiti muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Guilford kreativlikni divergent fikrlash orqali izohlab, insonning bir muammoni turli yo‘llar bilan hal qilish qobiliyatini asoslab bergan. Amabile o‘z tadqiqotlarida kreativlikning rivojlanishida ijtimoiy muhit va motivatsiyaning o‘rni muhim ekanligini ta’kidlaydi. Runco esa kreativlikni rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlarining ahamiyatini asoslab bergan. Vygotskiy esa o‘quvchilarning

tafakkur rivojida ijtimoiy muhit va o‘qituvchi bilan hamkorlik muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslab bergan.

Boshlang‘ich sinflarda kreativ ta’lim muhitini yaratish masalasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu muhit o‘quvchilarni faol kognitiv faoliyatga jalb qilish orqali ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini rag‘batlantiradi. Ta’lim ma’lumotlarini noan'anaviy shakllarda taqdim etish, turli xil faoliyat shakllaridan (o‘yin, ijodiy, kommunikativ va boshqalar) foydalanish, ijodiy elementlardan foydalanish o‘quvchilarda o‘rganishga doimiy qiziqishni shakllantiradi. Shu asosda ta’lim jarayonining sub'ektlari passiv tinglovchilardan faol ishtirokchilarga aylanadi. Bu ularning ta’lim sifati va ta’lim natijalarini oshirishning kafolati bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinfda kreativ ta’lim muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Sinfda jamoaviy faoliyat, o‘z g‘oyalarini juftlik va guruhlarda muhokama qilish va himoya qilish o‘quvchilar o‘rtasida samarali o‘zaro ta’sir va muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashning mohiyati. Kreativ fikrlash — bu shaxsning yangi, original g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish va samarali yechimlar topish qobiliyatidir. U quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni turli usullar bilan hal qilish, moslashuvchan fikrlash, yangilikka intilish va mustaqil qaror qabul qilish. Kreativ fikrlashning muhim jihatlaridan biri divergent fikrlash bo‘lib, u o‘quvchilarning bir muammoni bir nechta yo‘l bilan hal qilish qobiliyatini ifodalaydi.

O‘quvchi rivojlanishi uchun eng samarali ta’lim muhiti ta’limning maqsadlari, vazifalari va o‘qitish texnologiyasi, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka asoslangan bo‘lishi kerak. Ta’lim muhitini shu nuqtai nazardan talqin qilish ta’limning mazmuni va mavzusini yangicha nuqtai nazardan ochib beradi:

- bir tomondan, o‘qituvchi fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni hamkorlik shaklida berishda rivojlanish funksiyasini bajaradi;

- boshqa tomondan, ta’lim o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamjamiyat asosida rivojlanadi va bu hamjamiyatlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab turli muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bu metodda o‘quvchilarga tayyor bilim berilmaydi,

balki muammoli vaziyat yaratiladi va ular mustaqil ravishda yechim izlaydilar. Interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

“ Aqliy hujum ” metodi – biror muammo bo’yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to’plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan usuldir. “Aqliy hujum” usulining yozma va og’zaki shakllari mavjud. Og’zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidanberilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o’z fikrini og’zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o’z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o’z javoblarini qog’oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko’rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” usulining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo’yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to’g’ri va ijobiy qo’llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o’rgatadi

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga hizmat qiladi.

Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin.

Rolli o‘yinlar metodidan foydalanish o‘quvchilarning obrazga kirishi, voqealarni his etishi, qahramon xarakterini ochib berishi orqali matn mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa interaktiv metodlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Shu sababli o‘qish darslarida rolli o‘yinlar metodidan foydalanish masalasi ilmiy-metodik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Ijodiy topshiriqlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, hikoya tuzish, matnni davom ettirish, rasm asosida fikr bildirish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning

tasavvurini kengaytiradi. Guruhli ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, kreativ ta’lim muhitini yaratish o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon beradi va ularning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi o‘quvchilarning muhim hayotiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘nikma bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Avvalo, o‘quvchi muammoni aniqlaydi, so‘ng uni tahlil qiladi, turli yechim variantlarini ishlab chiqadi, eng maqbulini tanlaydi va natijani baholaydi. Ushbu jarayon o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Kreativ fikrlashni baholash usullari. O‘quvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlashda ularning g‘oyalarining yangiligi, yechimlarning samaradorligi, fikrlashning moslashuvchanligi va mustaqilligi kabi mezonlar hisobga olinadi. Baholashda ijodiy topshiriqlar, kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada ortadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflarda kreativ fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishlari, o‘quvchilar uchun erkin va qulay ta’lim muhitini yaratishlari zarur. Natijada mustaqil fikrlovchi, ijodkor va raqobatbardosh shaxslar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guilford J. P. Creativity. American Psychologist, 1950.

2. Абдуллаева У. Т. (2021). Туысқан халықтар әдебиетін оқыту. Современный образовательный потенциал и достижения, 1(3), 9-11.

3. Абдуллаева У. Т. (2021). Мектеп оқушыларына еліктеу сөздер туралы түсінік тақырыбын өтуде резюме технологиясын қолдану. Кластер педагогического образования проблемы и решения, 1(2), 1181-1183.

4. Kuralov Y. A. (2021). Elektron ta’lim texnologiyasi. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 787–790.

5. Alimov S. (2021). Innovatsion pedagogika va sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi roli. – Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

6. Johnson L., Adams Becker S., Estrada V., & Freeman A. (2016). The NMC Horizon Report: 2016 K–12 Edition. – Austin, TX: The New Media Consortium

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xushnazarov F.R.
Qo‘qon davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy madaniyat, jismoniy yuklama, jismoniy sifatlar, mashg‘ulot samaradorligi, individual xususiyatlar, rejalashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.
Ключевые слова: физическая культура, физическая нагрузка, физические качества, эффективность занятий, индивидуальные особенности, планирование, учащиеся начальных классов.
Key words: physical culture, physical load, physical qualities, training efficiency, individual characteristics, planning, primary school pupils.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini rivojlantirish metodikasining elementlari va usullari yoritilgan hamda jismoniy tarbiya darslarida turli yoshdagi o‘quvchilar uchun jismoniy yuklamalarni taqsimlash, salomatlikni saqlash va jismoniy tayyorgarlikni samarali rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье раскрыты элементы и методы развития физической культуры учащихся начальных классов, а также даны рекомендации по распределению физических нагрузок для учащихся разного возраста на уроках физической культуры, сохранению здоровья и эффективному развитию физической подготовленности.
SUMMARY:
The article describes the elements and methods of developing the physical culture of primary school pupils and provides recommendations on distributing physical loads for pupils of different ages in physical education classes, maintaining their health and effectively developing physical fitness.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini rivojlantirish metodikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bolalarning yosh davri, jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasini hisobga oladi. Jismoniy madaniyatni rivojlantirish metodikasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Yuklamalarni cheklash. Ular faol dam olish bilan almashinib turishi kerak. Buning uchun ko‘pincha harakatli o‘yinlar, o‘yin usullarini imitatsiya qiluvchi mashqlar, soddalashtirilgan qoidalar va kam sonli o‘yinchilar bilan o‘quv o‘yinlari, alohida o‘yin usullarini bajarish bo‘yicha musobaqalardan foydalaniladi.

2. Maxsus mashqlardan foydalanish. Ular bolalarni turli xil harakat ko‘nikmalariga o‘rgatishga va jismoniy sifatlarni (tezlik, kuch, chidamlilik) maqsadli rivojlantirishga yordam beradi.

3. Yurish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish. Masalan, oddiy yurish, oyoq uchida, tovonda, yarim o‘tirib, qo‘llarni turli xil holatda ushlab, o‘qituvchining hisobi ostida, qisqa, o‘rta va uzun qadamlar bilan yurish.

4. Yugurish ko‘nikmalarini takomillashtirish va chidamlilikni rivojlantirish. Masalan, bir me’yorda, sekin yugurish 5–8 daqiqagacha, tekis bo‘lmagan joylarda 1 km gacha kross.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tartibga solingan harakat faoliyatining vaqt hajmi jismoniy tarbiya darslarini (haftasiga ikki marta 45 daqiqadan), jismoniy tarbiya daqiqalarini (1–3 daqiqa), harakatli tanaffuslarni (20–30 daqiqa), uzaytirilgan kun guruhidagi sport soatini (50–60 daqiqa) va jismoniy tarbiya bo‘yicha uy vazifalarini bajarishni (15–25 daqiqa) o‘z ichiga oladi. Ushbu hajm maktabdan tashqari sport-ommaviy ishlarni (to‘garaklar, sport seksiyalari, musobaqalar va h.k.) o‘tkazish orqali ko‘paytirilishi mumkin.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash sog‘liqni saqlash va mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini tushunish jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri rejalashtirish va tartibga solish imkonini beradi. Bu esa ularning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi hamda ortiqcha zo‘riqish va jarohatlar xavfining oldini oladi.

6–10 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ularning jismoniy rivojlanishi va chidamliligi hali shakllanayotganini hisobga olish kerak. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarida asosiy harakat ko‘nikmalari, muvofiqlashtirish va kuchni rivojlantirishga yordam beradigan o‘rtacha yuklamalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Turli faoliyat turlarini, masalan, o‘yinlar, gimnastika mashqlari va yugurish yuklamalarini almashtirish muhim jihatdir. Bu mashg‘ulotlarga qiziqishni saqlab qolishga va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, ortiqcha zo‘riqishning oldini olish uchun dam olish va tiklanish vaqtiga e’tibor berish kerak.

11-14 yoshli o‘rta sinf o‘quvchilari uchun yuklamalar nisbatan jadalroq bo‘lishi mumkin, ammo ular har bir o‘quvchining jismoniy holati va tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Ushbu bosqichda kuch, chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli mashg‘ulotlar elementlarini joriy qilish muhimdir. Katta kuch va yuqori muvofiqlashtirishni talab qiladigan murakkabroq mashqlar va sport o‘yinlaridan foydalanish mumkin. Biroq jismoniy holatdagi individual farqlarni hisobga olish muhim, shuning uchun jismoniy imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilar uchun muqobil mashq variantlarini taqdim etish zarur.

15-17 yoshli yuqori sinf o‘quvchilari uchun jismoniy yuklamalar aniq sport natijalariga erishishga qaratilgan ixtisoslashgan mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuni hisobga olish kerakki, ushbu yoshda o‘quvchilar turli darajadagi tayyorgarlik va jismoniy holatga ega bo‘lishi mumkin, shuning uchun individual yondashuv talab qilinadi. Jismoniy tarbiya darslarida kuch mashqlari, interval mashqlari va sport ixtisoslashuvlarini o‘z ichiga olgan murakkabroq mashg‘ulot dasturlaridan foydalanish mumkin. Mashqlarni bajarish texnikasiga va jarohatlarning oldini olishga alohida e’tibor berish, shuningdek, jadal yuklamalardan keyin tiklanish uchun yetarli vaqt ajratish kerak.

Jismoniy yuklamalarni moslashtirishda o‘quvchilarning surunkali kasalliklar yoki jismoniy cheklovlar kabi individual xususiyatlari ham hisobga olinadi. Bunday hollarda o‘qituvchi har bir o‘quvchining sog‘lig‘i holatiga mos keladigan va ehtimoliy salbiy oqibatlardan saqlanishga yordam beradigan individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqadi.

O‘quvchilarning jismoniy holatini monitoring qilish va baholash muhim jihat bo‘lib, bu ularning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligidagi o‘zgarishlarga qarab mashg‘ulot dasturini to‘g‘rilashga imkon beradi. Muntazam ravishda test o‘tkazish va o‘quvchilar bilan qayta aloqa o‘rnatish yuklamalarni moslashtirish hamda ularning optimal taqsimlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, jismoniy tarbiya darslarida turli yoshdagi o‘quvchilar uchun jismoniy yuklamalarni taqsimlash sog‘liqni saqlash va jismoniy tayyorgarlikni samarali rivojlantirish uchun muhim vazifadir. Individual yondashuvni qo‘llash, yuklamani yosh va tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtirish, shuningdek, o‘quvchilarning holatini monitoring qilishga e’tibor qaratish o‘quv dasturlarining muvaffaqiyatli bajarilishiga hamda ortiqcha zo‘riqish va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi.

Asosan jismoniy sifatlarni takomillashtirishga qaratilgan usullar orasida ikki asosiy guruh ajratiladi: uzluksiz va interval usullar. Uzluksiz usullar mashg‘ulot

ishini bir marta uzluksiz bajarish bilan bog‘liq. Interval usullar esa mashqlarni belgilangan va belgilanmagan tanaffuslar bilan bajarishni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish bolalarni harakat faoliyatiga o‘rgatish jarayonida, harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish bilan birlikda amalga oshadi. Ammo bu o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus topshiriqlarni alohida dars uchun ham, darslar tizimi uchun ham rejalashtirish zarurligini inkor etmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini har tomonlama o‘rganib, qaysi jismoniy sifatlarni rivojlantirish ustida ishlashini aniqlaydi, muayyan topshiriqlarni tanlaydi va har bir dars davomida bajarish uchun jismoniy mashqlarni tayyorlaydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar darslar davomida o‘quv vazifalari kabi tez o‘zgarmaydi. Ko‘pincha bir xil vazifa u yoki bu darslar tizimiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ularning dars rejasidagi ifodasi quyidagicha bo‘lishi mumkin: «Ma’lum jismoniy mashqlarni bajarish va harakatli o‘yinlarni o‘tkazish davomida tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlikni rivojlantirishga ko‘maklashish».

Dars konspektida harakat sifatlarini rivojlantirish uchun topshiriqlarni alohida mashqlar va komplekslar shaklida berish mumkin. Barqaror qiziqishni saqlab qolish maqsadida u yoki bu kompleksni bajarish uchun vaqti-vaqti bilan kompleksdagi ayrim mashqlarni boshqalari bilan almashtirish kerak. Shu munosabat bilan har bir dars konspektida mashqlarning dozasini belgilash, shuningdek, barcha muhim tashkiliy-metodik izohlarni yozib borish zarur. Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun u yoki bu kompleks yoki alohida mashqlarni dars konspektida ham, ushbu konspektga qo‘shilgan alohida kartochkalarda ham tavsiflash mumkin.

7-8 yoshli o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning asosiy vositalari va usullarini ko‘rib chiqamiz.

Kuch – «tashqi qarshilikni yengish yoki mushak harakatlari va kuchlanishlar yordamida tashqi kuchlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir». Birinchi holatda o‘quvchi harakatsiz jismga (masalan, sport anjomini irg‘itish yoki sakrash va gimnastika mashqlarida o‘z tanasiga) tezlanish beradi. Ikkinchi holatda esa u statikani buzadigan kuchlar ta’sir qilganda tanani yoki uning qismlarini boshlang‘ich holatda saqlab qolishga intiladi.

Kuchning o‘lchov birligi – kilogramm. Bunda mutlaq kuch (o‘z vaznini hisobga olmagan holda) va nisbiy kuch (mutlaq kuchning odam vazniga bo‘lingani) baholanadi.

Kuchni rivojlantirish vositalari – yuqori qarshilikka ega mashqlar. Mutaxassislar ularni ikki guruhga ajratadi.

Birinchi guruh – tashqi qarshilikka ega mashqlar. Qarshilik uchun jismlarning og‘irligidan (masalan, to‘ldirilgan to‘plar), sherikning qarshiligidan (masalan, tortishuv o‘yinlari), tashqi muhit qarshiligidan (masalan, qumda yoki qalin qorda yugurish), shuningdek, to‘p irg‘itish va itarishdan foydalanish mumkin.

Ikkinchi guruh – o‘z tana og‘irligini yengish mashqlari (masalan, tayanib yotish, osilish yoki arqonda tirmashib chiqish mashqlari).

Boshlang‘ich sinflarda kuchni tayyorlashning asosiy vazifasi orqa va qorinning katta mushak guruhlarini rivojlantirishdir, chunki ularga to‘g‘ri qaddi-qomat bog‘liq, shuningdek, kundalik hayotda yetarli darajada rivojlanmaydigan mushak guruhlarini (ya’ni oyoq-qo‘llarning uzoqlashtiruvchi mushaklari, tana mushaklari, sonning orqa qismi mushaklari) ham rivojlantirishdir.

7-9 yoshda kuchni rivojlantirishning asosiy vositalari:

• jismlar bilan umumrivojlantiruvchi mashqlar;

• qiya skameyka va gimnastika devorida tirmashib chiqish;

• sakrash.

10-11 yoshda kuchni rivojlantirishning asosiy vositalari:

• kichik og‘irliklar (to‘ldirilgan to‘plar, gimnastika tayoqlari) bilan umumrivojlantiruvchi mashqlar;

• vertikal arqonda uch usulda tirmashib chiqish;

• yengil jismlarni uzoqlikka irg‘itish.

Kuchni rivojlantirishning yetakchi usullari – seriyali mashqlar va interval mashqlar usullaridir.

Tezkorlik - bu harakat reaksiyasining vaqti, bir martalik harakat tezligi va harakat chastotasi bilan tavsiflanadigan sifat.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning tezkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash metodikasini V.S. Kuznetsov shartli ravishda ikki qismga bo‘ladi: harakat reaksiyasi tezkorligini tarbiyalash va harakat tezkorligini tarbiyalash.

Tezkorlikni rivojlantirishning asosiy vositalari:

• har tomonlama ta’sir qiluvchi mashqlar: harakatli va sport o‘yinlari, yakkakurashlar, turli estafetalar;

• tezkorlik qobiliyatlarining alohida komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar: alohida harakatlar tezligini (start tezligi, tezkor chidamlilik) va tezkorlik qobiliyatlari komponentlarini ishlab chiqish;

• tezkor-kuch mashqlari (masalan, irg‘itish, sakrash);

• silkinish, aylanish, urish, jismlarni irg‘itish va itarish, maksimal chastota bilan burilish mashqlari.

Tezkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha ishlar charchoq holatida bajarilganda, maksimal tezkorlik emas, balki tezkor chidamlilik shakllanadi.

Oʻquvchilarda harakatlar tezkorligini rivojlantirayotganda, tabiiy shakllar va harakatlarni bajarishning nostandart usullariga ustunlik berish kerak. Mashqlarni maksimal tezlikda bir xil takrorlash boshlangʻich sinf yoshidayoq tezlik toʻsigʻining paydo boʻlishiga olib kelishi mumkin. Boshlangʻich umumiy taʼlim bosqichida harakatli oʻyinlar va asosiy umumiy taʼlim bosqichida sport oʻyinlari tezkorlikni rivojlantirish boʻyicha standart mashqlarga nisbatan yaqqol ustunlikka ega.

Boshlangʻich sinflarda tezkor lokal harakatlarni talab qiladigan turli mashqlardan foydalanish oʻrinli. Bu uzun va kalta argʻimchoq bilan mashqlar (yugurib chiqish va yugurib kirish), turli xil yugurish estafetalari, toʻpni irgʻitish va ilib olish mashqlari boʻlishi mumkin.

Tadqiqotchilar tezkorlikni rivojlantirishning quyidagi usullarini ajratib koʻrsatishadi: takroriy, oʻyin, musobaqa, oʻzgaruvchan (faol oʻzgaruvchan tezlanishlar bilan).

Epchillikning asosiy koʻrsatkichlari – koordinatsion imkoniyatlar (statika, dinamika va muvozanatdagi holat; fazoda moʻljal olish; cheklangan fazoda harakatlarning aniqligi).

Koʻpchilik tadqiqotchilar epchillikni rivojlantirishning quyidagi asosiy vositalarini ajratib koʻrsatishadi:

- gimnastika mashqlari;
- turli shakl, ogʻirlik, hajmdagi jismlar bilan umumrivojlantiruvchi mashqlar;
- uzunlikka va balandlikka sakrash;
- juft boʻlib, kichik guruh bilan toʻplar, gimnastika tayoqlari, argʻimchoqlar bilan birgalikda mashqlar;
- harakatli oʻyinlar;
- noodatiy boshlangʻich holatlardan foydalanish, turli holatlarni tez oʻzgartirish (turish, oʻtirish, yotish).

Epchillikni rivojlantirish uchun har qanday mashqlardan foydalanish mumkin, ammo bir shart bilan: ularda yangilik elementlari boʻlishi kerak. Xususan, harakatlar tempi yoki tezligini oʻzgartirish, turli ritmik kombinatsiyalar va turli ketma-ketlikdagi elementlarni kiritish mumkin, bundan tashqari, turli kombinatsiyalarda bajariladigan, koordinatsion qiyinchilik elementlarini oʻz ichiga olgan har qanday jismoniy mashqlar samarali boʻladi.

Epchillikni rivojlantirish usullari quyidagilardir: musobaqa, oʻyin, takroriy mashqlar usuli.

Inson koordinatsiyasini rivojlantirishning yo‘llaridan biri – muvozanatni rivojlantirishdir.

Adabiyotlarda ushbu qobiliyatni rivojlantirishning ikkita usuli ajratib ko‘rsatilgan:

• muvozanatni saqlashni qiyinlashtiradigan harakatlardagi mashqlar (masalan, cheklangan tayanchda yurish);

• to‘g‘ri chiziqli va burchakli tezlanishlar bilan harakatlardagi mashqlar (masalan, turli yo‘nalishlarda aylanishlar).

Muvozanatni rivojlantirishning asosiy usullari: interval mashqlar usuli, takroriy mashqlar usuli.

Boshlang‘ich sinf yoshida koordinatsion qobiliyatlar rivojlanishining muhim psixofiziologik va morfologik asoslari mavjud. Aynan shu yoshda koordinatsiyani rivojlantirish eng katta samarani beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ancha murakkab jismoniy mashqlar texnikasini juda oson o‘zlashtiradi, shuning uchun texnik jihatdan murakkab sport turlarida erta sportga ixtisoslashuv kuzatiladi. Boshlang‘ich va asosiy umumiy ta’lim bosqichida tana muvozanatini saqlash qobiliyati oson rivojlanadi, harakatlarning aniqligi oshadi (fazoviy, vaqt va kuch parametrlarini farqlash va takrorlash). Jinsiy yetilish davri boshlanishi bilan ushbu sifatni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning sekinlashishi yoki biroz yomonlashishi kuzatiladi.

Chidamlilik – insonning jismoniy ishni uzoq vaqt davomida bajara olish qobiliyati bo‘lib, u ishni bajarish davomiyligi bilan belgilanadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, chidamlilikni rivojlantirish vositalari o‘rtacha kuchlanishni talab qiladigan, ammo yetarlicha uzoq vaqt davomida bajariladigan jismoniy mashqlardir. Ular yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining maksimal unumdorligini ta’minlashi kerak. Ularning asosiylari:

• siklik va atsiklik mashqlar (yurish, uzoq vaqt yugurish, turli tempda yurish va yugurishni almashtirish, safda o‘zgaruvchan tempda harakatlanish);

• yuqori motor zichligiga ega harakatli o‘yinlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chidamlilikni, ayniqsa, o‘rtacha ishga va tananing funksional imkoniyatlariga katta talablar qo‘ymaydigan o‘zgaruvchan intensivli ishga chidamlilikni rivojlantirish kerak.

Mutaxassislar tomonidan ajratib ko‘rsatilgan chidamlilikni rivojlantirishning asosiy usullari:

• takroriy mashqlar yoki kichik intervallar bilan faolroq mashqlar usuli;

• past intensivli uzluksiz mashqlar usuli.

Tadqiqotchilar chidamlilikni umumiy va maxsus turlarga bo‘lishadi.

Umumiy chidamlilik – bu uzoq vaqt davomida sezilarli kuchlanish bilan uzluksiz, faol harakat faoliyatiga bo‘lgan alohida qobiliyat (masalan, safda yurish).

Maxsus chidamlilik – ma’lum bir faoliyatdagi chidamlilik:

• tezkor chidamlilik tezlik va chidamlilikning kombinatsiyasini nazarda tutadi (qisqa masofaga yugurish);

• kuch chidamliligi kuch va chidamlilikning kombinatsiyasini nazarda tutadi, bu uzoq vaqt davomida mushaklarning maksimal kuchlanishi bilan murakkab koordinatsion harakatlarni bajarish qobiliyatidir (masalan, ko‘p marta tortilish yoki o‘tirib turish);

• tezkor-kuch chidamliligi uzoq vaqt davomida murakkab koordinatsion harakatlarni maksimal tezlik va maksimal mushak kuchlanishi bilan bajarish qobiliyatidir.

Egiluvchanlikni mutaxassislar maksimal harakat amplitudasi, shuningdek, tayanch-harakat apparati bo‘g‘imlarining harakatchanligi bilan bog‘lashadi. V.S. Kuznetsovning ta’kidlashicha, egiluvchanlikni rivojlantirishda cho‘zilish mashqlarini tanlashda optimal nisbatlarga rioya qilish, shuningdek, yuklamani to‘g‘ri taqsimlash kerak.

Tadqiqotchilar egiluvchanlikni rivojlantirishning quyidagi vositalarini ajratib ko‘rsatishadi:

• katta amplitudali mashqlarni bajarish, cho‘zilish mashqlari deb ataladigan mashqlar;

• jismlar bilan va jismlarsiz umumrivojlantiruvchi mashqlar;

• gimnastika devori oldida mashqlar;

• oyoqlarni ko‘krakka bukib, joyida sakrash va qadamlab sakrash;

• oldinga, orqaga, yon tomonlarga engashishlar;

• butun tana bilan chuqur o‘tirib turish;

• oyoqlarni oldinga-orqaga silkitish;

• “stretching” – statik mashqlar yordamida egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy usuli – bu takroriy usul. U cho‘zilish mashqlarini seriyalar bilan, har birida bir necha marta takrorlash va seriyalar orasida tiklanish uchun yetarli bo‘lgan faol dam olish intervallari bilan bajarishni nazarda tutadi. Ushbu usulning turli xil variantlari mavjud: takroriy dinamik mashq usuli va takroriy statik mashq usuli.

Egiluvchanlikni rivojlantirishda mutaxassislar umurtqa pog‘onasining (avvalambor, ko‘krak qismining), shuningdek, tos-son va yelka bo‘g‘imlarining harakatchanligini oshirishga alohida e’tibor berishni maslahat berishadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshida egiluvchanlikni rivojlantirish ustida ishlash katta yoshga qaraganda ikki baravar samaraliroqdir. Yosh o‘tishi bilan harakatlar amplitudasi kamayadi va bu sifatning rivojlanish darajasini oshirish ancha qiyinlashadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha harakat sifatlarining rivojlanish darajasi umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosini tashkil etadi va o‘yin usuli 7–8 yoshli o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida faol qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son “2019–2023-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

3. Usmonxo‘jayev T., Tursunov O‘. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

4. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.

5. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Farg‘ona, 2004.

6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2005.

7. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – Toshkent, 2001.

8. Koshbaxtiyev I.A. Valeologiya asoslari. – Toshkent, 2001.

9. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2002.

10. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. – Toshkent, 2004.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI JANRLARINI O‘RGANISHGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Eshchanova G.O.
Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang ‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi professori.
Sotimboyeva S.U.
Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, xalq og‘zaki ijodi, folklor pedagogikasi, interfaol ta’lim, hikoya qilish, madaniy meros, til o‘zlashtirish, zamonaviy o‘qitish metodikasi, hikoya qilish kompetensiyasi.
Ключевые слова: начальное образование, грамотность, устное народное творчество, фольклорная педагогика, интерактивное обучение, повествование, культурное наследие, освоение языка, современные методы обучения, компетенция повествования.
Key words: primary education, literacy, folk oral creativity, folklore pedagogy, interactive learning, storytelling, cultural heritage, language acquisition, modern teaching methodology, storytelling competence.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflar o‘qish savodxonligi darslariga xalq og‘zaki ijodi namunalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganilib, ularning o‘quvchilarda o‘qishni tushunish, madaniy ong va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya sharoitida xalq og‘zaki ijodi janrlari – ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar nafaqat lingvistik manba, balki yosh o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tarbiyalash vositasi sifatida ham xizmat qilishi ilmiy asoslangan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается изучение образцов устного народного творчества на уроках читательской грамотности в начальных классах на основе современных педагогических подходов, а также освещается их роль в развитии у учащихся понимания прочитанного, культурного сознания и коммуникативной компетенции. В условиях современного образовательного процесса жанры устного народного творчества - сказки, пословицы, загадки, легенды - научно обоснованы не только как лингвистический источник, но и как средство формирования у младших школьников духовно-нравственных ценностей и навыков критического мышления.
SUMMARY:
This article examines the study of samples of folk oral creativity in primary school reading literacy lessons based on modern pedagogical approaches and highlights their role in developing students' reading comprehension, cultural awareness, and communicative competence. In the context of modern education, genres of folk oral creativity-fairy tales, proverbs, riddles, and legends-are

scientifically substantiated not only as linguistic resources but also as tools for fostering moral and ethical values and critical thinking skills in young learners.

Jahon ta'lim tizimlarining jadal o'zgarishi sharoitida boshlang'ich ta'limda o ‘qish larsavodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirish maktabgacha ta'limning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tafakkur va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi [5,b.-320].

Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda savodxonlik darajasi nisbatan yuqori, lekin funktsional savodxonlikni, xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qishni tushunish, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetentsiyani oshirishda muammolar saqlanib qolmoqda[4, b.-144].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, savodxonlik endi dekodlash va yozish qobiliyatlari bilan cheklanmaydi, endi u madaniy ma'nolarni izohlash, matnlarni tanqidiy tahlil qilish va mazmunli muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.Savodxonlik tushunchasi o‘quvchining matnni anglash, tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [2, b.-256]. Zero,boshlang'ich ta'lim nafaqat o'quv yutuqlarini, balki kognitiv va ijtimoiy- madaniy rivojlanishni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ko'pincha mexanik o'qish va yodlashga asoslangan savodxonlikni o'rgatishning an'anaviy usullari XXI asr ta'limi talablarini qondirish uchun yetarli emas deb hisoblanadi.An’anaviy metodlar o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini to‘liq rivojlantira olmaydi [6,b.-192.].

Ko‘rinadiki, darslar interfaol yoki madaniy jihatdan boyitilgan mazmunsiz monoton darslik asosidagi ko'rsatmalar bilan cheklangan bo'lsa, o'quvchilarning o'qish faoliyatidagi faolligi deyarli 30-40% ga kamayadi.Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi va bilimni mustahkam egallashga yordam beradi[4,b.-144]. Bu muammoni hal etishning samarali usullaridan biri xalq og‘zaki ijodini savod o‘rgatish darslariga singdirishdir. Darvoqe,xalq og‘zaki adabiyoti, jumladan, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, afsona va rivoyatlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan boy til va madaniy manbani ifodalaydi.Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning nutqini boyitadi va estetik didini shakllantiradi[6,b.-192]. Ta'lim psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hikoyaga asoslangan ta'lim o'qishni tushunish samaradorligini 25% gacha oshirishi mumkin, chunki u tasavvurni, hissiy ishtirokni va kontekstni tushunishni faollashtiradi. Bundan tashqari, madaniy jihatdan tanish matnlardan foydalanish, ayniqsa, erta bolalik davridagi ta'limda xotirani saqlash va so'z boyligini o'zlashtirishni kuchaytiradi. Zamonaviy didaktikada xalq og‘zaki ijodining qadr-qimmati interaktiv hikoya, dramatizatsiya, multimedia yordamida hikoya qilish va raqamli hikoya platformalari kabi innovatsion ta’lim strategiyalari orqali qayta baholanmoqda.O‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol

yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi[1, 12-b.].Ushbu usullar konstruktivistik ta'lim nazariyalari bilan mos keladi, bunda o'quvchilar passiv qabul qilishdan ko'ra faol ishtirok etish orqali bilimlarni yanada samarali egallashadi. Sinfdagi empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, folklorga asoslangan savodxonlik faoliyatiga kirishgan o'quvchilar faollik darajasini namoyish etadilar, ishtirok etish darajasi an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan taxminan 35% ga oshadi. Shunday ekan, xalq ogʻzaki merosini zamonaviy savodxonlik yoʻnalishiga singdirish ikki maqsadni koʻzlaydi: milliy va madaniy oʻziga xoslikni saqlab qolish bilan birga, til rivojlanishini qoʻllab-quvvatlaydi. Bu, ayniqsa, asosiy qadriyatlar va lingvistik odatlar shakllanadigan boshlang'ich ta'limda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish va boshlangʻich savodxonlik darslarida qoʻllashga zamonaviy yondashuv, ularning pedagogik samaradorligi, uslubiy yangiliklari, oʻquvchilarning bilim va madaniy rivojlanishiga ta’siriga e’tibor qaratiladi.Jumladan, an’anaviy ogʻzaki merosni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uygʻunlashtirish zamonaviy ta’lim tizimlari talablariga javob beradigan yanada dinamik, inklyuziv va samarali savodxonlikni oʻrganish muhitini yaratadi.

Boshlangʻich sinf darsliklarida folklor integratsiyasi quyidagicha: 1-sinfda Navroʻz bayrami, topishmoqlar va ertaklar; 2-sinfda maqollar va afsonalar; 3-sinfda dostonlar va ertaklar.Davlat ta’lim standarti boshlangʻich sinflarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim berishni nazarda tutadi[7,b.-56].Ushbu metodlar oʻquvchilarning faolligini oshiradi va tarbiyaviy ta’sir koʻrsatadi. Dars jarayonida samarali metodlarning qoʻllanilishi oʻquvchilarning oʻz fikrlarini aniq, mantiqiy va ravon ifodalash koʻnikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.Oʻquvchilarda ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirish pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir[5,b.-320].Shu sababli, pedagoglar interfaol, kommunikativ va innovatsion metodlarni uygʻunlashtirgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishlari lozim.

Boshqa manbalarda oʻqish darsliklarida xalq ogʼzaki ijodi namunalari integratsiyasi haqida gapiriladi. Masalan, ertak janrini oʻqitish usullari va ularning tarbiyaviy ta’siri koʻrib chiqiladi.Ertak va dostonlar oʻquvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi [3,b.-128]. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari maktabda matn bilan ishlash metodikasi sifatida tavsiflanadi, bu oʻquvchilarning nutqini, tafakkurini va estetik qarashlarini rivojlantiradi. Folklor namunalaridan foydalanish oʻquvchilarning soʻz boyligini oshiradi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi[2,b.-256].Ushbu tahlillar asosida xalq ogʻzaki ijodini oʻrgatishning zamonaviy yondashuvlari shakllangan. Oʻrta Osiyo va postsovet davridagi ta’lim sharoitlarida olib borilgan mintaqaviy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, xalq ogʻzaki ijodi xalq ogʻzaki ijodi matal, topishmoq, doston

masalan, “Alpomish” kabilar axloqiy tarbiya va tilni boyitishda katta hissa qo‘shadi. Mintaqaviy pedagogika institutlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, folklor asosida savodxonlik o'rgatilgan talabalar bir o'quv yilida so'z boyligini o'zlashtirishda 15-25% yaxshilanishni va ifodali nutqning ravonligini o'lchash mumkin bo'lgan o'sishni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ta’limdagi raqamli transformatsiya folklor integratsiyasining uslubiy ko‘lamini kengaytirdi. Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etadi[1, 18-b.].Oxirgi global tendentsiyalar shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich ta'lim tizimlarining taxminan 68 foizi savodxonlik o'quv dasturlariga raqamli hikoya vositalari va multimediali hikoyalarni kiritmoqda. Ushbu siljish multimodal ta'lim o'quvchilarning faolligini oshirishi va tabaqalashtirilgan o'qitishni qo'llab-quvvatlashi, ayniqsa, til jihatidan xilma-xil sinflarda o'qitishni qo'llab-quvvatlashi ortib borayotgan e'tirofini aks ettiradi. Ushbu yutuqlarga qaramay, adabiyot ham bir qancha muammolarni aniqlaydi. Xalq og‘zaki ijodiga asoslangan pedagogika bo‘yicha o‘qituvchilarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi, standartlashtirilgan metodik asoslarning yo‘qligi, mahalliylashtirilgan raqamli folklor resurslarining cheklanganligi shular jumlasidandir.Pedagog kadrlarning malakasini oshirish ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir [5,b.-320.]. Binobarin, tadqiqotchilar an’anaviy og‘zaki merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan tizimli ta’lim modellari zarurligini ta’kidlamoqda.

O’qish savodxonligi darslarida xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish metodikasi o‘quvchilarni nafaqat savodxon, balki ma’naviy boy shaxs sifatida tarbiyalaydi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya va ta’lim uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi [2,b.- 256]. O‘qituvchilarga tavsiya uchun o’qish savodxonligi darslarida badiiy asrlar haqida tushuncha berishda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish dars samaradorligini oshiradi.Xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodika o‘quvchilarning nutqini, tafakkurini va madaniy saviyasini oshiradi. Kelgusida badiiy asarlar zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali o’tish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2020. - 12 b , 15 b.
2. Abdullayeva Q. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
3. Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010. – 128 b.
4. Asqarova M., Xudoyberdiyeva O. O‘qish darslarida interfaol metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 144 b.
5. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev J. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 320 b.
6. Sodiqov Q. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 192 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021. – 56 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH VA SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Allaxanov A.M.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi assistent o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: maktab, salomatlik, jismoniy tarbiya, imkoniyat, jarayot, o‘quvchi, aqliy, sifat, mustahkamlash, pedagogika, ta’lim, boshlang‘ich sinf.
Ключевые слова: школа, здоровье, физическое воспитание, возможность, процесс, ученик, психическое, качество, укрепление, педагогика, образование, начальная школа.
Key words: school, health, physical education, opportunity, process, student, mental, quality, strengthening, pedagogy, education, primary school.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqola o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash va shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarni solomatligini mustahkamlashning muammolari va yechimlari borasida so‘z yuritiladi.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья направлена на совершенствование педагогических возможностей укрепления и формирования здоровья учащихся, в ней рассматриваются проблемы и решения укрепления здоровья учащихся.
SUMMARY:
This article is aimed at improving the pedagogical possibilities of strengthening and forming students' health, examining problems and solutions for strengthening students' health.

Kirish. Jahonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta'lim bosqichida bolalarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish ularning keyingi jismoniy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jismoniy tarbiya fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Biroq amaliyotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligini

mustahkamlashning pedagogik mexanizmlari, metodik vositalari hamda samarali texnologiyalaridan foydalanish yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash va shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash muammosi pedagogika va jismoniy tarbiya nazariyasida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Abdullayev A. va Xonkeldiyev Sh. jismoniy tarbiya nazariyasi hamda metodikasini ishlab chiqishda jismoniy rivojlanishning pedagogik qonuniyatlarini yoritgan bo‘lib, jismoniy mashg‘ulotlarni yosh xususiyatlariga mos tashkil etish zarurligini asoslab bergan [1].

Utepbergenov A. o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faollikni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatgan [2].

Mahmudov B.A. boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy harakatli o‘yinlar orqali estetik va sog‘lomlashtiruvchi tarbiyani rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslagan hamda sog‘lomlashtirish jarayonida o‘yin texnologiyalarining samaradorligini isbotlagan [3].

Nuriddinov B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslari jarayonida aqliy va jismoniy rivojlantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari ko‘rsatib berilgan [4].

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- pedagogik kuzatish;
- ilmiy umumlashtirish;
- mantiqiy tahlil;
- tizimli yondashuv.

Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda sog‘lomlashtirish pedagogikasi tamoyillari qabul qilindi.

Natijalar.**Tahlillar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liqligi aniqlandi:**

• jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini yosh va individual xususiyatlarga mos tashkil etish;

• sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni tizimli shakllantirish;

• differensial jismoniy yuklamalardan foydalanish;

• interfaol pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

• maktab, oila va tibbiyot xodimlari hamkorligini kuchaytirish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sog‘lig‘i zaif o‘quvchilar uchun individual mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar kompleksidan foydalanish jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar boshlang‘ich ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilar salomatligini saqlash va mustahkamlashning muhim pedagogik mexanizmi sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning darsdagi faolligini kuchaytiradi hamda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Individual va differensial yondashuv esa ayniqsa sog‘lig‘i zaif o‘quvchilar bilan ishlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash va shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish jismoniy tarbiya ta'limi sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

• jismoniy tarbiya darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish zarur;

• sog‘lig‘i zaif o‘quvchilar bilan individual ishlash tizimini rivojlantirish lozim;

• sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlarni keng joriy etish kerak;

• maktab, oila va tibbiyot muassasalari hamkorligini kuchaytirish salomatlikni mustahkamlash samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Дарслик. – Фарғона, 2005.

2. Утепбергенов А. Дене тарбия. – Нукус, 2018.

3. Махмудов Б.А. Формирование навыков восприятия эстетических основ национальных подвижных игр у учащихся начальных классов. Молодой учёный. – Казань, 2012.

4. Nuriddinov B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiya darslarida aqliy tarbiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent, 2025.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ONA TILI DARSLARIDA VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kadrekova A.K.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
Pedogogik institutı dotsenti

Tayanch so‘zlar: virtual ta’lim, VR-texnologiyalar, AR-ilovalar, boshlang‘ich sinf, ona tili metodikasi, lingvistik kompetensiya, raqamli didaktika, bo‘lajak o‘qituvchi.
Ключевые слова: виртуальное обучение, VR-технологии, AR-приложения, начальная школа, методика родного языка, лингвистическая компетенция, цифровая дидактика, будущий учитель.
Key words: virtual education, VR technologies, AR applications, primary school, native language methodology, linguistic competence, digital didactics, prospective teacher.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida ona tili darslarida virtual ta’lim texnologiyalaridan (VTT) foydalanishning nazariy va amaliy-metodik asoslari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarning lingvistik hamda kognitiv tafakkurini rivojlantirishda VR va AR texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari hamda tajriba-sinov natijalari aks etgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье освещаются теоретические и практико-методические основы использования технологий виртуального обучения (ТВО) на уроках родного языка в системе профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов. Проанализирована роль технологий виртуальной (VR) и дополненной (AR) реальности в развитии лингвистического и мышления учащихся начальной школы. В статье отражены этапы формирования цифровой педагогической компетенции будущих учителей, а также представлены результаты опытно-экспериментальной работы. Особое внимание уделено принципам цифровой гигиены и сочетанию виртуальных инструментов с традиционной методикой преподавания.
SUMMARY:
This article outlines the theoretical, practical, and methodological foundations of integrating virtual educational technologies (VET) into native language classes within the system of professional training for future primary school teachers. The role of Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) technologies in fostering the linguistic and cognitive thinking of primary school pupils is thoroughly analyzed. The study highlights the stages of developing digital pedagogical competence among prospective teachers and presents empirical findings from pedagogical experimentation. Recommendations are provided for maintaining digital hygiene and balancing immersive media with traditional literacy instruction.

Zamonaviy global ta’lim makonida ro‘y berayotgan raqamli transformatsiya pedagogika fani oldiga, xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimiga fundamental yangi talablarni qo‘ymoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining savodxonligi, mantiqiy hamda obrazli tafakkuri, eng muhimi - milliy tilga bo‘lgan qiziqishi shakllanadigan poydevor hisoblanadi. Shu bois, ushbu bosqichda ona tili darslarining samaradorligini oshirish va nazariy dilshunoslik tushunchalarini o‘quvchi idrokiga mos tarzda yetkazishda virtual ta’lim texnologiyalarining (VTT) imkoniyatlaridan unumli foydalanish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi PF-6079-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida hamda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” Milliy strategiyasida ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash, oliy pedagogik ta’lim sifatini oshirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan .

An’anaviy ona tili darslarida aksariyat hollarda mavhum til hodisalarini (masalan, so‘zning mantiqiy va grammatik ma’nosi, fonetik jarayonlar, gapning mantiqiy markazi) kichik yoshdagi o‘quvchilar tasavvurida jonlantirish muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu qiyinchiliklarni virtual muhit vositalari orqali bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish oliy ta’lim metodikasining asosiy vazifalaridan biridir.

Virtual ta’lim texnologiyasi - bu maxsus kompyuter apparat va dasturiy vositalari yordamida yaratilgan, insonga vizual, audiologik va ba’zan taktil tuyg‘ular orqali sun’iy shakllantirilgan muhitda o‘zaro muloqot qilish va harakatlanish imkonini beruvchi didaktik tizimdir.

Ona tili darslarida qo‘llaniladigan virtual texnologiyalar asosan ikkita asosiy yo‘nalishga bo‘linadi, ya’ni VR va AR - bu inson va kompyuter o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiquvchi interfaol texnologiyalardir. Ularning asosiy farqi foydalanuvchini atrof-muhit bilan qanday bog‘lashida aks etadi.

VR (Virtual Reality - virtual borliq): Foydalanuvchini real dunyodan to‘liq ajratgan holda, 100% kompyuter tomonidan yaratilgan raqamli muhitga sho‘ng‘itadi (masalan, maxsus VR-ko‘zoynaklar orqali o‘quvchilarning ertak va afsonalar olamiga yoki tarixiy davrlarga virtual sayohati).

AR (Augmented Reality - kengaytirilgan borliq): Real dunyoni to‘smaydi, balki smartfon yoki planshet kamerasi orqali mavjud borliq ustiga 3D-grafika, interfaol kartochkalar va matnlarni ustma-ust joylashtiradi (masalan, ona tili darslarida so‘z tarkibini vizuallashtiruvchi AR-kartochkalar).

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ularda kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, idrok) asosan ko‘rgazmali-obrazli va harakatli xarakterga ega.

Asosiy farqlar taqqoslamasi:

Xususiyati	VR (Virtual Reality)	AR (Augmented Reality)
Atrof-muhit	100% sun’iy/raqamli olam	Real dunyo + raqamli elementlar
Uskunalar	Maxsus yopiq VR-shlem yoki ko‘zoynak	Smartfon, planshet yoki AR-ko‘zoynak
Real olam bilan bog‘liqlik	Foydalanuvchi real atrofni ko‘rmaydi	Real atrof-muhit to‘liq ko‘rinib turadi
Asosiy maqsadi	Boshqa bir olamga to‘liq sho‘ng‘ish (*Immersion*)	Real borliqni raqamli ma’lumot bilan boyitish

Ikki texnologiyaning birlashgan shakli MR **(Mixed Reality — Aralash borliq)** deb ataladi (masalan, Apple Vision Pro qurilmasida bo‘lgani kabi real va virtual obyektlar bir-biri bilan ta’sirlasha oladi).

Taniqli pedagog-olim J.G‘.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik va interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘quvchining axborotni qabul qilish, uni mantiqiy qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash ko‘rsatkichi shunchalik ortadi”.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini darsda VTTdan foydalanishga tayyorlash metodikasi uchta asosiy ilmiy-didaktik blokni o‘z ichiga oladi:

Nazariy-metodologik blok: Bo‘lajak o‘qituvchiga virtual pedagogika, raqamli gigiyena va multimediyali o‘qitish nazariyalarining (R.Mayer texnologiyasi) mazmunini singdirish .

Texnologik-loyihalash bloki: Virtual topshiriqlar, AR-kartochkalar (kengaytirilgan borliq) va VR-sayohat ssenariylarini ona tili dars rejasi (konspekti) bilan integratsiya qilish ko‘nikmasi.

Amaliy-refleksiv blok: Virtual muhitda o‘quvchilar bilan muloqotni binar (o‘qituvchi-virtual obyekt-o‘quvchi) tarzda tashkil etish va natijalarni baholash.

Ona tili darslarida VTTni qo‘llashning metodik bosqichlari:

Tayyorgarlik va motivatsiya bosqichi. O‘qituvchi o‘quvchilarni dars mavzusiga mos virtual makonga sho‘ng‘itadi. Masalan, “Ertaklar va afsonalar olamida” VR-platformasi orqali o‘quvchi qahramonlar dunyosiga kiradi va sifat, ravish hamda sifatdoshlarni matn ichida o‘z o‘rnida qo‘llash zaruriyatini his etadi.

Model shakllantirish va tahlil bosqichi. Grammatik qoidalar (so‘z tarkibi: o‘zak va qo‘shimcha) 3D-konstruktorlar yordamida vizuallashtiriladi. O‘quvchi so‘z bo‘laklarini interfaol tarzda birlashtiradi yoki ajratadi.

Mustahkamlash va ijodiy topshiriqlar bosqichi. Virtual sayohatdan olingan taassurotlar asosida o‘quvchilar insho, hikoya yoki mini-sayohatnomalar yozadilar.

Tadqiqotimiz va pedagogik oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini VTTdan foydalanishga o‘rgatish ularning nafaqat IT-savodxonligini, balki metodik kreativligini ham tubdan o‘zgartiradi.

Birinchidan, virtual ta’lim texnologiyalari ona tili darslarida o‘qituvchining jonli so‘zi, pedagogik mahorati va samimiy muloqotini inkor etmaydi va etmasligi shart. A.R.Hamroyev ta’kidlaganidek, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ularning mustaqil nutqiy va lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning asosiy shartidir. Virtual ta’lim texnologiyalari esa, ushbu ijodiy loyihalash jarayonini ko‘rgazmali va interfaol muhitda amalga oshirishga xizmat qiladi. VTT — bu ta’limning maqsadiga erishishni tezlashtiruvchi va chuqurlashtiruvchi **yordamchi didaktik instrumentdir**.

Ikkinchidan, boshlang‘ich sinflarda VTTdan foydalanishda **“raqamli gigiyena va psixologik xavfsizlik”** prinsipiga qat’iy amal qilinishi lozim. Kichik yoshdagi o‘quvchining texnik vositalar (VR-ko‘zoynaklar yoki ekranlar) bilan ishlash vaqti bir darsda 10-15 daqiqadan oshmasligi, qolgan vaqt esa bevosita yozma savodxonlik, motorika va kitob bilan ishlashga yo‘naltirilishi zarur .

Uchinchidan, ona tili fanida virtual texnologiyalar shunchaki ko‘rgazma emas, balki **nutqiy vaziyat (kommunikativ situatsiya)** yaratuvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi kerak. O‘quvchi virtual olamda ko‘rgan obyektini tasvirlash, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ravon bayon etishni o‘rganadi.

Ona tili darslarida an’anaviy va VTTga asoslangan metodikaning taqqoslama tahlili quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Mezon va ko‘rsatkichlar	An’anaviy metodik tizim	VTTga asoslangan innovatsion metodika
Ko‘rgazmalilik xarakteri	Statik (tasviriy plakatlar, kitobdagi rasmlar)	Dinamik va interfaol (3D-obyektlar, AR-ilovalar, VR-makon)
Kognitiv faollik	Asosan axborotni eshitib va ko‘rib eslab qolish	Faol ishtirok, virtual obyekt bilan muloqot va tahlil
Nutqiy motivatsiya	Sun’iy savol-javob muhiti	Tabiiy-virtual vaziyat (sayohat, epizodlarni qayta yaratish)

Abstrakt tushunchalar idroki	Faqat o‘qituvchi tushuntirishi va tasavvurga tayanadi	Vizual simulyatsiya va modellashtirish orqali anglanadi
Nutqiy lug‘at boyligi dinamikasi	O‘rtacha o‘sish sur’ati	Shiddatli o‘sish (tajriba va emotsional xotira hisobiga)

Pedagogik tajriba-sinov ishlari doirasida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilgan darslarda 3-4-sinf o‘quvchilarining ona tili fanidan o‘zlashtirish va nutqiy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Virtual sayohatlar va AR-kartochkalar yordamida o‘tkazilgan “Tasviriy insho yozish” hamda “Lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarda:

• O‘quvchilarning faol lug‘at boyligi an’anaviy guruhdagiga nisbatan **38% ga** oshdi;

• Matndagi gaplarni grammatik va mantiqiy to‘g‘ri bog‘lash ko‘nikmasi **27% ga** yaxshilandi;

• Darsdagi umumiy diqqatni jamlash va motivatsiya darajasi **45% ga** yuqorilagani kuzatildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida ona tili darslarida virtual ta’lim texnologiyalaridan (VTT) foydalanish zamonaviy raqamli didaktikaning eng ustuvor va samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Taqdim etilgan ilmiy maqola mazmunidan quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Vizuallashtirish va kognitiv samaradorlik. VR va AR texnologiyalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ko‘rgazmali-obrazli tafakkur xususiyatlariga tayanib, mavhum til hodisalarini (so‘z tarkibi, fonetik jarayonlar va gap tuzilishi) interfaol 3D modellar orqali oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Uch blokli tayyorgarlik tizimi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli-pedagogik kompetensiyani shakllantirish *Nazariy-metodologik, Texnologik-loyihalash va Amaliy-refleksiv* bloklar izchilligida yaxlit tizim sifatida amalga oshirilishi shart.

Tajriba-sinov ko‘rsatkichlari. VTT vositalari yordamida tashkil etilgan darslar an’anaviy metodikaga nisbatan yuqori natija berib, o‘quvchilarning faol lug‘at boyligini **38% ga,** matndagi gaplarni mantiqiy bog‘lash ko‘nikmasini **27% ga**, darsdagi umumiy motivatsiya va diqqatni jamlash darajasini esa **45% ga** oshirgan.

Pedagogik va gigiyenik chegaralar. VTT o‘qituvchining jonli so‘zi va pedagogik mahoratini inkor etmaydi, balki yordamchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixofiziologik xavfsizligini

ta’minlash maqsadida ekran yoki VR-ko‘zoynaklar bilan ishlash vaqti bir darsda **10-15 daqiqadan** oshmasligi lozim.

Ushbu yondashuv ona tili ta’limini statik yondashuvdan faol, interfaol va kommunikativ-yo‘naltirilgan zamonaviy raqamli ta’lim bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020. – № 06/20/6084/1349.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2019. – № 06/19/5847/3887.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 268.

4. Mayer R.E. Multimedia Learning. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – P. 145–160.

5. Hamroyev A.R. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – B. 180.

6. Mavlonova R.A., Turyeva O.V. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – B. 214.

7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning nazariy-amaliy asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 302 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI, SHAKLLARI VA BOSQICHLARI

Nuradilova A.D.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD).

Tayanch so‘zlar: nutqiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faoliyat, pedagogik muloqot, sotsionutqiy kompetensiya, pragmatik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, nutq madaniyati, kasbiy muloqot.
Ключевые слова: речевая компетенция, профессиональная компетенция, коммуни-кативная компетенция, речевая деятельность, педагогическое общение, социоречевая компетенция, прагматическая компетенция, дискурсивная компетенция, компетент-ностный подход, культура речи, профессиональное общение.
Key words: speech competence, professional competence, communicative competence, speech activity, pedagogical communication, socio-speech competence, pragmatic competence, discursive competence, competence-based approach, speech culture, professional communication.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil etilgan. Nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning kommunikativ, sotsionutqiy, pragmatik va diskursiv jihatlari hamda kasbiy faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarning nutqiy faoliyatida kuzatiladigan muammolar tahlili asosida nutqiy kompetensiyani tizimli, bosqichma-bosqich va kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik zarurati belgilangan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются теоретико-педагогические основы развития речевой компе-тенции будущих учителей начальных классов. Освещены сущность и содержание речевой компетенции, ее коммуникативные, социоречевые, прагматические и дискурсивные аспекты, а также значение в профессиональной деятельности. Наряду с этим, на основе анализа проблем, наблюдаемых в речевой деятельности студентов, определена педагоги-ческая необходимость развития речевой компетенции на основе системного, поэтапного и компетентностного подхода.
SUMMARY:
This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations for developing the speech competence of future primary school teachers. The content and essence of speech competence, its communicative, socio-speech, pragmatic and discursive aspects, as well as its importance in

professional activity are highlighted. Along with this, based on the analysis of problems observed in students' speech activities, the pedagogical necessity of developing speech competence based on a systematic, step-by-step, and competency-based approach has been identified.

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar pedagog kadrlar-ning chuqur kasbiy bilim bilan bir qatorda, rivojlangan kommunikativ, nutqiy va metodik kompetensiyalarga ega bo‘lishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchining nutqiy faoliyati muhim pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, uning nutqi o‘quvchilarning tafakkuri, muloqot madaniyati, lug‘at boyligi va nutqiy faoliyatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim talabalarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va metodik mexanizmlarini ilmiy asoslash zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagog kadrlarni tayyor-lash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchidan kasbiy bilim va ko‘nik-malarni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash bilan bir qatorda, fikrni aniq, mantiqiy, izchil va adabiy til me’yorlari asosida ifodalashni ham talab etadi. Bu esa oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga qaratilgan mazmun, shakl, metod va vositalarni takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyoti va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samaradorligi, avvalo, ta’lim tizimining rivojlanganlik darajasi hamda yosh avlodning intellektual va kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda yosh avlodning ta’limi va tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarga ega shaxsni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’limi va tarbiyasi deb javob beraman” degan fikri ham mazkur yo‘nalishning ijtimoiy ahamiyatini yaqqol ifodalaydi [25; 26; 28]. Mazkur ustuvor vazifalar doirasida oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki ularning kommunikativ va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutqiy kompetensiyasi uning o‘z fikrini aniq, izchil va ta’sirchan ifodalashi, pedagogik muloqotni samarali tashkil etishi hamda o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishiga maqbul

pedagogik ta’sir ko‘rsatishini ta’minlovchi muhim kasbiy sifat hisoblanadi 14; 236, 2; 416, 17; 696]. Shu bois, boshlang‘ch ta’lim talabalarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni oliy pedago-gik ta’lim mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Nutqiy kompetensiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, ravon, aniq va ta’sirchan ifodalash, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, turli kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda nutqiy vosita-larni tanlash, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatini o‘zida mujassam etadi.

Boshlang‘ich ta’limda mazkur kompetensiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki o‘qituvchining har bir so‘zi, savol berish usuli, tushuntirishi, rag‘batlantirishi va muloqot madaniyati o‘quvchining nutqiy rivojlanishiga namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi yangi bosqichida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni zamonaviy kompetensiyalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash vazifalari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali maro-simdagi nutqida: “O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q”, deya ta’kidlangan [31].

Mazkur fikr ta’lim sohasi, xususan, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga ham bevosita daxldor bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti uchun kompetent, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan va o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan pedagoglarni tayyor-lashni talab etadi. Prezident nutqida: Oliygohlarda o‘qish uchun qulay sharoitlarni kengaytirganimiz hisobiga hozirgi kunda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Quvonarlisi, yoshlarda bilim olishga ishtiyoq kuchaydi. Ota-onalar uchun farzandini oliy ma’lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo‘ladigan maqsadga aylandi. Ayniqsa, talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o‘ziga xos qiyofasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat deganidir. Biz ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimiz-ning hal qiluvchi omili, deb bilamiz. Shuningdek, Yangi Toshkent hududida ilm-fan, ta’lim va madaniyat markazlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgani ham ta’lim va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishning davlat taraqqiyotidagi strategik o‘rnini ko‘rsatadi [1;

30]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim, ilm-fan va pedagog kadrlar tayyorlashni rivojlantirishga qaratilgan tashab-buslari oliy pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompeten-siyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish maz-munini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini belgilash va rivojlantirishning izchil bosqichlarini ishlab chiqish pedagogika fanining muhim vazifalaridan biridir.

Oliy pedagogik ta’lim amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni-da nazariy bilimlar bilan amaliy nutqiy faoliyat o‘rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Talabalar pedagogik va lingvistik bilimlarga ega bo‘lishlariga qaramay, ularni real pedagogik-kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash, o‘quvchi bilan samarali muloqot o‘rnatish, dars jarayonida savol-javob, munozara, izohlash, tushuntirish, rag‘batlantirish kabi nutqiy faoliyat turlaridan maqsadli foydalanishda qiyinchilik-larga duch kelishlari mumkin. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy kompeten-siyalarini rivojlantirishni alohida, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarurli-gini ko‘rsatadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmunini ilmiy asoslash, mazkur jarayon-ning motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlarini aniqlash, rivojlantirish bosqichlarini belgilash hamda ularning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, pedagogik mahorat, kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati, pedagogik muloqot va o‘qituvchi nutqining o‘ziga xos xususiyatlari pedagogika, psixologiya, lingvodidaktika hamda metodika fanlari doirasida keng o‘rganilgan [7; 163, 10; 89, 12; 160, 16; 156, 18; 69, 20; 139, 19; 330, 23; 22; 211–215, 4; 194].

Insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani, avvalo, muloqot jarayonida o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liq. Muloqot davomida axborot almashinuvi, bilim va tajriba orttirilishi, shaxslararo munosabatlarning shakllanishi hamda faoliyatni anglash va rejalash-tirish jarayonlari amalga oshadi. Mazkur jarayonning asosiy vositasi til va nutq faoliyati bo‘lib, u shaxsning fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini ifodalashi va ijtimoiy muhit bilan samarali munosabat o‘rnatishini ta’minlaydi. Shu bois,

muloqotning samaradorligi nafaqat axborot almashinuvi sifati va kommunikativ vositalardan foydalanish darajasiga, balki muloqot subyektlarining yetarli kommunikativ tajri-basi va nutqiy kompetensiyasiga ham bevosita bog‘liq.

Zamonaviy ijtimoiy muhit insonni ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratadi, lekin odamlardan samarali muloqot qilish, bir-biri bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish, faol ma’lumot almashish hamda ularning kognitiv darajasini oshi-rishni talab qiladi. Har qanday faoliyatda tegishli lug‘atni, ushbu faoliyatga kiritilgan barcha belgi tizimlarini o‘zlashtirish kerak.

Nutqiy kompetensiya bu, aslida, to‘g‘ri gapira olish emas, balki fikrni teran, lo‘nda va izchil tarzda ifoda eta olish hamda yetkaza bilish qobiliyatidir. Shuning-dek, mazkur kompetensiya og‘zaki va yozma muloqotda til birliklari va so‘zlaridan to‘g‘ri, maqsadga muvofiq, shu bilan birga, izchil hamda mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olish layoqati hisoblanadi. Nutqiy kompetensiya nafaqat til bilimlariga, balki mulo-qot madaniyati, psixologiya va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq ko‘nikmalarga tayanadi [24; 1797].

Zamonaviy ta’lim sharoitida shaxsning akademik va kasbiy muvaffaqiyati uning nutq madaniyati hamda kommunikativ imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq. To‘g‘ri, ravon va mantiqan izchil nutq o‘quvchi va talabaning o‘z fikrini erkin ifodalashi, muloqotda faol ishtirok etishi, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutq faoliyati, asosan, nutqni rivojlantirish, nutqiy muloqot va og‘zaki nutqni egallash masalalari doirasida tadqiq etilgan bo‘lib, uning shakllanishi til va bilish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan, nutq faoliyati shaxsning bilish va kommunikativ ehtiyojlarini ta’minlovchi, uning ijtimoiy munosabatlari va faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutq faoliyatining muhim sharti suhbatdosh nutqini adekvat idrok etish va uning mazmunini to‘g‘ri anglash bilan bir qatorda, fikrni aniq va maqsadga muvofiq ifodalashni ta’minlovchi nutqiy ko‘nikmalarning shakllanganligidir. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy kompetensiya shaxsning muloqot maqsadi, sohasi va vaziyatiga mos ravishda nutqiy xatti-harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar majmui sifatida tavsiflanadi. Uni rivojlantirishda mavzuni anglash, fikrning mantiqiy izchilligini ta’minlash, nutq rejasini tuzish, og‘zaki va yozma manbalardan zarur axborotni ajratib olish, to‘plash va tizimlashtirish kabi ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy kompetensiya tadqiqotchi olimlar tomonidan quyidagicha ta’riflan-gan: boshqalarni tushunish va muloqotning maqsadlari, sohalari


va vaziyatlariga mos keladigan nutq xatti-harakatlarining o‘z dasturlarini yaratish qobiliyati; talaba-ning nutqsiz (mimika, imo-ishoralar, harakatlar) va intonatsiya vositalarini birga-likda ishlatish ko‘nikmasini shakllantirish, aniq kommunikativ vaziyatlarda amaliy foydalanish qobiliyati va muayyan tilda amaliy nutqda ravonlik, shu jumladan, dialog tarzida ham, monolog tarzida ham to‘g‘ri, ravon va dinamik gapira olish qobiliyati, shuningdek, har qanday funksional uslubda nutq so‘zlash va tushunish qobiliyatidan iborat [5; 52, 6; 130, 13; 288].

Nutqiy va kommunikativ kompetensiya ayrim manbalarda sinonimik tushun-chalar sifatida talqin qilinsa, boshqa tadqiqotlarda nutqiy kompetensiya kommu-nikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur kompetensiya shaxsning til birliklari va nutqiy vositalardan kommunikativ maqsad, muloqot vaziyati hamda so‘zlovchi niyatiga muvofiq foydalanishi, fikrni shakllantirishi va izchil ifodalashi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, nutqiy kompetensiya sotsiolingvistik, pragmatik va diskursiv jihatlarni qamrab olib, o‘zga nutqni adekvat anglash, kommunikativ vaziyatni baholash hamda unga mos nutqiy xatti-hara-katlarni rejalashtirish va amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini tashkil etadi. Ta’lim jarayonida mazkur kompetensiyani rivojlantirish talabalarning tinglash, fikrlash, nutqni anglash va o‘z fikrini aniq, mantiqiy hamda maqsadga muvofiq ifodalash ko‘nikmalarini tizimli shakllantirishni nazarda tutadi.

Nutqiy kompetensiya nutqni o‘rgatish jarayonining nutqiy, kommunikativ va uslubiy-tarkibiy jihatlariga doir o‘zaro bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka hamda faoliyat usullarining majmuini ifodalaydi. U talabaning kasbga yo‘naltirilgan kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lib, kelgu-sida mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishi va muloqot jarayonida nutqiy vositalardan maqsadga muvofiq foydalanishini ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy kompetensiya tushunchasining nazariy mazmunini aniqlashtirish, uning tarkibiy tuzilishini belgilash va shakllantirish mexanizmlarini asoslash talabaning kasbiy yo‘naltirilgan nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu o‘rinda kasbga yo‘naltirilgan nutqiy kompetensiyaning uchta tarkibiy qismlar yig‘indisini hisobga olsak, ular quyidagilardan iborat (1.1-rasmga qarang):

Demak, kasbga yo‘naltirilgan nutqiy kompetensiya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, professional va protsessual komponentlar majmuasidan iborat. Ijtimoiy komponent talabaning kasbiy faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvini, professional komponent kasbiy mazmundagi axborotni



1-1.rasm.

nutq orqali qabul qilish va uzatishga tayyorgarligini, protsessual komponent esa og‘zaki va yozma muloqotni ta’minlovchi nutqiy ko‘nikmalarni, xususan, o‘qish va yozish kompetensiyalarini qamrab oladi. Mazkur komponentlarning uyg‘unligi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatda samarali nutqiy muloqotini ta’minlaydi.

N.D.Galskova, N.I.Gez, I.A.Zimnyaya, R.P.Milrud, A.V.Xutorskiy, A.N.Shukin va boshqa olimlarning tadqiqotlarida nutqiy kompetensiya mazmuni sotsionutqiy, pragmatik va diskursiv kompetensiyalar bilan uzviy aloqador holda yoritiladi [9; 40–43, 8; 6, 21; 11–15, 15; 57]. Van Ek sotsionutqiy kompetensiyani kommunikativ vaziyatga mos ravishda nutqiy shakllarni tanlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati sifatida izohlaydi [27]. M.Canale va M.Swain esa uning asosiy belgisini nutqiy birliklarning shakl va mazmun jihatidan muayyan kontekstga muvofiqligi bilan bog‘laydi [3; 148]. R.P.Milrud pragmatik kompeten-siyani kommunikativ vaziyat, suhbat-doshning ijtimoiy maqomi, muloqot maqsadi, adresat hamda muloqot ishtirokchi-larining ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tildan muayyan funksional maqsadlarda foydalana olish qobiliyati sifatida tavsiflaydi [11]. Diskursiv kompetensiya esa turli nutq turlarini anglash va ularni tashkil etish qonuniyatlarini bilish, kommunikativ vaziyat hamda muloqot ishtirokchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda mazmunan

yaxlit, mantiqan izchil og‘zaki va yozma matnlarni yaratish hamda talqin qilish qobiliyatini ifodalaydi.

I.A.Zimnyaya nutqiy kompetensiyani fikrni til vositalari yordamida shakllantirish va ifodalash usullarini egallash, nutqiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, o‘zga nutqni anglash hamda shaxsiy mulohazalarni bayon eta olish qobiliyati sifatida talqin qiladi [25]. A.N.Sokolov esa mazkur kompetensiyaning mazmunini til vositalarini puxta egallash, fikrni to‘g‘ri, ravon va erkin ifodalash, eshitilgan hamda o‘qilgan axborotni adekvat idrok etish qobiliyatlari bilan bog‘laydi [26; 132]. Mazkur ilmiy yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutqiy kompetensiya faqat til birliklarini bilish bilan cheklanmay, balki ularni kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadi va kasbiy faoliyat talablariga muvofiq ravishda qo‘llash, izchil og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish hamda o‘zga nutqni mazmunan to‘g‘ri anglashni ta’minlovchi kompleks bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tashkil etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida shakllantiriladigan kompetensiyalar oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy ehtiyojlari asosida yanada takomillashtirilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy kompetensiya nutq faoliyatining asosiy turlari – gapirish, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, kommunikativ vaziyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda verbal va noverbal xatti-harakatlarni maqsadga muvofiq rejalashtirish hamda amalga oshirish qobiliyatini qamrab oladi. Talabalarning nutqiy kompetensiyasini baholashda fikrning mantiqiyligi, mazmuniy izchilligi, ifodaliligi, kommunikativ vaziyatga adekvatligi, nutqning savodxonligi va ta’sirchanligi muhim mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ta’lim amaliyotidagi kuzatuvlar ayrim talabalarda o‘z fikrini erkin ifodalashdagi qiyinchilik, og‘zaki muloqotga sust qiziqish, yetarli nutqiy amaliyotning mavjud emasligi, lug‘at boyligining cheklanganligi, terminologik zaxiraning yetarli shakllanmaganligi va so‘z hamda iboralarni tanlashdagi ikkilanishlar nutqiy faollikning pasayishiga sabab bo‘layotganini ko‘rsatadi. Mazkur holatlar talabalarning o‘quv va kasbiy muloqot jarayonidagi faolligini cheklab, nutqiy kompetensiyani tizimli ravishda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, nutq faoliyatini rivojlantirish va nutqiy ko‘nikmalar tizimini shakllantirishda, ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda nutqiy faollikni oshirish, lug‘at boyligini kengaytirish, nutqiy sezgirlik va nutq madaniyatini rivojlantirish nafaqat til fanlarini, balki barcha o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim, chunki nutq shaxsning bilish, fikrlash

va o‘z fikrini ifodalash faoliyatini ta’minlovchi asosiy vositalardan biridir. Talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti ta’lim jarayonida ular bilan tizimli va maqsadli ishlash, nutqiy tajribasini muntazam boyitish hamda amaliy muloqot imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Mazkur jarayonning metodik asosini kompetensiyaviy va shaxs-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar, shuningdek, nutqiy faoliyat ko‘nikma-larini bosqichma-bosqich shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/ view/9544 (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

2. Axmedova T.S. Use of the state program “First step” in preschool educational organizations. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. – № 3. – Farg‘ona, 2024. – B. 416.

3. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1980. (1), –P. 1–48.

4. G‘aniyev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped. fan. nom.diss... –T.: 1991. – 194 b.

5. Hamroyev G‘.H. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga oid o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss... avtoref. – Samarqand, 2019. – 52 b.

6. Kenjayeva M.A. 5–6-sinf o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Ped. fan. f.dok. (PhD) diss....–T.: 2021. – 130 b.

7. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlangich sinf o‘quv chilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi Ped. fan. dok. (PhD) diss.... –T.: 2018. –163 b.

8. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi. 2021. – B. 6.

9. Maxmutova G. Pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni – ma’naviy shakllantirish texnologiyasi // Xalq ta’limi. – Toshkent: 2004. – №1.– B. 40–43.

10. Mirmaxsudova M.B. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5–7-sinf ona tili darslari misolida). Ped.fan.nomz. ... diss. – Toshkent: 2004. – B. 89.

11. Milrud R.P. Modern conceptual principles of communicative teaching of foreign languages / R.P. Milrud, I.R. Maksimova // IYASH. – 2000. – No. 4. – pp. 9-15; No. 5 – pp. 1722.

12. Nisanbayeva A.Q. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida). Ped. f. n. …diss. – T.: 2008. – 160 b.;

13. Nishonova S.K. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. d-ri ... dis. – T.: 1998. – 288 b.

14. Nurabullaeva K. Nemis tili darsida nutq kompetensiyasini rivojlantirishda media texnologiyalarni ahamiyati. – B. 236.; https://inlibrary.uz/index.php/field-foreign-education/ article/view/32661/33298 (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

15. Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М.: 1974. – B. 57.

16. Qosimova N.A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quv chilar nutqini so‘z ma’nodoshlari bilan boyitish: ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1998. – 156 b.

17. Sattarova N.O‘. Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy elementlari tasnifi. “Science and Education Scientific” Journal / www.openscience.uz June 2023 / Volume 4 Issue 6. – B. 696.

18. Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarda). Ped. fan. nom. ...diss. avtoref. – T., 2019. – 69 b.

19. Teshaboyeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O‘zbekiston Respublikasi OAV misolida). Fil.f.d., ….diss. – T.: 2012, – 330 b.

20. Toshxo‘jayeva D. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari: Ped. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2000. –130 b.

21. Xalikov A.A. O‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishda kasbiy kompetensiya va layoqatlilikni shakllantirish // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2018. – № 2. – B. 11–15.

22. Yo‘ldoshev R. Ona tili darslarida o‘quv chilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti mavzusidagi an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: “Print 25” MChJ bosmaxonasi, 2019. – B. 211–215.

23. Yusupova G. Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2020.

24. Zokirova S.M. Nutqiy (so‘zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari. Maktabgacha va maktab ta’limi. – № 11.– Toshkent, 2025. – B. 1797.

25. Зимняя И.А.Общая культура и социально-профессионалная компе-тентност человека Интернет-журнал «Эйдос». 2006. – № 3. Режим доступа: http: /www.eidoc.ru / journal / 2026 / 02.09. htm.

26. Соколов А.Н. Внутренняя речь и мышление. – М:. 1998. – С. 132.

27. Van Ek J. A., & Trim, J. L. M. (2001). Vantage: Council of Europe. Cambridge University Press.

28. https://hikmatlar.uz/author/468%202 (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

29. https://nuu.uz/iqtidorli-talabalar-2/ (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

30. https://inlibrary.uz/index.php/field-foreign-education/article/ view/ 32661 /33298 (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

31. https://president.uz/oz/lists/view/9544 (Murojaat sanasi: 02.09.2026).

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RUS TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Utepbergenova F.P.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ona tili va adabiyoti (rus tili) magistri

Tayanch so'zlar: kommunikativ kompetensiya, boshlang'ich sinf, rus tili, pedagogik shart-sharoit, nutqiy faoliyat, kommunikativ-faoliyat yondashuvi, interfaol texnologiya.
Ключевые слова: коммуникативная компетенция, начальные классы, русский язык, педагогические условия, речевая деятельность, коммуникативно-деятельностный подход, интерактивные технологии.
Key words: communicative competence, primary school, Russian language, pedagogical conditions, speech activity, communicative-activity approach, interactive technologies.

РЕЗЮМЕ:
Nazariy manbalar tahlili va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan holda nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, hamkorlikka asoslangan ish shakllari, interfaol texnologiyalar, motivatsion-hissiy muhit va nazorat-diagnostika vositalari kabi shart-sharoitlar tizimi ishlab chiqilgan. Natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari va metodistlar uchun amaliy ahamiyatga ega.
РЕЗЮМЕ:
На основе анализа теоретических источников и метода наблюдения разработана система условий, включающая моделирование речевых ситуаций, парные и групповые формы работы, интерактивные технологии, мотивационно-эмоциональную среду и диагностические средства контроля. Результаты имеют практическое значение для учителей начальных классов и методистов.
SUMMARY:
Based on theoretical literature analysis and observation methods, a system of conditions was developed, including modeling speech situations, pair and group work forms, interactive technologies, a motivational-emotional environment, and diagnostic monitoring tools. The findings are of practical value for primary school teachers and methodologists.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida nutqiy faoliyat va muloqot ko'nikmalarining o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinf - bolaning tilni ongli ravishda o'zlashtirish, fikrini og'zaki va yozma shaklda ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishning eng sezgir davri hisoblanadi. Shu bois rus tili darslarida

kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi nafaqat metodik, balki pedagogik-psixologik nuqtai nazardan ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi metodika fanida keng talqin qilinadi. M.R. Lvov bu tushunchani nutqiy vaziyatga mos ravishda til vositalaridan foydalana olish, fikrni tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli va maqsadga muvofiq tarzda yetkaza olish qobiliyati sifatida ta'riflaydi[1]. Xuddi shunday, kommunikativ-faoliyat yondashuvi tarafdorlari (jumladan, E.S. Antonova) til o'rgatishning asosiy maqsadi grammatik bilim emas, balki real muloqot vaziyatlarida amaliy nutq faoliyatini shakllantirish ekanligini ta'kidlaydilar.

Ayni paytda amaliyotda bir qator ziddiyatlar mavjud: bir tomondan, bola tengdoshlari va atrofdagilar bilan erkin muloqot qilishga ehtiyoj sezadi, ikkinchi tomondan, an'anaviy dars tashkiloti ko'proq bolaning intellektual (grammatik-leksik) rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, kommunikativ ko'nikmalarni maqsadli shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Ushbu ziddiyat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi - boshlang'ich sinflarda rus tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

• kommunikativ kompetensiya tushunchasining mohiyati va tarkibiy komponentlarini tahlil qilish;

• boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

• ushbu shart-sharoitlarni amaliyotga tatbiq etishning metodik yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti - boshlang'ich sinflarda rus tilini o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti - ushbu jarayonda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar.

Metodlar.

Tadqiqot quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar asosida olib borildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** - kommunikativ kompetensiya muammosiga bag'ishlangan pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni (M.R. Lvov, E.S. Antonova, N.D. Galskova va N.I. Gez asarlari) tizimli tahlil qilish[2].

2. **Kuzatuv metodi** - boshlang'ich sinf rus tili darslarida o'quvchilarning nutqiy faolligi, dialogik va monologik nutqqa jalb qilinish darajasini kuzatish.

3. **Qiyosiy-taqqoslash metodi** - an'anaviy (reproduktiv) va kommunikativ-faoliyat yondashuviga asoslangan dars tashkil etish usullarining natijadorligini taqqoslash.

4. **Umumlashtirish va tizimlashtirish metodi** - olingan nazariy va empirik ma'lumotlarni tahlil asosida pedagogik shart-sharoitlar tizimini shakllantirish.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari (diqqatning beqarorligi, o'yin faoliyatiga moyillik, taqlid qilish orqali o'rganish, kichik guruhlarda ishlashga qiziqish) inobatga olindi, chunki aynan shu xususiyatlar kommunikativ mashqlar va topshiriqlarning shaklini belgilaydi.

Natijalar. Adabiyotlar tahlili va kuzatuvlar natijasida boshlang'ich sinflarda rus tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi:

1. Nutqiy vaziyatlarni modellashtirish. Dars jarayonida real hayotiy vaziyatlarga yaqin nutqiy vazifalar (do'kondagi suhbat, tanishuv, so'rov-javob) yaratilishi o'quvchini nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

2. Juftlik va guruhli ish shakllaridan foydalanish. O'quvchilar orasidagi o'zaro nutqiy aloqa (dialog, rolli o'yinlar, "aql-zakovat hujumi" texnologiyasi) individual ishlashga qaraganda kommunikativ ko'nikmalarni tezroq shakllantiradi.

3. Interfaol va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi, muammoli-izlanuvchanlik metodi, klaster va sinkveyn kabi usullar o'quvchining mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratadi.

4. Nutqning tovush tomoniga e'tiborni rivojlantirish. Savolni takrorlash, xor bo'lib takrorlash, individual va jamoaviy javoblarni almashtirib borish orqali eshitib tushunish (auditiv) ko'nikmalari mustahkamlanadi.

5. Motivatsion-hissiy muhitni ta'minlash. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, xatolardan qo'rqmasdan fikr bildirish imkoniyatini beruvchi ijobiy psixologik muhit kommunikativ faollikni oshiradi.

6. Nazorat-diagnostika vositalaridan foydalanish. Kuzatuv, suhbat, so'rovnoma va test kabi ijtimoiy-pedagogik o'lchov vositalari orqali o'quvchining kommunikativ rivojlanish darajasi muntazam baholab borilishi lozim.

Ushbu shart-sharoitlar bir-biridan alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida amal qilganda samara beradi: masalan, nutqiy vaziyatni modellashtirish faqat ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lgandagina to'liq natija beradi.

Muhokama. Olingan natijalar zamonaviy metodikada e'tirof etilgan kommunikativ-faoliyat yondashuvi tamoyillariga mos keladi. Xususan, Antonovaning fikricha, til o'rgatish nafaqat til birliklarini yodlash, balki ularni

real muloqotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilishi kerak. Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinfda bu yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchining metodik tayyorgarligi, dars materiallarining amaliy-kommunikativ yo'naltirilganligi va sinfdagi psixologik muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, amaliyotda ba'zi cheklovlar ham kuzatiladi: darslik materiallarining ko'pincha grammatik-leksik mashqlarga qaratilganligi, o'qituvchilarning interfaol metodlarni qo'llashda malaka yetishmasligi va sinflardagi o'quvchilar soni ko'pligi individual-kommunikativ yondashuvni qo'llashni murakkablashtiradi. Bu kabi omillar keyingi tadqiqotlarda alohida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir, xususan, aniq pedagogik eksperiment orqali har bir shart-sharoitning ta'sir darajasini miqdoriy jihatdan baholash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ulardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika yo'nalishi talabalari rus tili darslarini loyihalashtirishda foydalanishlari mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinflarda rus tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish murakkab, ko'p komponentli pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Bu jarayonning samaradorligi nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, hamkorlikka asoslangan ish shakllari, interfaol texnologiyalar, ijobiy psixologik muhit va tizimli diagnostikani o'zaro uyg'unlashtirgan holda tashkil etilishiga bog'liq. Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar boshlang'ich ta'lim amaliyotida rus tili o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах: Учебное пособие для студентов педагогических вузов и колледжей. - М.: Издательский центр «Академия»; Высшая школа, 1999. - 272 с.

2. Антонова Е.С. Методика преподавания русского языка: коммуникативно-деятельностный подход: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2007. - 460 с.

3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие. - 3-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2006.

4. Коммуникативная компетенция: принципы, методы, приёмы формирования // Белорусский государственный университет. - URL: https://www.bsu.by/upload/pdf/230533.pdf (murojaat sanasi: 17.09.2026).

5. Формирование коммуникативных умений у младших школьников на уроках русского языка: в аспекте моделирования учебных средств // Dissercat - elektron kutubxona. - URL: https://www.dissercat. com/content/formirovanie-kommunikativnykh-umenii-u-mladshikh-shkolnikov-na-urokakh-russkogo-yazyka-v-asp (murojaat sanasi: 17.09.2026).

BOSHLANG'ICH SINFLARDA RUS TILI TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Utepbergenova F.P.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ona tili va adabiyoti (rus tili) magistri

Tayanch so'zlar: nutqiy kompetensiya, boshlang'ich sinf, rus tili ta'limi, pedagogik asoslar, bog'lanishli nutq, lug'at boyligi, ijodiy faoliyat.
Ключевые слова: речевая компетенция, начальные классы, обучение русскому языку, педагогические основы, связная речь, словарный запас, творческая деятельность.
Key words: speech competence, primary school, teaching Russian, pedagogical foundations, coherent speech, vocabulary, creative activity.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Nazariy adabiyotlar tahlili va pedagogik kuzatuv asosida nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari (fonetik, leksik, grammatik va bog'lanishli nutq ko'nikmalari) hamda ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik asoslar tizimi ishlab chiqilgan. Natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika yo'nalishi talabalari uchun amaliy ahamiyatga ega.
РЕЗЮМЕ:
В статье раскрыты педагогические основы развития речевой компетенции учащихся начальных классов в процессе обучения русскому языку. На основе анализа теоретической литературы и педагогического наблюдения разработана система компонентов речевой компетенции (фонетические, лексические, грамматические умения и навыки связной речи) и педагогических основ их развития. Результаты имеют практическое значение для учителей начальных классов, методистов и студентов педагогических направлений.
SUMMARY:
This article examines the pedagogical foundations for developing primary school students' speech competence in the process of teaching Russian. Based on an analysis of theoretical literature and pedagogical observation, a system of components of speech competence (phonetic, lexical, grammatical skills and coherent-speech abilities) and the pedagogical foundations for their development was designed. The findings are of practical value for primary school teachers, methodologists, and pedagogy students.

Kirish. Bola shaxsining har tomonlama kamol topishida nutq — fikrlash, bilish va muloqot qilishning asosiy quroli hisoblanadi. Boshlang'ich sinf davri

bolaning nutqiy imkoniyatlari jadal rivojlanadigan, lug'at boyligi, grammatik qurilma va bog'lanishli nutq ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Shu sababli rus tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy boshlang'ich ta'lim metodikasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda nutqiy kompetensiya til vositalaridan foydalanib fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, izchil va maqsadga muvofiq ifodalash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bir qator metodistlarning ta'kidlashicha, an'anaviy o'qitish amaliyotida asosiy e'tibor monologik nutqni rivojlantirishga qaratilib, tinglab tushunish va dialogik nutq ko'nikmalariga yetarli e'tibor berilmaydi[1]. Bu esa o'quvchining real muloqot vaziyatlarida erkin va izchil fikr bildira olish qobiliyatini cheklaydi.

Amaliyotda quyidagi ziddiyat kuzatiladi: bir tomondan, jamiyat va oila tomonidan bolaning boy, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri nutqqa ega bo'lishiga talab kuchaymoqda, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning lug'at zaxirasi cheklanganligi, nutqning bir xilligi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Ushbu ziddiyat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi - boshlang'ich sinflarda rus tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

• nutqiy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy komponentlarini tahlil qilish;

• boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

• nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi pedagogik asoslar va metodik vositalarni tizimlashtirish.

Tadqiqot ob'ekti - boshlang'ich sinflarda rus tili ta'limi jarayoni. Tadqiqot predmeti - ushbu jarayonda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi pedagogik asoslar.

Metodlar.

Tadqiqot quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar asosida amalga oshirildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** - nutqiy kompetensiya va nutq o'stirish muammosiga oid pedagogik-metodik adabiyotlarni (rus tili o'qitish metodikasi, nutq rivojlantirish nazariyasi bo'yicha ilmiy ishlar) tizimli o'rganish[2].

2. **Kuzatuv metodi** - boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqidagi leksik-grammatik xatolarni, bog'lanishli nutq darajasini kuzatish.

3. **Qiyosiy tahlil metodi** - an'anaviy nutq o'stirish mashqlari bilan ijodiy-topshiriqqa asoslangan usullarning natijadorligini taqqoslash.

4. **Umumlashtirish metodi** - olingan nazariy va empirik ma'lumotlar asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi pedagogik asoslar tizimini shakllantirish.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari - obrazli tafakkurning ustunligi, taqlidga moyillik, lug'at zaxirasining tez o'zlashtirilishi, ammo mustaqil bog'lanishli matn tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishi - inobatga olindi.

Natijalar.

O'tkazilgan tahlil va kuzatuvlar natijasida boshlang'ich sinflarda rus tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi pedagogik asoslari aniqlandi:

1. Nutqning barcha komponentlarini uzviy rivojlantirish. Fonetik (to'g'ri talaffuz), leksik (lug'at boyligi), grammatik (so'z va gap qurilishi) hamda bog'lanishli nutq ko'nikmalarini alohida emas, balki bir-biriga uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarur.

2. Lug'at boyligini tizimli oshirish. Yangi so'zlarni matn, rasm va hayotiy vaziyatlar orqali tushuntirish, sinonim-antonimlar bilan ishlash, so'zlarni faol nutqqa kiritish mashqlaridan foydalanish.

3. Bog'lanishli nutqni rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlar. Hikoya tuzish, rasmga qarab og'zaki tasvirlash, kichik insho va bayon yozdirish, "sirtqi ekskursiya" uslubidagi topshiriqlar o'quvchining mustaqil fikrini izchil bayon qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

4. Tinglab tushunish va dialogik nutqqa alohida e'tibor. Savol-javob, suhbat modellashtirish, intervyu uchun savollar tuzish kabi mashqlar orqali nafaqat gapirish, balki tinglash va tushunish ko'nikmasi ham rivojlantiriladi.

5. Stimulyatsion-motivatsion usullardan foydalanish. O'quvchini nutqiy faollikka undovchi vositalar - rag'batlantirish, ijodiy topshiriqlarni tanlash erkinligi, ijobiy baholash - nutq o'stirish jarayonining muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

6. Nutqiy rivojlanishni muntazam kuzatib borish. O'quvchi nutqidagi ilg'or o'zgarishlar va kamchiliklarni aniqlash uchun kuzatuv, yozma ishlar tahlili va suhbat kabi diagnostik vositalardan foydalanish lozim.

Ushbu pedagogik asoslar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning majmuiy tarzda qo'llanilishi o'quvchining nutqiy kompetensiyasini izchil va barqaror rivojlantirishni ta'minlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan emas, balki o'quvchini

real nutqiy faoliyatga - tinglash, gapirish, o'qish va yozishga - faol jalb etish orqali amalga oshadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, zamonaviy metodikada monologik nutqqa ortiqcha urg'u berilib, tinglab tushunish va suhbatlashish ko'nikmalari orqada qolmoqda, bu esa o'quvchining muloqot jarayonida to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator qiyinchiliklar mavjud: darslik mashqlarining ko'pincha reproduktiv (takrorlashga asoslangan) xarakterda bo'lishi, o'quvchilarning individual nutqiy xususiyatlarini hisobga olishning yetarli emasligi va o'qituvchilarning ijodiy topshiriqlarni tashkil etishda metodik tayyorgarligi cheklanganligi. Bu holatlar kelgusi tadqiqotlarda, xususan, aniq pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali chuqurroq o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga tizimli va bosqichma-bosqich yondashish zarurligini tasdiqlaydi hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinflarda rus tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'p qirrali va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Ushbu jarayonning samaradorligi nutqning barcha komponentlarini uzviy rivojlantirish, lug'at boyligini tizimli oshirish, ijodiy va dialogik topshiriqlardan foydalanish hamda o'quvchi nutqini muntazam kuzatib borishga bog'liq. Aniqlangan pedagogik asoslar boshlang'ich ta'lim amaliyotida rus tili o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах: Учебное пособие для студентов педагогических вузов и колледжей. - М.: Издательский центр «Академия»; Высшая школа, 1999. - 272 с.

2. Антонова Е.С. Методика преподавания русского языка: коммуникативно-деятельностный подход: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2007. - 460 с.

3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие. - 3-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2006.

4. Лапина, О.А. Развитие речи младших школьников на уроках русского языка // Уральский государственный педагогический университет: электронный архив. - URL: http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/12048/2/10Lapina.pdf (murojaat sanasi: 17.09.2026).

5. Коммуникативная компетенция: принципы, методы, приёмы формирования // Белорусский государственный университет. - URL: https://www.bsu.by/upload/pdf/230533.pdf (murojaat sanasi: 17.09.2026).

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИВАЮЩИХ ИГР В ИНКЛЮЗИВНЫХ ГРУППАХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Мамитова К.
магистрант 2 курса
НГПИ имени Ажинияза

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, STEAM texnologiyalari, rivojlantiruvchi o'yinlar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, ijtimoiylachuv, sensor rivojlanich, moslachtirilgan konstruksiyalach.
Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, STEAM-технологии, развивающие игры, дети с особыми образовательными потребностями, социализация, сенсорное развитие, адаптированное конструирование.
Key words: inclusive education, preschool education, STEAM technologies, developmental games, children with special educational needs, socialization, sensory development, adaptive construction.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada maktabgacha ta'lim tachkilotlari inklyuziv guruhlarining ta'lim jarayoniga STEAM ta'lim elementlari va maxsus rivojlantiruvchi o'yinlarni joriy etichning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik samaradorligi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogik yondachuvlarni tahlil qilich asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uçun multisensor va loyihaviy-o'yinli ta'limning ahamiyati asoslab berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются особенности и педагогическая эффективность интеграции элементов STEAM-образования и специальных развивающих игр в образовательный процесс инклюзивных групп дошкольных образовательных организаций. На основе анализа современных педагогических подходов обосновывается ценность мультисенсорного и проектно-игрового обучения для детей с особыми образовательными потребностями.
SUMMARY:
This article examines the features and pedagogical effectiveness of integrating STEAM education elements and special developmental games into the educational process of inclusive groups in preschool educational organizations. Based on the analysis of modern pedagogical approaches, the value of multisensory and project-based learning for children with special educational needs is substantiated.

Гуманизация системы дошкольного образования и реализация принципов инклюзии требуют поиска инновационных педагогических техно-

логий, способных обеспечить равные стартовые возможности для всех воспитанников. Включение детей с особыми образовательными потребностями в среду нормотипичных сверстников предполагает не просто их совместное пребывание в группе, но и создание специальных педагогических условий для их полноценного развития и социализации.

Современные образовательные стандарты ориентированы на отход от традиционных, репродуктивных методов обучения в пользу интерактивных, проектных и исследовательских форм. В этом контексте особый интерес представляет STEAM-образование (интеграция естественных наук, технологий, инжиниринга, творчества и математики), а также применение специальных развивающих и дидактических игр.

Основное преимущество STEAM-подхода в инклюзивном дошкольном образовании заключается в его наглядности, практико-ориентированности и мультисенсорной природе. Ребенок с ООП получает возможность познавать окружающий мир не через абстрактные понятия, а через предметно-практическую деятельность, экспериментирование, конструирование и визуальное творчество, что существенно снижает барьеры в восприятии информации и способствует естественной интеграции в детско-взрослое сообщество.

Концепция STEAM-образования базируется на идее междисциплинарного обучения, при котором исследование конкретного явления или создание объекта сочетает в себе элементы различных областей знаний. В условиях инклюзивного детского сада каждая из составляющих STEAM выполняет свою коррекционно-развивающую функцию:

S (Science / Естественные науки): Простейшие опыты с водой, песком, воздухом, магнитами и светом позволяют активизировать исследовательскую деятельность, развивать наглядно-действенное мышление и обогащать сенсорный опыт ребенка.

T (Technology / Технологии): Использование элементов робототехники, интерактивных досок, аудиовизуальных средств и простых механических устройств развивает зрительно-моторную координацию и ориентацию в пространстве.

E (Engineering / Инжиниринг): Конструирование из различных материалов (лего-конструирование, крупный и мелкий деревянный строительный материал, мягкие блоки) стимулирует развитие пространственного воображения, логики и мелкой моторики hands-on.

A (Art / Творчество): Включение художественного творчества (моделирование, рисование разными техниками, дизайн) обеспечивает эмоци-

ональную разрядку, снижает тревожность и дает возможность самовыражения детям с речевыми или ментальными нарушениями.

M (Mathematics / Математика): Сортировка, подсчет, сопоставление форм, размеров и объемов в ходе игровой деятельности формируют элементарные математические представления без излишней академической нагрузки.

Главный педагогический эффект STEAM в инклюзии: совместное решение инженерии или арт-задачи объединяет детей группы. Ребенок с ООП выступает равноправным участником команды, выполняя ту часть работы, которая соответствует его сохранным функциям и физическим возможностям.

Для того чтобы STEAM-технологии и развивающие игры приносили максимальную пользу в инклюзивной группе, педагогический процесс должен строиться с учетом следующих специализированных принципов:

- Принцип дифференциации и индивидуализации: Каждое игровое задание или STEAM-проект имеет несколько уровней сложности. Например, при постройке «моста» нормотипичный ребенок может рассчитывать устойчивость конструкции и схему сборки, а ребенок с выраженными нарушениями моторики - подбирать детали по цвету и подавать их партнеру по игре.

- Принцип полисенсорности: Задействование максимального количества анализаторов (зрительного, слухового, тактильного, кинестетического). Использование фактурных материалов, звуковых элементов и ярких визуальных опор.

- Принцип постепенного усложнения (пошаговость): Любое комплексное задание разбивается на четкие, понятные микро-этапы. Инструкция дается кратко, при необходимости подкрепляется визуальными пиктограммами или карточками PECS.

- Принцип партнерства и кооперации: Все игры и проекты организуются в малых группах (по 2-4 человека), где распределяются роли. Это стимулирует развитие коммуникативных навыков и взаимной эмпатии.

Практические формы и примеры развивающих STEAM-игр в инклюзивной группе.

Сенсорно-конструкторские STEAM-игры

1. Игра «Парящий шарик» (Science + Engineering)

Цель: Развитие речевого дыхания, мелкой моторики, знакомство с законами аэродинамики.

Оборудование: Бумажные стаканчики, трубочки для напитков, легкие шарики из пенопласта или пинг-понга.

Содержание: Дети вместе с педагогом мастерят простейший тренажер из стаканчика и трубочки. Задача - дуть в трубочку так, чтобы шарик удерживался в воздухе.

Адаптация для детей с ООП: Для детей с ослабленным дыханием используются более легкие материалы (перышки, ватные шарики), а основа фиксируется на столе с помощью штатива или липучек.

2. Игра «Умный город» (Engineering + Mathematics + Art)

Цель: Развитие пространственного мышления, навыков конструирования и взаимодействия.

Оборудование: Крупные блоки конструктора, деревянные кубики, цветной скотч, игрушечные машинки, карточки-схемы.

Содержание: Дети на полу наклеивают «дороги» из цветного скотча и строят вдоль них здания разной высоты по схемам или собственному замыслу.

Адаптация для детей с ООП: Детям с нарушением зрения предоставляются фактурные «дорожки» (из бархатной бумаги или силиконовых полосок), а схемы конструирования упрощаются до 2–3 элементов с контрастными цветами.

Дидактические и интерактивные игры с элементами робототехники

3. Игровые поля с программируемыми мини-роботами

Цель: Формирование пространственной ориентации (вперед, назад, налево, направо), основ алгоритмизации и логики.

Содержание: На тематическом коврике (например, «Сказочный лес» или «Геометрические фигуры») ребенок задает роботу стрелками-кнопками маршрут от одной точки к другой.

Инклюзивный потенциал: Работа с роботом-пчелкой идеальна для детей с расстройствами аутистического спектра и задержкой психического развития, так как устройство дает четкую, предсказуемую обратную связь, нажатие на крупные кнопки приятно тактильно и сопровождается звуковым/световым сигналом.

Экспериментально-исследовательские сенсорные игры

4. Лаборатория «Свойства веществ и материалов»

Цель: Развитие познавательной активности, исследовательских навыков, тактильной чувствительности.

Оборудование: Сенсорный стол/подносы с кинетическим песком, водой, крупами, гидрогелем, пробирки, пипетки, формы.

Содержание: Дети проводят простейшие опыты: растворение предметов, фильтрация воды, смешивание красок, поиск «сокровищ» в кинетическом песке с помощью магнитов.

Адаптация для детей: Опыты проводятся без строгого временного ограничения. Детям с сенсорной защитной реакцией предлагаются инструменты-посредники (лопатки, пинцеты, щипцы), чтобы исключить прямой контакт с некомфортной текстурой.

Применение STEAM-технологий и развивающих игр в инклюзивной среде меняет роль педагога: из транслятора знаний он превращается в фасилитатора и партнера по исследованию.

Интеграция элементов STEAM-образования и специально адаптированных развивающих игр в инклюзивных группах детского сада выступает эффективным механизмом преодоления изоляции детей с особыми образовательными потребностями. Мультисенсорный, деятельностный характер STEAM-технологий позволяет компенсировать первичные нарушения в развитии ребенка за счет активизации сохранных анализаторов и поддержания естественного детского любопытства. Практика показывает, что в процессе совместного конструирования, экспериментирования и игры дети с ООП не только быстрее усваивают базовые представления об окружающем мире, но и органично вливаются в детский коллектив.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан "Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования до 2030 года." ПП-4312 от 08.05.2019 г.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями." ПП -4860 от 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие. – Казань, 2013

4. Волосовец TV., Маркова VA., Аверин С. А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная образовательная программа. - М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. - 112 с.

5. Николаева М. В., Емельянова И. Д. Инклюзивное образование в дошкольной образовательной организации: Учебное пособие. - М.: Флинта, 2021.

6. Штайнер К. STEAM-подход в обучении детей с особыми возможностями здоровья: практическое руководство. - СПб.: Речь, 2022.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРОЦЕССА ЦИФРОВИЗАЦИИ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абдикаримова А.С.
магистр 2 курса
НГПИ имени Ажинияза

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, raqamlachtirich, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta'lim tachkilotlari, mediasavodxonlik, raqamli pedagogika, o'qitichning innovatsion usullari.
Ключевые слова: дошкольное образование, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, дошкольные образовательные организации, медиаграмотность, цифровая педагогика, инновационные методы обучения.
Keywords: preschool education, digitalization, information and communication technologies, preschool educational organizations, media literacy, digital pedagogy, innovative teaching methods.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni batafsil tadqiq etilgan. Ishda raqamlaştirişning to'rtta asosiy bosqiçi ajratib ko'rsatilgan va batafsil tavsiflangan, infratuzilmaviy, ma'muriy-boşqaruv, mazmunli-pedagogik va innovatsion-ekotizim.
РЕЗЮМЕ:
В данной научной статье подробно исследуется процесс цифровой трансформации системы дошкольного образования. В работе выделены и детально охарактеризованы четыре ключевых этапа цифровизации: инфраструктурный, административно-управленческий, содержательно-педагогический и инновационно-экосистемный.
SUMMARY:
This scientific article explores the process of digital transformation within the preschool education system in detail. The work identifies and describes in detail four key stages of digitalization: infrastructural, administrative-managerial, content-pedagogical, and innovative-ecosystem.

Key words: preschool education, digitalization, information and communication technologies, preschool educational organizations, media literacy, digital pedagogy, innovative teaching methods.

Современный этап развития человечества характеризуется глобальной цифровой трансформацией, затронувшей абсолютно все сферы жизнедеятельности общества, включая социально-экономический и образова-

тельный секторы. Образование как ключевой институт формирования человеческого капитала вынуждено оперативно реагировать на вызовы цифровой эпохи. При этом особое внимание уделяется начальному звену системы непрерывного образования - дошкольному образованию.

Дошкольный возраст является уникальным и чрезвычайно важным периодом в жизни человека. Именно в этот период закладываются фундаментальные основы физического, психического, эмоционального и интеллектуального развития личности, формируются базовые ценности, познавательная активность и первичные навыки социализации. Современные дети взрослеют в условиях насыщенного цифрового пространства, с раннего возраста сталкиваясь с различными электронными устройствами, что формирует у них так называемое «клиповое» восприятие информации и специфические особенности мышления.

В данных условиях перед системой дошкольного образования встает масштабная задача: с одной стороны, сохранить традиционные, проверенные временем формы детской деятельности (игра, конструирование, рисование, живое общение со сверстниками и взрослыми), а с другой - органично интегрировать в воспитательно-образовательный процесс современные цифровые инструменты, обеспечивающие всестороннее развитие ребенка и подготавливающие его к жизни в информационном обществе.

Под цифровизацией системы дошкольного образования следует понимать не просто оснащение дошкольных учреждений компьютерной техникой и подключение их к сети Интернет, а сложный, многогранный процесс качественного преобразования всей образовательной системы. Этот процесс включает в себя несколько взаимосвязанных компонентов:

- Во-первых, это модернизация материально-технической базы и информационной инфраструктуры дошкольных образовательных учреждений, обеспечивающая техническую возможность применения современных электронных средств.

- Во-вторых, это трансформация механизмов управления и документооборота на всех уровнях - от отдельной группы и руководства детского сада до органов муниципального и республиканского управления образованием.

- В-третьих, это внедрение новых цифровых средств обучения, развития и воспитания, пересмотр содержания образовательных программ и методик преподавания с учетом возможностей ИКТ.

- В-четвертых, это системное повышение уровня профессиональной ИКТ-компетентности педагогических и управленческих кадров, создание

условий для их непрерывного профессионального роста в цифровой среде.

И, наконец, это создание единого информационно-образовательного пространства, объединяющего дошкольную организацию, педагогов, детей и их родителей в единую коммуникационную систему.

Теоретический фундамент исследования опирается на принципы системного, деятельностного и личностно-ориентированного подходов. Важно подчеркнуть, что информационные технологии в ДОО не должны выступать в качестве самоцели или простой замены традиционных средств воспитания. Их ключевая функция - быть эффективным дидактическим средством, расширяющим возможности педагога и обогащающим детскую деятельность.

Процесс проникновения и укоренения цифровых технологий в сфере дошкольного воспитания носит последовательный, эволюционный характер. В зависимости от приоритетных задач, уровня развития технологий и степени готовности образовательной системы можно выделить четыре основных этапа.

Первый этап: Инфраструктурный (Формирование базовой материально-технической платформы). Начальный этап цифровизации был направлен на преодоление первичного «цифрового разрыва» и создание минимально необходимой технической базы внутри образовательных учреждений. На данном этапе решались задачи первоочередного закупа и установки персональных компьютеров для административного персонала и узких специалистов - логопедов, психологов, дефектологов и методистов. Методические и музыкальные кабинеты оснащались первичным мультимедийным оборудованием, включающим проекторы, экраны и акустические системы.

Параллельно формировалась сетевая инфраструктура: прокладывались локальные вычислительные сети, осуществлялось подключение учреждений к сети Интернет, а также создавались официальные веб-сайты дошкольных организаций для информирования родительской общественности.

В кадровой сфере на этом этапе проходила первичная ликвидация компьютерной неграмотности, организовывались базовые курсы обучения педагогов работе с операционной системой, текстовыми редакторами и электронной почтой. Главным итогом первого этапа стало формирование начальных условий для использования ИКТ, перевод части рутинной бу-

мажной работы в электронный формат и создание предпосылок для системных изменений в управлении и педагогике.

Второй этап: Административно-управленческий (Автоматизация процессов и внедрение информационных систем). Второй этап характеризуется смещением акцента с простого оснащения техникой на системную автоматизацию процессов управления, контроля, учета и предоставления государственных услуг в сфере дошкольного образования.

Ключевым направлением этого этапа стало внедрение специализированных информационных систем управления. Данные системы позволили сформировать единую государственную базу данных обо всех детских садах, воспитанниках и педагогических кадрах. Значительным социальным шагом стала автоматизация процесса постановки детей на учет и выдачи направлений в ДОО через электронные очереди. Это обеспечило прозрачность распределения мест, снизило коррупционные риски и упростило процедуру записи ребенка в ДОО для родителей. Кроме того, была осуществлена автоматизация внутреннего учета: произошел переход в цифровой формат процессов учета ежедневной посещаемости, формирования рациона питания, расчета дето-дней, кадрового учета и учета материально-технических ценностей. Это существенно снизило бюрократическую нагрузку на воспитателей и руководство ДОО.

Третий этап: Содержательно-педагогический (Интеграция ИКТ в образовательный и развивающий процесс). Третий этап является наиболее важным с точки зрения качества самого дошкольного образования. На этом этапе происходит переход от использования цифровых устройств исключительно в управленческих целях к их активному применению в качестве эффективного дидактического инструментария. В практику работы педагогов внедряется интерактивная образовательная среда. Групповые помещения оснащаются интерактивными досками, панелями и обучающими столами. Воспитатели начинают активно использовать мультимедийные презентации, обучающие анимационные фильмы, аудиосказки и интерактивные дидактические игры, разработанные с учетом возрастных психофизиологических особенностей детей.

Цифровые инструменты становятся средством развития ключевых психических функций ребенка. Специализированные развивающие программы применяются для формирования логического мышления, пространственного воображения, зрительной и слуховой памяти, развития речи, а также мелкой моторики. Также на этом этапе качественно меняется формат взаимодействия с родителями. На смену традиционным бумажным

объявлениям приходят электронные дневники развития, официальные группы в мессенджерах, онлайн-консультации специалистов и цифровые портфолио воспитанников, что существенно повышает уровень вовлеченности семьи в образовательный процесс.

Четвертый этап: Инновационно-экосистемный (Формирование сквозной цифровой среды и подготовка к будущему). Современный этап отражает наивысшую степень интеграции технологий, когда цифровые инструменты образуют единую гибкую образовательную экосистему. В образовательную практику интегрируются технологии VR/AR (виртуальной и дополненной реальности) и элементы робототехники. Дети получают возможность работать с элементарными программируемыми конструкторами в рамках STEAM-образования, совершать виртуальные экскурсии в музеи, изучать космос и явления природы в интерактивном формате.

Начинается освоение технологий на базе искусственного интеллекта для проведения мониторинга индивидуальной траектории развития каждого ребенка, оценки его успехов и своевременного выявления возможных задержек в развитии или, наоборот, проявления одаренности. Формируется модель непрерывного повышения цифровой компетентности самих педагогов через создание виртуальных методических объединений, прохождение онлайн-курсов и активное участие в сетевых педагогических сообществах для обмена опытом.

При всех очевидных преимуществах процесс цифровизации дошкольного образования несёт в себе ряд серьезных рисков и вызовов, требующих постоянного научно-методического и медицинского контроля. В первую очередь это психофизиологический фактор и необходимость строгого соблюдения санитарно-гигиенических норм. Чрезмерное пребывание детей перед экранами мониторов может оказывать негативное влияние на зрение, формирование осанки, общую двигательную активность и эмоциональное состояние. В ДОО строго регламентируется время непрерывной работы с техникой: для детей 5–6 лет оно не должно превышать 10–15 минут в день.

Вторым важным риском является гиподинамия и дефицит живого общения. Цифровые средства ни в коем случае не должны вытеснять подвижные игры, физическую культуру, конструирование из реальных материалов и, самое главное, эмоциональное живое общение со сверстниками и воспитателем. Кроме того, сохраняется методический и кадровый барьер. Часть педагогов (особенно старшего поколения) испытывает психологический комфорт при работе исключительно по традиционным мето-

дикам и проявляет «цифровой барьер», либо использует ИКТ формально, без глубокого понимания их дидактической ценности.

Заключение. В области инфраструктуры необходимо продолжить работу по выравниванию материально-технического обеспечения ДОО в городских и сельских районах, обеспечив все учреждения устойчивым и безопасным высокоскоростным Интернетом. В области подготовки кадров требуется внедрить каскадную систему непрерывного повышения квалификации педагогов, сделав акцент не просто на пользовательском владении компьютером, а на методике преподавания с использованием цифровых и STEAM-технологий.

В области методического обеспечения следует усилить экспертный контроль за качеством и безопасностью детского цифрового контента, внедряемого в ДОО, а также разработать методические рекомендации по интеграции ИКТ в различные образовательные области.

В области работы с семьей необходимо проводить регулярную просветительскую работу с родителями по вопросам «цифровой гигиены» и культуры безопасного использования электронных устройств детьми в домашних условиях.

Главная цель цифровизации дошкольного образования заключается не в замене традиционной школы воспитания и обучения цифровыми аналогами, а в создании гармоничной, безопасной и развивающей образовательной среды, где технологии служат надежным помощником педагога в раскрытии потенциала каждого ребенка.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдуллаева Ш. А. Инновационные технологии в системе дошкольного образования. Ташкент: Ўзбекистон, 2021. - 180 с.

2. Белая К. Ю. Инновационная деятельность в ДОО: Методическое пособие. Москва: ТЦ Сфера, 2020. - 128 с.

3. Веракса Н. Е., Веракса А. Н. Цифровизация в дошкольном детстве: плюсы и минусы // Дошкольное воспитание. 2022. № 4. - С. 12-19.

4. Карабанова О. А. Развитие предметно-пространственной среды ДОО в условиях цифровой трансформации // Педагогика и психология образования. 2021. № 2. - С. 45-53.

5. Цифровые образовательные ресурсы как средство повышения эффективности усвоения информации обучающимися: монография /А. С. Коротеева //Психолого педагогические исследования. 2022. № 4. - С. 78-92.

6. Особенности использования цифровых ресурсов в дошкольном образовании / И. В. Петрова, Т. А. Иванова // Научный вестник дошкольного образования. 2023. № 11. - С. 55–66.

СҮЎРЕТЛЕЎ ӨНЕРИ ҲӘМ МУЗЫКА

MANZARA KOMPOZITSIYASINI CHIZISHGA O‘RGATISH METODLARI

Xamroqulova M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

Tayanch so‘zlar: tasviriy san’at, manzara, manzara kompozitsiyasi, kompozitsiya, perspektiva, rangtasvir, metod, badiiy idrok, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya, o‘quvchi, pedagogik texnologiya.
Ключевые слова: изобразительное искусство, пейзаж, пейзажная композиция, композиция, перспектива, живопись, метод, художественное восприятие, творческая деятельность, эстетическое воспитание, учащийся, педагогическая технология.
Key words: visual arts, landscape, landscape composition, composition, perspective, painting, method, artistic perception, creative activity, aesthetic education, student, pedagogical technology.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Manzara janrining tasviriy san’atdagi o‘rni, kompozitsion yaxlitlikni ta’minlovchi asosiy qonuniyatlar, perspektiv tasvir, fazoviy kenglikni ifodalash, rang va yorug‘lik munosabatlarini tashkil etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda manzara kompozitsiyasini o‘rgatish jarayonida kuzatish, tushuntirish, namoyish etish, bosqichma-bosqich tasvirlash, qiyoslash, tahlil qilish, ijodiy topshiriq va individual yondashuv metodlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, manzara chizishga o‘rgatish jarayonining tayyorgarlik, kompozitsion yechim, asosiy shakllarni joylashtirish, perspektiv qurish, rang munosabatlarini aniqlash, detallashtirish va yakuniy tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan. Manzara kompozitsiyasi ustida ishlash o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, fazoviy tasavvuri, rangni his etishi, estetik didi va mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются теоретико-методические основы обучения учащихся созданию пейзажной композиции на уроках изобразительного искусства. Раскрывается значение жанра пейзажа в изобразительном искусстве, рассматриваются основные закономерности композиционной целостности, вопросы перспективного изображения, передачи пространственной глубины, а также организации цветовых и световых отношений. Обосновывается педагогический потенциал использования методов наблюдения, объяснения, демонстрации, поэтапного изображения, сравнения, анализа, творческого задания и индивидуального подхода в процессе обучения созданию пейзажа. Разработана последовательность работы над пейзажной композицией, включающая подготовительный этап, поиск композиционного решения, размещение основных форм, построение перспективы, определение цветовых отношений, детализацию и итоговый анализ. Показано, что работа над пейзажной композицией способствует развитию наблюдательности, пространственного мышления, чувства цвета, эстетического вкуса и самостоятельного творческого мышления учащихся.

SUMMARY:
This article analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching students to create landscape compositions in visual arts lessons. The role of the landscape genre in visual art, the basic principles of compositional integrity, perspective representation, spatial depth, and the organization of color and light relationships are examined. The pedagogical potential of observation, explanation, demonstration, step-by-step drawing, comparison, analysis, creative assignments, and individualized instruction is substantiated. A sequential methodology for teaching landscape composition is proposed, including preparation, compositional planning, placement of major forms, perspective construction, establishment of color relationships, detailing, and final analysis. The study demonstrates that working with landscape composition contributes to the development of students' observation skills, spatial thinking, color perception, aesthetic taste, and independent creative thinking.

Kirish. Tasviriy san'at ta'limining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni badiiy idrok etish, kuzatish asosida tasvirlash va ko'rgan hodisalarini ijodiy qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, manzara janri o'quvchilarning tabiat hodisalarini kuzatishi, ularning shakl, rang, hajm, masofa va fazoviy munosabatlarini anglashida muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Tabiat manzarasini tasvirlash jarayonida o'quvchi nafaqat ko'rgan obyektlarini qog'ozga tushiradi, balki ularning o'zaro munosabatini kompozitsion jihatdan tashkil etadi.

Manzara kompozitsiyasi tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay vositalardan biri hisoblanadi. Chunki manzara ustida ishlash jarayonida o'quvchi bir vaqtning o'zida bir necha tasviriy masalalarni hal etadi: tasvir maydonini tashkil etish, asosiy va ikkilamchi obyektlarni ajratish, ufq chizig'ini aniqlash, perspektiv qisqarishlarni hisobga olish, oldingi, o'rta va uzoq planlarni belgilash, ranglar uyg'unligini topish hamda yorug'lik-soya munosabatlarini ifodalash. Biroq amaliyotda o'quvchilarning manzara kompozitsiyasini yaratishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatiladi. Xususan, obyektlarni qog'oz yuzasiga tasodifiy joylashtirish, perspektiva qonuniyatlarini yetarlicha anglamaslik, birinchi va uzoq plan o'rtasidagi farqni rang hamda shakl orqali ifodalamaslik, asosiy kompozitsion markazni aniqlay olmaslik kabi holatlar manzara tasvirining badiiy yaxlitligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli manzara chizishga o'rgatish jarayonida faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki kompozitsion fikrlashni ham izchil shakllantirish talab etiladi.

Tasviriy san'at metodikasida badiiy faoliyatni kuzatish, idrok etish va amaliy bajarishning o'zaro bog'liqligi muhim metodik tamoyil sifatida qaraladi. O'quvchi avvalo tasvirlanayotgan tabiat hodisasini kuzatishi, uning asosiy belgilarini ajratishi, keyinchalik ushbu kuzatuvlarni kompozitsion yechimga

aylantirishi lozim. Mazkur jarayon o‘qituvchidan namoyish, tushuntirish va amaliy yo‘naltirish metodlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatishning samarali metodlarini nazariy jihatdan asoslash hamda manzara ustida ishlashning bosqichma-bosqich metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat. Maqola quyidagi ilmiy-metodik savollarga javob berishga qaratilgan: 1) manzara kompozitsiyasini o‘rgatishda qanday tasviriy va pedagogik qonuniyatlar ustuvor ahamiyatga ega? 2) O‘quvchilarning manzara yaratish jarayonidagi kompozitsion fikrlashini qanday metodlar orqali rivojlantirish mumkin? 3) Manzara kompozitsiyasini bajarish bosqichlari qanday metodik ketma-ketlikda tashkil etilishi lozim? 4) Manzara ustida ishlash o‘quvchilarning ijodiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Nazariy asoslar va adabiyotlar sharhi. Manzara – tabiat ko‘rinishlarini tasvirlashga asoslangan tasviriy san’at janri bo‘lib, unda tabiatning tashqi ko‘rinishi bilan bir qatorda uning emotsional va badiiy ifodasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Manzara tasvirida rassom real tabiat hodisasini aynan ko‘chirish bilan cheklanmaydi, balki uning muhim belgilarini tanlaydi, umumlashtiradi va ma’lum badiiy g‘oya asosida kompozitsion jihatdan tashkil etadi. Manzara kompozitsiyasining asosiy vazifasi tasvir maydonidagi barcha elementlarni yagona badiiy mazmunga bo‘ysundirishdan iborat. Daraxt, tog‘, bino, yo‘l, suv havzasi, osmon, o‘simliklar va boshqa obyektlar alohida tasviriy birliklar sifatida emas, balki yagona kompozitsion tizimning tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan kompozitsiya qonuniyatlarini o‘zlashtirish o‘quvchining manzara tasvirini yaratishdagi asosiy tayyorgarlik bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Kompozitsiyada yaxlitlik, muvozanat, ritm, kontrast, nyuans, asosiy va ikkilamchi qismlarning o‘zaro munosabati kabi tushunchalar muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi manzara chizish jarayonida ushbu qonuniyatlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirganda, tasviriy vositalardan maqsadli foydalanish imkoniyati kengayadi. Ayniqsa, kompozitsion markazni aniqlash va uni boshqa elementlardan ajratib ko‘rsatish manzaraning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Manzara tasvirida perspektiva qonuniyatlari alohida ahamiyatga ega. Fazoviy kenglikni tekislikda ifodalash uchun obyektlarning masofaga qarab kichrayishi, parallel chiziqlarning uzoqlashgan sari yaqinlashishi, ufq chizig‘ining joylashuvi va planlar o‘rtasidagi munosabatni hisobga olish zarur. O‘quvchilarga perspektivani o‘rgatishda murakkab nazariy qoidalarni faqat og‘zaki tushuntirish yetarli emas. Ularni oddiy geometrik shakllar,

yo‘l, daraxtlar qatori, bino yoki elektr ustunlari misolida ko‘rsatish va amaliy mashqlar orqali mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Manzara kompozitsiyasida fazoviy kenglik odatda oldingi, o‘rta va uzoq planlarning o‘zaro munosabati orqali ifodalanadi. Oldingi plandagi obyektlar shaklan aniqroq, rang jihatidan faolroq va detallarga boyroq tasvirlanishi mumkin. Uzoq planlarda esa shakllarning umumlashuvi, ranglarning nisbatan xiralashuvi va havo perspektivasi ta’siri kuchayadi. Mazkur qonuniyatlarni amaliy o‘zlashtirish o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Manzara kompozitsiyasini yaratishda rang ham asosiy tasviriy vositalardan biridir. Tabiatdagi ranglarni mexanik ravishda ko‘chirishdan ko‘ra, ularning o‘zaro munosabatini anglash muhim. O‘quvchi issiq va sovuq ranglar, ranglar kontrasti, rangning och-to‘qligi, to‘yinganligi hamda yorug‘lik ta’sirida ranglarning o‘zgarishini kuzatishi lozim. Shu sababli manzara darslarida rangni kuzatish va rang munosabatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mashqlarni muntazam tashkil etish zarur.

Pedagogik nuqtayi nazardan manzara kompozitsiyasini o‘rgatish jarayoni kuzatish va ijodiy faoliyatning uzviy birligi asosida tashkil etilishi lozim. O‘qituvchi tayyor tasvirni ko‘rsatib beruvchi emas, balki o‘quvchining kuzatuvi va mustaqil badiiy qarorini yo‘naltiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bu yondashuv o‘quvchining tayyor sxemani takrorlashiga emas, balki o‘zining kompozitsion yechimini topishiga imkon yaratadi. Shuningdek, manzara kompozitsiyasini o‘rgatishda naturadan ishlash bilan xayoliy yoki ijodiy kompozitsiya yaratishning o‘zaro bog‘liqligi muhimdir. Naturadan kuzatish o‘quvchiga real obyektlarning shakli, proporsiyasi, fazodagi joylashuvi va rang munosabatlarini anglash imkonini bersa, xayoliy kompozitsiya ushbu bilimlarni mustaqil ijodiy qayta ishlashga sharoit yaratadi. O‘rganilgan metodik qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, manzara kompozitsiyasini o‘rgatishda faqat rasm chizish texnikasiga e’tibor qaratish yetarli emas. Samarali metodika kuzatish, tahlil, kompozitsion rejalashtirish, perspektiv qurish, rang bilan ishlash va ijodiy talqinni yagona pedagogik jarayonda birlashtirishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, badiiy ta’lim, kompozitsiya nazariyasi hamda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga oid pedagogik yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, suhbat, amaliy mashg‘ulotlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar

manzara kompozitsiyasini o‘rgatishning mazmuni, shakllari va metodlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Manzara kompozitsiyasini o‘rgatish metodikasi shartli ravishda yetti o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etilishi mumkin.

Birinchi bosqich – kuzatish va mavzuni anglash. Ushbu bosqichda o‘quvchilar tabiat ko‘rinishini kuzatadi, manzaraning asosiy mazmunini aniqlaydi va tasvir uchun muhim obyektlarni ajratib oladi. O‘qituvchi “Manzarada asosiy e’tibor nimaga qaratilgan?”, “Qaysi obyekt kompozitsion markaz bo‘lishi mumkin?”, “Oldingi va uzoq plan qanday farqlanadi?” kabi savollar orqali o‘quvchilarning badiiy idrokini faollashtiradi.

Ikkinchi bosqich – kompozitsion qidiruv. O‘quvchilar kichik hajmdagi dastlabki eskizlar orqali obyektlarning tasvir maydonidagi joylashuvini aniqlaydi. Bir nechta variantlarni qiyoslash orqali eng maqbul kompozitsion yechim tanlanadi. Mazkur bosqich o‘quvchini tasvirni darhol katta formatda boshlashdan saqlaydi va oldindan rejalashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqich – asosiy shakllarni joylashtirish. Tanlangan kompozitsion yechim asosida ufq chizig‘i belgilanadi va asosiy obyektlarning umumiy shakllari yengil chiziqlar bilan joylashtiriladi. Bu bosqichda detallar emas, balki katta shakllarning o‘zaro nisbati va tasvir maydonidagi muvozanati asosiy e’tiborda bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich – perspektiv qurish va fazoviy kenglikni ifodalash. O‘quvchilar oldingi, o‘rta va uzoq planlarni aniqlaydi, obyektlarning masofaga qarab o‘zgarishini kuzatadi. Yo‘l, daryo, daraxtlar qatori, bino yoki boshqa perspektivani yaqqol ko‘rsatadigan obyektlardan foydalanish orqali fazoviy chuqurlik tushuntiriladi.

Beshinchi bosqich – rang munosabatlarini aniqlash. Dastlab osmon, yer, suv, tog‘ va yirik o‘simlik massalari kabi katta rang maydonlari aniqlanadi. Keyinchalik asosiy va ikkilamchi rang munosabatlari shakllantiriladi. O‘quvchiga har bir obyektning alohida rangini emas, balki uning umumiy rang muhitidagi o‘rnini kuzatish tavsiya etiladi.

Oltinchi bosqich – detallashtirish va badiiy ifodalash. Asosiy rang va shakl munosabatlari hal etilgandan so‘ng daraxt shoxlari, barglar, bino qismlari, yo‘l, suvdagi aks, bulutlar kabi ikkilamchi detallar ishlanadi. Detallashtirish jarayonida barcha obyektlarni bir xil darajada batafsil tasvirlashdan qochish, kompozitsion markazni kuchaytiruvchi detallarni ajratib ko‘rsatish lozim.

Yettinchi bosqich – umumlashtirish va tahlil. Yakuniy bosqichda tasvirning kompozitsion yaxlitligi, perspektiv to‘g‘riligi, ranglar uyg‘unligi, asosiy va ikkilamchi qismlarning munosabati hamda badiiy ifodalilik darajasi

tahlil qilinadi. O‘quvchi o‘z ishini mustaqil baholaydi va zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi manzara kompozitsiyasini tasvirlashni alohida texnik harakatlar yig‘indisi emas, balki yagona ijodiy-pedagogik jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Natija va muhokamalar. Manzara kompozitsiyasini o‘rgatish metodlarini tahlil qilish natijasida birinchi navbatda kuzatish metodining alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. O‘quvchi tabiat obyektlarini bevosita kuzatish orqali ularning shakli, o‘lchami, rang xususiyatlari va fazodagi joylashuvi haqidagi tasavvurlarini boyitadi. Kuzatishsiz bajarilgan manzara tasvirlarida esa obyektlarni sxematik va stereotip shaklda ifodalash ehtimoli ortadi.

Namoyish metodidan foydalanish ham manzara chizishga o‘rgatish samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi ish jarayonining bosqichlarini amaliy ravishda ko‘rsatib berganda o‘quvchi tasvirni qanday ketma-ketlikda tashkil etish kerakligini yaxshiroq anglaydi. Bunda tayyor rasmni ko‘rsatishdan ko‘ra, tasvirning qanday yaratilayotganini bosqichma-bosqich namoyish etish metodik jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Kompozitsion eskizlar bilan ishlash o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bir mavzu asosida bir nechta kichik eskiz yaratish o‘quvchiga obyektlarni turli joylashtirish variantlarini solishtirish va eng maqbul yechimni tanlash imkonini beradi. Natijada o‘quvchi kompozitsiyani tasodifiy emas, maqsadli tashkil etishga o‘rganadi.

Perspektivani o‘rgatish jarayonida nazariy tushunchalarni amaliy obyektlar bilan bog‘lash muhimligi kuzatildi. Masalan, yo‘lning uzoqlashgan sari torayishi, daraxtlarning masofaga qarab kichrayib borishi yoki binolarning perspektiv qisqarishi orqali nazariy qoida aniqroq idrok etiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rang bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning asosiy qiyinchiliklaridan biri obyektlarning lokal rangini atrof-muhitdan ajratib ko‘rishidir. Shu sababli o‘qituvchi rangni alohida obyekt sifatida emas, balki umumiy rang muhitining bir qismi sifatida kuzatishga yo‘naltirishi lozim. Masalan, uzoqdagi tog‘larning rangida havo muhitining ta’siri, suv yuzasida osmon va atrofdagi obyektlarning aks etishi, daraxtlarning yorug‘ va soya qismlaridagi rang farqlari amaliy misollar asosida tushuntirilishi mumkin.

Ijodiy topshiriqlar esa o‘quvchilarning individual badiiy qarashlarini rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Naturadan ishlashdan tashqari, “Kuzgi manzara”, “Tog‘ manzarasi”, “Qishloq manzarasi”, “Yomg‘irdan keyingi

tabiat", "Quyosh botishi" kabi mavzularda mustaqil kompozitsiyalar yaratish o'quvchining kuzatuvlarini ijodiy talqin qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, manzara kompozitsiyasini o'rgatishda individual yondashuvning zarurligi namoyon bo'ladi. O'quvchilarning tasviriy qobiliyati, rangni idrok etishi va fazoviy tasavvuri bir xil darajada bo'lmaydi. Shu sababli ayrim o'quvchilarga perspektiv qurish bo'yicha qo'shimcha mashqlar, boshqalariga esa rang munosabatlarini aniqlash yoki kompozitsion markazni topish bo'yicha topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Muhokama. Manzara kompozitsiyasini chizishga o'rgatishning samaradorligi, avvalo, o'qitish jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishiga bog'liq. O'quvchiga birdaniga tayyor manzarani bajarish topshirig'ini berish uning kompozitsion masalalarni mustaqil hal etish imkoniyatini cheklashi mumkin. Aksincha, kuzatishdan boshlab eskiz, umumiy shakl, perspektiva, rang, detal va umumlashtirishgacha bo'lgan izchil jarayon o'quvchining tasviriy faoliyatini mantiqiy tashkil etadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, manzara chizishga o'rgatish faqat rasm chizish texnikasini o'zlashtirish bilan chegaralanmasligi kerak. Manzara orqali o'quvchi tabiatni kuzatadi, undagi o'zgarishlarni anglaydi, estetik munosabat bildiradi va o'z taassurotlarini badiiy obrazga aylantiradi. Shu sababli mazkur mashg'ulotlar estetik tarbiya va badiiy tafakkurni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq.

Manzara kompozitsiyasida kompozitsion markazni to'g'ri aniqlash ham muhim metodik masalalardan biridir. O'quvchilar ko'pincha ko'rgan barcha obyektlarini bir xil darajada muhim deb hisoblab, tasvir maydoniga haddan tashqari ko'p element joylashtiradi. Natijada kompozitsion yaxlitlik susayadi. O'qituvchi o'quvchini "asosiy", "ikkinchi darajali" va "yordamchi" obyektlarni farqlashga o'rgatishi lozim.

Bundan tashqari, manzara tasvirida naturaga to'liq taqlid qilish va ijodiy qayta ishlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur. O'quvchi naturani kuzatishi kerak, biroq uning vazifasi faqat ko'rganini mexanik tarzda ko'chirishdan iborat emas. U kuzatilgan tabiat ko'rinishini kompozitsion jihatdan tartibga solishi, ayrim obyektlarni qisqartirishi yoki kuchaytirishi, rang va yorug'likni badiiy maqsadga muvofiq talqin qilishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy roli ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchi o'rniga rasmni bajarib bermasligi, balki muammoni mustaqil hal qilishga yo'naltirishi lozim. "Qayerini qanday chizish kerak?" degan tayyor ko'rsatmadan ko'ra, "Bu obyektni nima sababdan aynan shu joyga joylashtirish mumkin?", "Uzoqdagi daraxtlarning o'lchami qanday

o‘zgaradi?”, “Kompozitsion markazni qanday kuchaytirish mumkin?” kabi muammoli savollar o‘quvchining mustaqil fikrlashini faollashtiradi.

Manzara kompozitsiyasini o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham metodik imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin. Raqamli tasvirlar, interaktiv taqdimotlar, perspektivani ko‘rsatuvchi vizual materiallar va bosqichma-bosqich demonstratsiyalar murakkab tasviriy jarayonlarni o‘quvchiga yanada tushunarli ko‘rsatish imkonini beradi. Biroq texnologik vosita badiiy faoliyatning o‘rnini egallamasligi, balki uni pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida manzara kompozitsiyasini o‘rgatish samaradorligini baholashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, tasviriy tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulot uchun ajratilgan vaqt, moddiy-texnik sharoit va o‘qituvchining metodik kompetensiyasi kabi omillar turlicha ta’sir ko‘rsatishini qayd etish lozim. Shu sababli taklif etilayotgan metodik tizimni barcha ta’lim bosqichlariga bir xil shaklda qo‘llashdan ko‘ra, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Mazkur tadqiqot tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonining nazariy va metodik asoslarini tizimlashtirish imkonini berdi. Manzara kompozitsiyasi o‘quvchilarning nafaqat tasviriy ko‘nikmalarini, balki kuzatuvchanligi, fazoviy tafakkuri, rangni idrok etishi, estetik didi va mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning asosiy metodik xulosalari quyidagilardan iborat: birinchidan, manzara kompozitsiyasini o‘rgatish kuzatish, kompozitsion rejalashtirish va amaliy tasvirlashning uzviy birligi asosida tashkil etilishi lozim; ikkinchidan, kompozitsion eskizlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil badiiy qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi; uchinchidan, perspektiva, planlilik va rang munosabatlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish manzaraning fazoviy va badiiy yaxlitligini ta’minlaydi; to‘rtinchidan, individual va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning shaxsiy badiiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Manzara kompozitsiyasini o‘rgatishning taklif etilgan metodik ketma-ketligi – kuzatish va mavzuni anglash, kompozitsion qidiruv, asosiy shakllarni joylashtirish, perspektiv qurish, rang munosabatlarini aniqlash, detallashtirish va umumlashtirish – tasviriy faoliyatni tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida umumta’lim maktablarida manzara mavzusidagi mashg‘ulotlarni naturadan kuzatish, qisqa muddatli eskizlar va ijodiy kompozitsiyalar bilan uyg‘unlashtirish; o‘quvchilarning individual tayyorgarligiga mos topshiriqlar ishlab chiqish; perspektiva va rangshunoslikka

oid kichik amaliy mashqlarni muntazam qo‘llash; o‘quvchilarning tayyor ishlarini faqat texnik aniqlik asosida emas, balki kompozitsion yaxlitlik, badiiy ifodalilik va ijodiy mustaqillik mezonlari asosida baholash maqsadga muvofiq.

Kelgusi tadqiqotlarda manzara kompozitsiyasini o‘rgatishning turli yosh guruhlaridagi samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining manzara kompozitsiyasini o‘rgatishdagi didaktik imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, o‘quvchilarning kompozitsion kompetensiyasini baholashning mezon va indikatorlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik yo‘nalishlar sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuzin V. S. Osnovy obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v shkole. – Moskva: Prosveshchenie, 1992.
2. Kuzin V. S. Psixologiya. – Moskva: Agraf, 2001.
3. Hasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.
4. Boymetov B. B. Qalamtasvir o‘qitishning ilmiy asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
5. Boymetov B. B. Tasviriy san’atdan amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
6. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

МОТИВАЦИОННО-ЦЕЛЕВЫЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО» КАК ОСНОВА ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Азимов С.С.
профессор кафедры изобразительного искусства и музыкального исполнения, доктор педагогических наук(DSc)
Абдуллаев С.Ф.
профессор кафедры изобразительного искусства и музыкального исполнения, доктор педагогических наук
Абдуллаев С.С.
доцент кафедры изобразительного искусства и музыкального исполнения Бухарского государственного университета Республики Узбекистан

Tayanch so'zlar: lavozim tavsifi, estetik tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar, qobiliyatlar, ijodkorlik, motivatsion va maqsadli shartlar, ijodiy salohiyat, an'anaviy xalq badiiy madaniyati.
Ключевые слова: профессиограмма, эстетическая подготовка, личностные качества, способности, творчество, мотивационно-целевые условия, творческий потенциал, традиционная народная художественная культура.
Key words: professional profile, aesthetic training, personal qualities, abilities, creativity, motivational and goal-oriented conditions, creative potential, traditional folk artistic culture.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada Sharqning buyuk ajdodlari, mutafakkirlari va o'qituvchilarining boy merosidan foydalangan holda, xalq amaliy san'ati orqali talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Unda kelajakdagi o'qituvchilar va tasviriy va amaliy san'at ustalarining kasbiy rivojlanishi yo'llari o'rganiladi. Amaliy san'at mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun motivatsion va maqsadli shart-sharoitlar ishlab chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются вопросы развития творческого потенциала студентов средствами народного искусства на основе богатого наследия великих предков, мыслителей и педагогов Востока. Рассматриваются пути профессионального развития будущих педагогов и мастеров изобразительного и прикладного искусства. Разработаны мотивационно-целевые условия развития творческого потенциала студентов направления «Прикладное искусство».
SUMMARY:

The article examines the development of students' creative potential through folk art, drawing on the rich heritage of great ancestors, thinkers, and educators of the East. It explores the professional development pathways of future teachers and specialists in fine and applied arts. The motivational and goal-oriented conditions for developing the creative potential of students majoring in "Applied Art" have been developed.

Современная педагогическая наука рассматривает эстетическое воспитание как сложную философскую и общественно-педагогическую систему, являющуюся составной частью общей духовной культуры человека. Установлено, что эстетическое отношение человека к действительности, включая природную и предметную среду и искусство, так же, как и литература, имеет свои объективные закономерности, которые доступны осмыслению, изучению и использованию в эстетическом, нравственном и, в конечном счёте, духовном развитии и воспитании личности. Эстетические закономерности находят проявление в жизни природы и общества, эстетическом сознании и деятельности.

Другое важное положение заключается в том, что эстетическое воспитание как философскую и педагогическую категорию можно рассматривать как целенаправленный, организованный и контролируемый педагогический процесс формирования у личности эстетического отношения к действительности и эстетической деятельности.

Значение эстетического воспитания и роль развития творческого потенциала педагогов-наставников средствами искусства и литературы неоднократно подчёркивались многими великими мыслителями прошлых веков: Аль-Фараби, Абдурахманом Джами, Алишером Навои, Абдуллой Авлони и др., а также выдающимися просветителями - Н. Чернышевским, Л. Толстым, В. Белинским и др. Данной проблеме были посвящены научные труды многих крупных учёных-педагогов прошлого столетия: В. Сухомлинского, А. Макаренко, А. Бакушинского, Л. Выготского и др.

Искусство, особенно народное, обладающее огромным эстетическим потенциалом и широкими возможностями как наиболее «концентрированная и развитая» форма эстетического сознания, занимает особое место как в общей проблематике эстетики как науки, так и в «профессиограмме», разработанной педагогической наукой. В связи с этим важное значение имеет разработка и создание педагогических условий для развития творческого потенциала студентов - будущих учителей предметов эстетического цикла в школе, в частности учителей изобразительного искусства и мастеров прикладного искусства.

Исходя из анализа задач эстетического воспитания, вытекающих из трудов ведущих учёных Республики в области теории и методики развития творческого потенциала учащейся молодёжи средствами народного декоративно-прикладного искусства Узбекистана - С. Абдуллаева, Р. Хасанова, Б. Бойметова, С. Булатова, К. Касымова и других, - а также последних научных исследований в области эстетики, искусствознания, психологии и педагогики можно сделать вывод о том, что уровень эстетического воспитания напрямую зависит от уровня эстетического образования будущих учителей.

В условиях Узбекистана, где искусство, особенно национальное декоративно-прикладное искусство - миниатюра, художественная вышивка, золотое шитьё, керамика, художественная резьба и роспись по дереву и ганчу и др. - имеет многовековые эстетические традиции и идеалы, эстетическое образование является определяющим фактором развития творческого потенциала студентов. Первый Президент Республики Узбекистан И. А. Каримов отмечал, что «…широкая пропаганда и популяризация лучших образцов национальной и мировой культуры должна стать основой духовного воспитания подрастающего поколения, современной нашей молодёжи» [1, с. 144].

Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев подчеркнул, что эпоха Третьего Ренессанса выдвинула перед художественно-педагогической наукой задачи создания условий для формирования будущих учителей изобразительного искусства как на основе достижений современной художественно-педагогической науки, так и великих шедевров классического национального зодчества и искусства. Их симбиоз должен составить уникальность и неповторимость искусства и архитектуры высокого предназначения [2].

В реализации этих задач, имеющих поистине государственное значение, актуальность формирования пластической культуры будущих учителей изобразительного искусства и мастеров прикладного искусства, в том числе студентов направления «Прикладное искусство», приобретает особое значение. Необходимым компонентом педагогических условий развития творческого потенциала студентов средствами народного искусства являются мотивационно-целевые условия. Они должны быть направлены на достижение дидактических, воспитательных и творческих целей.

Дидактические цели, в свою очередь, должны быть направлены на приобретение студентами - будущими учителями изобразительного искусства - комплекса знаний, умений и навыков в сфере народного декоративно-прикладного искусства, особенно его исконных, традиционных видов. К при-

меру, при изучении традиционной вышивки Узбекистана студент должен знать её основные локальные центры Республики, генезис Бухарского центра художественного текстиля, особенности вышивки школ Нураты и Шахрисябза, Самаркандского центра художественной вышивки, центров Сурхандарьи, Карши, Ташкента и Ферганы; знать исторические этапы и динамику развития этого вида художественного ремесла, уметь выделять общие черты и локальные особенности этих школ.

В процессе изучения студенты осваивают технику и приёмы работы, композицию сюзане и других изделий, конструктивное построение узоров и орнаментов, особенности колорита, постигая их своеобразие, выразительность и красоту. Достижение дидактических целей, таким образом, направлено на формирование у обучаемых эстетической образованности, что в будущем обеспечивает направленность педагога на эстетическое воспитание школьников, студентов колледжей и лицеев.

Самое главное - реализуются такие творческие цели, как развитие у обучаемых способностей к художественному восприятию, формирование творческого мышления и осмысление значимости эстетического воспитания средствами народного искусства. Очень важно при создании мотивационно-целевых условий освоения богатейшего художественного наследия наших предков обеспечить содержательные условия: разработку программ, факультативов, спецкурсов и спецпрактикумов в соответствии с блоком «Предметы по выбору» типового учебного плана.

Такой спецкурс по глубокому изучению народного искусства родного края объёмом 54 часа разработан на кафедре изобразительного искусства и музыкального исполнения Бухарского государственного университета. Спецпрактикум в значительной степени обеспечен научно-методическими материалами, видео- и фотоматериалами, творческими работами, учебно-методическими комплексами. При этом важной задачей является постоянное обновление содержания обучения с использованием современных информационных и педагогических технологий.

Кроме традиционных форм и методов обучения студентов исконным видам художественных ремёсел - лекций, бесед, практической работы в учебных мастерских, - в программе спецпрактикума предусмотрены экскурсии в музей народного декоративно-прикладного искусства, посещение творческих мастерских известных художников-ремесленников, их приглашение на встречи со студентами и выставки творческих работ. Выдающийся учёный-искусствовед А. Бакушинский считает, что «очень большое воспитательное значение имеет… эстетическое восприятие природы, конечно глав-

ным образом в виде художественных экскурсий. Это восприятие должно представлять собой своеобразную форму художественного творчества…» [3, с. 126].

Конечной целью организации педагогических условий должно быть формирование у студентов осознанного, устойчивого интереса к национальному народно-прикладному искусству, а также воспитание на этой основе эстетического вкуса и эстетической восприимчивости. Таким образом, эффективность развития творческого потенциала студентов средствами народного декоративно-прикладного искусства напрямую зависит от оптимальности организации педагогических условий, что, в свою очередь, влияет на уровень эстетической подготовки и эстетической образованности будущего специалиста.

Крупный художник-педагог Б. Неменский пишет: «Искусство как культура отношений ко всем явлениям жизни - это группа задач, которая фактически вбирает в себя содержание искусства, выраженное через него нравственно-эстетическими, эмоционально-ценностными критериями общества» [4, с. 82]. «Постоянный источник эстетических воспитательных дел - мир искусства», — подчёркивает другой автор, И. П. Подласый [5, с. 170].

Развитие творческого потенциала студентов средствами народного искусства - это процесс целенаправленного формирования интереса и способностей личности к познанию и полноценному восприятию прекрасного, выработки системы представлений об истории художественной культуры узбекского народа, формирования потребности проявить себя в прикладном искусстве и вносить элементы прекрасного в жизнь.

Таким образом, традиционная народная художественная культура в процессе целенаправленного изучения, восприятия и занятий в рамках спецкурсов несёт в себе ряд эстетико-воспитательных функций. Роль народного декоративно-прикладного искусства как действенного фактора эстетического воспитания и эстетической образованности будущих учителей-наставников и мастеров прикладного искусства в современных условиях приобретает исключительно важное значение, является насущной необходимостью и способствует формированию высоких нравственно-эстетических качеств личности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Azimov.S.S. Pedagogical requirements for teachers' professional activities in the context of modern digital education. – American journal of education and learning ISSN.2025. – P. 742-747. (ResearchBib (IF) = 10.91 impact factor)

2. Абдуллаев С. Ф., Муродова М. Х. Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 21-24

3. Абдуллаев С. Ф. Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования //Москва: СФ Абдуллаев.-1996. – 1996.

4. Azimov.S.S. Improving the Methodology of Using Computer Graphics of Future Visual Arts Teachers// European Journal of Innovationin Nonformal Дустова 5. Д. С., Абдуллаев С. Ф. Взаимосвязь педагогического и художественно-творческого компонента в системе эстетической подготовки учителя начального образования //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 84-86.

6. Baymetov B. B., Shovdirov S. A. Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 60-66.

7. Shovdirov S. A. Tasviriy san'atni o 'qitishda o 'quvchilarning sohaga oid o 'quv kompetensiyalarini shakllantirish omillari //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 8-14.

8. Азимов С. С. Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 105-108.

9. Азимов С. С. Аспекты построения и применения STEAM моделей в теории и практике изобразительного искусства //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 646-650.

10. Azimov.S.S. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatida estetik ehtiyojlarni shakllantirish metodikasi // Pedagogik mahorat. –Buxoro. 2023. - № 10. – B. 198-201.

11. Абдуллаев С. С., Рафиева Н. А. Искусства древней Руси и средней Азии в духовном диалоге (исторический экскурс) //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 101-104.

12. Тошев И. И., Абдуллаев С. С. Мемориальный комплекс Бахоуддин Накшбанди в Бухаре // Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 11-14.

13. Тошев И. И., Абдуллаев С. С., Бадриддинов С. Н. Популярные памятники и достопримечательности Бухары (минарет Калян, торговые купола) //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 7-10.

14. Абдуллаев С. С. и др. Орнаментальная символика в народном декоративно-прикладном искусстве Бухары //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 17-19.

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

TALABA TOPARLARÍNDA LIDERLIK KOMPENTENCIYALARDÍ QALIPLAESIW JOLLARI

Retxanova N.J.
Pedagogika teoriyası hám tariyxı qanigeligi magistrantı

Tayanch so'zlar: yetakchilik, kompetensiya, yetakchilik kompetensiyasi, talaba, oliy ta'lim, jamoaviy ish, kommunikativ kompetensiya, tashabbuskorlik, loyiha ishi, ustozlik, ta'lim texnologiyalari.
Ключевые слова: лидерство, компетенция, лидерская компетенция, студент, высшее образование, командная работа, коммуникативная компетентность, инициативность, проектная деятельность, наставничество, образовательные технологии.
Key words: leadership, competency, leadership competency, student, higher education, teamwork, communicative competence, initiative, project-based activities, mentoring, educational technologies.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada talabalar guruhlarida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari, mazmuni, tarkibiy qismlari va samarali usullari ko'rib chiqiladi. Yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga javob berishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda, ushbu tadqiqot talabalarda yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini o'rganadi va jamoaviy ish, loyihaga asoslangan o'rganish, ustozlik, trening va talabalarning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi va talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются педагогические основы, содержание, структурные компоненты и эффективные пути формирования лидерских компетенций в студенческих группах. Развитие лидерских компетенций занимает важное место в подготовке студентов высших учебных заведений в соответствии с требованиями современного рынка труда. На основе компетентностного подхода в исследовании раскрываются теоретические аспекты формирования лидерских качеств у студентов, а также анализируются возможности коллективной деятельности, проектных технологий, наставничества, тренингов и системы студенческого самоуправления. Результаты исследования показывают, что формирование лидерских компетенций способствует повышению качества образования, а также обеспечивает профессиональное и личностное развитие студентов.
SUMMARY:
This article discusses the pedagogical foundations, content, structural components, and effective ways of developing leadership competencies among student groups. The development of leadership competencies plays an important role in preparing university students to meet the demands of the

modern labor market. Based on the competency-based approach, the study highlights the theoretical aspects of developing leadership qualities in students and analyzes the potential of collaborative activities, project-based learning technologies, mentoring, training sessions, and student self-governance systems. The findings demonstrate that the development of leadership competencies contributes to improving the quality of education and supports the professional and personal development of students.

Kirisiw. Búgingi kúnde dúnya júzi boyınsha tálim sistemasına qoyılıp atırǵan talaplar túbiri menen ózgerip barmaqta. Zamanagóy jámiyet tek ǵana bilimli qániygelerdi emes, bálki baslamashı, dóretiwshi, ǵárezsiz pikirleytuǵın, mashqalalardı nátiyjeli sheshe alatuǵın hám jáméátti artıńnan erte alatuǵın lider shaxslardı talap etpekte. Sol sebepli joqarı oquv orınları aldında talabalardı kásiplik iskerlikke tayarlaw menen bir qatarda olarda liderlik kompetenciyaların qáliplestiriw wazıypası da áhmiyetli máselege aylanbaqta [1].

Liderlik túsinigi basqarıw menen baylanıslı boǵanı menen, onıń mazmunı talay keń. Liderlik insannıń basqalara tásir kórsetiw, jáméátti uwmama maqsetke qaray baǵdarlaw, baslamashılıq kórsetiw, mashqalalardı sheshiw hám juwapkershilikti óz moynına alıw qábiletlerin ańlatadı. Talabalık dáwiri shaxstıń kásiplik hám sociallıq qáliplesiwinde áhmiyetli basqısh bolıp, dál usı dáwirde liderlik qásiyetlerin rawajlandırıw ushın qolaylı pedagogikalıq ortalıq jaratılıwı kerek [2].

Sońǵı jıllarda kompetenciyalıq jondasıw tiykarında shólkemlestirilip atırǵan tálim procesinde talabalardıń bilim, kónlikpe hám ilmiy miynetleri menen bir qatarda olarniń jeke qásiyetlerin rawajlandırıwǵa da ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Liderlik kompetenciyası bolsa sol kompetenciyalar arasında áhmiyetli orın tutadı. Usı maqaladan maqset talaba gruppalarında liderlik kompetenciyaların qáliplestiriwdiń pedagogikalıq múmkinshiliklerin tahlil etiw hám nátiyjeli rawajlandırıw jolların anıqlawdan ibarat.

Izertlewdiń metodologiyasi. Izertlewdiń procesinde ilmiy-pedagogikalıq ádebiyatlardı teoriyalıq analiz etiw, pedagogikalıq gúzetiw, salıstırmalı analiz hám ulıwmalastırıw metodlarınan paydalanıldı. Sonday-aq, jergilikli hám shet el alımlarıniń liderlik hám kompetenciyalıq jondasıwǵa baylanıslı ilmiy kózqarasları úyrenildi.

Izertlewdiń metodologiyalıq tiykarın shaxsqa baǵdarlanǵan tálim, iskerlikke tiykarlanǵan jondasıw hám kompetenciyalıq tálim koncepciyaları quradı. Bul jondasıwlar talabalardıń ǵárezsiz iskerligin xoshametlew, dóretiwshi pikorlewiniń rawajlandırıw hám liderlik potencialın júzege shıǵarıwǵa xizmet etedi [3]. Liderlik kompetenciyasınıń quramlıq bólimleri retinde tómendegiler belgilendi:

• Kommunikativlik kompetensiya;

• Shólkemlestiriwshilik kompetensiya;
• Strategiyalıq pikirlew kompetensiyası;
• Juwapkershilik hám májburiyat;
• Mashqalalardı sheshiw kónlikpeleri;
• Jámáát menen islesiw qábileti;
• Baslamashılıq hám innovaciyalıq pikirlew.

Nátiyjeler. Talabalarda liderlik kompetenciyasınıń mazmunı.

Liderlik kompetenciyası shaxstıń belgili bir jaǵdaylarda jámáátti basqara alıw, maqsetlerdi belgilew, basqalardı motivaciyalaw hám nátiyjeli baylanıs ornata alıw qábiletlerin óz ishine aladı. Zamanagóy pedagogikalıq ádebiyatlarda liderlik kompetenciyası integrativ qásiyet retinde tushindiriledi hám onday bilim, kónlikpe, tájiriybe hám jeke qásiyetler sáykeslesedi [4].

Talabalarda liderlik kompetenciyaların qáliplestiriw tek ǵana kelesiy kásiplik iskerlik ushın emes, bálki olarnıń jeke rawajlanıwı ushın da áhmiyetli orın tutadı. Liderlik kompetenciyalarına iye bolǵan talaba óz aldına anıq maqset qoya aladı, qarar qabıllawda ǵárezsizlik kórsetedi hám quramalı jaǵdaylarda nátiyjeli háreket etedi.

Jámáátlik iskerlik arqalı liderlik kompetenciyasınıń rawajlanıwı. Talabalarda liderlik kompetenciyaların rawajlandırıwdıń eń nátiyjeli qurallarından biri jámáátlik iskerlik esaplanadı. Gruppalıq tapsırmalar, seminar shınıǵıwları hám ámeliy proektlerde talabalar óz-ara birlesiw, pikir alısıw hám juwapkershilikti bólistiriw múmkinshiligine iye boladı. Jámáátlik iskerlik dawamında talabalar:

• Liderlik rolin atqarıw;
• Kelispewshiliklerdi sheshiw;
• Baylanıs mádeniyatınıń rawajlandırıw;
• Jámáát aǵzaların xoshametlew;
• Ulıwma maqsetke qaray baǵdarlaw sıyaklı kónlikpelerdi iyeleydi.

Bul bolsa olarnıń sociallıq belsendiligin arttırıw menen birge liderlik qásiyetleriniń rawajlanıwına da xizmet etedi.

Proekt texnologiyalarınıń múmkinshilikleri. Proekt iskerligi talabalardı ǵárezsiz hám dóretiwshi pikirlewge uyretedi. Proekt procesinde talabalar mashqalanı anıqlaw, maqset qoyıw, jobalastırıw, wazıypalardı bólistiriw hám nátiyjelerdi bahalaw basqıshlarında belsendi qatnasadı. Proekt gruppalarında lider retinde iskerlik kórsetip atırǵan talabalar tómendegi kompetenciyalardı rawajlandıradı:

• Strategiyalıq jobalastırıw;
• Waqıttı basqarıw (Time management);
• Jámáát iskerligin sáykeslestiriw;

• Qarar qabıllaw;
• Nátiyjelerge erisiwdi qadaǵalaw [5].

Talabalardıń ózin-ózi basqarıw sistemasınıń áhmiyeti. Talabalardıń ózin-ózi basqarıw sisteması liderlik qásiyetlerin rawajlandırıw ushın qolaylı pedagogikalıq ortalıq jaratadı. Talabalar keńesi, jaslar awqamı iskerligi, fakultet hám institut kólemindegi hár qıylı ilajlardı shólkemlestiriw procesinde talabalar basqarıw tájiriybesin arttıradı. Bunday iskerlik arqalı talabalarda:

• Baslamashılıq;
• Juwapkershilik;
• Shólkemlestiriwshilik;
• Jámáát menen islesiw;
• Sociallıq belsendilik sıyaklı qásiyetler rawajlanadı. Sonday-aq, talabalar óz pikirlerin erkin bildiriw hám basqalardıń pikirlerin húrmet etiwdi úyrenedi.

Trening hám seminarlardıń roli. Liderlik kompetenciyaların rawajlandırıwda psixologiyalıq treningler hám seminar shınıǵıwları áhmiyetli orın tutadı. Treningler talabalardıń ózin-ózi ańlawına, óz múmkinshiliklerin bahalawına hám jeke rawajlanıw strategiyasın islep shıǵıwına járdem beredi. Liderlik treningleri dawamında talabalar:

• Kommunikativlik kónlikpelerdi;
• Konfliktologiyalıq kompetenciyalardı;
• Jámáátti basqarıw usılların;
• Stresske shıdamlılıqtı;
• Xalıq aldına shıǵıp sóylew kórkem óneriniń rawajlandıradı.

Bul bolsa olarda liderlik iskerligin nátiyjeli ámelge asırıw ushın zárúr bolǵan psixologiyalıq tayarlıqtı qáliplestiredi.

Mentorlıq hám kouching dástúrleriniń áhmiyeti. Mentorlıq – talabalardıń kásiplik hám jeke rawajlanıwın qollap-quvvatlawǵa qaratılǵan nátiyjeli pedagogikalıq texnologiyalardan biri esaplanadı. Tájiriybeli professor-oqıtuvshılar hám de joqarı kurs talabaları jas talabalar ushın mentor wazıypasın atqara alıwı múmkin. Mentorlıq dástúrleri nátiyjesinde talabalar:

• Kásiplik maqsetlerin anıqlaydı;
• Liderlik potencialın rawajlandıradı;
• Motivaciyaların arttıradı;
• Quramalı jaǵdaylarda tuwrı qarar qabıllawdı úyrenedi.

Sol sebepli rawajlanǵan mámleketlerdiń joqarı tálim sistemasında mentorlıq dástúrleri keń qollanılmaqta.

Talqlaw. Liderlik kompetenciyaların qáliplestiriw procesi kompleksli xarakterge iye. Bul proceste tek ǵana auditoriya shınıǵıwları emes, bálki

auditoriyadan tıs iskerlikler de áhmiyetli rol oynaydı. Talabalardıń liderlik kompetenciyaların rawajlandırıw ushın tómendegi pedagogikalıq shart-sharaıtlardı jaratıw maqsetke muwapıq.

1. Demokratiyalıq tálim ortalıǵın qáliplestiriw.
2. Talabalardıń baslamaların qollap-quvvatlaw.
3. Belsendi tálim metodların qollanıw.
4. Talabalardı sociallıq proektlerge tartıw.
5. Mentorlıq sistemasın jolǵa qoyıw.
6. Sanlı texnologiyalardan nátiyjeli paydalanıw.
7. Talabalardıń ózin-ózi basqarıw sistemasın rawajlandırıw.

Usı shart-sharaıtlar talabalardıń liderlik potencialın tolıq kórsetiwine hám kásiplik iskerlikke tabıslı tayarlanıwına múmkinshilik jaratadı.

Juwmaq. Talaba gruppalarında liderlik kompetenciyaların qáliplestiriw zamanagóy tálimniń baslı baǵdarlarından biri esaplanadı. Izlenis nátiyjeleri sonday kórsetti, jámáátlik iskerlik, proekt texnologiyaları, mentorlıq dástúrleri, treningler hám talabalardıń ózin-ózi basqarıw sisteması liderlik kompetenciyaların rawajlandırıwdiń nátiyjeli quralları esaplanadı. Liderlik kompetenciyalarınıń rawajlanıwı talabalardıń tek ǵana kásiplik tabıslarına emes, bálki olarniń sociallıq belsendiligi hám puqaralıq poziciyasınıń qáliplesiwine de unamlı tásir kórsetedi. Sol sebepli joqarı oquv ornlarında liderlik kompetenciyaların rawajlandırıwǵa qaratılǵan arnayı pedagogikalıq dástúrlerdi keńg joriy etiw maqsetke muvofiq.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 320 b.
4. Xolmuhamedov M. Talabalarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Xalq ta’limi. – 2022. – №4. – B. 45–51.
5. Boyatzis R. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: Wiley, 2008. – 308 p.
6. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2022. – 584 p.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – Москва, 2019. – 112 с.
8. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики. – Москва: Академия, 2018. – 192 с.
9. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi va liderlik madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 224 b.
10. Usmonov N. Talabalarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari // Pedagogik mahorat. – 2023. – №2. – B. 66–71.

ZAMONAVIY EKOLOGIK TENDENSIYALAR: GLOBAL VA MINTAQAVIY TAHLIL

Xudoyberdiyev D.M.
Qarshi davlat universiteti Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'limi boshlig'i., F.f.b.f.d. (PhD)., dotsent

Tayanch so'zlar: ekologik tendensiyalar, global isish, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, suv tanqisligi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, mintaqaviy tahlil.
Ключевые слова: экологические тенденции, глобальное потепление, изменение климата, биоразнообразие, дефицит воды, устойчивое развитие, зелёная экономика, региональный анализ.
Key words: ecological trends, global warming, climate change, biodiversity, water scarcity, sustainable development, green economy, regional analysis.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada zamonaviy ekologik tendensiyalar global va mintaqaviy kesimda tahlil qilinadi. Global isish, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, suv va oziq-ovqat tanqisligi, chiqindilar hajmining ortishi, havo va suvning ifloslanishi kabi tendensiyalar zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada ushbu tendensiyalarning global xususiyatlari, mintaqaviy ko'rinishlari, O'zbekiston va Markaziy Osiyo sharoitidagi o'ziga xos jihatlari, shuningdek ularni yumshatishga qaratilgan xalqaro va milliy mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik va ijtimoiy-falsafiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ekologik tendensiyalarning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari, barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liqligi va yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются современные экологические тенденции в глобальном и региональном разрезе. Такие тенденции, как глобальное потепление, изменение климата, утрата биоразнообразия, дефицит воды и продовольствия, рост объёмов отходов, загрязнение воздуха и воды, выступают наиболее актуальными проблемами современного мира. В статье рассматриваются глобальные характеристики этих тенденций, их региональные проявления, особенности в условиях Узбекистана и Центральной Азии, а также международные и национальные механизмы, направленные на их смягчение. В исследовании использованы системный, сравнительный, статистический и социально-философский методы анализа. Освещены перспективы дальнейшего развития экологических тенденций, их связь с целями устойчивого развития и необходимость перехода к зелёной экономике.
SUMMARY:
The article analyzes modern ecological trends in global and regional contexts. Such trends as global warming, climate change, biodiversity loss, water and food scarcity, increasing waste volumes, air and water pollution appear as the most urgent problems of the modern world. The

article examines the global characteristics of these trends, their regional manifestations, specific features in the conditions of Uzbekistan and Central Asia, as well as international and national mechanisms aimed at mitigating them. The research applies systemic, comparative, statistical, and socio-philosophical methods of analysis. The prospects for the further development of ecological trends, their connection with sustainable development goals, and the necessity of transitioning to a green economy are highlighted.

Kirish. Hozirgi davrda ekologik tendensiyalar insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb va murakkab muammolari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tabiat resurslaridan meyorsiz foydalanish, sanoatlashuvning kuchayishi, urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi, aholi sonining ortishi, iste’molchilik psixologiyasining chuqurlashuvi va texnogen faoliyat ko‘lamining kengayishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar nafaqat tabiiy muhitdagi o‘zgarishlarni, balki ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy manfaatlar, siyosiy qarorlar va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq kompleks hodisalarni keltirib chiqarmoqda.

Zamonaviy ekologik tendensiyalarni global va mintaqaviy kesimda tahlil qilish ushbu hodisaning chuqur sabablarini ochib berishga xizmat qiladi. Chunki har qanday ekologik tendensiya ortida insonning tabiatga munosabati, borliqni anglash shakli, taraqqiyot haqidagi tasavvuri va qadriyatlar tizimi yotadi. Agar inson tabiatni faqat moddiy boylik manbai, resurslar yig‘indisi yoki iqtisodiy foyda vositasi sifatida qabul qilsa, ekologik inqirozlarning kuchayishi tabiiy jarayonga aylanadi.

Global ekologik tendensiyalar bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda: iqlim o‘zgarishi va global isish, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, suv va oziq-ovqat tanqisligi, chiqindilar hajmining ortishi, havo va suvning ifloslanishi, o‘rmonlarning kamayishi, cho‘llanish va tuproq degradatsiyasi. Ushbu tendensiyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri boshqalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi zamonaviy ekologik tendensiyalarni global va mintaqaviy kesimda tahlil qilish, ularning O‘zbekiston va Markaziy Osiyo sharoitidagi o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, shuningdek ularni yumshatishga qaratilgan mexanizmlarni ko‘rsatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ekologik tendensiyalarning global xususiyatlarini aniqlash, ularning mintaqaviy ko‘rinishlarini tahlil qilish, O‘zbekistondagi ekologik tendensiyalarni baholash va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liqligini asoslash vazifalari belgilandi.

Global ekologik tendensiyalar. Global ekologik tendensiyalar butun insoniyatga ta’sir ko‘rsatadigan, milliy chegaralardan qat’i nazar, sayyoramizning barcha mintaqalarida kuzatiladigan jarayonlardir. Ular bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda.

Iqlim o‘zgarishi va global isish. Iqlim o‘zgarishi zamonaviy ekologik tendensiyalarning eng dolzarb va keng qamrovli ko‘rinishidir. Atmosferadagi

issiqxona gazlari – karbonat angidrid, metan, azot oksidi va boshqalarning konsentratsiyasi ortib borishi natijasida Yer yuzasining o‘rtacha harorati ko‘tarilmoqda. Xalqaro iqlim paneli (IPCC) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yuz yil ichida Yer yuzasining o‘rtacha harorati taxminan 1,1°C ga oshgan. Agar hozirgi tendensiya davom etsa, XXI asr oxiriga kelib harorat 2,5-4,5°C ga ko‘tarilishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishining oqibatlari ko‘p qirrali: muzliklarning erishi va dengiz sathining ko‘tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalarining (qurg‘oqchilik, suv toshqinlari, bo‘ronlar) ko‘payishi, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining pasayishi, suv resurslarining kamayishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi. Bu o‘zgarishlar aholining salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bioxilma-xillikning yo‘qolishi. Bioxilma-xillik – bu Yer yuzidagi barcha tirik organizmlarning xilma-xilligi bo‘lib, u ekotizimlarning barqarorligi va inson hayotining asosi hisoblanadi. Biroq hozirgi davrda bioxilma-xillikning yo‘qolishi keskin tezlashgan. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkiloti (IUCN) ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 42 000 dan ortiq tur yo‘qolish xavfi ostida. Bu tendensiyaning asosiy sabablari: yashash muhitining yo‘qolishi, iqlim o‘zgarishi, ifloslanish, invaziv turlarning tarqalishi, tabiiy resurslardan meyorsiz foydalanish.

Bioxilma-xillikning yo‘qolishi ekotizimlarning funksiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi: changlanish jarayonining buzilishi, tuproq unumdorligining pasayishi, suv rejimining o‘zgarishi, zararkunandalarga qarshi tabiiy kurashning zaiflashishi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga, inson salomatligiga va iqtisodiyotga salbiy ta’sir qiladi.

Suv va oziq-ovqat tanqisligi. Suv – hayot manbai, biroq chuchuk suv resurslari cheklangan. Dunyo aholisining ortishi, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi va sanoat ehtiyojlarining oshishi suvga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 2 milliarddan ortiq kishi suv tanqisligi sharoitida yashaydi. 2050-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 5 milliardga yetishi mumkin.

Suv tanqisligi oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki qishloq xo‘jaligi chuchuk suvning 70 foizini iste’mol qiladi. Iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish va tuproq degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini pasaytiradi, bu esa oziq-ovqat narxlarining oshishiga va aholining oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi.

Chiqindilar hajmining ortishi. Urbanizatsiya, aholi sonining ortishi, iste’molchilik madaniyatining kengayishi va sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi chiqindilar hajmining keskin ortishiga olib kelmoqda. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda yiliga 2 milliard tonnadan ortiq

qattiq maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. 2050-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 3,4 milliard tonnaga yetishi mumkin.

Chiqindilar muammosi nafaqat ularning hajmi, balki tarkibi bilan ham bog‘liq. Plastik chiqindilar, elektron chiqindilar, kimyoviy chiqindilar va radioaktiv chiqindilar alohida xavf tug‘diradi. Plastik chiqindilar okeanlarni ifloslantirib, dengiz hayotiga zarar yetkazmoqda. Elektron chiqindilar tarkibida zaharli moddalar bo‘lib, ular tuproq va suvni ifloslantiradi.

Havo va suvning ifloslanishi. Havo va suvning ifloslanishi global ekologik tendensiyalarning muhim ko‘rinishidir. Havoning ifloslanishi sanoat korxonalari, transport, energetika va qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 7 milliondan ortiq kishi havo ifloslanishi bilan bog‘liq kasalliklardan vafot etadi.

Suvning ifloslanishi sanoat oqovalari, qishloq xo‘jaligi oqovalari, maishiy chiqindilar va neft mahsulotlari natijasida yuzaga keladi. Bu esa ichimlik suvi sifatiga, suv ekotizimlariga va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mintaqaviy ekologik tendensiyalar: Markaziy Osiyo va O‘zbekiston. Global ekologik tendensiyalar har bir mintaqada o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitida quyidagi ekologik tendensiyalar alohida ahamiyatga ega.

В статье теоретически анализируются вопросы целенаправленного, поэтапного и устойчивого внедрения педагогических инноваций в систему школьного физического воспитания. Раскрываются дидактические возможности личностно ориентированного и дифференцированного обучения, обучения в сотрудничестве, цифровых средств, формативного оценивания, педагогического мониторинга и инклюзивных подходов. Предлагается организационно-педагогическая последовательность, предусматривающая выбор инновации, её апробацию в малом масштабе, оценку результатов и устойчивое закрепление в школьной практике. В качестве основных условий обосновываются профессиональная готовность учителя, материальные условия, безопасность данных, равенство участия учащихся и соответствие инновации местным условиям.
SUMMARY:
The article provides a theoretical analysis of the purposeful, phased, and sustainable implementation of pedagogical innovations in the school physical education system. It examines the didactic potential of learner-centred and differentiated instruction, cooperative learning, digital tools,

formative assessment, pedagogical monitoring, and inclusive approaches. An organizational and pedagogical sequence is proposed for selecting an innovation, piloting it on a small scale, evaluating the results, and firmly integrating it into school practice. Teachers' professional preparedness, material conditions, data security, equitable student participation, and the adaptation of innovations to local conditions are substantiated as key prerequisites.

Kirish. Maktab jismoniy tarbiyasi o‘quvchilarning harakat ko‘nikmalari, jismoniy sifatlari, sog‘lom turmushga oid bilimlari va ijtimoiy tajribasini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizimdir. Zamonaviy maktabda o‘quvchilarning salomatlik holati, jismoniy tayyorgarligi, qiziqishi va harakat tajribasi sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq, yuklama va baholash mezonini qo‘llash dars natijadorligini cheklashi mumkin. Mamlakatimiz olimlarining jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi va jismoniy holat monitoringiga oid ishlarida mashq vositalarini o‘quvchining yoshi, tayyorgarligi hamda pedagogik maqsadga muvofiq tanlash zarurati asoslangan [2; 4; 5].

Pedagogik innovatsiya aniqlangan muammoni hal etishga yo‘naltirilgan g‘oya, metod, tashkiliy shakl, baholash vositasi yoki boshqaruv tartibining rejalashtirilgan o‘zgarishini anglatadi. Yangi jihoz va raqamli qurilma shu o‘zgarishning ehtimoliy vositalari qatoriga kiradi. Innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy-metodik ishlarda yangilikning maqsad, mazmun, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati va kutiladigan natija bilan o‘zaro bog‘lanishi muhimligi ko‘rsatilgan [1]. Jismoniy tarbiya metodikasining zamonaviy talqini ham mashqni bajarish natijasi bilan bir qatorda bilim, motivatsiya, mustaqil faoliyat va xavfsiz xulqni rivojlantirishga e’tibor qaratadi [3].

Xalqaro yondashuvlarda sifatli jismoniy tarbiya bolaga yo‘naltirilganlik, inklyuzivlik, xavfsizlik, muntazam baholash va umr davomida jismoniy faol bo‘lishga tayyorlash tamoyillari bilan tavsiflanadi [11; 17]. Mazkur tamoyillarni maktab amaliyotiga ko‘chirish uchun innovatsiyaning tashqi jozibadorligidan ko‘ra, uning didaktik vazifasi, amalga oshirish sharoiti va o‘lchanadigan natijalari aniq belgilanishi talab etiladi. Maqolaning maqsadi maktab jismoniy tarbiya tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etishning mazmuni, ustuvor yo‘nalishlari, bosqichlari va samaradorlik shartlarini ilmiy manbalar asosida yoritishdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Maktab jismoniy tarbiya tizimi maqsad, o‘quv dasturi, dars va darsdan tashqari faoliyat, o‘qitish metodlari, baholash, pedagog kadrlar, moddiy baza, tibbiy-pedagogik nazorat hamda oila bilan hamkorlik kabi o‘zaro

bog‘liq tarkibiy qismlardan tuziladi. Shu tuzilma innovatsiyani tizimdagi muayyan muammoni yechuvchi va boshqa qismlar bilan muvofiqlashtiriladigan o‘zgarish sifatida ko‘rishni talab qiladi. Masalan, video orqali qayta aloqa berish rejalashtirilsa, uning qaysi harakat ko‘nikmasini rivojlantirishi, videoni kim va qachon ko‘rishi, qanday mezon asosida tahlil qilishi, qurilmasi yo‘q o‘quvchi qanday ishtirok etishi hamda tasvirlar qancha vaqt saqlanishi oldindan belgilanadi.

Pedagogik innovatsiyaning birinchi ustuvor yo‘nalishi o‘quvchiga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan ta’limdir. Bunda sinf tarkibi boshlang‘ich diagnostika orqali o‘rganiladi, topshiriqlar murakkabligi va jismoniy yuklama bir necha darajada ishlab chiqiladi, o‘quvchiga maqsadga eltuvchi mos variantni tanlash imkoniyati beriladi. Harakatni hali o‘zlashtirmagan o‘quvchi soddalashtirilgan sharoitda asosiy tuzilmani bajaradi, tayyorgarligi yuqori o‘quvchi murakkablashtirilgan vazifa yoki sherigiga uslubiy yordam berish rolini oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya monitoringiga oid tadqiqotlarda o‘quvchining motivi, qobiliyati, faolligi va individual-psixologik xususiyatlarini kuzatish zarurati qayd etilgan [6]. Qishloq maktablaridagi sharoit va o‘quvchilar tayyorgarligining farqlanishiga bag‘ishlangan ishlar ham tabaqalashtirishni moddiy baza hamda hududiy imkoniyatlar bilan bog‘lashga asos beradi [7].

Tabaqalashtirish sog‘liq holati bo‘yicha tibbiy cheklovlarga rioya qilish, yuklamani xavfsiz boshqarish va har bir o‘quvchining o‘sishini ko‘rsatish imkonini yaratadi. Baholashda sinf uchun yagona yakuniy normativ bilan birga individual taraqqiyot, harakat texnikasi, nazariy tushunish, mashg‘ulotdagi faollik va xavfsizlik qoidalariga rioya etish hisobga olinadi. Mazkur yondashuv o‘quvchini boshqalar natijasi bilan doimiy solishtirishga bog‘liq bosimni kamaytiradi, o‘z natijasini tahlil qilish va real maqsad belgilash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Jismoniy holatni muntazam kuzatishga oid mahalliy tadqiqotlar monitoring natijalarini yuklama va metodikani tuzatish vositasi sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi [4; 5].

Ikkinchi yo‘nalish darsni hamkorlik, muammoli vazifa va o‘yin modeli asosida tashkil etish bilan bog‘liq. Hamkorlikda o‘qitishda kichik guruh a’zolari bajaruvchi, kuzatuvchi, vaqtni nazorat qiluvchi va qayta aloqa beruvchi rollarni navbat bilan egallaydi. Vazifa guruhning umumiy natijasi hamda har bir ishtirokchining shaxsiy mas’uliyatini birlashtiradi. Ilmiy sharhlar hamkorlik modeli jismoniy, kognitiv, ijtimoiy va hissiy o‘quv natijalarini bir jarayonda rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi [12]. Mazmunli jismoniy tarbiya tajribalarini o‘rgangan tadqiqotchilar zavq, ijtimoiy hamkorlik, shaxsiy

ahamiyat, yetarli murakkablik va harakat kompetentligini asosiy omillar qatoriga kiritadi [13].

Amaliyotda bu yondashuv stansiyalar bo‘yicha ishlash, vaziyatli sport o‘yinlari, tengdoshlar o‘qitishi, harakat muammosini birgalikda hal qilish va kichik loyiha shakllarida qo‘llanadi. Masalan, basketbol bo‘limida texnik elementlarni ajratilgan holda takrorlashdan keyin o‘quvchilarga son jihatdan teng bo‘lmagan hujum vaziyati beriladi. Guruh bo‘sh hudud yaratish usulini sinaydi, natijani kuzatadi va keyingi urinish uchun qaror qabul qiladi. O‘qituvchi xavfsizlikni nazorat qiladi, yo‘naltiruvchi savollar yordamida o‘quvchilarni mustaqil yechimga olib boradi va xulosani aniqlashtiradi. Shu tariqa harakat bajarilishi taktika, muloqot va refleksiya bilan uyg‘unlashadi.

Uchinchi yo‘nalish raqamli vositalardan didaktik maqsad asosida foydalanishdir. Sport sohasidagi axborot texnologiyalariga bag‘ishlangan mahalliy qo‘llanmalarda raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va taqdim etish imkoniyatlari tizimlashtirilgan [8]. Maktab jismoniy tarbiyasida qisqa videoyozuv, sekinlashtirilgan takror, QR-kodli topshiriq, elektron kundalik, oddiy qadam o‘lchagich, mobil ilova va interaktiv trenajyor o‘quvchiga tezkor qayta aloqa berishi mumkin. Mamlakatimiz tadqiqotchilarining so‘nggi ishlarida mobil ilova orqali darsni rejalashtirish, mustaqil mashg‘ulotni qo‘llab-quvvatlash va natijalarni qayd etish imkoniyatlari [10], interaktiv trenajyorlar orqali mashq jarayonini kuzatish masalalari [9] yoritilgan.

Raqamli vosita tanlashda “qaysi qurilma mavjud?” savolidan oldin “qaysi pedagogik muammo hal qilinadi?” savoli qo‘yiladi. Harakat texnikasidagi xatoni ko‘rsatish uchun o‘n soniyalik video yetarli bo‘lishi mumkin; murakkab platforma qo‘shimcha vaqt va texnik xizmat talab qiladi. Xorijiy tadqiqotlarda texnologiyani maqsadli qo‘llashga o‘qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasi, vaqt, qurilmaga kirish, texnik yordam va maktab siyosati ta’sir qilishi aniqlangan [14]. Shu bois darsning internet va qurilmasiz bajariladigan zaxira varianti, o‘quvchi ma’lumotlarini himoya qilish tartibi, ekran oldida sarflanadigan vaqt chegarasi va barcha o‘quvchilar uchun teng ishtirok sharti ishlab chiqiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish formativ baholash va pedagogik monitoringni yangilashdir. An’anaviy nazorat ko‘pincha yugurish vaqti, sakrash masofasi yoki takrorlar sonini qayd etishga tayanadi. Zamonaviy baholash tizimi harakat kompetentligini, bilimni, motivatsiyani, hamkorlikni, xavfsiz faoliyatni va mustaqil mashq rejasini tuzish qobiliyatini ham qamrab oladi. Jismoniy savodxonlik konsepsiyasi harakat kompetentligi, ishonch, motivatsiya, bilim va jismoniy faol hayotda qatnashish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga

xizmat qiladi [15]. Natijada o‘qituvchi “qancha bajardi?” savoli bilan bir qatorda “qanday bajardi?”, “nima uchun shu usulni tanladi?”, “o‘z xatosini aniqlay oldimi?” va “keyingi maqsadi qanday?” savollariga javob oladi.

Formativ baholash dars boshidagi qisqa diagnostika, jarayondagi kuzatuv va yakuniy refleksiyani birlashtiradi. O‘qituvchi ikki-uchta aniq mezondan iborat kuzatuv varag‘ini tuzishi, o‘quvchilar esa shu mezonlar bo‘yicha o‘zini yoki sherigini baholashi mumkin. Masalan, to‘p uzatishda tayanch holati, qarash yo‘nalishi va uzatish aniqligi kuzatiladi. Qaydlar keyingi topshiriq darajasi va rivojlantiruvchi qayta aloqa mazmunini tanlash uchun ishlatiladi. Davriy monitoring natijalari sinf, jins, tayyorgarlik darajasi va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘yicha ishtirok tafovutlarini ko‘rsatishi mumkin. Shu ma’lumot maktabga resurs, jadval va metodik yordamni aniqroq rejalashtirish imkonini beradi.

Beshinchi yo‘nalish inklyuziv va sog‘lomlashtiruvchi yondashuvlarni kuchaytirishdir. Sifatli jismoniy tarbiya har bir o‘quvchi uchun xavfsiz, mazmunli va faol ishtirok imkonini yaratadi [11]. Topshiriqning masofasi, tezligi, jihoz og‘irligi, maydon hajmi, qoidasi va sheriklar sonini o‘zgartirish orqali bir mazmunning bir necha kirish darajasi yaratiladi. Harakat imkoniyati cheklangan o‘quvchi uchun moslashtirilgan jihoz, qo‘shimcha vaqt, muqobil harakat yoki jamoada funksional rol belgilanadi. Ishtirok tengligi umumiy ta’lim maqsadiga mos va har bir bola erisha oladigan yo‘lning mavjudligi orqali baholanadi.

Jismoniy tarbiya darsi o‘quvchining haftalik harakat faolligi tizimida muhim o‘rin egallaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2020-yilgi tavsiyalarida 5–17 yoshdagi bolalar va o‘smirlar uchun hafta davomida kuniga o‘rtacha kamida 60 daqiqa o‘rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faoliyat ko‘rsatilgan [16]. Maktab bu ko‘rsatkichga dars, faol tanaffus, sport to‘garagi, maktabga faol qatnov va oilaviy harakat faoliyatini muvofiqlashtirish orqali hissa qo‘shadi. Pedagogik innovatsiya shu shakllarni o‘zaro bog‘lab, o‘quvchiga shaxsiy faollik maqsadini belgilash va unga erishishni kuzatish vositasini berishi mumkin.

Innovatsiyani amaliyotga kiritish besh izchil bosqichni talab qiladi. Dastlab diagnostik-tahliliy bosqichda maktabning sport bazasi, dars jadvali, o‘qituvchilar kompetensiyasi, o‘quvchilarning tayyorgarligi, ishtirok darajasi va mavjud muammolar o‘rganiladi. Muammo kuzatiladigan shaklda belgilanadi: masalan, stansiya ishida navbat kutish vaqtining uzunligi, ayrim guruhlarning faol urinishlari kamligi yoki qayta aloqa yetishmasligi. Boshlang‘ich holat qisqa kuzatuv, so‘rov, test va dars xronometraji orqali qayd etiladi.

Ikkinchi, loyihalash bosqichida bitta ustuvor muammo va unga mos innovatsiya tanlanadi. Maqsad, kutiladigan natija, baholash mezoni, mas'ullar, zarur resurs, xavfsizlik tartibi va muddat yozma ravishda belgilanadi. Masalan, "sakkiz hafta davomida stansiyali va tengdoshlar qayta aloqasiga asoslangan metodika orqali har bir o'quvchining faol mashq vaqtini ko'paytirish" shaklidagi maqsad kuzatish imkonini beradi. O'qituvchi uchun qisqa trening, dars ishlanmalari, mezon varaqalari va zaxira ssenariysi shu bosqichda tayyorlanadi.

Uchinchi bosqich kichik miqyosdagi pedagogik sinovdan iborat. Innovatsiya bir sinf yoki bitta tematik modul doirasida qo'llanadi. Yakuniy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda darsning motor zichligi, o'quvchilar ishtiroki, topshiriqni tushunish, texnik uzilishlar, o'qituvchi sarflagan vaqt va xavfsizlik holatlari qayd etiladi. O'quvchilarning qisqa fikr-mulohazasi metodning qabul qilinishi va mazmunli tajriba yaratish darajasini tushunishga yordam beradi [13]. Sinov davri yakunida boshlang'ich va yakuniy ma'lumotlar qiyoslanadi, kutilmagan oqibatlar alohida tahlil qilinadi.

To'rtinchi bosqichda metodika tuzatiladi va institutsionallashtiriladi. Natija ijobiy bo'lsa, tajriba shaxsiy tashabbus doirasidan maktabning metodik ish tizimiga o'tkaziladi. Dars ishlanmalari umumiy elektron yoki bosma bankka joylashtiriladi, mezonlar birxillashtiriladi, yangi o'qituvchiga mentor biriktiriladi, zarur xarajat yillik reja va budjetga kiritiladi. Metodik birlashma kamida bir o'quv davrida qo'llash sifatini kuzatadi. Shu tartib innovatsiyaning alohida ochiq dars yoki qisqa muddatli tadbir sifatida qolib ketish xavfini kamaytiradi.

Beshinchi bosqich barqaror monitoring va qaror qabul qilishni qamrab oladi. Baholash uchun o'quv natijasi, faol ishtirok, guruhlar o'rtasidagi tenglik, o'qituvchi yuklamasi, xarajat, xavfsizlik va o'quvchi munosabati kabi bir nechta ko'rsatkich tanlanadi. Ma'lumotlar innovatsiyani kengaytirish, mahalliy sharoitga moslashtirish, soddalashtirish yoki to'xtatish haqidagi qarorga asos bo'ladi. Yangilikni saqlash qarori dalillar bilan asoslanadi. Kutilgan natijani bermagan usulni qayta ko'rib chiqish pedagogik boshqaruvning tabiiy qismidir.

Maktablar resursi turlicha bo'lgani uchun innovatsiyalar uch darajali portfel asosida rejalashtirilishi mumkin. Kam resursli darajada stansiya kartalari, tengdoshlar qayta aloqasi, o'zini baholash varag'i, milliy harakatli o'yinlar va tabaqalashtirilgan topshiriqlar qo'llanadi. O'rta darajada o'qituvchi telefoni orqali qisqa video, QR-kod, elektron jadval va oddiy qadam o'lchagichlardan foydalaniladi. Yuqori texnik darajada mobil platforma, kiyiladigan sensor yoki interaktiv trenajyor joriy etilishi mumkin. Didaktik maqsad, o'qituvchi

tayyorgarligi, o‘quvchi faoliyati va qayta aloqa sifati samaradorlikni belgilaydi; vositaning narxi ikkilamchi omil bo‘lib qoladi [9; 10; 14].

Innovatsion jarayonning asosiy xavflari qatoriga texnologiyani maqsad sifatida qabul qilish, o‘qituvchiga ortiqcha hisobot yuklash, kuchli o‘quvchilar ustunligini oshiruvchi raqobat, qurilmaga kirishdagi tengsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi va xavfsizlik nazoratining susayishi kiradi. Bu xavflar pedagogik ekspertiza, kichik miqyosdagi sinov, aniq ma’lumotlar siyosati, muqobil topshiriqlar, o‘qituvchiga metodik yordam va muntazam tahlil orqali boshqariladi. Maktab rahbariyati yangi vositani xarid qilish bilan birga o‘qituvchiga rejalashtirish va hamkasblar bilan tajriba almashish uchun vaqt, texnik yordam hamda xatolardan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Maktab jismoniy tarbiya tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o‘quv maqsadi, o‘qitish metodikasi, baholash, kadrlar tayyorgarligi va tashkiliy boshqaruvni o‘zaro muvofiqlashtirishni talab qiladi. O‘quvchiga yo‘naltirilgan tabaqalashtirish, hamkorlik modeli, raqamli qayta aloqa, formativ baholash, pedagogik monitoring va inklyuziv moslashtirish jismoniy tarbiya darsining ta’limiy qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlardir. Ularning har biri aniq pedagogik muammoga, maktabning real resursiga va kuzatiladigan natijaga bog‘lanishi lozim.

Innovatsiyani barqaror joriy etish uchun diagnostika, loyihalash, kichik miqyosdagi sinov, tuzatish, institutsionallashtirish va davomiy monitoring ketma-ketligi amaliy ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarning harakat natijalari bilan birga motivatsiya, bilim, hamkorlik, xavfsizlik, mustaqil faoliyat va ishtirok tengligi baholanadi. O‘qituvchining kasbiy va raqamli-pedagogik kompetensiyasi, metodik birlashma faoliyati, rahbariyat yordami, oila bilan aloqa hamda ma’lumotlarni himoya qilish tartibi jarayonning tayanch shartlarini tashkil etadi.

Kelgusida maktablarda qo‘llanayotgan innovatsiyalarni bir xil mezonlar asosida uzoq muddat kuzatish, shahar va qishloq maktablari sharoitini qiyoslash, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning ishtirokini o‘rganish hamda kam xarajatli metodlarning samaradorligini eksperimental tekshirish maqsadga muvofiq. Shu asosda mahalliy sharoitga mos, dalillarga tayangan va kengaytirish imkoniga ega jismoniy tarbiya amaliyotini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A. va boshq. Innovatsion ta’lim texnologiyalari: o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sano-Standart, 2015. – 208 b.

2. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. I jild. – Toshkent: ITA-PRESS, 2014. – 296 b.

3. Salomov R.S., Sharipov A.K. Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Ilmiy-texnika axboroti-press, 2023. – 168 b.

4. Xankeldiyev Sh.X. Fizicheskiy status uchashcheysya molodeji. – Toshkent, 2018. – 432 s.

5. Xankeldiyev Sh.X., Uraimov S.R. Regionalniye osobennosti fizicheskogo statusa. – Farg‘ona, 2021. – 182 s.

6. Qodirov J.M. Shaxsga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya ta’limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – № 1. – B. 99–102. – DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a22.

7. Ubaydullayev R.M. Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – № 6. – B. 270–273. – DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a147.

8. Tolametov A.A. Sportda axborot texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Zamon poligraf, 2023. – 244 b.

9. Uraimov S.R., Abdubannobov M.Sh. Umumiy ta’lim maktablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg‘ulotlarni takomillashtirish // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 2. – B. 37–40. – DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss2/a8.

10. Uraimov S.R., G‘ofurov S.G‘. Umumiy ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o‘rganish // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 2. – B. 41–45. – DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss2/a9.

11. UNESCO. Quality Physical Education (QPE): Guidelines for Policy-Makers. – Paris: UNESCO, 2015.

12. Casey A., Goodyear V.A. Can Cooperative Learning Achieve the Four Learning Outcomes of Physical Education? A Review of Literature // Quest. – 2015. – Vol. 67, No. 1. – P. 56–72. – DOI: 10.1080/00336297.2014.984733.

13. Beni S., Fletcher T., Ní Chróinín D. Meaningful Experiences in Physical Education and Youth Sport: A Review of the Literature // Quest. – 2017. – Vol. 69, No. 3. – P. 291–312. – DOI: 10.1080/00336297.2016.1224192.

14. Bodsworth H., Goodyear V.A. Barriers and Facilitators to Using Digital Technologies in the Cooperative Learning Model in Physical Education // Physical Education and Sport Pedagogy. – 2017. – Vol. 22, No. 6. – P. 563–579. – DOI: 10.1080/17408989.2017.1294672.

15. Cairney J., Dudley D., Kwan M., Bulten R., Kriellaars D. Physical Literacy, Physical Activity and Health: Toward an Evidence-Informed Conceptual Model // Sports Medicine. – 2019. – Vol. 49, No. 3. – P. 371–383. – DOI: 10.1007/s40279-019-01063-3.

16. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – Geneva: WHO, 2020.

17. SHAPE America. National Physical Education Standards. – Reston, VA: SHAPE America, 2024.

СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИМ ВОСПИТАНИЕМ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Ниязова О.Ю.
Доцент кафедры теории и методики физической культуры.
Каракалпакский Государственный
Университет имени Бердаха

Tayanch so'zlar: ijtimoiy boshqaruv kategoriyasi, ma'muriy boshqaruv, ijtimoiy boshqaruv obyekti, xulq-atvor normalari, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy institutlar, motivatsion vositalar, jamoat salomatligini mustahkamlash, talabalarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ijtimoiy-demografik omillar, ta'lim jarayonining elementi.
Ключевые слова: категория социального управления, административное управление, объектом социального управления, нормы поведения, социальноя солидарность, социальные институты, мотивационных инструментов, укрепление общественного здоровья, органы студенческого самоуправления, социально-демографических фактоов, элемент образовательного процесса.
Key words: category of social management, administrative management, object of social management, behavioral norms, social solidarity, social institutions, motivational tools, strengthening public health, student self-government bodies, socio-demographic factors, element of the educational process.

РЕЗЮМЕ:
Oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy faol va sog'lom yoshlarni tarbiyalash, turli ijtimoiy guruhlarni birlashtirish, kasalliklarning oldini olish va jamoat salomatligini mustahkamlashda strategik rol o'ynaydi. Ularning ijtimoiy ahamiyati universitet sportini institutsionalizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot va ta'lim dasturlarini amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar (FISU) bilan hamkorlik va inklyuziv dasturlarni amalga oshirish orqali ortadi.
РЕЗЮМЕ:
Физическая культура и спорт в системе высшего образования выполняют стратегическую роль в развитии человеческого капитала, формировании социально активной и здоровой молодежи, интеграции различных социальных групп, профилактике заболеваний и укреплении общественного здоровья. Их социальная значимость усиливается через институционализацию студенческого спорта, внедрение научно-исследовательских и образовательных программ, сотрудничество с международными организациями (FISU) и реализацию инклюзивных программ.
SUMMARY:
Physical education and sport within the higher education system play a strategic role in developing human capital, fostering a healthy and socially active youth, integrating diverse social groups, preventing disease, and strengthening public health. Their social significance is enhanced through

the institutionalization of student sports, the implementation of research and educational programs, collaboration with international organizations (such as FISU), and the execution of inclusive initiatives.

В современной социологии категория социального управления рассматривается как одна из фундаментальных характеристик функционирования общества, отражающая процессы целенаправленного воздействия на социальные отношения, деятельность социальных институтов и поведение различных социальных групп. В отличие от технического или административного управления, объектом социального управления выступают не материальные системы, а люди, их социальные взаимодействия, ценностные ориентации, нормы поведения и общественные процессы. Именно поэтому социальное управление представляет собой сложную форму общественного регулирования, основанную на согласовании интересов различных субъектов общественной жизни и обеспечении устойчивого развития социальных систем.

Исследование социального управления занимает важное место в классической и современной социологической мысли. Уже в своих работах Эмиль Дюркгейм показал, что устойчивость общества обеспечивается не только деятельностью государственных институтов, но и существованием системы социальных норм, коллективных представлений и механизмов социальной солидарности, посредством которых регулируется поведение индивидов. Дюркгейм рассматривал общество как особую социальную реальность, обладающую собственными законами функционирования, а социальные институты - как механизмы поддержания общественного порядка и интеграции личности в социальную среду.

Существенный вклад в развитие теории управления социальными процессами внес Талкотт Парсонс, который рассматривал общество как систему взаимосвязанных институтов, функционирование которых обеспечивается посредством нормативного регулирования, социализации и социального контроля. Согласно структурно-функциональному подходу Парсонса, эффективность социальной системы определяется способностью ее институтов поддерживать нормативный порядок, интеграцию и согласованность социальных действий. Социальное управление в данном контексте представляет собой механизм обеспечения стабильности социальной системы посредством формирования нормативных моделей поведения и их воспроизводства в процессе социализации.

В российской социологии и теории управления социальное управление традиционно определяется как особый вид управленческой деятельности,

направленный на регулирование общественных отношений и развитие социальных систем. Значительный вклад в разработку данной концепции внес В. Афанасьев, который рассматривал управление обществом как сознательное, целенаправленное воздействие на общественные процессы с целью обеспечения их устойчивого функционирования и развития. По его мнению, специфика социального управления заключается в том, что оно осуществляется посредством воздействия на деятельность людей, их интересы, потребности, ценностные ориентации и формы общественного поведения.

В современной социологии управления всё большее внимание уделяется не административным аспектам руководства, а механизмам формирования социальных практик, мотивации и общественного участия. Это связано с тем, что управление в современных обществах основывается не только на системе формальных предписаний, но и на использовании информационных, коммуникативных, образовательных и мотивационных инструментов, обеспечивающих добровольное принятие общественно значимых норм и ценностей. В этой связи социальное управление всё чаще рассматривается как процесс согласования интересов государства, социальных институтов и различных общественных групп, направленный на достижение социально значимых результатов.

Применительно к сфере физического воспитания данный подход приобретает особую актуальность. Если административное управление ориентировано преимущественно на организацию образовательного процесса, распределение учебной нагрузки, контроль выполнения нормативных требований и соблюдение установленных регламентов, то социальное управление имеет значительно более широкий предмет воздействия. Его основная задача заключается в формировании устойчивой мотивации студентов к физической активности, развитии ценностного отношения к здоровому образу жизни, создании благоприятной социальной среды для регулярных занятий физической культурой, а также в укреплении социальных связей внутри студенческого сообщества.

Таким образом, с позиций социологической науки социальное управление физическим воспитанием не сводится к организации учебных занятий или контролю выполнения образовательных стандартов. Оно представляет собой систему целенаправленного воздействия государственных органов, образовательных организаций, общественных объединений и других социальных институтов на процессы формирования физической культуры личности студента посредством организационных, норматив-

ных, информационных, воспитательных и мотивационных механизмов. Именно такая трактовка позволяет рассматривать физическое воспитание как важнейший элемент государственной социальной политики, ориентированной на развитие человеческого капитала, укрепление общественного здоровья и повышение качества жизни молодёжи.

В системе социологического знания одним из ключевых элементов анализа управления выступает определение субъектов и объектов управленческого воздействия. Именно характер взаимодействия между субъектом и объектом управления позволяет раскрыть содержание социальных процессов, определить механизмы регулирования общественных отношений и оценить эффективность функционирования социальных институтов. В отличие от технических систем, где объект управления носит преимущественно материальный характер, в социальной сфере объектом выступают люди, социальные группы, организации, формы общественного поведения и возникающие между ними социальные отношения. Данное обстоятельство определяет специфику социального управления, которое основывается не столько на административном принуждении, сколько на согласовании интересов, ценностей и социальных ожиданий различных участников общественной жизни. Концепция управления как целенаправленного воздействия на общественные процессы подробно раскрыта в работах В.Г. Афанасьева, рассматривавшего управление как необходимое условие устойчивого функционирования и развития социальных систем.

В наиболее общем понимании субъект социального управления представляет собой индивида, социальную группу, организацию или институт, обладающий полномочиями и ресурсами для осуществления целенаправленного воздействия на объект управления. Объектом социального управления, в свою очередь, являются социальные процессы, общественные отношения, поведение социальных групп и отдельных индивидов, а также условия их жизнедеятельности. При этом важной особенностью социального управления является активный характер объекта. В отличие от объектов технического управления, человек способен самостоятельно оценивать управленческие воздействия, интерпретировать их в соответствии со своими интересами и ценностями, а также изменять собственное поведение. Именно поэтому эффективность социального управления определяется не только административными решениями, но и уровнем мотивации, социальной поддержки, доверия к институтам и готовностью субъектов принимать предлагаемые нормы поведения. Эти положения соответствуют системному подходу Т. Парсонса, рассматривавшего соци-

альную систему как совокупность взаимосвязанных акторов, объединённых нормативным порядком и общими ценностями.

Применительно к сфере физического воспитания студентов субъектно-объектные отношения приобретают многокомпонентный характер. В качестве субъектов управления выступают государственные органы, формирующие политику в области физической культуры, органы управления высшим образованием, администрации высших образовательных учреждений, кафедры физического воспитания, преподаватели, спортивные клубы, общественные организации и органы студенческого самоуправления. Каждый из этих субъектов обладает собственными полномочиями, ресурсами и инструментами воздействия, однако эффективность системы определяется согласованностью их деятельности и общностью стратегических целей.

Объектом управления является не только организация учебных занятий по физической культуре. В социологическом понимании объект включает значительно более широкий круг явлений: физическую активность студентов, их ценностные ориентации в отношении здоровья, мотивацию к занятиям физической культурой, повседневные практики двигательной активности, участие в спортивной жизни университета, особенности группового взаимодействия и уровень сформированности культуры здорового образа жизни. Следовательно, объектом социального управления становятся не отдельные действия студентов, а процессы формирования устойчивых моделей поведения, отражающих ценности здорового образа жизни и социальной ответственности.

Данное понимание существенно отличает социальное управление от административного. Административное управление ориентировано прежде всего на обеспечение выполнения установленных требований: составление расписания занятий, распределение учебной нагрузки, контроль посещаемости, выполнение образовательных стандартов и нормативов. В центре внимания находится соблюдение организационного порядка и функционирование образовательной системы как административной структуры.

Социальное управление имеет иную направленность. Его основной целью является изменение социальных практик, формирование внутренней мотивации личности и создание условий, при которых здоровый образ жизни становится элементом повседневной культуры студентов. В этом случае управленческое воздействие осуществляется посредством социальных норм, воспитательной работы, информационной политики, дея-

тельности студенческих объединений, формирования позитивной образовательной среды и развития социальных коммуникаций. Таким образом, управление ориентируется не только на достижение формальных показателей, но и на долгосрочные изменения ценностных установок и моделей поведения обучающихся.

В условиях Республики Каракалпакстан такая трактовка приобретает особую актуальность. Регион характеризуется совокупностью социально-демографических, экологических и экономических факторов, оказывающих влияние на здоровье и образ жизни молодёжи. Поэтому объектом социального управления становится не только физическое развитие студентов, но и создание благоприятной социальной среды, способствующей укреплению здоровья, развитию социальной активности и повышению качества человеческого капитала региона. Соответственно, эффективность управления физическим воспитанием определяется способностью субъектов управления координировать свои действия и обеспечивать устойчивое взаимодействие образовательных, государственных и общественных институтов.

С точки зрения социологии управления, взаимодействие субъектов и объектов представляет собой систему распределённых функций, обеспечивающих устойчивость и воспроизводство практик физической активности студенческой молодёжи. Данные положения целесообразно систематизировать в виде следующей таблицы.

Таблица 1

Субъекты и объекты социального управления физическим воспитанием студентов

Субъекты управления	**Объекты управления**	**Основные механизмы воздействия**
Государственные органы	Государственная политика в сфере физической культуры	Законодательное регулирование, государственные программы
Руководство вуза	Образовательная среда	Организационно-управленческие решения
Кафедра физического воспитания	Учебный процесс	Учебно-методическое обеспечение
Преподаватели	Физическая активность и мотивация студентов	Обучение, воспитание, консультирование

Студенческие спортивные клубы	Социальная активность студентов	Волонтёрские, спортивные и досуговые проекты
Органы студенческого самоуправления	Студенческое сообщество	Самоорганизация, инициативные проекты

Представленная в таблице 1 структура субъектов и объектов социального управления физическим воспитанием студентов позволяет наглядно определить распределение управленческих функций между различными уровнями образовательной и социальной системы. Анализ показывает, что управление физическим воспитанием носит комплексный характер и реализуется через взаимодействие государственных, институциональных и групповых субъектов.

Это, в свою очередь, позволяет перейти к рассмотрению физического воспитания студентов как самостоятельного социального института, функционирующего в системе общественных отношений.

Одним из фундаментальных положений современной социологии является понимание общества как системы взаимосвязанных социальных институтов, обеспечивающих устойчивость общественных отношений, воспроизводство социальных норм и интеграцию личности в общественную жизнь. Именно через деятельность социальных институтов осуществляется регулирование поведения индивидов, передача культурных ценностей, формирование социальных ролей и поддержание общественного порядка. Поэтому анализ системы физического воспитания студентов требует рассмотрения её не только как элемента образовательного процесса, но и как самостоятельного социального института, включённого в общую систему общественного управления.

В классической социологии понятие социального института получило наиболее полное теоретическое развитие в трудах Э. Дюркгейма, М. Вебера и Т. Парсонса. В частности, Э. Дюркгейм рассматривал социальные институты как формы коллективного сознания и механизмы поддержания общественной солидарности и нормативного порядка, обеспечивающие интеграцию индивида в общество и воспроизводство социальной стабильности.

М. Вебер, в свою очередь, анализировал социальные институты через призму рационализации социального действия и легитимности власти, подчеркивая роль устойчивых форм социального поведения и нормативных систем в организации общественной жизни.

Т. Парсонс определял социальные институты как устойчивые структуры, посредством которых общество обеспечивает выполнение основных

функциональных требований системы - социализации, интеграции, адаптации и достижения коллективных целей. В рамках структурно-функционального подхода социальные институты выступают важнейшими механизмами воспроизводства общества, обеспечивая преемственность социальных норм и устойчивость социальных взаимодействий.

С социологической точки зрения физическая культура и спорт обладают всеми признаками социального института. Они характеризуются наличием устойчивой нормативной базы, специализированных организаций, профессионального сообщества, системы подготовки кадров, механизмов социального контроля и общественно признанных ценностей. В системе высшего образования институт физического воспитания выполняет комплекс взаимосвязанных функций: образовательную, социализирующую, воспитательную, интеграционную, оздоровительную и культурную. Через эти функции осуществляется формирование физической культуры личности, воспроизводство ценностей здорового образа жизни и развитие социальной активности студенческой молодёжи.

Институциональный подход позволяет рассматривать физическое воспитание как результат взаимодействия нескольких социальных институтов, каждый из которых выполняет собственные функции в процессе формирования физической культуры студентов.

Рассмотренная институциональная логика позволяет конкретизировать основные социальные институты, участвующие в процессе управления физическим воспитанием студентов, а также определить их ключевые функции. Систематизация данных положений представлена в таблице 2.

Таблица 2

Основные социальные институты, участвующие в управлении физическим

Социальный институт	Основные функции
Государство	Формирование государственной политики, нормативно-правовое регулирование, финансирование, стратегическое планирование
Система высшего образования	Организация образовательного процесса, развитие спортивной инфраструктуры, воспитательная деятельность
Семья	Формирование первичных установок на здоровый образ жизни и физическую активность
Спорт	Развитие спортивной культуры, соревновательной деятельности, социальных ценностей спорта
Студенческое сообщество	Формирование коллективных норм, взаимной поддержки, социальной активности и корпоративной культуры

Представленная система свидетельствует о том, что эффективность физического воспитания определяется не деятельностью отдельного преподавателя или кафедры, а уровнем взаимодействия всех социальных институтов, вовлечённых в процесс социализации молодёжи. Следовательно, управление физическим воспитанием носит межинституциональный характер и требует координации действий государства, образовательных организаций, общественных объединений и самих студентов.

Одним из важнейших механизмов функционирования социальных институтов выступает социальный контроль. В современной социологии данный термин рассматривается как совокупность способов и средств обеспечения соблюдения общественных норм, поддержания социального порядка и предупреждения отклоняющегося поведения. Исторически понятие социального контроля было введено в научный оборот американским социологом Эдвардом Алсвортом Россом, который определял его как систему общественных механизмов, обеспечивающих согласованность поведения членов общества. В классической работе Э. Росса социальный контроль рассматривается как система механизмов поддержания социального порядка и регуляции поведения индивидов. В дальнейшем содержание данной категории было существенно расширено в работах представителей структурного функционализма, теории девиации и современных исследований социального порядка.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Парсонс Т. О социальных системах. -М.: Академический проект, 2002. -С. 17-36.

2. Социальный контроль: Справочник по социальному контролю // https:// onlinelibrary. wiley. com/

3. Афанасьев В.Г. Научное управление обществом. М.: Политиздат, 1973. С. 21-38.

4. Janowitz M. Sociological Theory and Social Control. American Journal of Sociology. 1975 // https://warwick.ac.uk/fac/arts/; Chriss J.J. Social Control. In: The Handbook of Social Control. Wiley, 2018 // https://onlinelibrary.wiley.com

5. Parsons T. The Social System. Glencoe, IL: Free Press, 1951. 575 p. // https://openlibrary.org/books/

6. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. -М.: Канон, 1996. -С. 45-52.

7. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. -М.: ИД ВШЭ, 2016. -С. 78-85.

8. Парсонс Т. Система современных обществ. -М.: Аспект Пресс, 1998. -С. 30-36.

9. Максетов К. Каракалпакский героический эпос и его историко-культурные основы. -Нукус: Каракалпакстан, 1990. -214 с.

10. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. -Л.: Наука, 1974. -728 с.

11. Алламуратов Ж. Устное народное творчество каракалпаков. -Ташкент: Фан, 19

12. Курбанова З.К. Героические мотивы в каракалпакских эпических сказаниях // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. -2019. -№1. -С.33-41.

13. Нуржанов Б. Эпос «Алпамыс» как источник по истории культуры каракалпаков. Нукус: Билим, 2021. 184с.

ISSN 2181-7138

Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

№ 5

Нөкис — 2026

Басып шығыўға жуўапкер:
А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:
А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:
П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: 230105 Нөкис қаласы, Әмир Темур көшеси, 179[a] жай
Тел.: +998 61 224-01-34, факс: ***+998 61 224-23-00***
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz
www.KRTEACH.UZ

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 08.09.2026. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №